

D.J. URAKOV, B.B. XAYNAZAROV, S.N. MADYAROVA

# JAHON SIVILIZATSIYALARI TARIXI



63.3 Yar 7

100 ta

U-62

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY**  
**UNIVERSITETI**

**D.J. Urakov, B.B. Xaynazarov, S.N. Madyarova**

# **JAHON SIVILIZATSIYALARI**

# **TARIXI**

*Darslik*

*Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun*

**Toshkent**  
**"NIF MSH"**  
**2024**

UDK : 377:37.0

KBK: 63.3

J 50

**D.J. Urakov, B.B. Xaynazarov, S.N. Madyarova**  
**Jahon sivilizatsiyalari tarixi. Darslik. – Toshkent:**  
**“NIF MSH”, 2024, 316 b.**

*Oliy o'quv yurtlari tarix fakultetlari talabalari uchun mo'ljallangan ushbu “Jahon sivilizatsiyalari tarixi” darslik Qadimgi Sharqda ilk sivilizatsiyalarining vujudga kelishidan boshlab, zamonaviy mavjud bo'lgan sivilizatsiyalar tarixi bo'yicha ma'lumotlarni beradi. Darslikda sivilizatsiyalar tarixiga oid nazariy yondashuvlar va turli konsepsiyalar tahlil qilinib, jahon tarixshunosligida so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarning umume'tirof etilgan natijalari asosidagi fan bo'yicha innovatsiyalar o'quv jarayoniga joriy etilgan.*

**Taqrizchilar:**

**F. Ismatullayev**


*tarix fanlari nomzodi, dotsent*

**S.I. Gabrielyan**

*tarix fanlari nomzodi, dotsent*

O'zMU Ilmiy Kengashining 2023-yil 28-dekabrda 4-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-785-26-9



© D.J. Urakov, B.B. Xaynazarov, S.N. Madyarova, 2024.

© “NIF MSH”, 2024.

## SO'ZBOSHI

Mustaqillik yillarida Oliy ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Jahon andozalariga mos ravishda Davlat ta'lim standartlari va malaka talablari ishlab chiqildi. Shu jihatdan Oliy ta'limda ilmiy adabiyotlarni yangi avlodini yaratish hozirga qadar dolzarb sanalib, bu borada Vatanimiz olimlari ham qator ilmiy tadqiqotlarni olib borayotganligi tahsinga sazovordir. Shunga qaramay, "Jahon sivilizatsiyalari tarixi" fanidan jahon tarixshunosligida erishilgan yutuqlarni ilmiy muomalaga kiritish borasida qator vazifalarni amalga oshirish talab etilmoqda. Zero, O'zbekiston hududida yashagan xalqlar ham qadimgi davrlardanoq jahon sivilizatsiyaviy jarayonining bevosita ishtirokchisi hisoblanadi. Bu jarayonlarni chuqur anglash uchun umuminsoniyat tamadduni jarayonlarini to'laligicha tushunish talab etiladi.

O'zbekiston Milliy universiteti "Jahon tarixi" kafedrasida jamoasi tomonidan tayyorlangan mazkur darslikda jahon tarixshunosligida so'nggi vaqtda erishilgan yutuqlar va ilmiy bilimlardan keng foydalanildi. Xususan, "Anglo-sakson maktabi", fransuz "Annallar maktabi" va "Berlin akademiyasi" ilmiy maktablari tomonidan tayyorlangan ilmiy materiallar tanqidiy tahlil etildi.

O'n beshta mavzudan iborat "Jahon sivilizatsiyalari tarixi" darsligi sivilizatsiyaviy yondashuv asosida tayyorlangan. Shu bois jahon sivilizatsiyalarini o'rganishning nazariy asoslariga alohida e'tibor qaratilgan. Tarixchi, faylasuf, jamiyatshunoslarning turli yondashuvlarini qiyosiy tahlil etgan holda insoniyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy rivoji bosqichma-bosqich ortib boruvchi zina sifatida tushuntirib beriladi.

Darslikka kiritilgan mavzular doirasida "Jahon sivilizatsiyalari tarixi" fanini o'qitishning maqsad va vazifalari, sivilizatsiyaga doir turli nazariy-metodologik yondashuvlar, qarashlar va konsepsiyalar, ularning bugungi kun tarix fanida tutgan o'rni, qadimgi, o'rta asrlar va hozirgi zamon Sharq sivilizatsiyasining paydo bo'lishi, ularning insoniyat taraqqiyotidagi ahamiyati, G'arb sivilizatsiyasining qadimdan to' bugungi kunga qadar bosib o'tgan yo'li, har bir tarixiy rivojlanish bosqichining o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi.

Darslikda, shuningdek, talabalar bilimni yanada mustahkamlash maqsadida ularning mustaqil ishlashlari uchun mavzular, savol va topshiriqlar, mavzular yuzasidan atama va tushunchalar ham kiritilgan.

Mualliflar jamoasi darslik yuzasidan berilgan fikr-mulohazalar uchun oldindan minnatdorchilik bildiradi.

# 1-MAVZU. "SIVILIZATSIYA" TUSHUNCHASI. UNING TA'RIFI VA O'ZIGA XOS SIFATLARI

## Reja:

1. "Sivilizatsiya" tushunchasining rivoji. Asosiy tushunchalar.
2. Sivilizatsiya rivojlanishining siklik konsepsiyasi.
3. Sivilizatsiyaning inqirozi va yo'q bo'lishlarining sabablari.

## "Sivilizatsiya" tushunchasining rivoji

"Sivilizatsiya" so'zi ilmiy tilda yaqinda paydo bo'lgan. Bu so'zni kim birinchi bo'lib qo'llagani noma'lum, ammo L.Fevr fikricha, bu so'z ilk bor nashrlarda 1766-yildan boshlab uchraydi. Bu so'z paydo bo'lgunga qadar "sivilizatsiyalashuv" fe'li va "sivilizatsiyalashgan" sifatdoshlari qo'llanilgan. XVI asrning oxirida "sivilizatsiya" so'zi "Tajribalar" asari muallifi bo'lgan Mishel Montenga ma'lum bo'ldi. Yarim asrdan so'ng Rene Dekart o'zining "Uslublar haqida mulohazalar" asarida "madaniylashgan" va "yovvoyi" kabi tushunchalarni qarama-qarshi qo'yishni taklif qildi. Qomuslarda "sivilizatsiya" rivojlanish konsepsiyasi bilan birga tasavvur qilingan va ma'rifiy tafakkur ma'nosiga ega bo'lgan. Masalan, Pol-Anri Golbax "Xalqlar va ularga boshchilik qilayotgan daholarning to'liq sivilizatsiya, boshqaruvdagi ijobiy o'zgarishlar va kamchiliklarni bartaraf etish – bularning barchasi faqatgina asrlar davomidagi faoliyat, inson tafakkurining doimiy xatti-harakati, ko'p qirrali ijtimoiy tajribaning natijasidir", deb ta'kidlagan. Shunga ko'ra sivilizatsiya dastlab jarayon sifatida idrok etilgan.

P.Golbaxning fikricha, "Millat tajriba ta'siri ostida sivilizatsiyalashadi". Iqtisodchilardan Adam Smit esa "sivilizatsiya" va "boylik" tushunchalarini bog'lashga intilgan. XVIII asrning oxirida "sivilizatsiya" tushunchasini tanqidiy o'rganilishi kuzatilmaydi. Ko'plab tadqiqotchilar fikricha, "sivilizatsiya" qandaydir ideal bo'lib, ko'plab ma'nolarga ega bo'lgan. "Sivilizatsiya" yaxshi xulq-atvor va o'z-o'zini nazorat qilish bilan tenglashtirilgan hamda "sivilizatsiyalashgan xulq", "sivilizatsiyalashgan inson" kabi tushunchalar mavjud bo'lgan.

Ilk bor mazkur atama bu ma'noda F.Volter asarlarida uchraydi. Ko'plikda esa "sivilizatsiya" so'zi faqatgina XVIII asrdan so'ng, "sivilizatsiya" haqida turli nazariyalar paydo bo'lganidagina qo'llanila boshlandi.

1827-yilda J.Vikoning "Falsafa tamoyillari" va I.G.Gerderning "Insoniyat falsafasi haqidagi mulohazalar" asarlari nashr etildi. Ulardan so'ng F.Gizo insoniyatning umumiy taqdiri mavjudligi haqidagi fikrni olg'a suradi, insoniyat tarixini esa sivilizatsiyaning buyuk tarixi uchun to'plangan material sifatida tushunish mumkin deb, ta'kidlaydi. Uning fikricha, sivilizatsiya ikki tarkibiy qismdan, avvalo, intellektual rivojlanish hamda ijtimoiy rivojlanish darajasidan tashkil topgan. 1877-yilda L.G.Morganning "Qadimgi jamiyat, yoxud varvarlik orqali yovvoyilikdan sivilizatsiyagacha bo'lgan inson taraqqiyoti yo'llarini tadqiq etish" deb nomlangan kitobining nashr etilishi sivilizatsiya so'zining ma'nosini insoniyat rivojlanish bosqichlari tavsifi uchun qo'llash boshlanganligidan darak beradi.

"Sivilizatsiya" va "madaniyat" tushunchalari aloqasining rivoji qiziqarlidir: dastlab bu tushunchalar sinonim sifatida, bir xil ma'noda qo'llanilgan. XX asrda "madaniyat" so'zi xulqning o'zlashtirilgan ko'nikmalari natijasi sifatidagi antropologik tushuncha asta-sekin sivilizatsiya tushunchasiga o'zgargan.

Sivilizatsiya aslida nima? Masalan, "Falsafiy lug'at"ning 5-nashrida: "Sivilizatsiya (lotincha civilis - fuqaroga, davlatga oid) - jamiyatning moddiy va ma'naviy yutuqlarining majmuasi" sifatida tavsif etiladi. P.Sorokinning fikricha, sivilizatsiyalar - bu moddiy madaniyatning biron bir tizimga asoslanmasdan ko'rish uchun qo'yilgan muzeyga o'xshagan ulkan zaxiralaridir.

Ingliz tarixchisi va sotsiologi A.Toynbi esa, sivilizatsiyalar - barcha qismlari o'zaro bog'liq bo'lgan va doimiy o'zaro ta'sirda bo'lgan yagona, yaxlit bo'lgan organizmdir, deb qaraydi. Sivilizatsiya - murakkab tizim bo'lib, faoliyat yuritishning ichki mexanizmiga ega.

Rossiyalik jamiyatshunos L.I.Semennikovaning tavsifi ishchi tavsif sifatida taklif qilinadi, u A.Toynbining quyidagi formulasiga asoslangan: "Sivilizatsiya - asosiy ma'naviy qadriyat va ideallar asosida birlashgan, ijtimoiy-siyosiy tashkilot,

madaniyat, iqtisodda o'ziga xos barqaror belgilarga ega va mazkur jamiyatga mansublikning ruhiy hissiyotiga ega bo'lgan insonlar hamjamiyatidir”.

Sivilizatsiya mohiyatini qanday omillar belgilab beradi? O.Shpenglarning fikricha, sivilizatsiyada asosiysi bu jamiyat uchun xos bo'lgan madaniyatning shakli va uslubidir (Gestalt). Rus faylasufi N.Y.Danilevskiy sivilizatsiya haqida “...asosiysi madaniy-tarixiy tiplarni, ya'ni diniy, ijtimoiy, maishiy, sanoatlashlab chiqarish, siyosiy, ilmiy, badiiy – bir so'z bilan aytganda tarixiy o'ziga xosliklarni ajratishdan iborat bo'lishi lozim”, deb yozadi. Insoniyat tarixi belgi va siymosining betakrorligiga ega bo'lgan ko'plab sivilizatsiyalarga boy bo'lgan. Ba'zi birlari barbod bo'lgan yoki barbod qilingan, ularning qoldiqlarida yangi sivilizatsiyalar paydo bo'lgan.

Sivilizatsiya mavjud bo'lishining davomiyligi qancha bo'lishi mumkin? O.Shpengler va A.Toynbilarining fikricha, sivilizatsiyaning rivojlanish sikli vujudga kelib barbod bo'lguniga qadar deyarli bir ming yilga teng. L.Gumilyovning tadqiqotlarida bu muddat bir yarim ming yilni tashkil qiladi. Belgiyalik olim A.Ketlening fikricha, sivilizatsiyalar hayotining o'rta hisobdagi davomiyligi 185 yildan iborat. Ko'rib turganimizdek, bu boradagi fikrlar turlicha bo'lib, ular nechta va qanday sivilizatsiyalar bo'lganligi haqidagi masalada ham farqlanadi.

N.Y.Danilevskiy o'z tadqiqotlarida 11 ta sivilizatsiya mavjudligini ta'kidlab, ular: misr, ossuriy-bobil-finikiy, xaldey yoki qadimgi somiy, xitoy, hind, eron, yahudiy, yunon, rim, yangi somiy yoki arab, german-roman (yevropa) sivilizatsiyalaridir. Ikki sivilizatsiya – Meksika va Peru sivilizatsiyalari o'z rivojlanishining ilk bosqichida zo'ravonlik sababli barbod bo'lgan.

O.Shpenglarning fikricha, insoniyat tarixida atigi 8 ta, jumladan, Bobil, Misr, Mayya, Antik, Hind, Xitoy, Arab, G'arbiy sivilizatsiyalar bo'lgan. A.Toynbi dastlab 100 tagacha mustaqil sivilizatsiyalar bor, deb hisoblagan. Keyinchalik butun jahon tarixi ustida ish olib borib, olim ularning sonini izchil tarzda, asta-sekin qisqartirdi: dastlab 36 tagacha, keyin 21 tagacha va nihoyat, 13 tagacha. Aslida ularni soni nechta bo'lgan – 100 tami

yoki 13 tami degan savol u qadar muhim emas. Muhimi tahlilning umumiyashtirilgan birligi - sivilizatsiyalarning madaniy-tarixiy tipini ajratishdir.

Sivilizatsiyalar tipini tavsiflash quyidagi belgilarga asoslanib amalga oshiriladi:

- tarixiy-siyosiy taqdir va iqtisodiy rivojlanishning umumiyligi va o'zaro bog'liqligi;
- madaniyatlarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro tobeligi;
- rivojlanish istiqbollari nuqtai nazaridan umumiy manfaat va umumiy vazifalarning mavjudligi.

Bu belgilar asosida sivilizatsiya rivojlanishining uchta tipi aniqlandi: mavjudlikning progressiv bo'lmagan shakllari (Avstraliya aborigenlari, Amerika hindulari, Afrikaning aksariyat qabilalari, Sibir va Shimoliy Yevropaning kichik xalqlari); mavjudlikning siklik rivojlanish shakllari (Sharq mamlakatlari); mavjudlikning progressiv rivojlanish shakllari (Yunon-Rim va zamonaviy Yevropa). Biroq bu yerda Sharq mamlakatlari ham siklik ham progressiv shaklda namoyon bo'lganligini unutmazlik lozim.

Sivilizatsiyalarning kelib chiqishining turli xil versiyalari mavjud: kosmik, diniy, materialistik. Qadimgi jamiyatlar hayotini asosan atrof-muhit belgilaganligi sababli, sivilizatsiyalarning kelib chiqishi muammosini geografik determinizm nazariyasi nuqtai nazaridan, L.I.Mechnikov barcha sivilizatsiyalarni uch turga bo'lgan: daryo, dengiz, okean. Hozirgi kunda bunga qo'shimcha ravishda voha hamda ko'chmanchilar (nomad) sivilizatsiyalari ham kiritilgan. Chunki suv muhiti nafaqat iqtisodiy hayotga ta'sir qilishini, balki siyosiy tizimning o'ziga xos xususiyatlarini tashkil etuvchi odamlar hamkorligi shakllarini ham belgilaydi. Bu holat olimlar tomonidan birinchi sivilizatsiyalar paydo bo'lgan barcha daryolar uchun muhim deb tan olingan.

"Daryo sivilizatsiyasi" tushunchasiga ta'rif XIX asr tarixchilari va arxeologlari tomonidan ilgari surilgan. Bu belgi insoniyat tarixidagi birinchi davlatlarga berilgan. Muntazam ravishda ularning barchasi katta daryolar vodiylarida paydo bo'lgan, chunki o'sha paytdagi odamlar uchun qishloq xo'jaligi juda muhim edi. Shunday qilib, qadimgi Xitoy, Hindiston, Shumer-

Bobil va Misr sivilizatsiyalari haqli ravishda Osiyo va eski dunyoda birlamchi sivilizatsiyalar maqomini oldi. Ularning aholisi omon qolish uchun kurashda birlashishga majbur bo'lib, o'z huquqlarining katta qismini xavfsizlik, tirikchilik evaziga topshirdi – bu siyosiy tuzilishning birinchi tarixiy shakli – Sharqiy despotizmning (yopiq jamiyatning prototipi) paydo bo'lishiga olib keldi. K.Yaspers tasdiqlaydiki, aynan Nil, Dajla va Frot, Hind, Xuanxe vodiylarida sug'orish tizimini tashkil etish va uni tartibga solish vazifasi markazlashuvga, boshqaruv apparati va nihoyat davlat yaratilishiga olib kelgan. Mazkur sivilizatsiyalar iqtisodiyotining asosini qishloq xo'jaligi tashkil etgan. Shahar va aholi punktlarining gullab-yashnashining garovi yer va ekinlar yetishtirish edi. Shuning uchun dastlabki davlatlar ekologiya sharoiti dehqonlarga ko'proq qulaylik yaratgan mintaqalarda paydo bo'lgan.

Geografik determinizm nazariyasi dengiz sivilizatsiyalari hodisasi haqida ko'p narsalarni tushuntiradi. Katta madaniy o'zgarishlar natijasida sharqiy tipdan butunlay farq qiladigan boshqa sivilizatsiya paydo bo'ldi. Bu Yunoniston va Finikiya markazlarida boshlangan aholi sonining o'sishi edi.

Hunarmandchilik ishlab chiqarishi va savdosi qadimgi sivilizatsiyaning keyingi evolyutsiyasi uchun kamida ikkita muhim oqibatlariga olib keldi. Birinchidan, yunonlar demokratik jamiyatning prototipini yaratdilar va atoqli hukmdor Perikl (miloddan avvalgi 494-429-yillar) dastlab mulk huquqi va shaxsiy daxlsizlik huquqini tasdiqladi. Ikkinchidan, erkinlik nafaqat qadimgi yunonlarning ongida hukmron tuyg'uga, balki uning polis fuqarosi sifatidagi haqiqiy holatiga ham aylandi. Shunday qilib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi sharoitida vujudga kelgan Osiyo jamoasi bilan savdo-hunarmandchilik asosida o'sgan qadimgi jamoa ijtimoiy munosabatlarning butunlay boshqacha yo'nalishiga ega edi.

Qadimgi dunyoda Sharqiy Osiyo, Indoneziya, O'rta Osiyo tarixiy maydonlari, shuningdek, kengliklarida ko'chmanchi imperiyalar vujudga kelgan va yo'q bo'lib ketgan buyuk dasht shakllandi. Miloddan avvalgi I ming yillikda yangi dunyoda And va Mezoamerika tarixiy jamoalarini tuzdilar. Shu bilan birga,

ellinistik dunyoning o'limi sivilizatsiya dinamikasining ziddiyatli, murakkab, ma'lum ma'noda yakuniy jarayoni bo'lib, uning chuqur, muhim xususiyatlarini bosqichlar bilan cheklanmagan holda tushunishga olib kelishini ko'rsatdi.

Endi N.Y.Danilevskiy, O.Shpengler, L.N.Gumilyov, A.Toynbi, K.Yaspers va F.Brodel kabi olimlarning konsepsiyalarini batafsil ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu konsepsiyalar u yoki bu sivilizatsiyalarning gullab-yashnashi yoki barbod bo'lishining chuqur sabablarini ochib beradi.

### **Sivilizatsiyalar rivojlanishining davriy (siklik) konsepsiyasi**

Dunyoqarash yo'nalishi sifatida sikl obrazi aftidan barcha uchun qulay va oddiy, sodda bo'lgan kuzatuvlar natijasida paydo bo'lgan bo'lib, bu inson hayotining biologik bir maromdaligi va izchilligi, oy fazalari, dengiz suvining ko'tarilishi va qaytishi, yil fasllarining almashinuvidir. Shuning uchun sikllilikda vafot etib tiriladigan xudolar, dunyoni talofatga uchrab qayta yangilanishi haqidagi afsonalarning mavjud bo'lishi tabiiy hol hisoblanadi. Bunday afsonalar turli xalq va madaniyatlarda mavjud. Masalan, yunonlik Adonis, shumerlik Inanna, misrlik Osiris obrazlarida biz ketish va qaytish, o'lish va qayta tirilishlar holatini ko'ramiz. Hind ta'limotida to'rtta yuga (yuga - davr, payt, vaqtning belgilangan muddati, ajdod-avlodlar) haqida so'z boradi, bu yugalar esa birgalikda maxayugani, ya'ni bitta katta yugani tashkil qiladi.

Dunyoning asosiy unsurlari yoki stixiyalarning siklik o'zaro aylanishlarining tasvirini Geraklitda uchratamiz. U "yer-suv-havo-olov" yo'nalishidagi transformatsiyani "yuqoriga yo'l", aksariyat yo'nalishdagi transformatsiyani esa "quyiga-pastga yo'l" deb atagan. Empedokl tushunchasida barcha narsalar to'rt stixiya, ibtido yoki ildizlardan, ya'ni olov, havo, suv va yerdan iborat. Bu ibtidolarning harakati galma-gal ustuvorlik qiladigan ikki qarama-qarshi kuch - Muhabbat va Nafrat harakatlari bilan belgilanadi. Geraklit izdoshlari "davriylik"ni mantiqiy yakungacha yetkazdilar. Ularning fikricha, koinotda vaqti-vaqti bilan (har 18 000 yoki 10 800 yilda) "umumiy yong'in" yuz

beradi, undan so'ng "namlik davri" keladi, u tufayli "logos"lar - barcha mavjud bo'lganning urug'lari saqlanib qoladi. Yonib kul bo'lgani bilan yangi koinot ushbu urug'lardan unib-o'sib chiqadi.

Aflotun o'z siklik konsepsiyasini koinot-olamning ilohiy to'g'ri bo'lgan va qaytariladigan aylanishi, yong'in va suv toshqinlarni esa alohida insonlarning hayoti va taqdiriga bevosita tobelik bilan bog'laydi. Shu asosda u davlatning to'rtta turi - timokratiya, oligarxiya, demokratiya va tiraniya haqidagi mulohazalarini ilgari suradi. Ammo bu to'rtta turdan tashqari beshinchisi ham bor bo'lib, u Kronosdir (oltin asr). Kronos to'rttadan oldin kelgan davr hisoblanib, bularning hammasi sikl talablariga javob beradi.

Arastu "Metafizika" asarida "Har bir san'at va har bir ta'limot bir necha bora imkoniyat doirasida kashf etilgan va yana yo'q bo'lgan", deb ta'kidlaydi. "Siyosat" asarida u shu fikrini davom ettirib "deyarli barcha narsa oldin ham o'ylangan" deb yozadi. Davlat tuzumlarini asosiy turlarining tasnifini Arastu davriylik asosida tuzadi: aristokratiya-zodagonlar bilan yonmayon bo'lgan monarxiya yoki podsho hokimiyati - politiya-oligarxiya-tiraniya-demokratiya. Qadimgi yunon tarixchisi bo'lgan Polibiy o'zining "Butun jahon tarixi" asarida Aflotun-Arastu konsepsiyasini to'liqlik darajasigacha yetkazdi. Uning fikricha, tarixda hokimiyatning 6 ta shakli doirasimon almashinuvda bir-birini almashtiradi. Navbatdagi talofatdan (suv toshqini, yong'in, vabo va hokazolar) so'ng tirik qolgan insonlar to'planishadi va o'zlaridan bo'lgan eng kuchli va jasurlarga, ya'ni yetakchi, dohiylarga bo'ysunadilar, bu kuch hokimiyatidir. Aql-idrok-tafakkur kuchni o'rnini bosadi va monarxiya podsho davriga aylanadi, u esa o'zining eng buzilgan, aynigan shakliga - tiraniyaga o'tadi (yunonlar ta'birida shunday tasavvur bo'lgan), uning xarobalarida aristokratiya-zodagonlar paydo bo'ladi. Aristokratiya (tabiat qonuniga ko'ra) oligarxiyaga aylanadi. Oligarxiyaga qarshi isyon demokratiyaning mustahkamlanishiga olib keladi, u esa, o'z navbatida, vaqt o'tgani sari tanazzulga yuz tutadi va oxlokratiyaga aylanadi. Namoyon bo'lishning har bir shakli o'z ichida o'zining o'limini ham olib keladi. Doira oxlokratiyada "davlat ijtimoiy hayotining almashinuvi"ni yana boshlash uchun yakunlanadi.

XVIII asr mutafakkiri bo'lgan Jan Batisto Viko siklik konsepsiyani o'rganishni falsafada davom ettirdi va o'z mulohazalarini "faqatgina qilinganni aniq bilish mumkin" degan formulada ifodaladi. Narsa va insonlar ishlarining tartibi va muvofiqligining barchasi ilohiy taqdir, tangri, unda mavjud bo'lgan abadiy ideal tarix tomonidan belgilangan. Bu modelga muvofiq barcha millatlarning tarixi ularning paydo bo'lishi, olg'a surilishi va barbod bo'lishi tarix davrida bo'lib o'tadi. Abadiy ideal tarixga muvofiq barcha elat va millatlar, barcha xalqlar o'z rivojida uch davrni boshdan kechiradi: "Xudolar asri" - "butparast, majusiy insonlar orakullar orqali ilohiy boshqaruvda yashayapmiz, deb o'ylagan davr"; "Qahramonlar asri" - aristokratik-zodagonlar respublikasi davri, bunda qahramonlar o'zlarini plebeylarga qarshi qo'yanlar; "Insonlar asri" - barcha o'z insoniy tabiatiga ko'ra teng ekanligini tan olgan davr. Har bir davr o'z tiliga ega: "Xudolar asri" - ilohiy, maxfiy - iyeroglifik; "Qahramonlar asri" ramziy til: gerblar, metaforalar, qiyoslashlar; "Insonlar asri" - xalq tili, oddiy insonlarning kundalik yumushlari va ehtiyojlari tilidir.

J.Viko fikricha, uchta davrning har bir sikli ertami, kechmi butun ijtimoiy tizimning inqirozi bilan yakun topadi. Bir davrdan boshqa davrga o'tish - albatta, ijtimoiy to'ntarilish orqali bo'ladi. Va bu tartibni o'zgartirish yoki aylanib o'tishga inson qodir emas. Jan Batisto Viko o'zining "Millatlarning umumiy tabiati haqidagi yangi fanning asoslari" deb nomlangan asarida aynan shunday xulosaga keladi.

Madaniy tarixiy sikliklik muammolari va sivilizatsiyalarning turlari tahlilini rus mutafakkirlari ham davom ettirdi. Nikolay Yakovlevich Danilevskiy (1822-1885) "madaniyat hodisalarining makon-zamon lokalizatsiyasi"ning muallifi hisoblanadi. "Rossiya va Yevropa" deb nomlangan kitobida muallif Rossiya va Yevropa o'zaro munosabatlaridagi muammolarni tahlil qilish orqali "madaniy tarixiy tiplar" tuzilmasi va dinamikasi bo'yicha o'z nazariyasini rivojlantirdi.

N.Danilevskiy tarixni qadimgi, o'rta asr va yangiga bo'linishini ham shubhali hisoblagan. Rim, Yunoniston, Hindiston, Misr va boshqa madaniyatlar o'zlarining qadimgi,

o'rta asr va zamonaviy davrlariga ega edilar. Rim imperiyasini milodiy 476-yilda qulashi qadimgi tarixga yakun yasaganligi va o'rta asr davrini boshlanganidan darak beruvchi bo'lib, faqatgina Yevropa uchun ahamiyatga ega edi, ammo Xitoy, Hindiston va insoniyatning qolgan qismi uchun umuman ahamiyatsiz edi.

Demak, sivilizatsiyalarning katta soni mavjud, ularning barchasi birgalikda insoniyatning cheksiz boy tajribasini ifodalaydi. Sivilizatsiyalarning har biri o'z qadriyat va shakllarini vujudga keltiradi, rivojlantiradi, keyin esa ular bilan birgalikda barbod bo'ladi. N.Danilevskiy fikricha, faqatgina bir nechta xalqlar buyuk sivilizatsiyalarni yaratishga muvassar bo'ldilar va shu orqali "madaniy tarixiy tip" bo'la oldilar.

Barcha xalqlarni olim uchta turga ajratadi: buyuk sivilizatsiyalarni va madaniy tarixiy tiplarni yarata olgan tarixning ijobiy bunyodkorlari. Tarixning salbiy bunyodkorlari esa buyuk sivilizatsiyalarni yaratmadilar, ammo qarigan, kuch-quvvatdan qolgan qulayotgan sivilizatsiyalarning vafotiga "ilohiy qamchi" kabi ko'maklashdilar. Nihoyat, ijodiy ruhi biron-bir sababga ko'ra rivojlanishning ilk bosqichida qotib qolgan va o'z sivilizatsiyalarini boyitish maqsadida ijodiy xalqlar tomonidan etnografik materialga aylangan xalqlar.

N.Danilevskiy o'zining "Rossiya va Yevropa" kitobining "Madaniy tarixiy tiplar va ularning harakatlanishi hamda rivojlanishining ba'zi bir qonunlari" deb nomlangan beshinchi bobida madaniy tarixiy tiplarga ko'ra hodisalarni guruhlashtirishdan kelib chiqqan 5 ta tarixiy rivojlanish qonunlarini bayon etadi.

Haqiqatda ham rivojlanishi butun jahon tarixining mazmunini tashkil qilgan 10 ta madaniy-tarixiy tiplardan uchtasi somiy irqining qabilalariga mansubdir va somiy guruhining uchta tilidan biri - xaldey, yahudiy/ivrit va arab bilan tavsiflangan har bir qabila o'ziga xos sivilizatsiyasiga ega bo'lgan. Ma'lum bo'lganidek, tillarning oriy guruhi 7 ta bosh: sanskrit, eron, ellin, lotin, kelt, german va slavyan lingvistik oilalarga bo'linadi. Tillarning bu yetti oilasiga muvofiq bo'lgan qabilalardan 5 tasi: hind, fors, yunon, rim, yoki qadimgi italyan, va eron - o'ziga xos sivilizatsiyalarga rivojlanib yetishgan

madaniy tarixiy tiplardir (bunda kelt qabilasi mustasno, u german roman madaniy tarixiy tipning tarkibiga etnografik material sifatida kirgan).

Tarix va madaniyat faylasuflari qatorida Osvald Shpengler (1880-1936) muhim o‘rin tutadi. Muallif o‘zini sivilizatsiyalarning rivojlanishini tarixiy jarayonini asl ilmiy sxemasini yaratuvchisi deb e‘lon qildi. U “Yevropaning botishi (so‘nishi)” kitobida tarixning mantig‘i bormi? - degan savolni o‘rtaga tashlaydi. O.Shpengler taklif qilgan tarixiy ilmning yangi uslublari qanday ekan, degan savol qo‘yish o‘rinlidir. Muallifning ushbu kitobi rus tilida 1923-yilda “Obraz va voqelik” nomi bilan nashr etildi. O.Shpenglarning asari hech kimni befarq qoldirmadi. Aksincha, uning iste‘dodi o‘quvchiga barcha davrlarning tarixiy voqealari, jumladan, Yunoniston va Xitoyning falsafiy ta‘limotlari, mayya xalqi haqidagi ma‘lumotlar, Yevdoks va Gaus matematikasi, qadimgi Misr me‘morchiligi, flamand maktabi ustalarining rasmlari, Bax fugalari kabi ma‘lumotlarni tahlil etib berganligidir.

O.Shpengler shunday yozadi: “G‘arbning qulashi - sivilizatsiya muammosidir. Bizning oldimizda tarixning eng asosiy savollaridan biri turibdi. Mantiqiy oqibat, har qanday madaniyatning yakuni va tugatilishi kabi tushunilgan sivilizatsiya nima?”. Muallifning fikricha, har qanday madaniyat o‘z xususiy sivilizatsiyasiga ega bo‘lganligi sabab, sivilizatsiya har qanday madaniyatning shak-shubhasiz taqdiridir. “Sivilizatsiya rivojlanishining oxirgi bosqichiga yetgan insonlar qobiliyatli bo‘lgan haddan ziyod sun‘iy holatlar kompleksidir. Sivilizatsiya yakunlanishdir... U, shubhasiz, yakun bo‘lib, unga barcha madaniyatlar chuqur ichki zaruriyat bilan keladilar”, - G‘arbiy Yevropa madaniyatining gullab-yashnashi yakun topdi, deb ta‘kidlayotgan O.Shpenglarning xulosasi aynan shundaydir.

O.Shpengler uchun asosiysi - madaniyatlarning ichki hayoti, shuning uchun o‘xshatish sof tashqi xarakterga ega, chunki rivojlanish siklining faqatgina tashqi chizgilari qiyoslanadi. Olim o‘zining “Bu pessimizm ekanmikan?” asarida “Mening kitobimni hozirgacha deyarli hech kim tushunmadi”, deb yozadi. Bu noto‘g‘ri fikr. Ko‘plab faylasuflar uning nuqtai

nazarini qo'llab-quvvatlaganlar va qo'llab-quvvatlaydilar. Masalan, tarixda ma'no-mazmun yo'qligi haqidagi tezis turli yo'nalishda bo'lgan Sartr, Bart, Nibur, Popper kabi faylasuflarning dunyoqarashining asosini tashkil qiladi. Ularning barchasi tarixiy voqealarning o'zaro bog'liqligini inkor etganlar, ekzistensializm esa hattoki tarixiy fanning obyektivlik uslubini ham inkor etgan. Xaydeggerning fikricha, absurd dunyoga uloqtirilgan inson o'z qarorlari asosida tarixni yaratadi. Demak, ekzistensialistlar va neopozitivistlar uchun tarix obyektiv ma'noga ega emas. Bundan o'zini o'zi inkor etuvchi taraqqiyot g'oyasi kelib chiqadi.

Sivilizatsiyalar rivojlanish muammolarini to'liqroq tushunish uchun L.N.Gumilyovning (1912-1993) passionar konsepsiyasiga to'xtab o'tish maqsadga muvofiqdir. L.Gumilyov konsepsiyasini tushunishning kaliti – etnos tushunchasidir. "Birlamchi etnos paydo bo'layotganda, bu vujudga kelayotgan birlikning tashabbuskorlari o'zlariga faol insonlarni aynan shu belgi asosida tanlaydilar – ular o'zlariga yoqqanlarni jalb etadilar". Shu tarzda Romul va Rem atrofida yetti tepalikda 500 nafar odam birlashdi, bu esa Rimni vujudga keltirdi. Chingizxon atrofida "uzun irodali" insonlar birlashdi. Aynan etnoslar inson va tabiiy muhitning o'zaro ta'siri amalga oshiriladigan fenomenlardir, bu tizimlar biosfera va sotsiosferaning kesishgan nuqtalarida joylashgan. Etnos va uning etnogenezi tabiati L.Gumilyovning fikricha, energetikdir. V.I.Vernadskiy tajribasiga tayangan holda, L.Gumilyov mazkur energiyaning tabiatini jonli moddaning biogeokimyoviy energiyasi (quvvati) o'simliklar fotosintez yo'li bilan to'playdigan, mavjudotlar (hayvonlar) esa oziq-ovqat orqali o'zlashtiradigan energiya, deb tavsiflaydi.

Passionarlik – jonli modda energiyasini inson, u yoki bu etnos a'zosining xarakter va hulqiga o'tkazgan ta'sirining samarasidir. Passionarlik – antiinstinkt, u o'z-o'zini saqlash instinktiga qarshidir. O'zi parvarish qilgan maqsadga erishish uchun passionar shaxs na o'zini, na boshqalarning, hatto, o'z qabiladoshlarining umrini ham ayamaydi. Passionarlikning belgilari – manmanlik, ayyorlik, makkorlik, mag'rurlik va hokazolar hisoblanadi. Passionar shaxslarning soni ko'p emas,

ammo ular etnos rivoji uchun zaruriy bo'lgan inqirozli massani-qismni tashkil qiladilar. Aynan shu energiya madaniy qadriyatlarni yaratish va siyosiy faoliyatni amalga oshirish, kitoblarni yozish, haykallarni yaratish, shaharlarni qurishga sarflanadi. L.Gumilyov fikriga muvofiq passionariyalar taxminan 1 yildan 5 yilgacha davom etadigan "passionar turtki" natijasida paydo bo'ladi.

### **Sivilizatsiyaning inqirozi va so'nishi**

Ingliz tarixchisi va sotsiologi Arnold Toynbi (1899-1975) o'zining "Tarixni anglash" asarida shunday savolni qo'yadi: "Nega ba'zi bir jamiyatlar o'z rivojining ilk bosqichidayoq "harakatsiz bo'ladi", nega sivilizatsiya shakllanmaydi?". Uning fikricha, sivilizatsiya genezisi uchun ikki shart-sharoit, birinchidan, mazkur jamiyatda ijodiy kichiklikning rolini anglash, ikkinchidan, qulay bo'lmagan, ammo qarshi bo'lmagan muhitni mavjudligi talab qilinadi. Sivilizatsiya vujudga kelishi uchun "chaqiriq-savol va javob o'zaro hamkorligi mexanizmi" zarur. Jumladan, mo'tadil noqulay bo'lgan muhit jamiyatga chaqiriq-tahluka soladi, jamiyat esa, ijodiy kichiklik yordamida tahluka-chaqiriqqa munosib va muvaffaqiyatli javob beradi va muammoni hal qiladi. Demak, jamiyat harakatda, sivilizatsiya darajasi o'zgaragan.

A.Toynbi to'rtta sivilizatsiyani ajratib ko'rsatadi: uzoq g'arbiy (Irlandiya), uzoq sharqiy xristian (O'rta Osiyoda - nestorian), Skandinav va Suriya - ularning barchasi o'lik tug'ilgan. Qolgan beshta sivilizatsiya - Polineziya, Eskimos, ko'chmanchi, Sparta va Ottoman-Usmoniy - o'z rivojida qotib qolgan. Nega bunday bo'lgan? Sivilizatsiyaning o'sib rivojlanishi - uning o'zini-o'zi namoyon qilishidir. Ya'ni, dinning qo'pol shakllaridan diniy ong va madaniyatning yuqori, oliy va murakkab shakllariga o'sib borayotgan sivilizatsiya - bu jamiyatning ijtimoiy yaxlitligi va birligidir. Bu jamiyatda ijodiy kichiklikka taqlid qilib jamiyatning katta qismi ergashadi. Bunday jamiyatda sinfiy o'zaro urushlar yo'q, qotib qolgan ijtimoiy farqlar mavjud bo'lmaydi. Bu barqaror yaxlitlik, birlik bo'lib, bu jamiyatda sinfiy kurash, inqiloblar yo'q.

Nega unda sivilizatsiya sinadi, nimaga ular barbod bo'lib tarqab ketadi?

A.Toynbining 12 jildlik "Tarix tadqiqotlari" asarining asosiy g'oyasi – sivilizatsiyalar g'oyasidir. U 32 ta sivilizatsiya, jumladan, 21 ta to'liq rivojlangan sivilizatsiyalarni identifikatsiya qildi – tenglashtirdi. Barcha sivilizatsiyalar individual va o'ziga xosdir. A.Toynbi sivilizatsiyalar rivojlanish mexanizmlarining orasida statika va dinamikani almashinuvi, galma-gal kelish mexanizmini ajratadi va ularni Xitoy ramzlari In va Yan bilan belgilaydi. Chaqiriq (savol-javob) – sivilizatsiyalar rivojining muhim mexanizmlaridan biridir. A.Toynbi shunday yozadi: "Sivilizatsiyalar shiddat tufayli rivojlanadi, u ularni chaqiriqdan javob orqali keyingi chaqiriqqa chorlaydi". Ketish va Kelish mexanizmi sivilizatsiyalarning o'sish bosqichida juda ham muhimdir, bu – o'sish jarayonini tashkil qiluvchi ijodiy aktlarning ikki ritmli mexanizmidir. Bunda butun bir jamiyat va alohida shaxslarning kuch va qobiliyatini to'plash, ichki jihatdan o'zgarish va yangi kuchlar bilan chaqiriqqa – tahlikaga javob berish uchun tarixiy dramaning sahna ortiga chekinishi yuz beradi.

A.Toynbining fikricha, parchalanish mexanizmi tanazzulga uchragan sivilizatsiyaning barbod bo'lishi, ko'pchilikni kamchilikdan yiroqlashish davrida paydo bo'ladi. Muallif sivilizatsiyalarni o'zlari bir-birini tugatadilar, deb hisoblaydilar. Buning tabiatini u uchta sabab bilan tushuntiradi: kichiklikning ijodiy kuchini kamayishi, yo'q bo'lishi; ko'pchilik tomonidan ixtiyoriy taqlid qilishning kamayishi – ikki oldingi sababning oqibati bo'lib, jamiyatdagi ijtimoiy yaxlitlikni yo'qolishiga olib keladi. Sivilizatsiyaning inqirozi jamiyatda ichki barqarorsizlikka, unda ijtimoiy keskinlikni o'sishiga olib keladi. Sivilizatsiyani barbod bo'lish fazasi uchta faza ostiga: sivilizatsiyaning sinishi, uning chirishi hamda yo'q bo'lib ketishiga bo'linadi. Bu asrlar davomida yuz beradi. Masalan, Misr sivilizatsiyasi miloddan avvalgi XVI asrda sinishni boshdan kechirgan bo'lsa, milodning V asrida yo'q bo'ldi. Ikki ming yillik davomida u "qotib qolgan hayot va o'lim" shaklida mavjud bo'lgan. Biroq bu qanchalik davom etmasin, pirovardda hamma sivilizatsiyalarning taqdiri ertami, kech ularni yo'q bo'lib ketishiga olib keladi. Sivilizatsiyalar


barbod bo'lishining tabiati shundan iboratki, ijodiy kichiklik o'z jozibadorligini yo'qotadi va ko'pchilik unga taqlid qilishdan hamda ortidan borishdan voz kechadi. Kichiklik o'zini saqlab qolish uchun kuchdan (davlatdan) foydalanadi, biroq o'zining qotib qolgan qoidalarining quliga aylanadi va o'zini-o'zi o'limga olib keladi.

Ammo bularning barchasi A.Toynbining fikricha - illyuziyadir, aldanish, puch xayoldir. A.Toynbi to'g'ri deb, hisoblagan yagona yo'l - bu "o'zgarish yo'li", maqsad va qadriyatlarni o'ta sezgir "ilohiy podshohlik"ka - "insondan - o'ta qudratli insonga", "yer shahridan - Ilohiy, Samo shahriga" olib o'tishdir. Bular inson va sivilizatsiyaning oxirgi chegarasi, yakunidir.

G'arbda A.Toynbining bu nazariyasini qattiq tanqid qilishdi. Masalan, P. Sorokin unda ikkita asosiy kamchilik, "defekt"ni ko'rdi. Uning fikricha, "genezis - o'sish - barbod bo'lish" liniyasi asosida sivilizatsiyalarning rivojlanishi - bu soddalashtirilgan yondashuvdir. Bu birinchisidir va Sorokin qarshi chiqqan ikkinchi narsa - bu sivilizatsiyani iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy munosabatlarning yig'indisi sifatida emas, balki tizim sifatida o'rganishdir. A.Toynbi tirik deb faqat bitta sivilizatsiya - G'arb sivilizatsiyasini hisoblaydi, qolgan barchalari - o'lik yoki yarim o'likdir. Bir qator sivilizatsiyalar uchun u "qotib qolgan sivilizatsiya" atamasidan foydalanadi. Masalan, A.Toynbining fikricha Xitoy bir ming yilga, Misr - ikki ming yilga qotib qolgan. Rim esa, boshidan oxirigacha "chirish" yo'lini bosib o'tgan. Demak, yer kurrasida ko'plab madaniyatlar mavjud va ularning har biri butun jahon tarixiga betakror qiyofa berishi mumkin.

Jahon sivilizatsiyalarining rivojlanish muammolari bir qator konsepsiyalarning mazmunini tashkil qiladi, bu konsepsiyalar qatoriga linear, spiralsimon, kovariant ("markaziy davr"), postmodernistik, utopik kabi konsepsiyalar kiradi.

Linear konsepsiyaga asosan jamiyat mukammalligining izchil o'sishi bilan insoniyat eskidan yangiga, soddadan murakkabga, quyidan yuqoriga rivojlanadi. Bu konsepsiya antik davr va o'rta asrlarda ma'lum bo'lmagan, u niderland (XVI asrning oxiri), ingliz (XVII asr) va fransuz (XVIII asr) inqiloblari davriga to'g'ri kelgan



inson emansipatsiyasi uchun XVI-XVIII asrlargi kurash jarayonida paydo bo'lgan. Insoniyat taraqqiyoti inson tafakkurining rivoji sifatida tushunilgan, bu haqda Volter, Didro, Dalamber va Kondorse kabilar yozgan. Unda tafakkurni ijtimoiy taraqqiyotning dvigateli sifatida tushunilgan, taraqqiyot esa rivojlanishning umumiy qonunlariga bo'ysungan holda qonuniy hodisa hisoblangan. Masalan, fransuz mutafakkiri Mari Jan Antuan Nikola Kondorse sivilizatsiya taraqqiyotini 10 ta tarixiy davrga bo'lgan. U tafakkurning erkinligi, oliy kashfiyotlar va yorqin kelajakka ishongan.

Taraqqiyotning dinamikasi - sotsiolog Ogyust Kontning (1798-1857) asosiy g'oyasi bo'lib, u ijtimoiy dinamikaning uch bosqichini ajratib ko'rsatgan: birinchi bosqichda insonlar dunyoni o'zlashtirib bitta Xudoga keladilar; ikkinchi bosqichda - asosiy mohiyat, mazmun bo'lgan tabiat buyukligini idrok etish; uchinchi bosqichda - tabiiy qonunlarni anglash va tushunish. Bosqichdan bosqichga - inson mukammallashadi.

Keyinchalik O.Kontning g'oyalarini Gerbert Spenser (1820-1903) rivojlantirdi va universal umumlashtirishni amalga oshirdi. Murakkablashtirish, xilma-xillikni ko'payishi qonuni, G.Spenserning fikricha, jamiyat hayotiy faoliyatining barcha soha va tarmoqlarini qamrab oladi; o'zgarishlar zanjiri veyer (yelpig'ich) kabi biron-bir kashfiyotni qamrab oladi va chegaralar bilmay o'z ichiga yangi va yana yangi unsurlarni tortib oladi. Taraqqiyot insonning irodasiga bo'ysunmagan "ezgu zaruriyat", degan xulosani beradi.

XX asrda mutafakkirlarning taraqqiyotga bo'lgan qiziqishi saqlanib qolgan. Masalan, amerikalik siyosatshunos Frensis Fukuyama "Tarixning yakuni?" degan savolni qo'ydi. U zamonaviy dunyoni ikki qismga ajratdi: tarix va posttarix (tarixdan so'nggi, keyin), buning eng chekkasida uchinchi dunyo mamlakatlari turadi. Uning fikricha, tarixdan so'nggi davr Yevropa mamlakatlari, Yaponiya, Shimoliy Amerika bilan, ya'ni industrial rivojlangan mamlakatlar bilan cheklangan. Asrlar davomida liberalizm g'alaba qozondi. G'arbiy sivilizatsiya muvaffaqiyatlariga umuminsoniy qadriyatlar maqomi berilmoqda, ammo dunyoda islom, konfutsiychilik, induizm, yapon, pravoslav slavyan, lotin

amerika, afrika sivilizatsiyalari mavjud, shuning uchun g'arbiy sivilizatsiyaning yutuqlari avtomatik tarzda boshqa sivilizatsiyalarning zaminiga o'tkazilishi mumkin emas. Bundan tashqari liberal demokratiya jinoyat, ishsizlik, giyohvandlik kabi ko'plab insoniy muammolarni hali ham hal qilmadi. Demak, g'arbiy sivilizatsiya universal maqomga ega bo'lishi mumkin emas.

Jahon sivilizatsiyaning "markaziy davri"ni kovariant model deb ham atashadi, u Karl Yaspersning (1883-1969) "Haqiqat, ozodlik va tinchlik", "Davrning ruhiy vaziyati", "Tarixning ibtidosi va uning maqsadi" asarlarida taqdim etilgan. Nemis faylasufi fikricha tarixiy jarayon ibtido va intiho bilan chegaralangan, bu chegaralar ichida esa tarix to'rtta katta davr - tarixdan oldingi davr, qadimgi madaniyatlar, "markaziy davr" davri va hozirgi davrimizga mansub bo'lgan texnika asriga bo'linadi. Bu davrlarni K.Yaspers sxema tarzida taqdim etib, uni "Yer kurrasidagi insoniyatning yagona dunyosi" deb belgiladi. Uning fikricha, insoniyatni umumiy ibtidosi mavjud va "tarixdan oldingi" davr bilan bog'liq. Aynan o'sha paytda Ikki daryo oralig'ida, Hind, Xuanxe, Nil vodiylarida qadimgi sivilizatsiyalar shakllangan. Keyinchalik esa buyuk "o'qli davr" (miloddan avvalgi 800-200-yillar) - (bu haqda quyiroqda so'z boradi) - Amerika, Yevropa, Rossiya, Islom mamlakatlari, Afrikagacha ham zamonaviy sivilizatsiyalariga asos solinadi. Bu yetarli darajada bo'lgan sxema jahon sivilizatsiyalari rivojlanishining tarixiy jarayonini yaxshiroq tasavvur qilish imkoniyatini beradi. K.Yaspers butun tarixiy jarayon tarixdan oldingi davr va butunjahon tarixiga bo'linadi, degan xulosaga keladi. "Paytning tubsiz chuqurliklariga ko'milgan tarixdan oldingi davr u haqda bizda ma'lumotlar kamligi sabab tinch, sokin, anglab yetib bo'lmaydigan chuqur ma'noga boy uzoqlik sifatida namoyon bo'ladi", -deb yozadi K.Yaspers.

Muallif "jahon tarixining o'qini" miloddan avvalgi 800-200-yillar o'rtasidagi davr bilan belgilaydi. K.Yaspersning fikricha bu paytda ko'plab ajoyib va qiziq narsalar bo'lgan. O'sha davrda Xitoyda Konfutsiy va Lao-szi, mutafakkirlar Mo-szi, Chjuan-szi, Le-szi va ko'plab boshqa mutafakkirlar yashagan, Xitoy falsafasining barcha yo'nalishlari paydo bo'lgan. Hindistonda

Upanishadalar, Budda ham paydo bo'lgan. Eronda va O'rta Osiyoda Zardusht yovuzlik bilan kurash olib borgan. Falastinda payg'ambarlar - Iliya, Isayya, Iyeremiya va boshqalar faoliyat yuritdilar. Yunonistonda Gomer ijod qilgan. Bu Parmenid, Geraklit, Aflotun kabi faylasuflar, buyuk tragiklar, Fukidid va Arximed kabilarning davri edi. Voqelikni falsafiy idrok etishning barcha imkoniyatlari, skeptitsizm, sofistika va nigilizmga qadar bo'lganlari o'rganib chiqildi. Inson o'z ichidagi voqelikni va o'z chegaralarini anglaydi, uning oldida dunyoning dahshati, vahimasi va o'zining kuchsizligi ochiladi.

### **Postmodernistik konsepsiyasi**

Modernizmning ibtidosi antiklikda, yunon-rim dunyosidadir. Qadimgi Yunoniston modernizmga asosiy tayanch tushunchalarini berdi: birinchidan, qadimgi yunon madaniyati inson tafakkuri tushunchasini ishlab chiqdi, uning yordamida qadimgi ellinlar mavjud bo'lgan barcha narsalarda mohiyatni topganlar, masalan, Xaosdan Kosmosga o'tish har tomonlama barcha narsani qamrab tushuntirib berildi; ikkinchidan, Qadimgi Yunoniston "gumanizm" va "demokratiya" kabi tushunchalarni dunyoga berdi. Keyinroq qadimgi Rim modernizmni yetishishiga ko'maklashdi, u dunyoga "qadimgi Rim huquqi"ni berdi. Modernizmning ildizlari, albatta, Renessans va Reformatsiya, XVI-XVII asr ilmiy inqilobi, Ma'rifatparvarlik va nihoyat, yangi Yevropa ratsionalligida ham mavjud. Natijada tafakkur sababli bizning hayotimiz qulayroq bo'ldi, uy-joylarimiz esa funksional maqsadga muvofiqlikning namunasi bo'ldi, inson esa subatom dunyosiga kirdi. Biroq yakunda inson hayoti yanada beqaror, omonat bo'lib qoldi: Osvensim, Xirosima, Nagasaki, Chernobil, Fukusima - bular ham tafakkurning mevasidir.

Postmodernizmning falsafiy asoslari bo'yicha eng mashhur mutaxassislardan deb Jan-Fransua Liotar hisoblanadi. Postmodernizm bir butun universal bilimning o'rniga qism, farq, plyuralizmni qo'yadi. Bunday nuqtai nazar barcha narsani tanib bo'lmaydigan holatgacha o'zgartirib yuboradi: narsa oddiy tushunchadagi narsa bo'lmay qoladi, u ko'plab chiziq'larga bo'linib

ketadi; individ va ijtimoiy guruhlar ham tabiatiga ko'ra turli va farqli bo'lgan chiziqlardan iborat.

## **Sharq fenomeni**

Sivilizatsiyaning sharqiy turi qadim zamonda paydo bo'lgan, ammo Sharq sivilizatsiyasining asosiy xususiyatlari, avvalambor, Hindiston va Xitoyda shakllanib, mumtoz qiyofaga ega bo'ldi. Sharq xalqlarining madaniyat va dini chambarchas bog'liq holda bir-birini boyitib rivojlangan. Masalan, Hindistonning o'ziga xos raqs dramasi – gigaku Janubiy Xitoydagi U podshohligiga kirib kelgan, u yerdan esa Koreyaga o'tgan. VI asrda buddaviylik tarqalishi bilan raqs dramasi Yaponiyada ham paydo bo'ldi, bu yerda u gogaku – “Go musiqasi” nomi bilan tarqaldi. Xitoy orqali Yaponiyaga raqs tomoshasi – bugaku ham kirib kelgan. Yapon san'atshunosi Noma Seyroku VI asrda Yaponiyaga ko'chib kelgan U shoh sulolasining a'zolari yapon zaminida keyinchalik o'zgarib ketgan musiqa asboblari va niqoblarini olib kelganlar. Ba'zi bir niqoblarni yaponlar Seylon, Hindiston, Hindixitoy, Yavadan o'zlashtirganlar. Iba Takasi, Yamane Gindzi va bular kabi bir qator yapon musiqashunoslar fikricha, qadimgi yaponlarning musiqa tovushlarining shirasi, ohangi Uzoq Sharqda istiqomat qiluvchi ayn, tungus va boshqa xalqlarning musiqa ohanglariga yaqindir. Lyuy Xitoy musiqa tizimi Yaponiyaga VI asrda Xitoy falsafasi va adabiyoti bilan birgalikda kirib keldi. Yapon tovushlar qatorining tuzilmasi uni qadimgi Misr va qadimgi Yunoniston bilan yaqinlashtirish imkoniyatini berdi. Qadimgi yapon va qadimgi yunon tillarida ichki musiqali urg'uli she'riyatning mavjudligi, hattoki turli sharoitlarda paydo bo'lib, rivojlanganligiga qaramasdan, tuzilmasi bo'yicha bir xil bo'lgan tovush qatorlarini paydo bo'lishiga olib keldi.

Sharqda jamiyatlarni mavjudligining maqsadi qandaydir oliy ilohiy idealga qarab harakatlanish va yaqinlashishdir. Hayotning o'zi esa cheksiz marotaba takrorlanib, qaytarilib, insonlar, ham xudolar ishtirok etadigan kosmogonik va diniy tomosha sifatida idrok etiladi. Sharq xalqlarining eng qimmatli qadriyati muayyan maqsadlarni amalga oshirish emas, bosh qadriyat – bu oliy

muqaddas ma'no-mazmunni anglashdir. Ma'naviy barkamollikka intilish, diniy izlanishlarning astoydilligi buddaviy Hindiston uchun xosdir.

Xitoy konfutsiychiligi ijtimoiy idealni – sof axloq, insonparvarlik, burchning sohibi bo'lgan beg'araz xolis ritsar deb belgilab berdi. Sharqda yer hukmronlari ilohiylashtirilib, g'ayritabiiy xususiyatlarga ega deb tan olingan. Sharq jamiyatlari kollektivizm tamoyillarida bunyod etilgan. Shaxsiylik, xususiylik deyarli rivojlanmagan, shaxsiy manfaatlar to'liqligicha jamoaga bo'ysungan. Sharq jamiyati vertikal xarakterdagi aloqalarning alohida o'ziga xos turida tuzilgan edi. Sharq mamlakatlarida rivojlanish sikllar bilan boradi. Ammo bunday sekin, siklik rivojlanishga qaramay jamiyat yuqori rivojlangan ilm-fan, madaniyat, falsafa, nozik nafis san'at, dunyoni lol qoldiruvchi kashfiyotlar va boy ma'naviy hayotga ega edi. Keyinroq sivilizatsiyaning mazkur turi eng qadimgi madaniyatga ega bo'lgan Xitoy, Hindiston va Yaponiya kabi davlatlar misolida batafsil o'rganiladi.

### **Muhokama uchun savollar**

1. "Sivilizatsiya" atamasining tarixiy va zamonaviy ta'rifi qanday?
2. Sivilizatsiyaning leanar, siklik, postmodernistik konsepsiyalarining mohiyati nimalardan iborat?
3. N.Y.Danilevskiyning fikricha, "sivilizatsiyalarning madaniy tarixiy turlari" nimani anglatadi?
4. O.Shpengler nima sababdan madaniyat sivilizatsiya bilan yakun topadi deb hisoblaydi?
5. A.Toynbi sivilizatsiyalarning barbod va yo'q bo'lishining sabablarini nimalarda ko'radi?
6. Sivilizatsiyaning texnogen va informatsion konsepsiyalari (U.Rostou, D.Bella, S.Xantington, F.Fukuyama va boshq.)da qanday qarashlar ilgari surilgan?

## 2-MAVZU. QADIMGI MESOPOTAMIYA SIVILIZATSIYASI

### Reja:

1. Qadimgi Mesopotamiya.
2. Sivilizatsiyaga o'tish yo'lida.
3. Qadimgi yodgorliklarning sirlari.

### Qadimgi Mesopotamiya

Dunyodagi ilk sivilizatsiya sifatida qadimgi Mesopotamiyadagi Shumer sivilizatsiyasi tan olinadi. Zamonaviy Shumer qachonlardir insoniyatning ilk sivilizatsiyasi gullab-yashnagan joyga umuman o'xshamaydi. Bu Bag'doddan janubga to Fors ko'rfazigacha bo'lgan yerlarni qamrab olgan keng joy, bir xil tekislikdir. Bu yer suv tufayli vujudga kelgan, chunki uning zamini Dajla va Frot daryolarining mavsumiy toshqinlari olib kelgan balchiq loy bilan yaratilgan. Bu yerdagi quruvchilar qurilishda na tosh, na daraxtdan foydalana olganlar. Bahorda yomg'irlar tufayli tekislik maysa bilan burkangan, yoz olti oy davom etib, havo harorati +52° darajagacha ko'tarilgan. XIX asrning mashhur ingliz arxeologi Ostin Genri Leyyard: "Sahro sahrodir: qiziquvchanlikning o'rniga ehtirom hissiyoti keladi, chunki bo'shliq bu tafakkurni yengillashtirish, umidga bo'lgan yo'l, o'tmish haqidagi qissadir", deb ta'kidlaydi.

Hozirgi kunda qo'ng'ir rang bo'lib, qurib ketgan tekisliklar o'tmishda juda ham serhosil bo'lgan. Bu yerda irrigatsiya qadimdan shakllangan, kanal, hovuz, ariqlarning tizimi oziq-ovqatning yetarli darajada ta'minlab bergan, u esa shaharlarni paydo bo'lishining dastlabki shartidir. Shumer yerining gullab-yashnashi shu qadar boy va lol qoldiruvchi ediki, Injilda yerdagi jannat Edem haqidagi afsonaga sabab bo'lgan. Edem qayerda bo'lgan? An'analar uni Mesopotamiyada bo'lgan, deb ta'kidlashadi, ba'zi bir olimlar u Eronning janubida joylashgan deb, isbotlashga harakat qiladilar. Ammo Nippurning xarobalaridagi yodgorlikda Shumer afsonasi va Injil tarixi o'rtasidagi aloqani aks ettiruvchi matn topilgan. Unda na kasallik, na o'limni bilmagan sof va yorug' yer haqida gap ketadi. Bu podshohlikda suv xudosi irodasi bilan chiroyli, go'zal bog'lar o'sishi uchun sof, musaffo suv oqqan. Shumer tilida qovurg'a "ti" so'zi bilan

ataladi va qovurg'ani davolagan iloh "ninti" deb nomlana boshlandi, uni "qovurg'aning xonimi" kabi va "hayot hadya etuvchi xonim" deb tarjima qilish mumkin. Bu so'z o'yini qadimgi yahudiy tiliga tarjima qilinganda yo'qolib qoladi, biroq qovurg'a Edem bog'i haqidagi tarixga insoniyatning onasi Momo Havo obrazi - "hayot hadya etuvchi xonim" - bilan bog'liq ravishda kirib keldi. Qiziqarlisi, bu yodgorlikda Edem va Odam so'zlari bor. Edem so'zi yovvoyi, ishlov berilmagan tekislik ma'nosida kelsa, Odam so'zi tekislikda yashash joyi ma'nosini anglatadi. Besh kitobning birinchisi bo'lgan "Borliq" kitobida "Edemdan jannatga suv yetkazish uchun daryo oqib chiqar edi, keyinchalik esa u to'rtta daryoga bo'linar edi", deb aytiladi. To'rt daryodan biri Frot, ikkinchisi Dajla, ammo qolgan ikki daryo Fisona va Tixonaning qayerda joylashganligi haqidagi bahslar olimlarni boshi berk ko'chaga olib kirar edi.



**Shumer barelyefi**

AQShning Missuri shtatidagi janubi-g'arbiy universitetdan bo'lgan Yuris Zarine ismli olim ekspeditsiyalar natijasida hozirda Karun nomli daryo Eronda boshlanib, Fors ko'rfaziga oqadi va bu daryo aynan o'sha Tixondir, Saudiya Arabistoni sahrosidagi qurib qolgan daryo o'zani esa bir paytlari Fison daryosi edi, degan xulosaga keldi. Keyinroq koinotdan olingan Saudiya Arabistonining rasmi bularning barchasini tasdiqladi. Shumerda miloddan avvalgi V

ming yillikda odamlar o'zlarining tarixida ilk bor yashash vositasi sifatida o'simlik va hayvonot ozig'iga nisbatan o'z ehtiyojlarini qondirish uchun kamroq sa'y-harakatlar qildilar. Qishloq xo'jaligi bilan band bo'lgan aholi o'zi va oilasiga keraklikdan ko'ra, ko'proq ishlab chiqarishni o'rgandi va u o'zidan ortib qolgan mahsulotini qo'shnilari bilan bo'lishar edi. Ular esa o'z navbatida, boshqa mashg'ulotlar bilan: hunarmandchilik, ya'ni kulolchilik va metall bilan ishlash, dunyodagi birinchi byurokratiya, ya'ni ma'muriy va xudolarga sig'inish kabi ishlar bilan band edilar.

Shu tarzda sivilizatsiya vujudga keldi, biroq bozorlari mahsulotlarga to'la, go'zal va ulkan ehromli boy shaharlar qishloq aholisini o'ziga tobora tortib oldi. Natijada yer maydonlarining hosildorligi tobora pasaydi, suv yerning tuzini yuvib chiqib ketar va yerning serhosilligi pasayar edi. Miloddan avvalgi II ming yillikka kelib, Shumer kuchsizlandi, xalqining tili iste'moldan chiqdi. Ammo Shumer madaniyati izsiz yo'qolmadi, u Bobil sivilizatsiyasi asosiga aylandi, Bobil sivilizatsiyasi Shumer hududini ham meros qilib oldi. Yanada yoshroq bo'lgan sivilizatsiyalar Ossuriya, Fors va Bobil haqidagi xotiralar yunon tarixchilari Gerodot va Ksenofontning asarlari va Injilda saqlanib qolgan.

### **Sivilizatsiyaga o'tish**

Shumerlar o'z kelib chiqishlarini quyidagicha tushunar edilar: dastlab Eridu shahri bo'lgan, bu Mesopotamiyaning qachondir botqoqqa aylangan janubiy qismida qadimgi sivilizatsiyaning tug'ilish joyi, ammo Shumer eposi uni umuman boshqacha tasvirlaydi. Miloddan avvalgi II ming yillikka mansub yozuvlarda "qamish hali o'sib chiqmadi. Daraxt hali yaratilmadi. Uy hali qurilmadi. Shahar hali barpo etilmadi", deb yozilgan. Eriduning xarobalari Frotidan g'arbda topilgan. Bu yerda qadimiylikning bittagina yodgorligi zikkurat – ehrom minorasi ko'rinib turadi. Fuad Safar va Seton Leylod ismli arxeologlar Eriduda keng miqyosli qazilmalarni amalga oshirgan. Ularni Shumer haqida Eriduning tashlandiq zikkurati, chuchuk suv xudosining ilohiy uyi haqidagi hamda shahar buyuk suv toshqinidan oldingi davrda mavjud bo'lganligi haqidagi afsonalar o'ziga tortdi. Yettinchi zikkurat

xarobalariga yetib kelgandan so'ng arxeologlar yoshi taxminan olti ming yil bo'lgan mingta qabrdan iborat qabriston topdilar, bundan tashqari bu yerda sopol, shaxsiy buyumlar, oziq-ovqat bor edi. Ekspeditsiya birini ustiga biri qurilgan 12 ta ehrom topdi. Qadimda tosh noyob bo'lganligi sababli uy-joylar loy bilan ishlov berilgan qamishlardan qurilar edi. Bundan tashqari, o'roq, ketmon, tesha hamda sodda qo'l tegirmonlari topildi. Bu odamlar sodda, ammo ajoyib nafis sopolni yaratardilar, unga qora bo'yoq yordamida ajoyib gullar chizilgan, olovda ishlov berilgandan so'ng mahsulot yashil tusga kirgan. Tabiiy boyliklar go'yo jannatga o'xshar edi: baliq, ov mahsulotlari, mevalar doimo dasturxonda edi. Bug'doy va arpa yetishtirililar, undan tashqari chorvachilik bilan ham shug'ullanishgan.

Keyinchalik boshqa arxeologlar 600 ga yaqin sopol yozuvli yodgorliklarni topdilar, ular turli qazilmalardan topilgan bo'lib, miloddan avvalgi 3300-yilga oid, piktogramma va ramzlar tushirilgan edi. Uruk shahrining (bu shahar hozir ham bor) aholisi sivilizatsiyaga qarab ulkan qadam tashladilar: ma'muriy va savdo ishlarini olib borish vositasini yaratdilar, misrliklardan 300 yil oldin shumerliklar yozuvni ixtiro qildilar. Shumer sivilizatsiyasi qachon paydo bo'lganini hech kim bilmaydi, ammo arxeologlar uning kelib chiqish sirini biroz ochib berdilar. Kembrij universitetining olimi Joan Oats Choga Mametsini tepaligida qazish ishlarini olib borib, u yerdan shahar kvartallari hamda ustunli uylar xarobalarini topishga muvaffaq bo'ldi.

Shumer afsonasida mahluq irqi haqida hikoya qilinadi, bular yarim inson, yarim baliq bo'lib, Shumer shaharlarining aholisini yozuv, qishloq xo'jalik, metalga ishlov berish bilan tanishtirgan. Afsonada Shumerlar bu kashfiyotlardan lol qolganligi haqida gapiriladi. Shumerlardan kam bo'lmagan darajada tarixchilar ham lol qoldilar. Chunki aynan shu yerda dunyoning birinchi shaharlari paydo bo'ldi. Yer aholisining aksariyati g'or va qo'pol kulbalarda yashagan, tirikchilik uchun o'rmonlardan har xil narsalarni yig'ib yashagan bir paytda Shumer shaharlarining fuqarolari diniy va siyosiy elita tomonidan boshqarilgan, aniq sinflarga bo'lingan holda rivojlanayotgan jamiyatda yashagan. Ular soliq to'lab, sud qarorlarini

qabul qilganlar, katta irrigatsion loyihalarni amalga oshirib ajoyib binolarni barpo etganlar.

San'at ham tobora realistik bo'lib rivojlangan. Ilk Shumer adabiyoti o'z poema va afsonalari bilan katta adabiyotning, jumladan, Yunoniston mumtoz afsonalari va Injil tarixlarining yaratilishidan oldin vujudga kelgan. Yuqorida ta'kidlangan topilmalarning barchasi sivilizatsiyaning muhim komponenti hisoblangan.

### **Qadimgi yodgorliklarning sirlari**

Saqlashga olingan yoki sotib olingan tovarlarning hisob-kitobini yurgizishga bo'lgan ehtiyoj yozuvning paydo bo'lishiga olib keldi, yozuv miloddan avvalgi 3300-yilda paydo bo'ldi. Uning ilk namunalari don, pivo, chorva kabi tovarlarning hisobidan iborat edi. Narsalar hattotlar tomonidan piktogrammalar ko'rinishida mohirona tasvirlanib, kichkina loydan yasalgan to'rtburchak shaklidagi buyumlarda yozilar edi. Yozuv tizimi rivojlangani sari murakkab tushunchalar belgilar uyg'unligi yordamida ifodalana boshladi. Masalan, bosh va kosaning tasviri ovqat yeyish ma'nosini anglatgan. Asta-sekin piktogrammalar tobora mavhumlashib, vaqt o'tgani sari bu belgilar yordamida nafaqat buyum va g'oyalar, balki tovushlarni ham ifoda eta boshladilar.

Shumerlar buyuk quruvchi edilar, ularga tosh va yog'och yetishmas edi, shuning uchun oftobda kuydirilgan loydan yasalgan g'ishtlar yordamida qurilish olib borardilar. Binolarni suv ta'siridan himoyalash uchun binolar devorining sirtini qoplar, loydan konuslar yasab, ularni olovda toblab, bo'yab, devorlarga o'rnatar edilar, bu dunyodagi ilk mozaika hisoblangan. Minglab bunday konuslar bizning davrgacha saqlanib qolgan, Uruk shahri gullab-yashnagan paytda shumerlik rassomlar ajoyib asarlarni yaratgan bo'lib, toshdan o'yilgan va ba'zida chig'anoqlar hamda yarim qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan buyumlar qadimgi ijodkorlarning yuqori darajadagi san'atidan darak beradi. Uruk shahri IV ming yillikdagi Mesopotamiyaning eng yirik shahri bo'lib, dunyodagi eng katta shahar ham hisoblangan. "Gilgamesh" eposida Uruk 3 kvadrat milni egallagani haqida so'z yuritiladi, bu maydonning 3/1 shaharga

tegishli bo'lsa, 3/1 qismida palma daraxtlari, qolgan maydonini esa g'isht karyerlari egallagan. Shumer tilining yozuvi shu qadar murakkab ediki, Shumer aholisining faqatgina kichik qismi bu yozuvga ega edi. Bugungi kunda bu yozuv 250 nafar mutaxassisga ma'lum, ammo Mesopotamiyaning tadqiq etilishida yetakchi bo'lgan Pensilvaniya universiteti 1976-yildan boshlab, 27 mingta yozuv ustida ish olib bormoqda. Milliondan ziyod kartochkalar tuzildi, ularni kompyuterlashtirishdi va Shumer ramzli yozuvlar ma'nosining 18 ta jildlik lug'ati yaratildi. Birinchi jild 248 betdan iborat bo'lib, 1984-yilda nashr qilindi, ikkinchisi, 1999-yilda yaratildi. Mazkur yozuvlar atigi 800 ta ramz belgi bo'lgani bilan, ular ko'p ma'nolidir, bu esa ma'lum qiyinchiliklarni vujudga keltiradi.

Miloddan avvalgi IV ming yillikka kelib janubiy Mesopotamiya butun qadimgi Yaqin Sharq bo'yicha savdo yo'llariga asos soldilar, bu yo'llar Eron platosidan janubiy Iroq orqali janubiy Turkiyaga olib borar edi. Janubiy Mesopotamiyaning ta'sir doirasi Misr chegaralarigacha yetib borgan, Suriyada ham Mesopotamiyaning ta'siri kuchli bo'lgan, aynan Suriyadan qurilish uchun yog'och va metall sotib olinar edi. Uruk shahri hududi kengayib borib, miloddan avvalgi IV ming yillikning oxiriga kelib uning hududi har qanday boshqa shaharga ko'ra 2 barobar katta edi. Shuningdek, o'sha vaqtda Eridu, Nippur kabi shaharlar ham mavjud bo'lib, u yerdan topilgan minglab yozuv tushirilgan sopol taxtachalar ta'lim, tibbiyot va huquq, matematika kabi fanlar holati haqida ham hikoya qiladi.

Buyuk amerikalik numerolog Syumeel Nol Kramer Nippur sopol taxtachalarning maxsus tadqiqini amalga oshirdi va buning natijasida insoniyat tarixidagi ilk voqea - 39 ta voqealarning matnlarini nashr etdi. Unda maktabda ilk bor olmani archilishi va huquqbuzarlikdan tortib, birinchi tibbiy ma'lumotnoma va dekorativ bog'dorchilikning birinchi tajribasi yoritilgan. "Ota va bola"lar muammosi bugungi kungidek, to'rt ming yil avval ham dolzarb edi. Kramer topilmalarida ota va quloqsiz o'g'ilning dialogidan bir parcha keltiradi. Otasi o'g'lidan "Qayerda bo'lding" deb so'raydi, o'g'li "hech qayerda" deb javob beradi. "Agar sen hech qayerda bo'lmagan bo'lsang, demak sen hech nima bilan shug'ullanmaysan, maktabga bor, maktabda ustozing oldida tur va vazifangni gapirib ber, sening katta akang senga yangi taxtacha yozib bersin, vazifani

bajarganingdan so'ng, sinf sardori oldida hisobot berganingdan keyin yonimga qayt va ko'chalarda yurma, nima deganimni tushundingmi?"

Shumer akademik ta'limi qat'iy va zerikarli edi. "Butun kun o'qituvchi yoki "katta aka"lar tomonidan jazo olishni kutib o'tar edi. S.N.Kramer uncha katta bo'lmagan loy taxtachani tarjima qilishga muvaffaq bo'ldi, unda shumerlik shifokor terapevt o'z retseptlarini yozgan edi. Shumerlik shifokorlar oddiy mineral, hayvon, o'simliklardan olgan dorilarni qo'llar edilar. Xlorli natriy (tuz) va kaliy nitrati (selitra) ko'plab retseptlarda uchraydi. Bundan tashqari ilonlar terisi va toshbaqaning qobig'i ham mavjud. Ko'p dorilar o'simliklardan tayyorlangan bo'lib, ulardan qilingan turli kremlar tashqi qo'llash uchun ishlatilsa, vino, sharob yoki pivoda eritib tindirilgan o'simliklar ichki davo uchun qo'llanilar edi.

Agarda Nippur Shumerning eng katta ta'lim markazi - ilohiy shahri bo'lgan bo'lsa, Kish butun Shumerni birlashtirgan birinchi shahar davlat edi. Ammo Gilgamesh (Shumerda miloddan avvalgi 2500-yillarga kelib ilohiylashtirilgan qahramon, uning jasorati keyinchalik Babil adabiyotida tasvirlanib, ulug'lashtirilgan) boshqaruvi ostida bo'lgan Uruk Kishdan hokimiyatni tortib oldi. Keyinroq Uruk shahridan shimoliy-sharq tarafga 35 mil uzoqlikda joylashgan Lagash shahri yirik shahar davlatga aylandi, tez orada uning rahbari bo'lgan Ennatun o'z hukmronligini butun Shumerga tarqatdi, bunda u Uruk, Ur, Kish, Mari va hattoki, Eronning markazigacha bo'lgan hududlarda g'alaba qozondi. Sargon Akkad podshohi davrida Mesopotamiyaning shahar davlatlari dunyodagi ilk imperiyaga birlashdi, bu miloddan avvalgi 2330-yilda sodir bo'ldi va o'rtadagi urush va janjallar o'tmishda qoldi. Sargonning merosxo'rlari ko'p edi, Sargon o'zi esa Shumer emas, balki akkadlik edi, ya'ni somiy qabilalarining avlodidan bo'lgan. Bugungi kunda somiy tillari oilasiga arab, efiopiya va qadimgi yahudiy tili kiradi, bular shumer tilini ma'muriy yozuvlar yuritishda almashtirgan akkad tilining uzoq qarindoshidir. Akkad tilidan Sargon ishlari yozib olinib, Akkadda Sargon dunyodagi ilk muntazam armiyaga boshchilik qilar edi, armiya 5400 ta askardan iborat bo'lib, kamonlar bilan qurollangan yengil piyodani tashkil qilar, ko'p sonli aravalar tez

yurar hisoblangan. Piyodalar esa hujum va mudofaaning sir-asrorlarini yaxshi bilar edilar.



**Kish shahridan topilgan loy taxtacha - yer yuzidagi eng qadimgi yozma manba**

Akkad yangi poytaxtga aylanib, Sargon zabt etgan podshohlklardan soliq oladigan imperiyaning markaziga aylandi. Sargon ko'plab podshohlklardan kemalarni qabul qilib, o'z qo'shinlarini markaziy Anatoliya (hozirgi zamonaviy Turkiya)ga, Krit oroli va noma'lum "Qo'rg'oshin mamlakati"ga yuborar edi. Shumerning qadimgi shaharlarida Sargon o'z hokimiyatini Shumer va Akkadlarning diniy an'alariga mohirona singdira oldi. Uning qizi (Sargon unga shumercha Enxeduanna ismini bergan) Urdagi oyga sig'inishning bosh kohiniga aylandi. Ona tili bo'lmagan Shumer tilida u bexato gapirib, ehrom madhiyalarini ustakorlik bilan yozar edi. Uning tasviri va ismi tushirilgan plita ham topilgan. Biroq Shumer xudolari bilan aloqalari va ko'plab zobitlari borligiga qaramasdan, Sargonning o'g'illari Rimush va Manishtusu (keyinchalik bular o'ldirilgan) hukmronlik paytida noroziliklar isyonga aylanib ketdi. Bu isyonni Sargonning nabirasi Naram-Suen bostirdi. "Akkadning qarg'ishi" deb nomlangan epik poemada Naram-Suen dunyoning to'rt tomonining ilohiy xudosi unvonini olib, xudolarning qahriga uchradi va o'z imperiyasini barbod qildi: yerda ocharchilik hukmronlik qilib, qaroqchilar ko'paydi, Akkad bo'shab qolganligi hikoya qilinadi.

Naram-Suenning o'g'li Sharkaliy Sharri otasidan keyin yana 25 yil hukmronlik qildi, biroq ko'plab isyonlar hamda Erondan yovvoyi gutey qabilalarining hujumi imperiyani barbod qildi. Sharkaliy Sharrining vafotidan so'ng taxminan miloddan avvalgi 2193-yilda imperiya yo'q bo'ldi va anarxiya hukmronlik qila boshladi. Gutey qo'shinlari bu yerga hujum qildilar, Akkad taslim bo'ldi, uning xalqi tarqalib ketdi.

Hozirgi paytgacha shaharning qayerda joylashganligi ham aniqlanmagan, ammo 1974-yilda italiyalik arxeolog Suriyada qazilmalarni boshlab, 20 mingta sopol taxtacha topdi, bu kutubxona mazkur sivilizatsiya haqida bizga to'liq ma'lumot berdi, chunki bunga qadar ular haqida hech qanday ma'lumot yo'q edi. Yangi kashfiyotlar qadimgi Yaqin Sharqdagi hayot avval tasavvur qilingandan ko'ra ham murakkabroq va boyroq ekanligini ko'rsatdi. Yozuvli taxtachalarda ifodali matal va maqollar, qarg'ish va hazillarning kichik namunalari keltirilgan. Misol tariqasida ba'zilarini aytib o'tamiz: "qarz olish sevgi bilan shug'ullanish kabi osondir, lekin qarzni qaytarish homilani ko'tarib yurishdek qiyindir", "qadimgi xarobalarga bor va u yerlarda sayr qil: oddiy va buyuklarning bosh chanoqlarini tomosha qil, ulardan qay birlari gunohkorlarga, qay birlari esa beayblilarga tegishlidir?", "o'z raqibingga iblisni qaytarma, o'z raqibingga adolatli bo'l, ezgulik qil. Hayotingni har kunida yaxshi bo'l", "shoshilib aytgan so'zlar haqida keyinroq afsus chekish mumkin".

Matnlar o'qilganidan so'ng hamma hayratda qoldi, bu topilmalarga qadar uchinchi ming yillikdagi Suriyani o'rganish lozim deb, hisoblashmagan, ushbu matnlarning o'qish natijasida Ebla nomli shahar - davlatda 260 mingta aholi bo'lgani, shaharning o'zida 22 ming odam yashagani aniq bo'ldi. Ularga 11170 ta kasbi ma'mur bo'lganlar boshchilik qilar edi, bu ma'murlardan 4700 tasi shaharda joylashgan, to'rttasi saroyda, qolganlari boshqa joylarda ishlagan. Bu ma'murlar rivojlangan sanoat iqtisodini boshqarib, bu iqtisodda metall va matolarni ishlab chiqarish va eksport ustuvorlik qilar edi. Hisob-kitob, sarf-xarajat, daromad taxtachalarida Eblaning tovarlarini Frotning yuqori oqimidagi Maridan tortib, Dajladagi Ossuriyaning kelgusi poytaxti Ossurgacha va Misrgacha bo'lgan hududdagi 200 ta geografik joylarga yuborilganligi ma'lum bo'ldi.

Biroq ushbu boy shahar Akkad imperiyasining qudratiga qarshi chiqa olmagan va miloddan avvalgi 2275-yilda yo'q qilingan. Sargon askarlari tomonidan o't qo'yilgan shahar yonib kul bo'ldi, ammo taxtachalar saqlanib qoldi. Podshohlarning Shumer ro'yxatida gutey o'rdalarining 21 ta hokimi sanab o'tilgan, bu ro'yxat 100 yil uchun tuzilgan bo'lib, uning asosida hokimlar barqaror hukmronlik qilmaganligi haqida xulosa qilish mumkin. Aftidan, guteylarning soni ko'p bo'lmagan, shuning uchun urbanistik sivilizatsiya ularning ta'siriga duch kelmagan.




**Podsho Xammurapi qonunlarni quyosh xudosi Shamashdan olmoqda.  
Miloddan avvalgi XVIII asrga tegishli relief**

Shumer siyosiy qudrati Lagashdan 50 mil janubiy-g'arbda joylashgan qadimgi Uruk shahrida tiklandi. Miloddan avvalgi 2120-yilda Urukda Utuxengal ismli podshoh taxtga o'tirdi, u Gutey hukmronligini yo'q qildi. Bu podshohning buyruqlariga hech kim qarshi chiqmasa-da, ammo u ko'p payt hukmronlik qilmadi, uning vafot etishining sabablari sirlidir. Uning o'rniga taxtga Urnammu o'tirib, "Urning 3-sulolasi deb nomlangan" davr boshlandi. Urnammu

buyuk quruvchi edi, to'rt ming yillik g'ishtlarning aksariyatida uning tamg'asi bor. Poytaxtni yangi katta devor bilan o'rab, yangi kanallarni barpo etdi, ehromlarni qurdi va ta'mirladi. Urnammuning asosiy xizmati - Shumer huquqining tiklanishidir. Bitiklarda shunday yozilgan: "bosh askar, Urning podshohi Urnammu, shunday qildi, Shumer va Akkadning podshohi yerda adolatni o'rnatdi, suiste'mol, zulm, kelishmovchiliklarni yo'q qildi, yetimlarni boylardan, bevalarni mulkdorlardan himoyaladi". Urnammuning qarorlari kompensatsiya tamoyiliga asoslangan - kumush bilan to'lov jismoniy jazoni o'rnini bosar edi. Boshqa odamni oyog'idan mahrum qilgan kumush bilan tovon to'lar edi. Urnammuning o'zi tizimning farovonligi va gullab-yashnashini ko'rmadi: 18 yil hukmronlik qilganidan so'ng jangda vafot etdi. O'g'li Shulgi 48 yil hukmronlik qildi, uning hukmronlik davri haqida 30 mingta sopol taxtacha saqlanib qolgan.

Asl Shumer zaminidagi har bir shahar-davlatdagi provinsiyalar harbiy boshliq, katta ofitser, odatda, podshohning qarindoshi tomonidan boshqarilar edi, bu ofitser bevosita podshohga hisobot berar edi. Davlatning poydevori byurakratiya edi. Shumer tizimida "E-duba" - hattotlar maktabi muhim o'rinni egallagan edi. Jumladan, bir shumer topishmog'ida shunday deyiladi: "unga ko'zi yopiq kirib, undan ko'zi ochiq chiqadi". Aynan shu maktabning bitiruvchilari dunyodagi eng murakkab til bo'lgan shumer tilini o'rganish bilan bir qatorda davlat boshqaruvi sirlaridan voqif bo'lar, bu jihat Shumerning barbod bo'lish paytini yaqinlashtirar edi. Suriya va Arabistonning amoriy qabilalari, sivilizatsiyadan xabari yo'q ko'chmanchilari, "donni bilmaydigan, uyni bilmaydigan, shaharni bilmaydigan" xalq shumerning barbod bo'lishini jadallashtirdi. Sharqiy chegaralardan Elamiylar hujum qildi. Shusuening o'g'li Ibi-Suen qashshoqlashayotgan davlatning taxtida o'tirar edi. Tarixda mazkur podsho va uning yordamchilari o'rtasidagi yozuv saqlanib qolgan, bu yozuvlar imperiyaning barbod bo'lishidan guvohlik beradi: narxlar 60 barobar oshgan, oziq-ovqat mahsulotlari yetishmas, amoriy qabilalari hujumi kuchayib borayotgan edi.

Miloddan avvalgi 2004-yilda amoriylar qabilasi qadimgi Ur shahrini egallab oldilar, Ibi-Suen o'z kunlarini Elamda asir sifatida o'tkazdi. Shumerlik shoir barbod bo'lgan Ur shahrining ilohi va



himoyachisi bo'lgan Naimning ayoli Nilgavsga murojaat etib, shunday deydi: "Oh, qudratli ayol, shahring barbod bo'ldi, sen uning egasi emassan, sening xalqing qilichdan o'tkazildi, sen unga xonim emassan, sening ko'z yoshing g'alati ko'z yosh, sening yering yig'lamayapti, sening uying tor-mor qilindi, qalbing qanday chidadi, ehroming bo'lgan Ur shahri ko'klarga sovurildi".

Amoriylar Shumerga bostirib kelib, uning madaniyati ta'sirida bo'ldilar, o'z navbatida, ular buyuk Bobil sivilizatsiyasi paydo bo'lishiga ko'maklashdilar. Shumer sivilizatsiyasidan Bobil sivilizatsiyasiga o'tishda Shumer an'analari asrlar davomida Ossuriya va Bobilga o'z ta'sirini ko'rsatdi, ammo oxirida Shumer unutildi, faqatgina 4 ming yil o'tgandan keyin Shumerning avvalgi qudratini arxeologlar qaytardi. Endilikda Ur shahrining shoiri tili bilan aytganda: "shahrim sen talon-taroj qilingan bo'lsangda, noming hali ham mavjud".

Yo'q bo'lgan sivilizatsiyaning ko'p sonli Panteoni shuni ko'rsatadiki, barcha narsa toki musiqa, haykaltaroshlikdan tortib, kasallik va hosilgacha, hattoki sezib bo'lmaydigan donolik, sadoqat kabi narsalar Shumerda ilohiy kuchdan faoliyat yuritgan.



Nineviya

Shumerda asosan, 3 ta xudo – An - samolarni yaratuvchisi, Enlil - havo yaratuvchisi, Enki - suv yaratuvchisi – xudolar iyerarxiyasining boshida turgan. Bundan tashqari hosil va urushlarning ilohi bo'lgan Inaniya ham Shumerda muhim bo'lgan. Odamlar ilohlardan qo'rqib yashaganlar, ular ilohlardan himoya va rahm topishga intilganlar, shuning uchun ilohlarga atab, oziq-ovqat, kiyim, ichimlik haqida qayg'urganlar. O'rta Yer dengiz hududidagi o'rmonlardan keltirilgan iforlarni tarqatib Shumer aholisi ilohlar yashaydigan ehromlardagi marosimlarda ishtirok etganlar. Ilohlarni yasatib, yedirib-ichirib, ularga qurbonlik keltirganlar. Ehromlarni barpo etish podshohlarning muhim majburiyatlaridan biri edi, ajoyib ehromlarni barpo etgan hokimlar bu bilan mag'rurlanar edilar. Shumerlar ehromlarni qurib, ilohlar uyini samoga yaqinroq joylashtirganlar, vaqt o'tgani sari bitta ehrom ustiga boshqa ehrom barpo etilgan, bularning barchasi muhandislik san'atining yutug'i edi.

### **Muhokama uchun savollar**

1. Qadimgi Sharq mamlakatlarining ijtimoiy va siyosiy jihatdan o'ziga xosligi, ularning Antik jamiyatdan farqli jihatlari nimalarda o'z aksini topgan?
2. Qadimgi Sharq mamlakatlari uchun buyuk daryo magistrallari qanday ahamiyat kasb etgan?
3. Qadimgi Sharq dunyosining tabiiy shart-sharoitlarining asosiy tiplarini sanab bering.
4. Nima sababdan Shumer yerdagi birinchi sivilizatsiya hisoblanadi? Shumer shaharlarining o'ziga xosligi nimadan iborat?
5. Ikki daryo oralig'ining qaysi hududida shumerlarning qadimgi manzilgohlari o'rnashgan edi?
6. Irrigatsiya qurilishlari bilan ishlab chiqarish kuchlarini o'sishi o'rtasida qanday aloqa bo'lishi mumkin?
7. Qadimgi Shumer va Akkad davlatlaridagi qishloq aholisining asosiy mashg'ulotlari haqida nimalarni bilasiz?
8. Xammurapi va uning qonunlarining Qadimgi Mesopotamiya tarixida tutgan o'rni qanday bo'lgan?

### **3-MAVZU. QADIMGI MISR SIVILIZATSIYASI**

#### **Reja:**

1. Sivilizatsiyaning paydo bo'lishi.
2. Exnatonning diniy islohoti.
3. Misr sivilizatsiyasining o'ziga xosligi.

#### **Sivilizatsiyaning paydo bo'lishi**

Misr sivilizatsiyasi nafaqat eng qadimgi, balki eng uzoq muddat davom etgan sivilizatsiyalardan biridir. Buning sababi, avvalambor, mamlakatning boshqa davlat va imperiyalardan uzoqroqda bo'lib, alohida joylashuvida edi. Ikki tomonidan sahro bilan chegaralangan Misr tashqaridan hech qanday ta'sir va aralashuvsiz Nil daryosining serhosil vodiysida rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Papirusning uzun novdasi kabi, Misr Nil chegarasidan janubdan shimolgacha, ya'ni O'rta Yer dengiziga tutashgan joyida 1120 km gacha cho'zilgan. Nilning toshqinlari bu daryoning ziroatchilarga tuhfasini bo'lib, har yili toshqin serhosil loyni ziroatchilarning yeriga olib kelar, bu esa ularning ongida hayotning muntazamligi va o'zgarmasligi hissini vujudga keltirar edi. Bu hodisa Misrning qadimgi nomida ham o'z aksini topgan. "Ta Kemet" – qora yer degan ma'noni anglatib, suv bergan afzallikni ta'kidlaydi. Tarixning barcha davrida aholisi 5 milliondan ziyod bo'lmagan Misr xalqi yerda o'zini tirik xudo deb hisoblagan hokimlarning hukmronligi ostida yashagan. Mamlakatga hukmronlik qilgan podshoh yoki fir'avnlarni shu qadar ko'p sonli ediki, ular haqida ismdan boshqa hech narsa noma'lum, chunki ularning yodgorliklari va qonunlari ko'p asrlar oldin yo'q bo'lgan. Misr haqida so'z yuritganda, tarixchilar uning yilnomasini podshohlarning sulolasiga ko'ra, amalga oshiradilar.

1. Ilk sulola davri o'z ichiga miloddan avvalgi 3000-2575-yillarni qamrab oladi. Misr sivilizatsiyasi o'z tarixiy ildizlarini qadimgi asrlardan, ya'ni miloddan avvalgi IX ming yillikdan boshlaydi. Ovchilarning ko'chmanchi qabilalari doimo Nil daryosi atrofida bo'lganlar, chunki Iroqdagi yerlar quyoshning qattiq qizishi natijasida sahroga aylantirilgan edi. Miloddan avvalgi V ming yillikka kelib bu yerda 2 ta aniq chegaralangan birlashmalar – quyi

Misr va yuqori Misr vujudga keladi. Miloddan avvalgi III ming yilda yuqori Misr o'z shimoliy qo'shnisini zabt etdi, 2 ta hududni birlashtirdi va shu yo'sinda, birinchi sulolaga asos soldi. Buyuklik va afsonalar bilan o'ralgan bu ilk davrga mansub bo'lgan fir'avnlr osmondan yerga tushgan ilohlar sifatida ehtirom va hurmat qilinganlar. Uchinchi sulola davrida Joser o'zining zinopoyali piramidasini barpo etadi, bu Misr yerida qurilgan gigant haykallar, monumentlar ro'yxatida birinchisi bo'ldi.

2. Qadimgi podshohlik miloddan avvalgi 2648-yildan boshlab, 2250-yilgacha bo'lgan davrda gullab-yashnagan. To'rtinchi sulola davrida Misr madaniyati farovonlikka erishgan. Bu barqaror va osuda hayotning davri bo'lib, Misr tarixida yangi davr – qadimgi podshohlik davrini boshlab bergan. Giza piramidalari va Sfinks o'sha davrning mislsiz arxitektura yodgorliklari edi. Bu davrda san'at va savdo gullab-yashnadi, zodagonlar foydalanadigan iyeroglif asosida yozuv rivojlandi. 5-sulola davrida fir'avnlr ta'sirini pasaytirgan quyoshga sig'inish kuchayadi, so'ngra 6-sulolaning yakuniga kelib, qadimgi podshohlik o'zaro urushayotgan bir qator knyazliklarga (nomlar) bo'linib ketadi. Shuni ta'kidlash lozimki, qadimgi Misr tarixida bir necha o'tish davrlari bo'lgan.

3. Birinchi o'tish davri miloddan avvalgi 2134-yildan 2050-yilgacha bo'lgan davrni qamrab olgan, bu paytda fir'avnlr kuchsiz hokimiyatga ega bo'lgan hamda o'zaro urushlar esa Misrni kuchsizlantirgan.

4. O'rta podshohlik miloddan avvalgi 2040-1783-yillarni o'z ichiga oladi. Bu paytda Misrni birlashtirgan Fivalik fir'avn (9-sulolaga mansub bo'lgan) Nebxepetra Mentuxotpe o'rta podshohlik davrini e'lon qildi. Bu davrning podshohi mansabdorlar tomonidan qo'llab-quvvatlanib, mahalliy hokimlarning hukumatini deyarli yo'q qildi. O'z navbatida mahalliy hokimlar ham aholi ehtiyoji haqida qayg'ura boshladilar, sun'iy irrigatsiya yo'li bilan haydov yerlarining minglab akrlarini o'zlashtirdilar. San'at yanada gullab-yashnaydi, xudolar orasida birinchi o'ringa yer osti podshohligining hukmroni Osiris qo'yildi, unga sig'inish butun Misr bo'yicha tarqaldi. Ra-quyosh xudosa sig'inish ham ommaviylichiga qoladi.

5. Ikkinchi o'tish davri miloddan avvalgi 1640-1550-yillar hisoblanib, bu vaqtda noma'lum sabablarga ko'ra, o'rta podshohlik

barbod bo'ladi va Misr yana siyosiy tarqoqlikka sho'ng'idi, taxt qo'ldan-qo'lga o'tadi. Bu davrda Delta hududini egallab olgan falastinlik Giksos qabilalari 15-sulolaga asos soladilar, bu sulola butun mamlakat ustidan o'z hokimiyatini o'rnatadi. Fivaliklarning 17-sulolasi ularga urush e'lon qilib, o'sha davrning eng yangi quroli bo'lgan arava va otlardan foydalanib Deltani o'zga yerliklarning zulmidan ozod qiladi va shuning natijasida Misr tarixida yangi davr – yangi podshohlikni e'lon qiladi.

6. Yangi podshohlik miloddan avvalgi 1550-1070-yillarni o'z ichiga oladi. Sharqdan mamlakatga o'lja qilib olingan buyumlar va asirlar keladi, Misr yana gullab-yashnayotgan va ochiq jamiyatga aylandi. Fir'avn Tutanaxamonning maqbarasidan topilgan boyliklar barchani lol qoldirdi. Tutanaxamon hukmronlik qilgan davrda san'at yanada yuksaldi, uning davrida erishilgan yutuqlarning aksariyati Fiva ilohi Amonga bag'ishlangan edi.

7. Uchinchi o'tish davri miloddan avvalgi 1070-712 yillarni o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, u davrda mamlakatda hukumatning inqirozi boshlanadi, shimol va sharqdan esa Falastin qabilalari Misrga kirib keladi. Aholi qirg'inlar ostida qoladi, Misr ikkiga bo'linib ketadi. Harbiylar kohinlar hukumatini qo'lga olib, yuqori Misrda taxtga ega bo'ladi, Deltada esa savdogar fir'avnlarning sulolasi hukmronlik qiladi. Keyin Misr Liviya (Meshauashi) sulolasi qo'lga o'tadi, bu sulola hukumatni Nubiyalik harbiylar tortib olmagunga qadar boshqargan. Yangi sulolaning fir'avnlari o'z tojlarida Nubiya va Misr ustidan birlashgan hukmronlik ramzi bo'lgan ikki qavatlik urey taqishar edi.

8. So'nggi davr miloddan avvalgi 664-332-yillarni o'z ichiga oladi. Miloddan avvalgi VII asrda Misrga ossuriyaliklar hujum qiladi, Misrning shaharlari barbod bo'lib, talon-taroj qilinadi. Faqatgina 26-sulola hukmronligi tinchlikning qisqa davri bo'lib, miloddan avvalgi 525-yilda Forslar Misrga hujum qilib, uni o'z provinsiyalariga aylantirdilar va 27-sulolaga asos soldilar.

Oxirgi mustaqil fir'avnlr 28-30-sulolalardir, ammo forslar yana kuchli zarba berib, Misrning mustaqilligini tamoman yo'q qildi. Ammo shunday qudratli forslar davlati ham Aleksandr Makedonskiy qo'shinlarining zarbasi ostida barbod bo'ladi. U miloddan avvalgi 332-yilda Fors davlati va Misrni zabt etib, buyuk Misr sivilizatsiyasi

tarixidagi oxirgi sahifani ochadi. Mamlakat miloddan avvalgi 30-yilda Avgustning zarbasi ostida taslim bo'lganida Misr sulolalarining hukmronligi yakun topadi. Misr Rimning provinsiyasiga aylanib, sahroning qumlari ostida bir vaqtlar qudratli bo'lgan sivilizatsiyaning tarixiy yodgorliklari asta-sekin yo'q bo'ldi. Hattoki, bu xalqning tili ham yer yuzidan tamoman yo'q bo'ldi. Barbod bo'lganidan so'ng ko'plab asrlar mobaynida qadimgi Misr sirli mamlakat bo'lib qoldi. Qadimgi Yunoniston va Rim davridan boshlab, XIX asrga qadar ko'p mamlakatlardan kelgan sayyohlar yodgorliklarning kattaligi va buyukligiga lol qolgan, ammo ulardagi yozuvlarni o'qishga qodir bo'lmaganlar. 1798-yilda Napoleon Bonapartning Misr kompaniyasi davrida Rozetta toshi stelli topilgan bo'lib, unda 3 ta matn parallel tarzda yozilgan. Ularning bittasi piktogramma usulida, ikkinchisi demotik yozuv (Misr yozuvining stenografiya usuli), uchinchisi yunon tilidagi yozuv edi. Aynan shu yozuvlar qadimgi Misr belgilarini tushunishga kalit bo'ldi. Bu hujjat paydo bo'lganidan so'ng qadimgi misrliklar yana "gapirishni" boshladilar va ularning yozuvi deshifrovka qilingani sari bu millat o'zining buyukligi va go'zalligini ochib berdi. Misr iyeroglifik yozuvining kodini Fransiyaning buyuk iste'dodli olimi J.F.Shampolyon 31 yoshida ochib berdi.

Dunyoda yo'q bo'lib ketgan sivilizatsiyalarning yodgorliklari ichida qadimgi podshohlikning Misr piramidalari kabi ilohiy qo'rquvni beradigan, shu darajadagi sirli bo'lgan yodgorliklari topilmasa kerak. Arablarning maqolida shunday deyiladi: "Odam vaqtdan qo'rqadi, vaqt esa piramidalardan". Piramidalar fir'avnlr hukmronligi davrida qadimgi mo'jizalardan biri hisoblanar edi. Yangi podshohlik davridayoq (miloddan avvalgi 1550-1070-yillar), misrliklar Giza va boshqa yerdagi piramidalarni ziyorat qilib, ancha avval bo'lgan podshohlarga hurmatlarini ko'rsatib, bu ulkan binolarning qadimiyligiga lol qolganlar. Bunday "sayyoh"lardan biri o'z ismini Axmos Iptaxning o'g'li deb yozgan, u Sakkaradagi zinapoyalik piramidani miloddan avvalgi 1600-yilda ziyorat qilgan va piramidaning toshiga yodgorlik "go'yoki unda samolarning o'zi yashaydigandek" ko'rinadi, deb yozadi. 400 yildan so'ng esa, boshqa bir sayyoh Chenro va Temorsetning o'g'li Xednox zinapoyali piramidani aylanib, mazza qilganliklari haqida yozadi va xudolardan

o'zlariga "barcha ilohlarga xizmat qilish uchun uzoq umr va baxtli sokin qarilikdan keyin munosib dafn etilishlarini" so'rab yozuv qoldirgan.

Qadimgi Misrda piramida va ularning tarixlariga fir'avnlr orasida uzoq umr ko'rgan va o'z ishlari bilan obro' va shuhratga erishgan Ramzes II ning to'rtinchi o'g'li merosxo'r shahzoda Kemvaset qiziqqan. Ramzes II ning hukmronlik davriga qadar (miloddan avvalgi 1290-1224-yillar) piramidalar XIII asr oldin mavjud edi. Kembaset otasining duosini olib, dunyodagi birinchi arxeolog va misrshunos bo'ldi, u piramidalarni restavratsiya qilib, Misr moddiy-madaniyatining ko'plab buyumlarini kashf etdi va identifikatsiya qildi. Ularning barchasiga muvofiq yorliqlar yozdi, keyinchalik esa bu yorliqlar dunyo muzeylari tomonidan keng ishlatildi. Uning topilmalari orasida katta piramida barpo etilishiga sababchi bo'lgan va buyruq bergan fir'avn Xufu (Xeops)ning o'g'li bo'lgan Kavabadaning haykali mashhurdir. Shahzoda san'atning bu asari bilan shu qadar ta'sirlangan va lol qolganki, bu haykalni o'z uyiga Memfisga olib borishga buyruq bergan. Uning qoldiqlari aynan shu joydan oradan 3200 yil o'tgandan so'ng 1908-yilda ikkinchi marotaba angliyalik arxeolog Jeyms Edvard Kvibel tomonidan topilgan.

Memfis Misrning qadimgi poytaxti bo'lib, hozirgi Qohiradan janubga 32 km masofada Nilning g'arbiy sohilida joylashgan. Harbiy qo'mondon Mina (Menes) tomonidan barpo etilgan Memfis ulkan metropoliyaga aylandi, unda 50 ming aholi yashab va mehnat qilgan, oilalar xom g'ishtdan barpo etilgan 2-3 qavatli uylarda yashagan. Bu yerda, asosan, mehnatkash xalq istiqomat qilgan: mohirona tayyorlangan mebel, oltin va yarim qimmatbaho toshlardan zargarlik buyumlari, harbiy arava, qalqon, nayza va boshqa qurollarni tayyorlovchi usta hunarmandlar yashagan. Memfis arablar Misrni egallab olib, o'zining yangi poytaxti Qohirani barpo etishga qadar farovon bo'lgan.

Bugungi kunda Memfisdan qolgan barcha narsa Nil daryosining ko'plab loyi ostida yotibdi, bularning barchasi arxeologlar ishini yanada qiyinlashtirmoqda. Bizning Memfis va umuman, Misr haqida bilganlarimizning barchasi piramidalardan ma'lum. Vaqt o'tgani sari ular ham o'zgargan. Miloddan avvalgi 2630-yilda uchinchi sulola

fir'avni Joser hukmronlik davrida piramidalar toshdan barpo etildi. Shu yo'sinda, uning bosh vaziri va maslahatchisi Imxoteb tomonidan zinapoyalik piramida bunyod etildi. Zinapoyalik piramida o'z konstruksiya va o'lchovlari bo'yicha tengi yo'q piramida bo'lib, uning asosi uzunligiga 118,6 m va eniga 140,9 metr ga teng, balandligi esa 62 metrni tashkil etadi. Biroq piramidaning o'zi inshootlarning ulkan kompleksidir. Piramidaning tagida Imxotep o'tish, galereya, qabr, hovlicha va boshqa bir qator xonalardan iborat labirint yaratgan. Bu kompleksni qudratli tosh devor bilan o'ragan, devorning uzunligi 1,6 km teng, balandligi 10,1 metrni tashkil etadi. Devorda 13 ta soxta va bittagina haqiqiy kirish mavjud. Joserning o'rniga kelgan fir'avnlr ham osmonlarga olib chiqadigan ulkan zinamalarga ega bo'lishni xohladilar, shu tarzda ko'plab boshqa piramidalar qurildi, ammo Xufu (yunon yozuvida Xeops)ning piramida maqbarasi me'morchilikning mo'jizasiga aylandi. Uning asosi 5,2 gektaga teng maydonni egallagan bo'lib, balandligi Nyu-Yorkdagi ozodlik haykalidan baland bo'lgan holda 54,2 m ni tashkil qiladi. Bu piramida ichiga Yevropaning 5 ta asosiy soborlari, jumladan, avliyo Petrning Rim sobori va avliyo Pavelning London soborini joylashtirish mumkin. Xufu bunday ulkan inshootni qanday qilib barpo etdi? Bu piramida qanday barpo etilganini hech kim bilmaydi, biroq quruvchilarning aniqligi lol qoldiradi: piramidaning asosi deyarli mukammal kvadratni tashkil qiladi, ulkan og'irlikdagi tosh bloklari lol qoldiradigan darajada aniqlik bilan bir-biriga qo'yilgan. Shotlandiyalik astronom Charlz Piyatssi Smit fikricha, buyuk piramidaning shakllarida makon va zamonning o'lchashga mansub bo'lgan ilohiy sonlar mavjud deb, taxmin qiladi. Agarda dyuymlarda ifodalangan piramidalarning balandligini 9-darajada 10 ga ko'paytirsa (chunki 9 ga 10 proporsiya piramidaning balandligini eniga bo'lgan nisbatini ifodalaydi), bunda yerdan quyoshgacha bo'lgan masofa chiqadi. Piramidaning perimetri piramida dyuymlarida hisoblangan bo'lib, 365,2 ga teng, ya'ni mingga ko'paytirilgan quyosh yilining kunlar soniga teng. Qadimgi quruvchilar o'z mohirligi bilan mag'rurlanib, o'z artellarining nomlarini abadiylashtirganlar: ular katta toshlarda o'z nomlarini yozganlar, masalan, chidamlilar guruhi, mohirlar, g'oliblar guruhi va h.k. Xufu vafotidan so'ng uning o'g'li Xafra (Xafren) va nabirasi

Menkaura kichikroq bo'lgan yana ikkita piramidani barpo etdilar. Qadimgi misrliklar Giza tekisliklarida o'zlarining abadiy qo'riqchisi buyuk Sfinksni yasadilar. Bu ulkan haykal butun toshdan o'yilgan bo'lib, uzunligi 73,2 m va balandligi 20,1 m.ga teng. Uning yuzi Xafi fir'avnning yuzi, boshida podshohning bosh kiyimi va fir'avnlarning an'anaviy yasama soqoli mavjud. Tanasi esa yotgan arslonning badanidir, chunki qadimdan bu yarim afsonaviy mavjudot ilohiy joylarni qo'riqlaydi, deb hisoblanadi.

Misr qumlari ostida ko'milgan marhumlarning cheksiz shaharlari o'z tublarida nafaqat inson qoldiqlarini, balki millionlab munifikatsiya qilingan hayvonlar jasadini saqlaydi, ularning barchasi inson mumiyosi kabi matolarga o'ralgan, kichik hajmdagi mavjudotlar esa loydan yasalgan idishlarga solingan. Bu barcha mavjudotlar, ya'ni buqacha, mushuk, maymun, qush, sichqon va hattoki, hasharotlar qadimgi Misr rivoyatlariga ko'ra, u yoki bu ilohlarning sifati bo'lib, hayoti davrida ulug'langanlar. Nil vodiysida yashaydigan odamlar doimo tabiat bilan uzviy yaqinlikda yashaganlar. Bu inson va tabiat o'rtasida o'ziga xos kelishuv edi: inson dalalarni har yili boyitilishi sabab bu boylikni unga olib keladigan tabiatning barcha qiliqlariga rozi bo'lgan. Har bahorda qudratli Nil o'z suvlari bilan odamlarga Afrikaning jonli ruhini berar, insonlar dalasini oylab suv bilan ta'minlar edi. Har yili suvga qarab, odamlar bu suvdan loylarning kichkina qirlari paydo bo'lganini ko'rar va bu go'yoki har yillik olamning yaratilishi hisoblangan. Yer toshqinning ustidan asta-sekin ko'tarilar edi, bunday kuzatuvlar qiradirlarning konusga o'xshash shakliga alohida ehtiromni insonlar ongida shakllantirgan bo'lsa kerak, bu esa yakunida piramidalarni umumxalq tan olinishi va ularga hurmat bildirilishiga olib keldi. Aftidan, zinapoyalik piramida ongning ana shunday yorqin namunasi edi. Agarda qir insonlar ongida ijod harakati bilan tenglashtirilsa, quyosh fir'avnlarga abadiy hayot yo'lini ko'rsatuvchi mayoq sifatida tasavvur qilingan. Haqiqatda ham Sharq sahrosi ustida bulutlar ko'paygan kunlarda quyosh nurlari bulutlar orasidan o'tib, samolarda odamlarga yaxshi tanish bo'lgan piramida tasvirini go'yoki chizgandek edi. Birozdan so'ng bu shaklning hissiyoti diniy-falsafiy mazmunga ega bo'ldi: fir'avnlarning ruhi samoga piramida zinalaridan ko'tarilib, quyosh nurining qiya tushgan chizig'i bo'yicha

yuqoriga ko'tarilar edi. Natijada piramida shakliga mos kelgan maqbara vujudga keldi, bu Snofruning rom ko'rinishidagi piramidasidir. Keyinroq Snofruning o'g'li va izdoshi fir'avn Xufu otasidan teologik tasavvurni meros qilib olib, fir'avn Ra quyosh xudosini samodagi harakatiga yo'ldoshlik qilishi kerak deb hisoblagan. Nilning koinlari "osmon quyosh nurlarini sen uchun tekislasinki, sen Ra kabi osmonga ko'tarilishining kabi" deb ibodat qilganlar.

Xufu piramidasi 5,2 gektardan ziyod maydonni egallagan bo'lib, o'z ichida 6 mln. tonna tosh bloklarini sig'dirgan holda, quyosh nurlari qudratiga ishonch sifatida osmonga qarab qad rostlagan. Birinchi marotaba piramidalarni ko'rgan sayyohning havasi yakun topgandan so'ng sayyoh shunday savollarni bera boshlaydi: ichida nima bor ekan, bu nimadan qurilgan ekan, bu qurilishning maqsadi nima ekan? Jahonning turli mamlakatlari arxeologlarining avlodi fir'avnlarning abadiyat uyini tadqiq etishdi. Fir'avnlarning dafn xonalariga tunneldan pastga harakatlanish qiyin, murakkab ishdir: ikkinchi darajali o'tish va xonalar, boshi berk yo'laklar, labirintlar, bularning barchasi qarochilarni adashtirish uchun barpo etilgan. Shu jihatdan, piramidalar o'zining murakkabligi va mukammalligi bilan hozirga qadar qadimgi Misr sivilizatsiyasining yorqin namunasi bo'lib qolmoqda.

### **Exnatonning diniy islohoti**

Qadimgi Misr sivilizatsiyasining eng chuqur saqlanadigan sirlaridan biri, 1926-yilda ma'lum bo'ldi. Ming yillar davomida sayyoh va sarguzasht ishqibozlari butun dunyodan qadimgi Fivalar o'rnida qurilgan Luksor shahriga kelishar edi. Xarobalar ostida ming yillar avval ataylab ko'milgan ko'p narsalar mavjud ekan. Bu yerda Amenxotep IV hukmronligining ilk yillarida (miloddan avvalgi 1353-1335-yillar) barpo etilgan ehromni qoldiqlari topildi. Abadiylik g'oyasi hukmronlik qilgan sivilizatsiyada Amenxotep IV ni nega yomon ko'rishgan, degan savol tug'iladi? Aslida u kim bo'lgan?

Exnaton (Amenxotep IV) Amenxotep III fir'avn va uning bosh xotini malika Ti ning o'g'li edi. Ushbu davrda Yangi podshohlik rivojlanishning yuqori darajasiga erishib, o'z ta'sir doirasiga qo'shni

hududlarni ham kirita oldi. Janubda Misr hukmronligi ostida Nubiya joylashgan edi. Sinay tog'larining ortida g'arbiy Osiyodagi mahalliy knyazlar fir'avnga soliq va hadyalarni to'xtovsiz yuborar, o'z o'g'illarini Misr axloqi va madaniyati ruhida tarbiyalash uchun saroyga jo'natar edilar. Exnatonning bobosi Tutmos IV hukmronlik davridan boshlab Shimoliy Suriya, Bobil va Ossuriya, Misr bilan do'stona munosabatda bo'lgan. Bu mamlakatlarning hukmdorlari fir'avnga qimmatli hadyalar, kumush va laldan yasalgan zargarlik buyumlari, harbiy aravalar, musiqachi va raqqos qullarni va hattoki haramini yasatish uchun malikalarni yuborishgan. Amenxotep III hukmronligi davrida Misrning qudrati juda ham buyuk edi. Exnatonning onasi malika Ti barcha jihatdan ajoyib shaxs bo'lgan. Fir'avn uni haddan ziyod sevar va unga qimmatbaho sovg'alar hadya etardi, ular orasida malika Ti sharafiga barpo etilgan Nubiyadagi ehrom, Fivada uning uchun maxsus qurilgan sun'iy cho'milish joylari, ulkan qishloq xo'jalik yerlari bor edi. Amenxotep III ehromlarni, jumladan, Fivaning bosh ilohi bo'lgan Amon ehromlarini ko'p qurar, ular esa Misr diniy hayotining markazi hisoblangan. Bu iloh boshqa iloh va xudolardan olingan yangi xislatlar bilan boyitilar edi. Xususan, unga Ra quyosh xudosining atributlari berildi, bundan so'ng ilohning to'liq ismi Amon Ra bo'ldi. Uning o'g'li davrida vaziyat o'zgacha tus oladi. Uni boshqa xudolarning yuzlab ismlari qiziqtirmas edi. Shu jihatdan fir'avn o'zining barcha sodiqligi va hattoki, ismini u quyosh ilohi – yaratuvchi Atonga berdi. Amonxotep o'zining "Atonga atalgan buyuk madhiya"tida fir'avn yerdagi xudoning yagona vorisidir deb, e'lon qiladi. Yangi din Exnatonning monotoizm targ'ibotchisi hamda Ibrohim va Musodan oldingi payg'ambar sifatida tavsiflaydi. U Misr panteonining barcha xudolarga sig'inishini taqiqlab, ehromlarni yopdi. Misr kohinlari sarosimaga tushdilar. Chunki o'sha vaqtda kohinlar toifasi mamlakatning iqtisodiy hayotini o'z qo'lida ushlab turar, ularning g'aznasiga ulkan boyliklar oqib kelar edi. Biroq ular ochiqchasiga fir'avnga qarshi chiqqa olmasdi. Fivada Exnaton o'zining Atonga sig'inish ehromlarini Amonning buyuk ehromi bilan yonma-yon qo'yadi. Exnatonning ayoli bo'lgan malika Nefertiti yangi sig'inishni mustahkamlanishida muhim rol o'ynadi. Topilgan devordagi yozuvlar malika nomini ulug'laydi va uni quyidagicha tasvirlaydi:

buyuk podshohning eng sevimli zavjasi, nafislik xonimi, buyuk qalbli xonim, suyuqli yor. Nefertitining qizlari ham barelyeflarda tasvirlanganlar. Katta qizi onasining kichiklashtirilgan kiyimida maftun qiluvchi go'dak sifatida tasvirlangan, uning qo'lida sister – bu Misr sivilizatsiyasining butun tarixi mobaynida diniy marosimlarni bajarishda qo'llaniladigan musiqa asbobidir. U yerdagi yozuv shunday ma'noni beradi: buyuk podshohning zavjai haloli Nefertiti tuqqan Meretaton – podshohning qizidir, umri uzoq bo'lsin. Bir necha yildan so'ng Meretaton barelyeflarda o'zining ikki singlisi Meketaton va Anxesenpatonlar bilan birga tasvirlanadi.



**Exnaton va Nefertiti hamda 3 qizi. Miloddan avvalgi 1350- yil.  
Qadimgi Misr san'ati - Yangi podshohlik**

1926-yilda ingliz olimi J.G.Uilkson Tel El-Amarni nomli joyda maqbarada barelyef topdi. Bu o'ziga xos barelyef o'sha davr san'atining qoidalaridan o'zgacha ravishda yasalgan. O'liklar

podshohligiga sayohat va janglarning o'rniga mazkur barelyefda Exnaton va Nefertiti tabiiy uy holatida tasvirlangan bo'lib, ular tizzasida farzandlarini olib, kreslolarda qulay o'tirishibdi. Bu barelyefda ma'budalar rasmi emas, aksincha quyosh nurlari keng aks etgan. Exnaton Axetaton shahriga asos soldi, Axetatonning ma'nosi Anot ufqidir, ya'ni bu Atonga sig'inishning diniy markazidir. Bu shahar umuman oldin hech kim yashamagan joyda barpo etildi, shu sababdan podshoh vafot etishi bilanoq, shaharning aholisi o'z joylariga qaytgan.

Exnatonning shaxsi XIX asrning oxiriga kelib, ulkan qiziqishni uyg'otdi, bu tasodif edi: mahalliy dehqon ayol to'satdan 300 ta kichik sopol taxtachalarni topdi, ularda Akkad tilida yozuvlar mavjud bo'lib, bu til Exnaton davrida sulolaning xalqaro tili hisoblangan. Bu taxtachalarda Exnatonni boshqa mamlakat hukmdorlari bilan yozishmasi aks etgan edi. O'zga yerlik hukmdorlarning yangragan ovozi Exnaton ismini o'rab olgan sukut devorini buzishga yordam berdi. O'z paytida shohsupalardan olib tashlangan Exnaton – Amenxotep IV ning 28 ta ulkan haykallari topildi. Misrga hukmronlik qilgan fir'avnlarining ro'yxatini tuzuvchi kohinlar Exnaton dindan qaytganligi sabab, uning ismini qo'shmas edilar. Exnatonni hukmronlik davriga ko'rsatish lozim bo'lganida solnoma yozuvchilar buni "xudolar qarq'aganning hukmronligi" yoki "isyonkor davri" ko'rinishidagi yozuvlar bilan bergan.

Exnaton saroyining alohida fragmentlari asosida bu saroy o'z davrining buyuk inshooti ekanligi aniqlandi, uning devorlari rangli shisha, tosh va keramikadan ishlangan mozaika bilan bezatilgan, ustunlar palma bargi ko'rinishidagi bezaklar bilan yakunlanib, barcha unsurlar qizil, ko'k va oltin rangda bo'yalgan edi. Interyer devorlari ham har xil rangli mozaika va iyerogliflar bilan bezatilgan bo'lib, keramika devorlarni qoplagan, bu devorlar g'alati o'simlik va uylarning bog'lariga aylangan. Exnaton yangi poytaxtni shuhratli kelajakka ega deb taxmin qilgan bo'lsa kerak, chunki hukmronligining 5-yilida mazkur shaharni barpo etish uchun bu hududga o'z arxitektor va quruvchilarini yubordi. Nil daryosining ikki qirg'og'ida haykaltaroshlar qoyalarda 14 ta chegaradosh ko'rsatgichlarni o'ydilar. Bu ko'rsatgichlarda poytaxtning barpo etilishi haqida xabar berilib har birida podshoh oilasining rasmi

tushirilgan edi. Birinchi bir necha yil ichida shahar aholisi 50 mingga yaqin bo'lib, uylar hayot va ish uchun qulay tarzda qurilgan edi. Masalan, fir'avning bosh me'mori Tutmos binolarning butun bir majmuasini egallagan, ular ichida uning uyi studiyasi va xodimlar uchun yashash joylari bo'lgan. Fir'avn vafotidan so'ng shahardan ketayotganda ishchilar me'mor uyini tashlab ketdilar. Vaqtlar o'tgani sari uy tomlari tushib ketdi, qum bo'ronlari bu yerdagi haykallarni ko'mdi va 1912-yildagina ular Ludvig Burxad boshchiligida ishlagan nemis arxeologlari tomonidan qazib olindi.

### **Nefertitining byusti**

Bu ayolning maftunkorligi, uning xarizmatik qobiliyati haykaltaroshning mohir qo'llari bilan ko'rsatilgan, ming yillar o'tib bu haykallar zamonaviy madaniyatning boyligiga aylandi, bularning barchasi qadimgi sivilizatsiyaning eng jozibador obrazlaridan biridir. Nefertiti haykali topilgan kun Burxad odatdagidek, topilmalar jurnalini to'ldirishga o'tirdi, tun bo'yi o'tirib, u Nefertitini tasvirlash imkoniyati yo'qligini anglab, jurnalda: "tasvirlash mumkin emas, o'z ko'zingiz bilan ko'rishingiz lozim" degan yozuvni kiritdi. Nefertiti o'z shakllari va chizgilarining go'zalligi bilan yangi ijodiy izlanish, uslubni o'zgarishi davrini ifoda etadi. Bularning barchasi Exnaton saroyini Axetatonga ko'chib o'tganida paydo bo'ldi.

Haykaltaroshlar yorug'lik va qorong'ulikning yangi imkoniyatlaridan foydalandilar. Inson figuralari hayotiy bo'ldi. Tabiat dunyosi, o'simlik va hayvonlar, pol, devor, zargarlik buyumlarida o'z o'rnini topdi. Exnaton 17 yil hukmronlik qilganidan so'ng vafot etdi, uning o'rniga Smenxkar keldi va atigi 3 yil hukmronlik qildi. Undan so'ng taxtni o'sha payt atigi 9 yosh bo'lgan Tutanxamon egalladi. Eski xudolar yana ehromlarga qaytdilar, Tutanxamon quyosh shahridan barcha aholini ketishini buyurdi. Tutanxamon atigi 10 yil hukmronlik qilib vafot etdi, toj qari mansabdor shaxs Ti malikasining akasi Eyga o'tdi (ba'zilar uni Nefertitining otasi bo'lishi mumkin deb hisoblaydilar). Ey Exnatonning ismi va uning xotirasini yo'q qilishga kirishdi, bu ishni esa Eydan so'ng hokimiyatni egallagan Xoremxeb yakunladi. Xoremxeb shaharni, uning barcha ehromlarini yo'q qilish va Misrda

hukmronlik qilgan fir'avnlarni ro'yxatidan Exnatonni o'chirib tashlashni buyurdi.

### **Misr sivilizatsiyasining o'ziga xosligi**

Mumiyolar qadimgi misrliklar tomonidan jahonga meros qoldirgan odam tasavvurini lol qoldiruvchi esdaliklardir. Oldingi davrlarning soqov guvohlari bo'lgan mumiyolar ko'p narsa haqida hikoya qilishlari mumkin. Aksariyat misrliklar qisqa hayot kechirib, atigi 35-40 yil yashagan. Mumiyolar barbod qilingan hayot haqida hikoya qiladilar, masalan, 18-sulolaning malikasi bo'lgan Mutnoymentning mumiyosi u 42 yoshda tug'ishda o'lganidan darak beradi, uning yonida yangi tug'ilgan go'dakning jasad ham bor. Bu ayol Xoremxeb bilan 12 yil turmush qurib yashagan, bu Xoremxeb zodagon bo'lmasa-da taxtga erishgan insondir. Malika 13 marotaba tuqqan va farzandlarning barchasi vafot etgan. Agarda farzandlaridan biron-biri tirik qolganida, balki bu tarixni o'zgartirar edi. Mutnoyment Nefertitining singlisi bo'lganligi sabab uning farzandi Xoremxebning hukmronligini qonuniylashtirishi mumkin bo'lar va Misr tarixida hammadan ko'p shuhrat qozongan 18-sulola davom etishi mumkin edi, biroq u Xoremxebning vafoti bilan yakun topdi. Mazkur voqea miloddan avvalgi 1310-yilda sodir bo'ldi. XIX asrning yakunidagi izlanishlar 17,14 va 20-sulola fir'avnlarning mumiyolarini berdi. Kohinlar mumiyolarni qaroqchilardan qutqarib, 2 ta sirli joyga olib o'tgan. Ramzes II uning otasi Seti 1, Tiu va boshqa bir qator mumiyolar yaxshi saqlangan.

Oddiy insonlarning mumiyolari qadimgi sivilizatsiyada insonlar hayotining ko'plab tomonlarini ochib bera oladi. Masalan, gulxanlarning tutuni tufayli paydo bo'lgan o'pkalardagi o'zgarishlar ko'p misrliklarda antrokos, zamonaviy shaxtyorlarning kasalligi borligidan dalolat beradi. Yanada ko'proq silikos kasalligi tarqalgan edi, bu kasallik qum bo'ronlari paytida qum kukuni va changini yutish natijasida paydo bo'ladi. Havoga shamol ko'targan qum va toshga ishlov berishdagi chiqindilar barchasi oziq-ovqat, don va unga kelib tushgan. Qum aralash non tishlarni yemirilishiga olib kelar edi hamda zararli bakteriyalarni tish kanallariga va undan yuqori hujayralarga kirib kelishiga olib kelgan. Masalan, fir'avn

Ramzes II ning boshini rentgeni shuni ko'rsatdiki, "unda o'lik tishlarning butun bir qabri, avses va paradontos" mavjud bo'lgan. Nilning o'zi ham kasalliklar manbasi hisoblanib, bu kasalliklar daryoda mavjud bo'lgan parazitlar tufayli paydo bo'lar edi. Masalan, Angliyadagi Manchester shahrining muzeyida 1770 raqam ostida saqlanayotgan 13 yoshli qizchani mumiyosi buni tasdiqlaydi. Mumiyoning yoshi 3 ming yildan ziyod, ammo g'alati bir voqea mavjud: tushunarsiz sabablarga ko'ra, u milodning IV asrida mumiyolanganidan so'ng 1000 yil o'tib, yana qayta mumiyolangan, sababi uning ichaklarida Nil gijasi mavjudligidir. Hozirgi paytda olimlar mumiyolarni matodan ajratmay va hattoki, tobutidan olmasdan ko'rish imkoniyatiga egadirlar. Buni kompyuter nazorati skaynerlari yordamida amalga oshiradilar: tekis tasvirlarni monitorlar ekranida yaratiladigan 3 o'lchovli tasvirga aylantiradilar.

Fir'avn Tutmos (miloddan avvalgi 1504-1492) piramidalar qurishdan voz kechdi, chunki qaroqchilar doimo xavf solib turar edilar. Tutmos fir'avnlarni dafn etish uchun Dayr al-Madina qishlog'idagi "shohlar vodiysini" tanladi, u yerda arxeologlar oilalarda o'yilgan maqbaralar ichida 28 ta qudratli fir'avnlarning qabrini topdilar. Biroq vaqt o'tgan sari hattoki bu tog'larda yashiringan maqbaralar qaroqchilarning jinoiy harakatining sahnasiga aylandi, hozirgi paytda ham bu yerda har xil turdagi o'g'ri va qaroqchilarni uchratish mumkin.

Oxirgi 50 yil ichida shohlar vodiysida 50 dan ziyod ekspeditsiyalar ish olib bordi. 1912-yilga kelib podshohlar vodiysi arxeologlar tomonidan to'liq o'rganilgandek kabi edi. Biroq Lord Karnarvoning moliyaviy ko'magi tufayli ingliz arxeologi Bovard Karter podshohlar vodiysida faoliyatining 7-mavsumida 1922-yilning noyabrida kashfiyot qildi: u Tutanaxamon maqbarasining joyini ochdi. Qabr yer ostida 4 metr chuqurlikda joylashgan bo'lib, 16 ta zinapoya u yerga oborar edi. Maqbara 6 xona, ya'ni dahliz, qabrning o'zi, qimmatbaho buyumlar saqlanadigan xonadan iborat bo'lgan. Bu xona ajoyib mislsiz qimmatbaho buyumlar bilan to'la bo'lib, zamonaviy dunyo bunday narsalarni hali ko'rmagan edi. Ulkan sandiq (qabr) 3 ta kichik qabrdan iborat holda topildi. Bundan tashqari, Kvarsiddan yasalgan sarkofag va uning ichida fir'avnlarning 3 ta tobuti, ulardan biri eng yuqori probadagi

oltindan yasalgan edi. Old xona, ya'ni dahliz buyumlarga to'la bo'lib, bu yerda hayvonlarning turli o'ymakor tasvirlari bilan bezatilgan podshohning 3 ta yotog'i, qimmatbaho buyumlarga to'la sandiq, kursilar, taxt, turli sandiqcha va aravalar topildi. Inson bo'yi barobar bo'lgan yosh fir'avning 2 ta katta oltin haykallari soqchilik qilar edi, Karter hayratlanib: "men ko'rganlarim, kutganlarimdan bir necha barobar katta edi va men bir lahzaga buning barchasini anglash, tushunishga inson kuchlari yetmaydi deb o'yladim". Karter va uni yordamchilari dahlizni bo'shatish uchungina 7 hafta sarfladilar, umuman olganda, ular bu yerda 10 yil xizmat qildilar. Maqbarani bu yerda topilgan 3 mingta buyumlardan tozaladilar, ularning aksariyatini shu yerdayoq konservatsiya qilish lozim edi. Hammasi bo'lib Karter Qohira muzeyiga 5 mingta bebaho eksponat taqdim etdi, bunga qaramasdan, Tutaxamon haqidagi axborot juda kam edi.

U 9 yoshida fir'avn Exnaton hokimligi yakun topishi bilanoq, miloddan avvalgi 1300-yilda taxtga o'tirdi. Qarnakda topilgan stella Tutaxamonning diniy hayot sohasida Exnaton kiritgan yangiliklar tufayli yetkazilgan zararlarni to'g'rilashdagi yutuqlarini sanab o'tadi: "men taxtga o'tirganimda ehromlar xarobaga aylangan, qurbonlik qilinadigan joylar ag'darilgan, ichki hovlilar o't bilan to'lgan edi. Men ularning ilohlarini tikladim, ehromlarni g'aznadan mablag'lar bilan ta'minladim, ularga qimmatbaho sovg'alar hadya etdim. Ularga oltin va elektrumdan haykallar qo'ydim. La'l va boshqa qimmatbaho buyumlar bilan bezatdim". Albatta, Fir'avn atigi 9 yosh bo'lsa, uning barcha harakatlari maslahatdoshlarining ishidir, birinchi navbatda, Nefertitining taxmin qilingan otasi qudratli Ey va general Xoremxebning ishidir. Hech qancha vaqt o'tmasdan, bularning ikkisi Misrning fir'avnlariga aylandilar. Yosh podshohni hayotdan erta ketishi sirdir: fir'avn sil kasalligidan vafot etgan deb taxmin qilinadi, biroq uning boshini rentgeni o'tkir predmet bilan zarba tufayli bosh chanog'ida jarohat borligini ko'rsatdi. Bunda Tutaxamon yoki aravadan yiqilib tushgan yoki qarigan Eyning hokimlikka intilayotganligi sababli qotillik qurboni bo'lgan bo'lishi mumkin. Ey Tutaxamonning yosh bevasini xotin qilib oldi, u xotinidan 40 yosh katta edi va 4 yil fir'avnlik qildi. Tutaxamon sharafiga qilingan yozuvlarning aksariyatini yo'q qildi va ularning o'rniga o'zini

sharafladi. Bir necha avlodlardan so'ng o'g'il bola – podshohning ismi uning otasi Exnaton podshohi kabi Misr hukmronlari orasida aks etmay qoldi, biroq taqdirning haziliga ko'ra, aynan Tutanxamonning nomi butun dunyoda ma'lum, dunyo qadimgi Misr sivilizatsiyasining eng yorqin davri haqida Tutanxamon tufayli bildi. Biz bunda faqatgina Tutanxamon maqbarasidan topilgan moddiy madaniyat topilmalarining aksariyati hali ham jiddiy tahlil qilinmagan. Qanday g'alati bo'lmasin, hozirda olimlar dafn joylarini qurgan insonlar haqida shu joylarda dafn etilgan insonlardan ko'ra ko'proq biladilar. Masalan, Bayr al-Madina nomli kichkina qishloq aholisi o'zlari haqida ko'plab ma'lumotlar qoldirganlar. Sirni saqlash maqsadida Tutmos I qishloqni tashqi dunyodan baland g'isht bilan ajratgan. Qishloq aholisining avlodlari bu har tomonlama devor bilan chegaralangan joyda yashab, otasidan bolasiga o'z bilim va ko'nikmalarini yetkazganlar. Arxeologlar minglab tosh bo'laklari va loy taxtachalarini topdilar, bularda Dayr al-madinaning aholisi eskiz, chizmalar qilgan yoki o'z xatlarini yozgan. Fransuz arxeologi Bernar Bryuer 1950-yilda tashlandiq quduqdan bunday qoldiqlar "ostraka"larning eng ko'p sonini topdi. Bu siniqlar misrliklar tomonidan qog'oz bo'laklari o'rniga ishlatilgan bo'lib, ajoyib ma'lumotlarga ega. Ular ichida xatlar, kvitansiyalar, ish smetasi, sud majlislarining bayonnomalari, yuvishga topshirilgan kirlarning ro'yxati, ilohiy gap, duo va qarag'ishlar yozilgan edi. Ostrakalardan tadqiqotchilar misrliklarning hayot tarzi haqida ko'plab qiziqarli ma'lumotlarni bilishga muvaffaq bo'ldilar. Qishloqda eng yuqori malakali hunarmandlar xom g'ishtli uylarda yashar edilar. Har bir ko'chada 70 tagacha uy bor edi. Xo'jaliklar, jumladan, bir oilada hattoki 15 tagacha farzandlar bo'lgan. Hukumat qishloq aholisini kir yuvish uchun kir yuvuvchilar bilan ta'minlar, makkajo'xori va bug'doyni yanchish uchun qul qizlarni yetkazib berar edi. Quruvchilarning xotinlari o'zining ko'p sonli farzandlarini tarbiyalashdan tashqari, non yopish va kiyim to'qish bilan ham shug'ullanishgan. O'sha davr Misr qonunlariga ko'ra turmushga chiqqan ayollar keyinchalik bularning hayotini o'rgangan Amerika va ingliz arxeologlarining xotinlaridan ko'ra ko'proq mulkiy huquqlari bor edi. Quruvchilarning xotini o'z kapitaliga ega bo'lib, nikohdagi mulkning 3/1 qismiga egalik qilar, agarda ajrashishsa yoki

eri vafot etsa, bu mulk ularga tegishli bo'lgan. Qishloqda bitta hattot va 2 ta o'n boshi bor edi, ular hokimiyat hisoblanardi va fuqarolik hamda jinoiy ishlar olib boriladigan sud majlisini boshqargan. Da'vogar o'zi advokat bo'lar edi. Quruvchilar ertalab uydan ishga ketayotganda g'isht devordagi yagona darvozadan o'tib, o'sha payt maqbaraning qaysi qismini qurilishiga yuborilgan bo'lsalar, shu yerga borar, ular u yerda ishlab va toshdan qurilgan kichkina uychalarda yashashgan. Undan so'ng dam olish uchun 2 kun olib, xuddi shu yo'l bilan uyga qaytar edilar. Ishga chiqqandan so'ng har bir quruvchi ro'yxatdan o'tishi lozim bo'lib, ro'yxatga oluvchi ularning ismlarini qaydnomaga kiritgan. Ba'zida quyidagi sabablarga ko'ra ishga kelmaslik holatlari ham bo'lgan: ko'zi og'rgan, pivo pishirgan, o'lganlarni mumiyolashgan va hokazo. Ishchilar kuniga ikki 4 soatlik smenada ishlashgan. Toshga ishlov beruvchilar qoyalarni tosh, bronza yoki mis asboblardan yordamida o'yardilar. Ulardan keyin suvoqchilar arteli ishlab, devorga gips shuvab, tekislab oqlashgan. So'ngra rasm soluvchilar ishga kirishib, ko'mir yordamida matn va rasmlarni solishgan, keyin haykaltaroshlar bu rasmlar chizig'idan bronza asbobi bilan barelyef o'yardilar. Keyin bu relyef tasvirlarini bo'yashar, buning uchun qo'rg'oshin, la'l, ko'mir, oxra va malaxitdan bo'yoq tayyorlashar edi. Yoritish uchun yoqqa botirilgan zig'irdan chiroq yasab, undan foydalanishgan. Oziq-ovqatlarni yetkazish muntazam bo'lmay, ishchilar aksariyat hollarda och qolishgan. Masalan, topilgan "hujjatlar"ning birida miloddan avvalgi 1165-yilning 14-noyabrida Ramzes III hukmronligi paytida Bayr al-Madina ishchilari mehnat qurol-asboblarni tashlab, ish joylaridan ketganligi haqida xabar beriladi. Birgalikda qishloqda to'planib, ular zamonaviy til bilan aytganda ishchilar harakati tarixida birinchi o'tirgan holdagi ish tashlashni e'lon qiladilar. Mahalliy rahbariyat ularni tartibga chaqirishga harakat qiladi, ammo hattot Amennaxtning xabar berishicha, ishchilardan biri: "biz bu yerda ochlik va chanqoqdan to'plandik. Bizni na kiyimimiz, na ovqatimiz bor. Bizga na go'sht, na baliq, na sabzavotlar berishyapti. Bu haqda bizning hukmronimiz fir'avn va ustozimiz vazirga xabar ber. Ular bizni barcha kerakli mahsulot bilan ta'minlashsin", deb aytadi. Ishchilarga talab qilganlarni tezda berishadi va ular ertalab ishga chiqadilar. Shuning uchun ham fir'avnlarning tantanavor dafa

marosimlari quruvchilarga maqbaralarni qurishda sarflagan sa'y-harakati va hayoti uchun mukofot bo'lgan.

Misr tarixida miloddan avvalgi 1224-yilda 60 yil hukmronlik qilganidan so'ng vafot etgan buyuk Ramzes II tantanavor dafn etilgan. Ramzes mamlakatini farovonlik va gullab-yashnashning yangi darajasiga olib chiqdi. Ramzes II ning maqbarasi Tutanxamonning "kamtarona" maqbarasiga ko'ra badavlat yer osti saroyi edi. Kirish dahlizi yer ostiga 45,7 metrga chuqurlikka tushadi, dafn xonasi esa 185 kv m ni egallab, tomi 7 metr balandlikda bo'lgan (hozirgi paytda u ziyorat uchun yopiq).



**Piramida matnlari. Unas qabri. V sulola**

Barelyeflar va duo hamda qarg'ishlarning matnlari jamlangan "O'liklar" kitobi olimlarga marosimlarni to'liq tasvirlash imkoniyatini berdi. Podshohlar vodiysidan 640 km yiroqda Nil daryosining deltasida joylashgan yangi poytaxt Pi – Ramzesda fir'avn Ramzes II ni 70 kun mumiyolashgandan so'ng mumiyoni kemalarda yetkazib kelishgan. Nil daryosining ikki qirg'og'ida o'z fir'avniga yig'i solgan xalq turar edi. Fivalarda kohinlar sochlarini butunlay oldirib, mumiyoni ho'kizlar qo'shilgan aravalarga yotqizishdi va yo'lda davom etishdi. Bu yurishning boshida kohinlar ularning ketida yig'lovchilar va podshoh belgilarini ko'tarib ketayotgan xizmatchilar, ulardan so'ng Izida va Neftida rolini ijro etuvchi ikki ayol yurgan. Maqbaraga kirishda marosim raqqosalari guruhi va qadimgi papirus

bo'yicha duolarni o'qiydigan kohin kutib olgan. Bu yerda eng mas'uliyatli lahza, ya'ni "og'izlarni ochish" boshlangan: Anubis xudosi maskasini, ya'ni chiyabo'ri boshi shaklidagi niqobni kiygan kohin maqbaraga kirishda mumiyoni tikka tobutga o'rnatdi, qolgan 2 ta kohin esa marosim harakatlari bilan mumiyoning og'ziga abadiy hayot ramzi bo'lgan bir qator sehrli buyumlarni tegizdilar, keyin fir'avnga kiyim va oziq-ovqat ko'rinishida qurbonliklar qilindi. Dafn marosimi ishtirokchilari navbatma-navbat ziyofatda ishtirok etdilar. Marosimning yakunida mumiyoni qabrga qo'yilar edi. Oyoqlarning barcha izlari poldan artib tashlanar, keyin esa qabr xonasiga olib boradigan eshik o'rni tosh bilan yopilib suvab tashlanar edi. Tutankamon berkitilgan sandiqlarning eng ichkisining devorida yozilgan "O'liklar" kitobidan olingan satr shunday yangraydi: "men shudurmanki, kecha nima bo'lgan va men ertaga nima bo'lishimni bilaman". Shunday qilib, mumiyolar yo'q bo'lib ketgan sivilizatsiya hayoti, odamlari, urf-odatlar, dunyoqarashi, qiyinchiligi va umidlari haqida bizga hikoya qiladilar.

### **Muhokama uchun savollar**

1. Qadimgi Misr tarixi bo'yicha eng muhim manbalarga tavsif bering. Ularning yutuq va kamchiliklarini ko'rsating.

1. Qadimgi Misrning qaysi hududiga dastlab odamlar kelib o'rgnashgan, bu nima bilan bog'liq edi?

2. Piktografik (rasmli) yozuvning vujudga kelishiga nima sabab bo'lgan? Misr piktorgafik yozuvida "nom" so'zi qanday tasvirlangan?

3. Yuqori va Quyi Misr deb qaysi hududlar nazarda tutiladi?

4. Qadimgi Misr sivilizatsiyasining uzoq muddat mavjud bo'lganligini qanday tushuntirish mumkin?

5. Qadimgi Misr davlatchiligining shakllanishi uchun qanday shart-sharoitlar mavjud bo'lgan?

6. Qadimgi misrliklar hayoti va turmush tarzining o'ziga hos jihatlari haqida qanday fikrdasiz?

7. Uzoq qadim zamon urf-odat va an'analaridan bizga nimalar kirib kelgan?

## **4-MAVZU. QADIMGI KICHIK OSIYO VA SHARQIY O'RTA YER DENGIZ BO'YI SIVILIZATSIYALARI**

### **Reja:**

1. Kichik Osiyo va O'rta Yer dengizi sivilizatsiyasi.
2. Frigiya davlati.
3. Lidiya davlati.
4. Finikiya sivilizatsiyasi.
5. Suriya lokal sivilizatsiyasining shakllanishidagi shart-sharoitlar.
6. Qadimgi Falastin sivilizatsiyasining yutuq va o'ziga xosliklari.

### **Kichik Osiyo va O'rta Yer dengizi sivilizatsiyasi**

Qadimgi sivilizatsiyalarning katta qismi Qadimgi Misr, Mesopotamiya (ya'ni zamonaviy Iroq, janubiy-sharqiy Turkiya, shimoliy-sharqiy Suriya)dan tashqari, Qadimgi Eron (Elam, Midiya, Parfiya, qadimgi Eron), Anatoliya (hozirgi Turkiya), Levant (hozirgi Suriya, Livan, Isroil, Falastin va Iordaniya)da ham joylashgan edi.

Kichik Osiyo va O'rta Yer dengizi hududi tarixdan ilk sivilizatsiyalar paydo bo'lgan joylar hisoblanadi. Tabiati va tabiiy sharoiti tufayli bu hududda qadimdan odamlar yashab kelgan, ko'plab qabila ittifoqlari ilk shahar va shahar-davlatlar mavjud bo'lgan. Bu shaharlar o'z navbatida yetuk moddiy va ma'naviy meroslari bilan jahon sivilizatsiyalar tarixiga katta hissa qo'shgan. Kichik Osiyo (boshqacha qilib aytganda Anatoliya) - Qadimgi Sharqning asosiy markazlaridan biri, bu hududda hozir Turkiya joylashgan bo'lib, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan zamonaviy dunyoda o'ziga xos o'rin tutadi. Biroq qadimda Kichik Osiyoning ahamiyati bugungi kundagi Turkiya rolidan ko'ra kattaroq bo'lgan. Ayniqsa, uning markaziy va sharqiy qismlari Anatoliya Old Osiyo sivilizatsiyasi vujudga kelgan markazlardan biri hisoblangan. Qadimgi yunonlar bu yerni Anatoliya (Sharq) deb ataganlar. Chunki ular uchun quyosh shu tomondan chiqqan.

Anatoliyaning joylashuvi eski olamning uchta qismi: Osiyo – Afrika – Yevropaning kesishish qismida joylashgan bo'lib, uni butun tarix davomida turli xalqlarning o'zaro muloqot qilish hududiga aylantirgan. Qolaversa, geografik jihatdan olganda juda ko'p qabilalar ushbu hududda Anatoliyadan boshqa mamlakatlarda uchratish qiyin bo'lgan bu kabi xususiyatni ko'rgan.

Mil.avv. II ming yilliklardagi matnlarda Kichik Osiyoning shimoliy-g'arbida joylashgan kichik bir davlat – “Assula” tilga olinadi. Osiyo so'zini mana shu qadimgi davlat nomidan kelib chiqqan, deb hisoblash qabul qilingan. Assula yunoncha “ot” ma'nosini bildirgan. Yunonlar Assulani o'zining yilqichiligi bilan mashhurligini ta'kidlashgan.

Anatoliyaning geografik joylashishi ham o'ziga xos ahamiyatga ega, ya'ni qadimgi tarixdagi Mesopotamiya va Misrning daryo sivilizatsiyasiga o'xshamagan, Yunoniston va Krit madaniyatidan farqlanib turuvchi Anatoliya Sharq va G'arb ko'prigi vazifasini o'tab, Sharqdagi tadbirkor savdogar-karvonchilar hamda Yunoniston, Suriya va Anatoliyaga olib boriladigan yuklarni olib o'tuvchi savdogarlarga o'z portlarini taqdim qilgan. Kichik Osiyo, ayniqsa, mineral resurslari bilan mashhur bo'lgan. Bu yerlar ko'plab oltin, kumush, temir, mis va qo'rg'oshinga boy bo'lgan. Qadimdan hatto uzoq mamlakatlar ham Kichik Osiyoning absidian yoki vulqonli oynalariga talabi katta bo'lgan. Uni qayta ishlanganidan so'ng o'tkir, kesuvchi chetlar hosil bo'lgan. Bu esa yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini bergan.

Anatoliyaga savdogarlar turli mahsulotlar olib kelgan. Lekin savdoning asosini metallar tashkil etgan: sharq savdogarlari qalay, g'arb savdogarlari mis va kumush keltirar edi. Ashshur savdogarlari esa kumushdan 40 marta qimmat turgan va oltindan 5-8 marta qimmat bo'lgan boshqa metalga qiziqqan. So'nggi yillar tadqiqotlaridan ma'lum bo'ladiki, bu metal temir edi. Temirni rudadan eritib olgan ixtirochilar xattlar bo'lgan. Temir shu yerdan Old Osiyoga, keyin Yevroosiyoga tarqalar edi. Anatoliyadan temirni olib chiqish taqiqlangan chog'i, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, uni yashirin yo'llar bilan olib chiqib ketish hollari haqida yozilgan

matnlar mavjud. Hunarmandchilikning vujudga kelishi bilan Anatoliyaning tabiiy boyliklari Mesopotamiya, Sharqiy O'rta yer dengizi va boshqa mamlakatlar aholisini avvalgiday jalb qilmay qo'ygan.

Aholisi. Yirik savdo markazlarida mahalliy savdogarlar: xetlar, luviylar, xattlar faol rol o'ynagan. Ular orasida kelib chiqishi Shimoliy Suriya va Mesopotamiya, ehtimol Kichik Osiyodan bo'lgan savdogar-xurritlar ham bo'lgan. Kichik Osiyodagi qadimgi davlat (mil.avv. XVIII-XII asr boshlari) tarkibiga xetlar, xattlar va boshqa etnik guruhlar kirgan.

### **Kichik Osiyoda sivilizatsiyaning vujudga kelish shart-sharoitlari**


Uzoq vaqt davomida Qadimgi Kichik Osiyo tarixi faqat antik davr mualliflarning qoyatosh yozuvlardagi bitiklari, ularning relyef va haykallarga e'tibor berib, bu haqda bergan ma'lumotlaridan iborat bo'lgan. Ular bu borada o'z bilganlaricha, asosan afsonalar asosida tarixni tushuntirib berishga uringanlar.

Paleolit davrida Kichik Osiyoga oid ma'lumotlar ko'p emas. Bu davrga oid yodgorliklar ba'zi bir g'orlardan topilgan. Janubiy qirg'oqlar, Anatoliya hududi, Anqaraning quyi qismidagi topilmalar, janubiy-sharqdagi Xatay oblastidan topilgan ba'zi bir tarixiy yodgorliklar shular jumlasidandir.

Mil.avv. X-VII ming yilliklar orasida Old Osiyoda "neolit inqilobi" sodir bo'lgan. Odamlar hayvonlar va o'simliklarni honakilashtira boshlagan. Bu esa o'troq qishloq xo'jaligi manzilgohlarini vujudga kelishiga olib kelgan. Mehnat qurollarini ishlab chiqarish uchun absidian va boshqa tabiiy boyliklarga bo'lgan ehtiyoj orta boshlagan. Texnika va uni qayta ishlash ancha mukammalasha borgan.

Arxeologik yodgorliklarni o'rganish Anatoliyadagi qadimgi manzilgohlarining neolit davriga mansubligini ko'rsatgan. Bu davrda Konya (ya'ni Chumra) rayonidan, Anatoliya va Suriya o'rtasida joylashgan Antioxiya hududidan yirik aholi punktlari topilgan. Dastlabki o'troq aholi yirik qishloqlarda yashagan, bu qishloqlar keyinchalik devorlar bilan o'ralgan. Kichik Osiyoning

janubi "neolit inqilobi"ning markazi bo'lgan. Bu hududda mil.avv. VIII-VI asrlarda asosini dehqonchilik va chorvachilik tashkil etgan ishlab chiqarish xo'jaliklari hisoblangan Xojilar, Chatal-Xuyuk, Chayyunyu-Tepesi kabi qadimgi muhim madaniy markazlar vujudga kelgan.



**Chatal-Xuyuk (miloddan avvalgi 7400 - miloddan avvalgi 5600)**

Mil.avv. VII ming yillikda Anatoliyadagi yirik neolit manzilgohlari orasida eng ahamiyatlisi va qiziqarlisi **Chatal-Xuyuk** bo'lib, unda yashagan aholi 14 xil turdagi qishloq xo'jaligi o'simliklarini yetishtirgan. Mana shu mahsulotlar qatorida bug'doy, arpa, no'xot va boshqa o'simliklar bo'lgan. Echki, qo'yni ko'paytirgan, yirik shoxli mollarni qo'lga o'rgatgan. Chatal-Xuyukning yutuqlari **absidianni** qazib olish, unga qayta ishlov berish va eksportining oshishi bilan bog'liq. Undagi mavjud

tepaliklarda oxra, samorodniy med, svinets qazib olingan. Mis va qo'rg'oshindan odamlar bezaklar va taqinchoqlar tayyorlagan. Lekin moddiy ishlab chiqarishni tosh va suyak qurollari ta'minlar edi. Arxeologik topilmalar orasidagi ayollarga tegishli boylıklar Chatal-Xuyuk aholisining yetarli darajada birmuncha o'ziga to'q yashaganligidan dalolat beradi. Arxeologik topilmadagi moddiy buyumlar o'zlarining nazokatiligi va muhtashamligi bilan ajralib turadi, turar joy binolari va ibodatxonalaridagi interyerlar turli ranglardagi yozuvlar, dumaloq va yassi haykallar kishini hayratlantiradi. Ularda ikki davr to'qnashganini ko'rish mumkin:

1. Bir tomonidan sof ovchilik maqomlari

2. Boshqa tomondan, ilk dehqonchilik madaniyatlari timsollari.

Yuqori badiiy jihatdan loydan ishlangan to'ladan kelgan ayol haykallari bilan ehtimol ilohiy hosildorlik obrazi tasvirlangan. Aytish mumkinki, bu davrda ho'kiz (kulti)ga sig'inish katta rol o'ynagan. Chatal-Xuyuk ilk qishloq xo'jaligi jamoasi o'rnashgan yigirma ikkita qishloq bilan o'ralgan o'ziga xos markaz hisoblangan.

Bu davrning yana bir muhim yodgorligi – **Xojilar** bo'lib, u Chatal-Xuyukdan g'arbda joylashgan. U mudofaa devorlari bilan o'ralgan, o'zining rivojlangan dehqonchiligi, tikuvchilik va kulolchilik ishlab chiqarishi bilan ajralib turgan. Lekin mil.avv. VI ming yillikda butun Old Osiyoda, siklik iqlim tebranishlari natijasida uzoq davom etgan qurg'oqchilik hukm suradi. Oqibatda Chatal va unga yaqin bo'lgan madaniyatlar o'z umriga nuqta qo'yadi. Ularning yaratuvchilari o'z madaniiy yutuqlarini saqlagan holda asta-sekin yashash uchun qulay bo'lgan hududlarga joylasha borgan. Chatal-Xuyukdagi san'at keyingi davr Kichik Osiyo va O'rta Yer dengizidagi ko'pgina freskalardagi tasvirlarda ham qaytarilganini ko'rish mumkin. Masalan, 2 boshli burgut tasvirini keltirish mumkin. Kichik Osiyoning eng sharqida 1979-yilda misdan ishlangan eng qadimgi buyum topilgan. U taxminan mil.avv. IX ming yillik oxiri yoki VIII ming yillikning birinchi yarmiga oid bo'lib, bu mutaxassislariga ma'lum bo'lgan misdan ishlangan eng qadimgi buyum sanaladi.

Mil.avv. IV-III ming yilliklarda Anatoliyaning markaziy va shimoliy-g'arbiy qismlari o'rmon va ruda konlariga boy joylar sifatidagi roli ortib ketadi. Bu yerda vujudga kelgan manzilgohlar juda tez mustahkamlanib, dastlabki Kichik Osiyo shahar-davlatlarining vujudga kelishiga shart-sharoitlar tug'diradi. Shu davrdayoq, tarixiy-madaniy jihatdan ahamiyati ancha ortgan Anatoliya Kichik Osiyoning madaniy markazlarining boshqa qo'shni hududlariga ta'sir o'tkazish bilan birga, aksincha, ularning o'ziga ta'sirini ham ko'rgan. Kichik Osiyo geografik jihatdan qulay joylashganligi uchun turli yo'nalishlarda madaniy yutuqlarni tabiiy jihatdan ulashuvchi joy hisoblangan. Fan hali bu yerda aynan qachon davlatchilik tuzilmalari paydo bo'lgani haqida aniq bir ma'lumotlar bermaydi.

Kichik Osiyoda sivilizatsiyaning vujudga kelishiga to'xtaladigan bo'lsak, bu hududning daryo bo'yi vohalari tuprog'i unumdor, shimoliy va janubiy tomonlari o'simlik dunyosiga boy bo'lib, odamlarning hayot kechirishlari uchun yaxshigina qulayliklarga ega bo'lgan. Shu sababli bu yerlarda qadimdan ko'plab qabilalar xususan, xetlar, xurritlar, ossurlar va kashk qabilalari yashagan. Mil. avv. II ming yillikning 2-yarmidan boshlab yarim orolga axeylar, dengiz xalqlari, fregiylar va kimmeriylar, eroniylar, yunonlar va rimliklar kirib kelib joylashgan. Bu qabilalar asta-sekin rivojlanib, dastlab qabila ittifoqlariga, so'ngra davatlarga birlashganlar. Qadimgi zamonlardan oq Kichik Osiyoda Troya, Lidiya, Frigiya va Xett kabi davlatlar tashkil topgan edi. Bu davlatlar o'z- o'zidan paydo bo'lib qolmadi. Bunga asosiy sabablardan biri, yuqorida keltirib o'tilgan xalqlarning Kichik Osiyo hududiga bostirib kirishidir. Chunki so'z yuritilayotgan davrda mazkur xalqlarning bu hududga kirib kelishi mahalliy xalqlarning birlashishiga asosiy sabablardan edi, desak adashmagan bo'lamiz. Ular orasida Xett podsholigi qudratli davlat darajasiga ko'tarilgan. Bu davlat o'z davrida yetuk madaniyati, diplomatik va harbiy salohiyati bilan boshqa davlatlardan ajralib turgan. Ularning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissasi - Jahon tarixida birinchilardan bo'lib temir metalni kashf etganligidadir.

## **Xett davlatining ijtimoiy tuzumi va madaniyati**

Mil.avv. XVIII-XVI asrlarda Xett davlatida haligacha urug'chilik tuzumi an'analari kuchli edi. Xett podsholari harbiy xalq majlisi - pankusni tashkil etgan jamiyatning barcha jangga layoqatli to'la huquqli a'zolaridan tashkil topgan xalq lashkarlariga suyanib hukm yuritar edilar. Qora dengizdan Tuz ko'li basseynigacha cho'zilgan, bizga "Xett" podsholigi sifatida ma'lum bo'lgan, katta davlatning haqiqiy asoschisi bo'ldi.

Pankus faoliyatiga ma'lum jihatdan tuliya kengashi rahbarlik qilib, u asosan qudratli urug'dosh oqsuyaklar manfaatini himoya qilgan. Pankus va tuliya podsholar hokimiyatini sezilarli ravishda cheklar edi.

Xett podsholigi Sharqdagi boshqa davlatlar kabi quldorlik davlati bo'lgan. Bu shahar davlatni dastlab xalq yig'ini tomonidan saylangan hokimlar boshqargan. Keyinchalik shahar davlat hokimligi lavozimi otadan bolaga, aka-ukalarga meros qilib qoldiriladigan bo'lgan. Xett podsholaridan biri podsho Tabarna o'zini "Ulug' podsho" deb e'lon qilgan. Tabarna Xett podsholigi asoschisi hisoblanib, uning ismi podsholik unvoniga aylangan. Shundan boshlab Xett podsholari o'zini "tabarna" deb ataganlar. Ular o'z yozuv-vasiyatlarida "o'g'limni tabarna-podsho qildim" deb yozib, hokimiyatni o'g'illariga topshirgan.

Telepin davrida taxt vorisligi tartibga ketirildi. Telepin yozuvlariga ko'ra podsholik hokimiyatini katta o'g'il, agar katta o'g'il bo'lmasa, ikkinchi o'g'il, ular bo'lmagan taqdirda taxtga katta qizning turmush o'rtog'i - kuyovga o'tkazgan. Telepin yozuvlarida podsho huzuridagi zodagonlar kengashiga ham katta e'tibor berilgan. Bu kengash podshoning qarindosh-urug'lari, aka-ukalari, bojalari, sarkardalari va boshqa amaldorlardan iborat bo'lgan. Podsho katta huquqqa ega bo'lgan. Ammo mamlakat hayotiga oid ko'p masalalar kengash a'zolari maslahati bilan amalga oshirilgan. Xettlar davlat, adliya, ijtimoiy, iqtisodiy va oila masalalarida o'z qonunlariga ega bo'lganlar.

Xettlar ham sharqning boshqa xalqlari kabi o'zlariga xos madaniyat yaratganlar. Xett madaniyati Mesopotamiya O'rta Yer dengizi sohilidagi mamlakatlar, Yunoniston, Kavkaz va boshqa

xalqlar madaniyatining ta'siri ostida shakllangan va rivoj topgan. Shumer-akkad yozuvi asosida o'zlarining Xett-iyeroglif va mixxatsimon yozuvlarini yaratganlar.

Kichik Osiyo va unga tutash bo'lgan joylardan topilgan xilma-xil hujjat, xett qonunlar to'plami, Xattusili III bilan Ramzes II lar o'rtasida tuzilgan do'stlik shartnomasi shumer-akkad, xett-iyeroglif va Misr iyerogliflari bilan yozilgan. Xetlarda astronomiya, matematika, geometriya, tarix, agronomiya, veterinariya, tabobat va boshqa fanlar o'z davrida ancha rivoj topgan.

Qadimgi xetlarda haykaltaroshlik, tosh sathiga qabartma tasvirlar ishlash rivojlangan edi. Xett haykaltaroshlari xudolar, podsholar, jangchilar, ot, ot qo'shilgan jang aravalar, yarim hayvon, yarim odam – sfinkslar haykallarini va toshga o'yib tushirilgan suratlarni ustalik bilan ishlaganlar. Xett san'ati me'morchilikda ham katta yutuqqa erishgan. Me'morlar shoh saroylarida ajoyib qasrlar, ibodatxona va ma'muriy binolar qurganlar. Ularni Xett xudolari, podsholari va jangchilarning haykal suratlari bilan ham bezaganlar.

Xetlarda adabiyot ham rivojlangan, u xalq og'zaki ijodiyotidan kelib chiqqan. Xett adiblari ajoyib ertaklar, hikoyalar, afsonalar va dostonlar yaratganlar. "Ullikumin haqida qo'shiq", "Telepin haqidagi afsona" va "Illuyanke haqidagi afsona"lar Xett adabiyotining ajoyib namunalari hisoblanadi. O'sha davrda "Suppilium I solnomasi", "Mursili II solnomasi" va "Xattusili III tarjimai holi" kabi tarixiy asarlar ham yaratilgan. Ular tomonidan yozilgan turli asarlar mazmun jihatdan boy bo'lib, xett dunyosining ko'p jihatlarini qamrab olar edi. Umuman, xett madaniyati o'ziga xos bo'lib, sharq xalqlari madaniyatiga, xususan, yunon madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan.

### **Xett davlati va jamiyati. Mitanni**

Mil. avv. II ming yillikda halokatga uchragan Xett davlati to'g'risida tarixiy ma'lumotlar XX asr boshlarigacha deyarli yo'q darajada edi. Bu vaqtgacha Kichik Osiyo va shimoliy Suriyada sirli iyeroglif yozuvlar va tasvirlar topilgan edi. 1887-yil tadqiqotchilar

Tell-Amarna arxividagi diplomatik yozishmalarda Xett podshosining Misr fir'avniga tengligi (uning birodari ) eslatib o'tilganini topishdi. Bu kashfiyot Old Osiyoda qadimda yana bir buyuk davlat mavjud bo'lganini ko'rsatdi. 1906-yil nemis olimi Y.G.Vinkler Bugozgoyada (Turkiya) xetlar poytaxti Xattusi xarobalarida arxeologik qazishmalarga kirishdi. Qazishmalar natijasida Yaqin Sharq tillarida bitilgan o'n minglab taxtachalardan iborat arxiv, jumladan, Xett - Misr tinchlik shartnomasining mixxat varianti topildi. Chex tadqiqotchisi B.Grozniy 1915-yilda chuqur tadqiqotlar natijasida xett tili hind-yevropa tillar oilasiga mansub degan xulosani aytdi, natijada Xett davlati tarixini o'rganish kuchayib ketdi. Olim A.Getse 1933-yil Xett davlati tarixini umumiy ocherkini yaratdi. Bundan tashqari A. Getse 1933-yilda Kichik Osiyo tarixi umumiy ocherkini chop etdi. Muallif Xett davlati harbiy va sulola tarixiga asosiy e'tiborini qaratdi. U Xett jamiyatining bir qancha ijtimoiy-siyosiy muassasalari o'xshashligiga (yer-mulk, majburiyatli yer egaligi) asoslanib, xetlarning ijtimoiy tizimini feodal tuzum deb ta'rifladi. Lingvist va arxeologlar xett madaniyati asoslarini yaratishda protoxetlarni, xurrit qabilalarini o'rnini ko'rsatadigan dalillarni topdilar.

Mil. avv. XX-XVIII asrlarda Kichik Osiyoda ashshurlik savdogarlar bir necha savdo koloniyalarini barpo qildilar. Bu savdo koloniyalari orqali xalqaro savdo olib borildi, eng avvalo, metallar va yuqori sifatli gazlamalar savdosi amalga oshirildi. Bu davrda sharqiy Kichik Osiyoda Xett qabilalari boshqa mahalliy tub joy aholini assimilyatsiya qildilar.

Kichik Osiyodagi Nesa (Kanish), Burusxan, Kussar va Xattusi kabi shaharlarni o'z ichiga olgan siyosiy birlashmalar vujudga kela boshlaydi. Kichik Osiyoning bu siyosiy birlashmalarining ilk birlashuvi miloddan avvalgi XVIII asrning birinchi yarmida yuz beradi. Viloyatlarning birining hokimi Anitta Nesa shahrini markaz qilib, Qora dengizdan Kichik Osiyodagi tuz ko'ligacha hududlarni egallab bepoyon davlatni barpo qiladi.

Qadimgi Xett davlatida urug'-jamoq qoldiqlari hali kuchli bo'lgan. Xett podsholari o'z hokimiyatlarini xalq kengashlariga tayanib amalga oshirgan. Qurol ko'tarishga qobiliyatli bo'lgan

barcha erkaklar podsho chiqaradigan "pankus" deb ataladigan yig'ilishda muntazam ishtirok etgan. Zodagonlar davlat boshqaruvda faol qatnashib, o'zlarini kuchli tayanchi bo'lgan zodagonlar kengashi (Tuliya) orqali xalq yig'iniga boshchilik qilgan. Zodagonlardan tashqari davlat boshqaruvida podsho oilasi: aka-uka va boshqa qarindosh muhim rol o'ynagan.

Qadimgi xett an'anasiga ko'ra podshoning vorisi podsho oilasidan tanlangan. Ko'pincha voris tanlashda podshoning jiyanlari, uning opa-singillarining o'g'illariga imtiyoz berilgan. Odatga ko'ra davlatni ikki hukmdor: podsho va malika boshqargan. Agar podsho vafot qilsa, malika o'z unvonini yangi podsho hukmdorligi vaqtida ham saqlab qolgan. Yangi podshoning rafiqasi malika bo'lish uchun, sobiq podshoni bevasini o'limini kutib turgan.

Anitta vafotidan keyin mil.avv. XVIII asr oxirida boshqa xett urug'i hokimiyat tepasiga keladi. Xett davlatining asoschilarining birlashtiruvchi siyosatini istilochi va islohotchi podsho Labarna (yoki Tabarna) (mil. avv. 1675-1650-yillar atrofida boshqargan) tugallaydi. U istilochilik yurishlarini davom ettirib Tavr-tog' tizmasining shimoliy qismini egallaydi va shimoliy Qora dengizga chiqadi. Xett davlati chegaralarini "Dengizdan-dengizgacha" kengaytiradi. Uning ichki va tashqi siyosati kuchli ta'sirlangan va tan bergan, keyingi vorislari Labarna va uning rafiqasi Tavannanna nomlarini o'zlariga unvon sifatida qabul qiladilar.

Labarna mavjud xett an'analarga zid ravishda o'g'li Xattusilini o'z vorisi deb e'lon qilgan. Xattusili I (mil. avv. 1650-1625-yillar atrofida) poytaxtni xettlarning sobiq bosh markazi Xattusiga ko'chiradi. (Shu voqeadan keyin davlat rasmiy ravishda "Xatti" zamonaviy fanda "Xett" deb atala boshlandi)

O'zaro kelishmovchiliklarga keyinchalik Telepin I (mil. avv. 1530-1500-yillar atrofida) chek qo'yadi. Uning davrida faqat podshoning o'g'li taxtga chiqish huquqiga ega bo'ldi; agar podshoning o'g'illari bo'lmasa uning singlisining o'g'li va eng so'ngida podshoning kuyovlari taxtga davogar bo'lish qoidasi o'rnatilgan. Taxt vorisligining bunday tartibi qat'iy bo'lib, zodagonlar kengashi "pankus"ning taxt vorisligi masalasidagi rolini tugatdi. Ammo qolgan masalalarda "Pankus" o'z huquqini

saqlab qoldi. Pankusning yuqori pog'onasi bo'lgan "Tuliya" hal qiluvchi rol o'ynadi. Tuliyaning ruxsatisiz podsho uning biror-bir a'zosi bo'lgan zodagonni qatl qila olmas edi. Agarda Tuliyaning ruxsati bilan uning biror a'zosiga podsho tomonidan o'lim jazosi berilgan taqdirda ham podsho aybdorning oilasini ta'qib ostiga olish va mol-mulkini musodara qilish huquqidan mahrum edi. Tadqiqotchilar bu davrni (mil. avv. XVIII dan mil. avv. XVI asrlar) qadimgi Xett podsholigi davri deb hisobladilar.

Telepin va uning o'g'li hukmronligidan so'ng, Xett davlatining tushkunlik davri boshlanadi. Bu davr o'rta Xett podsholigi davri (mil. avv. XV asr) deb nom oldi. Xett podsholigining ahvoli yana og'irlashadi. Bir asr davomida Xett davlati va jamiyati go'yoki tushkunlikni boshidan kechiradi.

Mil. avv. XIV asr boshlarida Old Osiyoda Misr, kassitlar Bobili va Mitanni davlatlari zaiflashib, xalqaro munosabatlarda Xett davlatining kuchayishi uchun qulay shart-sharoit tug'iladi. Mil. avv. 1450-yillar atrofida kelib chiqishi xurrit bo'lgan omadli amaldor taxtni egallab yangi xett sulolasiga asos soladi. Yangi sulola podsholari qadimgi xett buyuk davlatchiligi g'oyalarini qaytarishga da'vo qilib, harbiy-byurokratik monarxiyani tashkil qildilar. Podsho ilohiylashtirilgan mutlaq hukmdorga aylandi va o'ziga voris tayinladi (Bu voris alohida "Tuxkante" lavozimiga aylanib, bu vazifadagi kishini zarur bo'lganda almashtirish mumkin edi), endilikda saroy to'ntarishlari isyonga aylanib ketmadi. Shu vaqtdan boshlab podsho alohida samoviy ilohiylik egasi hisoblanib, "Quyoshim" deb ulug'lanadi.

Xett podsholari ichida eng taniqli diplomat, uzoqni ko'ra oladigan siyosatchi, mohir sarkarda Suppilium I (mil. avv. 1380-1335-yillar atrofida) davlatni harbiy qudratini oshiradi. U yengil, tez yuradigan jang aravalari bilan qo'shinni ta'minlaydi. Xett shaharlari, ayniqsa, poytaxt Xattusining mudofaa inshootlari mustahkamlanadi. Suppilium I Sharqiy O'rta Yer dengizi qirg'og'i mayda davlatchalarini va Mitanni davlatini o'ziga bo'ysundiradi. Mitanniga tegishli Suriya viloyatlarini va shaharlarini bosib oladi. Suppilium I o'z kuyovini Mitanni taxtiga o'tkazadi. U Suriyada markazi Karxamish va Xalpa bo'lgan xettlarga qaram davlatlarga asos solib, bu davlatlarni hukmdori qilib o'z o'g'illarini tayinladi.

Bobil va Axey (miken Yunonistoni) davlatlari Suppilium bilan do'stlik aloqalarini o'rnatishga majbur bo'lgan.

So'nggi xett podsholari Tutxaliya IV va uning ikki o'g'li davrida axeylar, Bolqondan kelgan frigiyaliklarni Kichik Osiyoni g'arbida hujumini zo'rg'a qaytaradilar. Axeylar tor-mor qilinganidan keyin Kichik Osiyo g'arbidagi Ilion shahri bosib olinadi. So'nggi xett podshosi Suppilium II Kipr orolini yana qayta bosib oladi. Mil. avv. XII asr oxirida Egey dengizi qirg'oqlari va orollarining etnik jihatdan noma'lum bo'lgan "dengiz xalqlari" Xett davlatini tor-mor qiladilar. (mil. avv. 1190-yillar). Shunday qilib, yangi Xett davlati tarix sahnasidan abadiy tushib ketdi. Markazlari Karxamesh va Melida bo'lgan so'nggi Xett podsholiklari qoldiqlari mil. avv. VIII asr oxirlarida Ossuriya tomonidan tugatiladi.

Yangi Xett davrining xo'jalik va ijtimoiy munosabatlarini tavsiflovchi asosiy manba Xett qonunlaridir. Xo'jalikning asosi dehqonchilik, chorvachilikning qo'ychilik sohasi bo'lgan. Dehqonchilikda sun'iy sug'orish sezilarli bo'lmagan. Sun'iy sug'orish inshootlari cheklangan holatda barpo qilingan.

Hunarmandchilikning taraqqiyoti to'g'risida qonunlar va boshqa hujjatlarda temirchi, kulol, duradgor va tikuvchi kasblari tilga olinadi. Mehnat qurollari va harbiy aslahalar ishlab chiqarish uchun asosiy xom ashyo dastlab mis, keyinchalik qalay edi. Temirdan faqat diniy marosimlar uchun haykalcha va boshqa buyumlar yasashda oz miqdorda foydalanilgan. Xett davlatida podsho oilasi va podsho bosh kohin sifatida juda katta miqdorda yerga egalik qilgan. Podsho va ibodatxona yerlarida ishlovchilar o'z yerlariga biriktirib qo'yilib, turli soliq va majburiyatlarni o'taganlar.

Xett davlati ma'muriyati qarori bilan ekin yerlari ishlovchilar bilan birga o'z foydasiga soliq yig'ish huquqi bilan podsho va ibodatxonalarga berilganlar. Ayrim ibodatxonalar umumdavlat soliqlaridan ozod qiluvchi immunitet yorliqlarini olganlar. Davlat va ibodatxona yerlaridan tashqari boshqa yerlar xususiy mulk bo'lib oldi-sotdi qilingan.

Xett jamiyatida barcha aholi ikki guruhga bo'lingan: soliq to'lovlari va boshqa majburiyatlarni o'tovchi (podsho, ibodatxona yoki xususiy foydasiga) kishilar, erkin bo'lmagan, kamsitilganlar.

To'la ma'noda erkin kishilar deb zodagonlar, amaldorlar, koxinlar va katta yer egalari hisoblanganlar.

Xett davlati bosib olgan hududlarni boshqarmagan, faqat ulardan xiroj olish bilan cheklangan.

Xett jamiyati o'z madaniy taraqqiyotida Misr va Mesopotamiyaning yuksak madaniyatlari ta'siri yaqqol seziladi. Xett madaniyatida, ayniqsa, xurritlarning ta'siri kuchli bo'lgan.

Xettlarning dini o'ziga xos belgilarga ega edi. Manbalarda ularning ming ma'bud va ma'budalari to'g'risida ma'lumotlar uchraydi. Amalda esa, cheklangan miqdordagi ilohlarga sig'inilgan. Poytaxt Xattusining oliy homiysi chaqmoq xudosi edi. U bilan birga xurritlarning chaqmoq xudosi Teshubga ham sig'ingan. Xattusida quyosh, hosildorlik xudosi Telepinga va mahalliy Kilikiya hosil xudosi Sandanga e'tiqod qilingan. Podsho quyoshga o'xshatilib ilohiylashtirilgan. Shu sababli xetlar o'z podsholarini "quyoshim" deb sig'inganlar.

Xett sivilizatsiyasining o'ziga xos, boshqa sivilizatsiyalardan ajratib turadigan jihatlari yoki asosiy yutuqlari nimada edi?

Xett sivilizatsiyasi insoniyat tarixida birinchi bo'lib xetlar jamiyati kuchsiz differensiyallashgan, shahar madaniyati esa ikkinchi o'rinda bo'lgan harbiy imperiyani vujudga keltirgan. O'z podsholigiga barcha yangi va yangi hududlarni qo'shgan, boshqa sivilizatsiyalar an'analarini meros qilgan holda xetlar yangi tarixiy davrni bosib o'ta olmadilar. Xett sivilizatsiyasi tarixi harbiy kuchga asoslangan jamiyatni uzoq yashamasligiga yaqqol misol bo'la oladi.

Xett sivilizatsiyasi yutuqlari ikki xil tasavvur uyg'otadi. O'zining yozuviga ega bo'lmagan holda, xetlar boy adabiyot, afsonalarni yaratgan, Yaqin Sharqdagi masalan, akkadliklarning Sargon va Naramsuen matnlarini, shumerlarning Gilgamesh dostonini, xurritlar afsonalarini xett tiliga tarjima qilganlar.

Ularga xos bo'lgan jihatlardan yana biri - boshqa sivilizatsiyalarga yaxshi moslanuvchanlik edi. Xetlar harbiy g'ildiraklarni keng tarqatish, otlarni ko'paytirish va ularni o'rgatish usullarini, qonuniy yozuvlar amaliyotini o'zlariga moslashtirib qo'llagan.

Xetlarda ko'plab xudolar bo'lgan, ular orasida xett, hind-evropa, ossuriya-bobil, xurrit va boshqalarning xudolari ham o'rin olgan. Xetlar doimo urushlar qilib turgan xalq sifatida din masalasida birmuncha tolerant bo'lganligi bilan farqlangan, ya'ni bu yerda mo'tadil diniy muhit vujudga kelgan.

Xetlarning bu kabi o'ziga xos an'analari keyinchalik Ossuriya sivilizatsiyasida ham o'z tasdig'ini topgan. Xett siyosati va madaniy "merosi"ning davomchilari Kichik Osiyodagi Frigiya va Lidiya davlatlari bo'ldi. Bu yerlarda kelt tillari oilasiga kiruvchi aholi vakillari yashagan. Shimoliy-G'arbiy Eronda esa Midiya, Arman tog'liklarida va shimoliy Kavkazda - Urartu va Mitanni davlatlari bo'ldi.

### **Frigiya davlati**

Kichik Osiyoda Xett davlatining qulashidan so'ng vujudga kelgan siyosiy jihatdan eng salmoqli hisoblangan **Frigiya** bo'ldi. Frigiyaliklar hoynahoy yarimorolning shimoliy-g'arbiy qismidan mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmilarida Makedoniya yoki Frakiyadan kelib o'rnashgan. Ular dehqonchilik, chorvachilik, uzumchilik bilan shug'ullangan, otni ko'paytirganlar. Hunarmandchilikda tosh, metall va daraxtni qayta ishlash, tikuvchilik va gilam tayyorlash bilan shug'ullangan. Frigiyaning siyosiy tarix va ijtimoiy tuzilishi antik mualliflarning ma'lumotlari va afsonalar orqali ma'lum. Eski Frigiya yozuvlarining katta bo'lmagan qismi mil. avv. VIII-VII asrlardagi qabrlardagi yozuvlar qisqa va ixchamligi sababli ularga aniq bir mazmunini berishda murakkablikni keltirib chiqaradi.

Afsonaviy hukmdor Gordiy mustaqil Frigiya podsholigini vujudga kelganligini e'lon qiladi. Bu afsonaga ko'ra, Gordiyning o'zi yer haydovchi bo'lgan, lekin Delfiy bashoratchisi xohish-irodasiga ko'ra, podsho bo'lgan.

Frigiya o'zining eng gullab-yashnagan davri podsho Midas (Gerodot uning eshakni qulog'iga o'xshash qulog'i haqida yozgan: u go'yoki diadema o'rniga eshak kallasi tushirilgan teridan ishlangan bosh kiyim kiygan, chunki eshak frigiyaliklarda donolik ramzi hisoblangan) davriga to'g'ri kelgan. Bu ham shumerlardan

o'tgan deyish mumkin. Chunki shumerlarda ham quloqning kattaligi davlatning aqliy belgisi hisoblangan, "eshak" va "gullab-yashnash" so'zlari esa omonim so'zlar hisoblangan. Haqiqatdan ham quloqlar kichikligidan boshlab quloq yumshog'iga og'ir yuklar osib, yuqori tomonidan tortilib alohida "o'stirilgan". Shuning uchun ham devoriy tasvirlardagi kohin va podsholar katta quloqlarda tasvirlangan.

Frigiyaliklar ona – xudo Kibeluga e'tiqod qilgan, e'tiqod markazi esa Pessinunt shahri bo'lgan. Ularning e'tiqodlari umum hind-yevropa avvalgi shakllaridan kelib chiqqan. Dunyoning bino bo'lishini go'yo dunyo daraxti deb tasavvur qilishi shular jumlasidandir. Bu Buyuk Onaning ma'shuqi o'lik Attisa xudosining tanasidan o'sib chiqqan sosna daraxti bo'lgan. Bu ona xudo onalik va hosildorlik xudosi hisoblangan.

### **Lidiya davlati**

Lidiya hududi Kichik Osiyoning g'arbiy qismining markaziy qismi hisoblangan. Shuning uchun bu hudud metallarga, ayniqsa, oltinga boy bo'lgan. Qadimgi yunon va qadimgi Sharq dunyosining kesishgan joyida joylashgan Lidiya faol o'rtakashlik savdo-sotiq ishlarini olib borgan. Aynan shu yerda dastlabki o'ziga xos "shahar transporti" – tor, uzun, pullik yo'lovchi g'ildirakli arava keng qo'llanilgan.

Lidiya podsholari tarixga tanga – ya'ni universal almashinuv vositasini ixtirochilari sifatida kirgan. Podsho Giges (mil. avv 692-654) davrida tabiiy oltin va kumush eritmasidan tangalar ishlab chiqilgan. Podsho Krez davrida tangalar oltindan ishlangan. Metalga ishlov berish ham Lidiyada o'z davrida juda yuqori darajaga chiqqan. Lidiya podsholari Ioniya, Frigiya, Likiya, Kariyadan o'z harbiy xizmatiga ajnabiy-yollanmalarni keng qo'llay boshlagan. Podshoning doimiy qo'riqlovchi qo'shini esa faqat mahalliy vakillardan qo'yilgan.

Lidiya siyosiy tuzilmasi podsho kengashidan tarkib topgan bo'lib, unga yer jamoalari zodagonlari kirgan. Umumdavlat masalalarida xalq kengashlari chaqirilgan. Ular o'z qarorlarini podsho kengashiga yuborib turgan.

## Finikiya sivilizatsiyasi

Finikiya sivilizatsiyasi bu Yaqin Sharqda – O'rta Yer dengizining sharqiy qirg'og'ida, hozir Suriya, Livan va Isroilga tegishli hududlarda rivojlangan va keng tarqalgan sivilizatsiya edi. Bu sivilizatsiya qadimiy yunon madaniyatining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu sivilizatsiya, shuningdek, o'z davrida yozuv tizimini kashf etgan va Yevropa sivilizatsiyasi hamda mavjud bo'lgan davr ilm-fan va madaniyatiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatgan. Masalan, olimlar arab, yunon va lotin tili alifbolarini Finikiya alifbosi vujudga kelishining ta'sirida deb baholaydilar.

Finikiya nomi va uning kelib chiqishiga to'xtalsak, ba'zi manbalarga ko'ra, Finikiya nomining kelib chiqishi yunoncha "fonioks - binafsharang" degan ma'noni anglatadi, bu finikiyalik savdogarlar qadimiy Yunonistonga yetkazilgan binafsharang bo'yoq nomi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Finikiyaliklarning o'zlarini qanday nom bilan ataganliklari ma'lum emas, lekin yunonlar bilan aloqa o'rnatilgan davrlarda arablar, yahudiyalar, qadimiy bobilliklar va ossuriyaliklar kabi Somiy guruhiga mansub tilda so'zlashganligi ma'lum. Finikiyaliklarning dastlabki ajdodlari somiy tilida gapirganliklari aniq emas. Lekin ularning somiy tilidan foydalanishlari haqida quyidagicha taxmin mavjud, ya'ni somiy tilida gaplashuvchi ko'plab jamoalarning migratsiyasi va o'zaro nikoh natijasida ular asta-sekin somiy tili guruhlariga kirib borganlar. Finikiyaliklarning tashqi ko'rinishi haqida ham izlanishlar olib borilgan va bu izlanishlar natijalari Finikiya hududida yashagan odamlarning qoldiqlarini antropologik tadqiq qilish va saqlanib qolgan qadimiy tasvirlar bilan taqqoslash ularning uzun bo'yli, uzun ko'zlari, jingalak sochlari, jingalak soqolli bo'lganligini ko'rsatgan. Qadimgi Misr manbalariga ko'ra, somiy qabilalari mil. avv. III ming yillikda O'rta Yer dengizi qirg'oqlarida paydo bo'lgan.

Mil. avv. 1200-yillar atrofida Finikiya sivilizatsiyasida yangicha yuksalish davri boshlandi. Bu davrda hozirgi Suriya, Falastin hududlari Finikiya hududiga birlashtirila bordi. Bundan tashqari, Misr bilan savdo aloqalari yo'lga qo'yildi. Uzunligi 30 metrga yetadigan savdo kemalari bunyod etiladigan bo'lgan.

Shu bilan birga Ispaniyadagi Kadis va Tunis hududidagi Utika koloniyalariga asos solindi. Keyinchalik koloniyalar Sardiniya hududida ham paydo bo'ldi. Bu davrda Sitsiliyadagi Palermoga ham asos solindi. Mil. avv. VIII asrda Finikiya Ossuriya tomonidan zabt etiladi. Ossuriyadan qutulish uchun uzoq vaqt ozodlik harakatlari olib borildi. Shuningdek, bu davrda Ossuriyaga qaramlik savdo ishlari uchun to'siq bo'la olmagan, sivilizatsiya rivojlanishda davom etayvergan. Finikiyani 538-yilda forslar hukmronligi ostiga birlashtirilishi bu rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Mil. avv. 332-yilda Finikiya Aleksandr tomonidan bosib olindi. Bu esa mazkur sivilizatsiya uchun tanazzulga olib kelgan jarayon edi. Keyinchalik Rim hukmronligi davrida Finikiya hududi Suriya provinsiyasiga birlashtirildi. Ba'zi tarixchilar Finikiya sivilizatsiyasining so'nggi davri sifatida aynan Rim hukmronligining boshlanishini ko'rsatadi.

Finikiya hududi O'rta Yer dengizi qirg'og'i bo'ylab tor tasmaimon yo'l kabi cho'zilgan bo'lib, Livan tog'laridan oqib tushayotgan daryolardan osongina sug'orilgan vodiylarni qamrab olgan. Finikiya boyligi va farovonligining asoslari finikiyaliklarning dengiz savdosi bilan ham bog'liq edi. Dengizchilik sohasida keyingi davrda yunon kemalariga asos va andoza bo'lgan kemalarni ham ixtiro qilganlar. Yunonlar finikiyaliklardan dengizchilik san'atini hamda u bilan bog'liq turfa bilimlarni o'rgandilar, keyinchalik bu san'atni rivojlangan yuksakliklarga aylantirib, O'rta Yer dengizi bo'ylab uzoq vaqt hukmronlik qila boshladilar. Finikiyaliklarning sivilizatsiyasiga yana sabablardan biri bugungi Livan tog'larida o'suvchi kedr daraxtlari ham edi. Yuqorida ta'kidlangan Finikiya kemalari va dengizchilik san'ati uchun ham kedr daraxti bir omil bo'lgan. Kedr daraxti bir vaqtning o'zida boshqa davlatlar bozorlarida xaridorgir mahsulot ham edi.

Mil. avv. II ming yillik o'rtalariga kelib, finikiyalik dengizchilar hatto okean mintaqalarida ham bemalol suza oluvchi kemalarni yasay boshlaydilar. Finikiyaliklar, shuningdek, unumdor sug'oriladigan vodiylarda bog'dorchilik, zaytun, xurmo va uzum yetishtirish bilan faol shug'ullanishgan. Shuningdek, ularning joylashuv o'rinlaridan ham ma'lumki sohil aholisi baliq

ovlash bilan shug'ullangan, shahar hunarmandlari qimmatbaho jun va ipak matolarni, zaytun, fil suyagi va metallardan tayyorlangan mahsulotlar ishlab chiqarganlar. Dengiz molyuskalarining qobig'idan finikiyaliklar matolarni bo'yash uchun ishlatiladigan binafsha rang bo'yoqni ham olish yo'llaridan xabardor bo'lishgan. Yuqorida aytib o'tilganidek biz Finikiyaning joylashuv o'rniga ahamiyat beradigan bo'lsak, dehqonchilikka mos keladigan katta miqdorda yerlarning yetishmasligi sababli bu soha finikiyaliklarning iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynamadi. Ammo mavjud yer zaxiralaridan foydalanilsa ham serhosillikni taminlasa bo'lar edi, chunki dengiz shamollari mo'l-ko'l yomg'ir yog'dirardi. O'rta Yer dengizi sharqidagi qirg'oqqa qo'shni mamlakatlar zarur bo'lgan tabiiy resurslar bilan mashhur bo'lgan. Finikiyaliklar savdo qiladigan asosiy mahsulotlardan biri quritilgan baliq edi. Livanning eman va kedr o'rmonlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular qo'shni hududlarni mukammal kema qurilish materiallari bilan ta'minlar edilar.

Shuningdek, bu kabi yog'ochlardan Misrda tobutlar yasalgan, unda misrlik dindorlarning mumiyolari joylashtirilgan. Finikiyaning iqtisodiy hayotidagi taraqqiyotga miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalaridagi birlashuv jarayoni ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Finikiyadagi qishloq xo'jaligi uchun yaroqli bo'lgan hudud juda oz edi, ammo yer juda samarali hosil beriladigan qilib parvarishlangan va juda mohirlik bilan ishlangan. Shu bilan birga savdo-sotiq finikiyaliklar iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega edi. Bog'dorchilikning muhim mahsuloti zaytun moyi hisoblangan. Finikiyalik hunarmandlar mahsulotlari yuqori badiiy sifati bilan ajralib turardi va Misr fir'avnlari va Mitanni podsholari uchun katta ahamiyatga ega edi. Miloddan avvalgi I ming yillikda shishasozlik texnikasidan foydalangan holda Finikiya shisha idishlari mashhur bo'ldi.

Misr hukmronligi davrida Finikiya matolari Nil vodiysiga eksport qilindi. Finikiyaliklar birinchi bo'lib jun va zig'ir mato bilan bo'yalgan maxsus yumshoq matolardan binafsha mato yasashni boshladilar. Mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan bir qatorda finikiyaliklar Kichik Osiyodan, Kiprdan, Kritdan, Yunonistonning Miken hududlaridan, O'rta Yer dengizi g'arbiy

hududlaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan ham savdo ishlarini yurgizishgan. Haqiqatdan ham Finikiya qo'lida O'rta Yer dengizining barcha tranzit savdolarini jamlagan. Kichik Osiyodan finikiyaliklar kumush va qo'rg'oshin, keyinroq esa temir olganlar. Mis Kiprdan Finikiya shaharlariga yetkazib berilgan. Kritdan Finikiyaliklar Egey badiiy hunarmandlarining mahsulotlarini va boshqa O'rta Yer dengizi mamlakatlarining mahsulotlarini oladilar. Shulardan ham bilib olishimiz mumkinki, finikiyaliklar nafaqat o'z mahsulotlarini sotish uchun, balki boshqa bir hudud mahsulotlarini ham sotish bilan haqiqiy savdogar davlatga aylanib ulgurgan edi.

Dengizda finikiyaliklar uzoq vaqt davomida mutlaq hukmronlik qildilar. Ular nafaqat tinch savdo qildilar, balki qaroqchilik bilan shug'ullanishgan, ba'zan finikiyalik savdogarlar boshqalarning mollarini egallash uchun bir-birining kemalariga hujum qilishgan. Finikiyaliklarning tabiiy mudofaa tizimlari ham mavjud bo'lgan. Bunda Ossuriya va Bobildan himoya qiluvchi tog' tizmalari alohida tilga olinadi. Finikiyaning siyosiy tuzilishi haqida oz ma'lumotlar uchraydi va u umuman yagona davlat emas, balki mustaqil va yarim mustaqil shaharlar guruhiga mansub deb qabul qilingan. Bu kabi shaharlar faqatgina umumiy maqsadlarni amalga oshirish uchun birlashdilar: dushmanlardan himoya qilish, sug'orish tizimini boshqarish. Finikiya shaharlari mintaqada eng katta ta'sirga ega bo'lgan.

Mil. avv X-IX asrlarda Finikiya sivilizatsiyasi gullab-yashnashi kuzatiladi. Finikiyada eng boy shaharlar sifatida Bibl, Tir, Sidon shaharlari tilga olinadi. Finikiya shaharlari orasida eng qudratli va yirigi Sidon deb taxmin qilinadi, bunga sabab qilib esa qadimda yahudiy va yunonlar tomonidan ishlatilib kelinuvchi "butun finikiyaliklar bu sidonliklardir" degan ibora edi. Mil. avv. X asrda Finikiyaning siyosiy va iqtisodiy hayotining qudratli o'chog'i yana bir shahar - Tirda ko'rinadi. Shu davrdagina Finikiya deyarli bir hokimiyat asosida yagona davlatda birlashdi. Bu birlashuv oqibatida Finikiya jamiyatida umumiy rivojlanish va taraqqiyot jarayoni ko'rinadi. Bundan tashqari finikiyaliklar qanchalik dengizchilik ishlariga mohir bo'lishmasin, shu davrga qadar Finikiya, asosan, o'z qobig'i orasida taraqqiy etib

borayotgan bo'lsa, endi esa faol tashqi munosabatlar ham Finikiya sivilizatsiyasiga ta'sir etib bordi. Masalan, Tir shahri Yahudiy podshohligi bilan ittifoq tuzdi va bunda o'zaro savdo munosabatlari yo'lga qo'yilganligini ko'rib o'tishimiz mumkin. Bu davrga xos xususiyatlardan yana biri bu finikiyaliklar orasidan yetishib chiqqan dengizchilar tomonidan yangi yerlarga sayohat va qadimgi dunyo kolonizatsiya tizimining yo'lga qo'yilish davri hisoblanadi. Bunda ularning katta va barqaror kemalarida uzoq safarlarga, O'rta Yer dengizi bo'yida yangi yashash joyi uchun qulay joylarga, ba'zan o'z mamlakatidan minglab kilometr yo'l yurib yangi shaharlarga asos solishdi. Finikiyaliklar asos solgan koloniyalar deyarli butun O'rta Yer dengizi qirg'og'ida, ayniqsa, Kipr, Korsika, Krit, Malta, Sitsiliya va Sardiniya orollarida tarqaldi. Ammo eng yirik Finikiya koloniyalari mil. avv IX asrda barpo etilgan. Afrika va Italiyaning qabilalari bilan faol savdo olib borgan Karfagen biroz vaqt o'tgach qadimiy Finikiya hududining barcha shaharlaridan ko'ra boyroq bo'lib, hudud jihatdan ham kengayib borar edi. Yuqorida takidlanganidek, Finikiya sivilizatsiyasining asosiy xususiyatlaridan biri - bu uning o'z yozuv tizimiga ega bo'lganligidir. Bu yozuv III ming yil ilgari vujudga kelgan. Finikiya alifbosi bu - finikiyaliklarning o'z nutqlarini yozma tizimga solish uchun yaratilgan harflarning tizimli shakli hisoblanadi. Bu yozuvni sivilizatsiyaning bir qismi va Finikiya jamiyatining yutug'i sifatida o'rganish ishlarini olib borgan yozuvshunos olim Per Montening ta'kidlashicha, Finikiya yozuvi mil. avv XIII asrda kashf qilingan. Ammo bu masala ham hozirga qadar bahsli hisoblanadi. Bu masala yuzasidan izlanishlar olib borgan olimlardan yana biri Gibson XX asrning 80-yillarida izlanishlar olib bordi va uning xulosasiga ko'ra, Finikiya alifbosi mil. avv. XI asrda ixtiro qilingan. Shuningdek, yana bir olim Richart fikricha 1972-yili Sareppa qishlog'ida (qadimiy Tir va Sidon oraliq'ida) olib borgan tadqiqotlari natijasida Finikiya yozuvi mil. avv. XIII asrda yaratilgan bo'lishi mumkin. Keyinchalik esa bu alifboni yunonlar o'zlashtirganlar va o'z nutqlarining yozma asosi etib belgilaganlar. Yunoniston hududidagi assimilyatsiya jarayonlarida bu alifboda ayrim o'zgarishlar yuz beradi. Alifbo finikiyaliklar nutqiga moslashgan 22 harfdan iborat edi. Keyinchalik yunonlar

nutqini ifodalash uchun uning harflari soni 24 taga yetdi. Garchi alifboda o'zgarishlar yuz bergan bo'lsa-da, keyingi davrdagi ko'plab kashf qilingan alifbolar negizida aynan Finikiya alifbosi yotadi.

Finikiyaliklarning inson sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi katta ahamiyatga ega. Buni nafaqat alifbo tizimi bilan, balki finikiyaliklar birinchilardan bo'lib uzunlik va vazn o'lchov birliklari, metallardan foydalanish va shishasozlik sirlarini bilishgan va foydalanishganligi bilan ham izohlash mumkin. Shuningdek, kemasozlikka katta e'tibor berib, bu sohani doimo takomillashtirib borganlar. Yaratilgan kemalar orqali ular uzoq hududlarga, xususan, O'rta Yer dengizi, Qora dengiz bo'ylab savdo ishlarini olib borgan.

Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra Finikiya savdogarlari Hindiston va Seylon hududlari bilan savdo ishlarini olib borishgan. Ular o'z kema qatnovlari orqali yangi davrdagi Vaskoda Gamadan 20 asr ilgari ketishgan edi. Ular kema qatnovi paytida Quyosh, Oy va yulduzlarga tayangan holda harakat yo'nalishlarini aniqlashgan. O'z davrining boshqa davlatlaridan farqli ravishda Finikiya davlati jamiyatida urushlarga moyillik va bosqinchilik xususiyati yuqori bo'lmagan. Aksincha, aholi turli bosqinlarga e'tibor bermay, o'z mashg'ulotini davom ettirgan bu esa sivilizatsiyaning bardavom kechishiga sabab bo'lgan.

Shunday qilib, Sharqiy O'rta Yer dengizida qadimda daryo sivilizatsiyaning rivojlanishidan farq qiluvchi Finikiya va qadimgi Falastin singari **dengiz sivilizatsiyalari** vujudga keldi.

Qanday sabablarga ko'ra, bu yerda dengiz sivilizatsiyasi vujudga keldi?

Birinchi navbatda ikki iqlim zonasini tashkil etgan O'rta Yer dengizidagi landshaftning o'ziga xos xususiyatlari. Birinchi zona – yengil O'rta yer dengizi iqlimi, unumdor yeri va qulay dengiz to'xtash joylari. Ikkinchisi esa, shiddatli iqlimli keng yassitog'liklar, katta bo'lmagan daryolari bor vodiylar va cho'lli oazislar. Ya'ni 2 ta daryo: Oront va Iordaniya Nil, Dajla, Frot singari to'liq oquvchi, suvga to'la, katta irrigatsiya tizimlarini talab qiluvchi, kuchli davlat va mustahkam markaziy hukumatni yarata olmas edi.

Qolaversa, Sharqiy O'rta yer dengizining katta bo'lmagan dunyosida shahar-davlatlar o'zaro doimiy raqobat qilib kelgan. Yoki bittasi hammasiga qarshi, yoki hamma bittasiga qarshi ko'rinishida. O'z manfaatlari yuzasidan olib borgan qonli janglar bu shahar-davlatlarga tashqi dushmanlarga qarshi turib berish imkonini bermagan.

Bu yerlarda sivilizatsiya vujudga kelgan davrlarda Sharqiy O'rta Yer dengizi noyob va o'ziga xos, insoniyat tarixida birinchi kommunikatsiya, savdo, madaniy aloqalar va munosabatlar markaziga aylangan. Bu yerda Mesopotamiya, Misr, Xett, Ossuriya, qadimgi yunon sivilizatsiyalari kesishgan. Sharqiy O'rta Yer dengizi Old Osiyo, Shimoliy Afrika, Janubiy-sharqiy va Janubiy-g'arbiy Yevropani birlashtirib turgan.

### **Suriya lokal sivilizatsiyasining shakllanishidagi shart-sharoitlar**

Qadimgi Suriya ham 3 ta kontinent: Falastin, Finikiya, O'rta Yer dengizi, Kichik Osiyo, Mesopotamiya va Arabiston kesishuvida joylashgan. Uning katta qismi cho'l va shimoliy qismidagi ma'lum bir qism unumli yerlardan iborat yarim cho'l, Tadmor (hozirgi Palmira) va janubdagi Damashq yerlaridan iborat bo'lgan.

Uning aholisi hayotida juda shiddat bilan oqib o'tuvchi Oront daryosi katta rol o'ynagan. Ana shu daryo bo'yidagi yerlar unumdorligi bilan boshqa joylardan farqlangan. Bug'doy dalalari, uzumchilik, zaytun daraxtzorlari o'lkaning boyligi hisoblangan. Bu narsalar Suriyaning na sharqiy qismida va na cho'llik qismida bo'lmagan. Biroq cho'lli yerlar bahorda suv bilan to'yinib, chorva boqish uchun o'simliklar dunyosini hosil qilgan.

Qadimgi Suriya ham chorvachilik va dehqonchilik birinchi bo'lib vujudga kelgan hududlar qatoriga kirgan, ularning rivojlanishi, shuningdek, qo'shni mamlakatlar bilan savdo-sotiq aloqalarini o'rnatilishi bu yerda shakllanayotgan sivilizatsiya xarakterini aks ettirgan. Suriya orqali Mesopotamiya, Misr, Kichik Osiyo va Arabistonni bog'lab turuvchi karvon yo'llari o'tgan edi. Shu boisdan qo'shni mamlakatlar tomonidan xalqaro savdo almashinuvi yo'lini qo'lga kiritish maqsadida doimiy hujumlar

bo'lib turgan. Bu yerda yirik mustaqil davlat tuzishga to'sqinlik qiluvchi Misr ham, Shumer, Akkad, Xett podsholari, Mitanni davlatining vaqti-vaqti bilan hukmronligi o'rnatilib turgan. Cho'l tomonidan Suriyaga vaqti-vaqti bilan ko'chmanchi qabilalar ham kirib borgan. Bularning barchasi hududdagi sivilizatsiya jarayonlarini sekinlashtirgan, biroq mil. avv. III ming yillardayoq Shimoliy Suriya Sharqiy O'rta Yer dengizidagi sivilizatsiya o'choqlaridan biriga aylangan edi.

Xo'sh, Qadimgi Suriyadagi sivilizatsiya kimlar tomonidan vujudga keltirilgan? Uning aholisini asosini somiy tillariga mansub ko'chmanchi va yarimko'chmanchi amoriy va oromiylar tashkil qilgan. Ular bilan birga aralashgan holda Kavkazortidan Suriyaga kirib kelgan somiy bo'lmagan xurrit qabilalari ham istiqomat qilgan.

Bu yerda hukmron bo'lgan somiy tili oilasiga kiruvchi **amoriy** tili bilan birga xurrit tili ham mavjud ediki, unda Suriya aholisining ma'lum bir qismi gaplashgan.

Yuqorida aytilganidek, Suriya dehqonchilik va chorvachilik vujudga kelgan markazlardan biri hisoblanadi. Mil. avv. VI ming yillikdayoq, bu yerda bug'doy va arpa ekadigan, mol, qo'y, echki boqadigan aholi yashaydigan manzilgohlar bo'lgan. Aynan shu yerda unchalik murakkab bo'lmagan, ya'ni soddaroq ornament tasvirlari tushirilgan qizil idishlar tayyorlangan. Bunda loyga qum yoki yirik somon qo'shilgan.

Mil. avv. V ming yillikda Suriyaning shimoliy qismi Mesopotamiya sivilizatsiyasining kuchli ta'siri ostida bo'lgan. Bu yerda ham metallurgiya, metallarga ishlov berish, mis, oltin va kumushdan turli buyumlar tayyorlash boshlangan.

Mil. avv. IV-III ming yillikka kelib Shimoliy Suriya faol almashinuv va savdo rivojlangan zonaga aylanganki, bu asta-sekin shahar tipidagi manzilgohlarni vujudga kelishiga, sivilizatsiyani shakllanishiga olib kelgan.

Mil. avv. II ming yillikda Yaxmad, Ebla, Alalax, Karxamish, Katna, Damashq podsholigi va Amurru shaharlari birmuncha ahamiyatga ega bo'lgan.

Yaxmad va Ebla shaharlari Suriya lokal sivilizatsiyasining yaqqol namunasi hisoblanadi. Ebla o'z davrida o'ziga xos tipdagi,

ehtimol, Shimoliy Suriyaning o'zida eng kuchli shahar-davlat bo'lgan. U davrda oddiy shahar-davlatning hududi taxminan 40-60 gektarni tashkil etgan bir vaqtda Eblaning hududi taxminan 180-200 km diametrga to'g'ri kelgan. Shahar 3 ta qismga bo'lingan: Markaziy, shahar, chekka hududlar.

Dastlabki 2 ta qismi **malikum** (ya'ni maslahat beruvchi kishi) unvoniga ega bo'lgan hukmdorga bo'ysungan. Ebla malikumi shu bilan birga hosildorlik xudosining kohini hisoblanib, u bilan yolg'iz o'zi boshqarmagan. Uning yonida 2-3 maslahatchi hamda qator ma'mur-administratsiya ham bo'lgan. Podsho-kohin saroyda yashagan. Ebla Mesopotamiya sivilizatsiyasi shaharlari bilan xalqaro savdo-sotiqning markazi hisoblangan.

Ebla xo'jaligi davlat xo'jaligi bo'lgan. Eblaliklar shu davlatda nima yetishtirilsa, masalan, chorva, un, boshhoq, uzum, zaytun, jun, teri, sut mahsulotlari kabi narsalarni hammasidan saroyga yuborishi majburiy bo'lgan.

Eblaning yana bir muhim jihati – bu uning arxivi hisoblanadi. Shumer mixxatida, biroq, umuman notanish bo'lgan ebla tilida yozilgan 17.000 ta loy taxchalari hisoblanadi. U Mesopotamiya sivilizatsiyasi yodgorliklarida o'rganilgan akkad tiliga yaqin, balki finikiya yoki ivrit tiliga yaqin bo'lishi ham mumkin. Demak, Suriyadagi ilk shahar-davlatlar mil. avv. III ming yillikdayoq, Mesopotamiya va Misr sivilizatsiyasining tengdoshi bo'lgan Ebla tili va yozuvi bilan o'z sivilizatsiyasini vujudga keltirgan.

Suriyadagi sivilizatsiya ritmi doimiy bostirib kirishlar va qabilalarning migratsiyasi sharoitida birgina buyuk kashfiyot natijasida buzilgan. Bu ham bo'lsa, ularning qo'shnisi hisoblangan finikiyaliklarning junni molyuskalar qo'shilgan qadimgi qimmat binafsha rang bo'yoq bilan bo'yashi edi. Natijada Suriya rayonlari chorvachiligi yetkazib beradigan bo'yalmagan junga bo'lgan talab ortib borgan.

Mil.avv. II ming yillik oxirlarida sivilizatsiyaning komponentlaridan biri hisoblangan tilni o'zgarganiga hali 2 asr ham o'tmasdan cho'l rayonlaridan Suriyaga oromiylar kirib kela boshlagan. Mahalliy aholining barchasi oromiylashib, amoriy va xanan tili o'rnini egallagan oromiy tiliga o'tilgan. Mil. avv. I ming yillik davomida bu oromiy tili butun Yaqin Sharq, Misr, Kichik

Osiyo va Hindistonga qadar xalqaro muloqot tiliga aylangan. Natijada uning asosida yahudiylarning kvadratli yozuvi vujudga kelgan. Taxminan shu davrda 2 ta sivilizatsiya rivojlangan markaz: shimolda shahar-davlat Karxemish va Suriya janubida Damashq podsholigi vujudga kelgan. Biroq har ikkisiga ham Nil va Frot daryolari basseynlari tashqarisidagi kabi katta despotiyaga birlashish nasib qilmagan.

Shunday qilib, shahar-davlatlar rivojining Suriya tipi sivilizatsiyani noqulay shart-sharoitlarda shakllanishiga misol bo'la oladi. Eng asosiysi, ikki tomonlama va qarama-qarshi ta'sir ko'rsatuvchi omil Suriya uchun kuchli, rivojlangan sivilizatsiyalarga qo'shni bo'lganligi edi. Ulardan ma'lum bir yutuqlarni o'zlashtirib olish imkoniyati bo'lgan, shu bilan bir qatorda ularning ta'siri Suriyaning o'zini sivilizatsiyasiga to'sqinlik qilishi mumkin edi, albatta, bu narsa sodir bo'lmagan. Suriya sivilizatsiyasi o'zining individual yuzini yaratib va saqlab qola olgan va ming yil o'tib, o'rta asrlarda, bu mintaqada yangi sivilizatsiyani boshlab berishga imkon yaratgan.

### **Qadimgi Falastin sivilizatsiyasining yutuq va o'ziga xosliklari**

Falastin va uning xalqi tarixiga e'tibor qaratisa, bu yerda vujudga kelgan sivilizatsiyaning shakllanishi borasida to'liq tasavvurga ega bo'lish qiyin. Falastin xalqi o'z rivojida ko'p narsalarni qo'shnilaridan o'zlashtirgan, shu bilan bir qatorda o'z hududidagi sivilizatsion jarayonlarni ham tezlashtirgan. Masalan, Misr va Mesopotamiya sivilizatsiyalariga xos bo'lgan badiiy elementlarning ko'pi Falastinga kirib kelgan, jumladan, quyosh diski, sfinks obrazi, ornamentdagi lotos va hokazo. Falastindagi katta bo'lmagan davlatlar mavjudligi sharoitida, Falastinning kichkina qal'alarida Misr va Mesopotamiyada bo'lgani kabi monumental qurilishlar qilishni imkoni bo'lmagan. Bu yerga badiiy hunarmandchilik xos edi. Arxeologlar bu yerlardan fil suyagi, oltin, rangli tosh va boshqa materiallardan yasalgan ko'plab narsalarni topganlar.

Afsuski, Iyerusalimda Solomonning na saroyi va na ibodatxonasi saqlanmagan. Lekin Bibliyadagi ta'rifga qarab

Falastin yodgorliklarining umumiy holati to'g'risida tasavvur hosil qilish mumkin. Unga ko'ra, Iyerusalim ibodatxonasi Yaxva xudosi sharafiga Moriya tog'ida barpo etilgan. Misr qurilishlariga o'xshagan ko'p sonli fligeyalari bo'lgan. Uning silliq devorlari bir-biriga temir bilan mustahkamlangan toshdan qilingan. ibodatxonaga kirish eshigi zaytun daraxtidan qilingan va tilla ishlatilgan eshikdan kirilgan. Ichki binosi kedr daraxtidan qilingan, kesma tasvirlar va ornamentlar bilan bezalgan. Iyerusalim ibodatxonasi Bobil podshosi Navuxodonosor tomonidan buzib tashlangan. Bobilliklardan so'ng uning o'rnida ikkinchi ibodatxona qurilgan. Biroq u ham rimliklar tomonidan buzib tashlangan. Uning faqat "Yig'i devori" deb ataluvchi g'arbiy devori qolgan xolos. Bu devor iudaizm izdoshlarining e'tiqod qiladigan joylaridan biri hisoblangan.

### **Iyerusalim ibodatxonasi**

Falastin shaharlari qadimgi Falastin sivilizatsiyasining yutuqlaridan biri hisoblanadi. Ularning eng qadimiylari Iyerixon, Iyerusalim, Xevron, G'azo, Kadesh, Samariya, Megiddolar nafaqat siyosiy va savdo-xo'jalik markazlari, balki (mil. avv. VIII-II asrlar) O'q davri nuqtalaridan biri hisoblanadi. Bu nuqtada hozirda mavjud dunyo va odam to'g'risidagi tushunchalar vujudga kelgan. K.Yaspers, "o'sha paytda sodir bo'lgan va o'sha davrda o'ylab topilgan narsalar bilan, odamlar to hozirgi kunga qadar yashab kelmoqda", deb yozadi. Falastin shahar-davlatlarida ham xuddi Xitoy, Hindiston, Eron, Yunoniston singari umumiy ruh uyg'onib, inson o'z turmushini anglagan, oliy qadriyat va maqsadlarni tafakkur qilgan holda, o'simliklar dunyosidan uzoqlasha borgan.

Iudaizm mil. avv. II ming yillikda vujudga kelgan, ya'ni yahudiylarning Misrdan Xanaanga o'tish, uning birmuncha rivojlangan Isroil-Iudaizm davriga, keyin esa Iudaizm podsholigi, politeizm Yaxve xudosining yagona kulti bilan almashgan paytga to'g'ri keldi. Yahudiylar umiddan boshqa hamma narsasini yo'qotgan, daryo bo'ylarida o'tirgan paytlarida, ularning payg'ambarlari faqat saqlab qolingan e'tiqod va Muso

qonunlarigina Falastinni qaytarib berishi mumkinligiga ishon tirgan paytga to'g'ri keldi.

Yahudiylarning davlat va siyosat borasidagi faoliyatlarining ahamiyati nisbatan kamroq bo'lgan. Mil. avv. XI asrda Misrdan qaytgan va zamonaviy Isroil yerlaridagi mahalliy aholini siqib qo'ygan qadimgi yahudiy qabilalari Isroil- Iudaizm podsholigiga asos solgan. Uni podsho Saul, Dovud, Solomon boshqargan.

Xanaan egallanganidan so'ng yahudiylar o'troqlashgan aholiga aylangan, dehqonchilik bilan shug'ullangan. Vaqt o'tishi bilan dehqonchilik bilan savdo-sotiq ham raqobatga kirishgan.

### **Muhokama uchun savollar**

1. Xett tarixiga doir qanday ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan?

2. Kichik Osiyoning qaysi hududi Xett davlatining markaziga aylangan?

3. Telepinning ichki va tashqi siyosatiga tavsif bering.

4. Kimning hukmronligi davrida Xett podsholigi siyosiy o'sishning eng yuqori cho'qqisiga chiqqan?

5. Mitanni davlatining vujudga kelishi, rivojlanishi va inqirozining sabablari nimalarda aks etgan?

6. Finikiya deganda nima nazarda tutiladi? Qadimgi finikiyalarning asosiy mashg'ulotlari nimalardan iborat bo'lgan? Ularning qaysi birlari Finikiya podsholiklarining gullab-yashnashida muhim rol o'ynagan?

7. Qadimgi Frigiya, Midiya, Lidiya davlatlarining jahon sivilizatsiyalari tarixidagi o'rniga baho bering.

8. Yahudiy qabilalarining birlashining asosiy bosqichlarini aniqlang. Isroil qabilalarining bir davlatga birlashishida qanday tashqi omillar ta'sir ko'rsatgan?

9. Isroil asoschisi Iuda va uning davomchisi Solomonning ichki va tashqi siyosatidagi farqni toping? Qanday ikkita mustaqil podsholikka ajralib ketdi? Bunga nima sabab bo'lgan?

## 5-MAVZU. QADIMGI KAVKAZORTI O'LKALARINING SIVILIZATSIYASI

### Reja:

1. Urartu davlati – qadimgi Kavkazorti sivilizatsiyasi o'choqlaridan biri.
2. Qadimgi Kolxida va Iberiya davlatlarining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi.

### Urartu davlati

Qadimgi Kavkazorti davlatlari sivilizatsiyasi qadimda o'ziga xos sivilizatsiyalardan biri hisoblanadi. Aynan shu yerda Urartu podsholigi vujudga kelgan. Keyinchalik bu yerda o'ziga xos Kolxida, Iberiya, Armaniston, Kavkaz Albaniyasi sivilizatsiyalari shakllandi.

Intensiv Kavkazorti madaniyatining vujudga kelishi asoslari mil.avv. VI-V ming yilliklarga borib taqalib, Kura va Araks vodiylarida katta bo'lmagan o'troq va chorvador aholi manzilgohlari paydo bo'lgan davrlarga to'g'ri keladi. Ushbu manzilgohlarda odamlar loydan yasalgan, aylanasimon rejada qurilgan uylarda yashagan, tosh, suyak va kremniy qurollardan foydalangan. Keyinchalik mis qurollari ham paydo bo'lgan.

Keyingi madaniy-xo'jalik taraqqiyoti mil.avv.III ming yilliklarga to'g'ri keladi. Bu davrda Arman tog'oldi va Kavkazorti hududida ilk bronza madaniyati ko'zga tashlanadi. Ibtidoiy munosabatlarning intensiv rivojlanishi jarayonida Van ko'li rayonida urart deb atalgan aholi yashar edi. Mil. avv. XIII asrdagi Ossuriya manbalarida bu rayonda Urartu nomi bilan 8 ta mamlakat tilga olinadi.

Urartu podsholari tomonidan tuzilgan manbalarda bu davlat Urartu deb berilmagan. Mahalliy aholi o'zlarini "Beavini", yoki "Van" deb ataganlar. Shuning uchun ham akademik Piatrovskiy keyinchalik Urartuni "Van podsholigi" deb atagan. Ossuriya podshosi Ashurbanipal II hukmronlik qilgan davr manbalarida mayda Urartu deb nom olgan davlat ham tilga olib o'tiladi. Urartu qabilalarining yana bir davlat birlashmasi – Musatsir esa Urmiya

ko'lidan janubiy-g'arbiy tomonda joylashgan edi. Afsuski, qadimgi sivilizatsiyalaridan biri hisoblangan Urartu uzoq vaqt mobaynida kam o'rganilgan sivilizatsiya bo'lib qolmoqda.

Bu yerni o'rganish XIX asrdan boshlangan. Bunga nima sabab bo'lgan? V asrdagi arman tarixchisi Mavses Xaynasining asarini tarjima qilinishi bunga turtki bergan. Armaniston tarixi haqida yozar ekan bu kitobda Ossuriya podshosi Semiramidaning Van ko'li qirg'og'idagi qurilishi haqida esga olib o'tadi. Bu tuzli ko'l Van hududiga 1827-yilda fransuz-osiyo jamiyati yosh olim Fridrix Shulsni yuboradi. Aynan Shuls birinchi bo'lib olimlarni qiziqtirib kelayotgan "Van qoyasi" haqida bayon qiladi. Bu Urartu podsholarining asosiy qarorgohi – Tushpa shahri (hamonaviy nomi Van) edi. Bundan tashqari Shuls bu shaharning qal'a devorlarida mixxat ko'rinishidagi yozuvni uchratadi. Va chizib oladi buni jamiyatga yuboradi. Albatta, bu davrda yozuv rasshifrovka qilinmagan va u bu yerda nima yozilganini bilmagan.

Shuls bu yerda bir necha yil bo'ldi. Topgan buyumlarini qaysi davrga tegishli ekanini o'rganishga harakat qildi. Afsuski, 1829-yilda baxtga qarshi kurd banditlari tomonidan o'ldiriladi. U o'lgach, tadqiqotlar vaqtincha to'xtab qolgan.



**Urartu mixxat yozuvi**

1882-yilda Britaniyalik sharqshunos Archibald Seys mixxat yozuvini rasshifrovka qilishga muvaffaq bo'ladi. Bu ilmiy jamiyat

uchun juda sensatsiya bo'lgandi. Chunki bunga qadar Arman tog'larida Urartu davlati haqida hech qanday ma'lumot bo'lmagan.

Akad. B.Piotrovskiy rahbarligida Urartu shaharlaridan biri Tayshebaini xarobalari qazib o'rganilgan. Karmir – Blur deb nom olgan bu xaroba Yerevandan uzoq bo'lmagan hududda joylashgan. Ushbu qazish ishlarining ahamiyatli jihati shunda ediki, bu izlanishlar Urartuning dastlabki jiddiy ilmiy jihatdan tadqiq etilishi bo'lib, uning natijalari Qadimgi Sharq sivilizatsiyalari tarixida, Kavkazorti o'lkalari madaniyatining keyingi taqdiri va merosida Urartuning o'rnini ko'rsatib berilishida juda muhim o'rin tutgan. Qolaversa, Teyshabanini qazish ishlari bundan keyin Turkiya va Eron va unga qo'shni hududlardagi yodgorliklarni o'rganilishiga ham turtki bergan.

Birlashgan Urartuning birinchi hukmdori (taxminan mil.avv. 859-yildan boshlab) 15 yil hukmronlik qilgan Arame hisoblangan. U tarqoq qabilalarni birlashtirib, Arzashkunni poytaxt qilib, doimiy bo'lib turadigan ossuriyaliklarga qarshi turadigan armiya tashkil qilgan.

Bu davrda Ossuriyada Salmanasar III taxtga chiqqan edi. Hukmronligining birinchi yiliyoq, u Aramening yerlariga – Uniya ko'li tomon yuradi. Salmanasarning o'zi bu yurishlarni quyidagicha tasvirlaydi: “Men Urartuning mustahkamlangan shahriga yurish qilib, shaharni egalladim, ko'p sonli qo'shinlarni yakson qildim, shahar atrofidagi 14 ta qishloqlarni yoqib yubordim”, deb yozadi.

Salmanasar hukmronligining uchinchi yili Urartuning ichkarisiga qadar kiradi. Poytaxt Arzashkun uchun jang boshlanadi. “...uning 3000 kishilik jangchilarini yengdim, ularni qonga beladim” deb yozdiradi u. Poytaxtni vayron qilib, yoqib yuboradi. Biroq bu harbiy yurishlar Urartuning va Musatsirning asosiy shaharlariga unchalik katta ta'sir qilmagan. Ossuriyaliklarning ushbu yangi davlatga hujumlari davom etib turgan.

Tarixiy Armaniston o'rnida yangi sulolalar vujudga kelgan.

Urartu podshosi Sarduri I (taxminan 843-yil) endi rasman o'zining muvaffaqiyatga erishishini maqsad qilgan bo'lsa kerak, ossuriyalik podsholarga o'xshab o'ziga titul (unvon) qabul qilgan.

Bu to'g'ridan-to'g'ri Ossuriyaga chaqiriq edi. Urartu davlati poytaxti bu davrda Van ko'li rayonidagi Tushpa shahri bo'lgan. Shahar atrofi yirik tosh devorlar bilan o'ralgan.

Faol harakatlar Ururtu podshosi Ishpuini (mil. avv. 825-810) davrida kuzatiladi.

Agar Sarduri yozuvlari ossuriy yozuvida yozilgan bo'lsa, endi rasmiy matnlar ossuriyacha mixxatning bir oz o'zgartirilgan holdagi urart tilida tuzila boshlagan. Asta-sekin yosh davlat o'zining mustaqilligini namoyon eta boshlagan. Tushpa hukmdorining yerlari Urmiya ko'liga qadar kengaygan, urartlarning yana bir birlashmasi Musatsir esa qaram yerlardan biriga aylangan.

Yangi davlatni mafkuraviy jihatdan birlashtirish uchun diniy islohot o'tkazilgan, ya'ni 3 ta xudoni roliga alohida ahamiyat qaratilgan:

1. Xaldi – Osmon xudosi

2. Teysheba – momaqaldiraq va yomg'ir xudosi

3. Shivini – Quyosh xudosi. Musatsirda joylashgan qadimgi diniy markazning ta'siri ham ancha mustahkamlangan. Bu yerda urartlarning oliy xudosi Xaldiga atalgan ibodatxonasi joylashgan.

Urartuning haqiqiy buyuk yaratuvchisi **Menua** podshosi bo'lgan deyiladi. Uning faoliyatini yildan yilga bayon qiluvchi rasmiy yilnomalarning ayrim qismlari saqlanib qolgan. Bu kabi yilnomalarni yozib borish ham Menua tomonidan kiritilgan yangiliklardan biri bo'lgan deyiladi.

Menuaning harbiy yurishlari 2 ta yo'nalishda borgan:

1. Janubga – Suriyaga. Uning qo'shinlari Frot (Frot daryosi)ning chap qirg'oqlarini egallab olgan.

2. Shimolga – Kavkazortiga yurish qilgan.

Egallangan yerlarni boshqarishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Ba'zi o'rinlarda egallangan yerlarning mahalliy boshqaruvchilari qo'yilgan bo'lsa, ko'p hollarda markaziy hokimiyatning vakillari – oblast boshliqlari qo'yilgan. Hoynahoy Menua davrida Urartuni oblastlarga bo'lib, boshqarish bo'yicha ma'muriy islohot ham o'tkazilgan bo'lishi kerak.

Uning davrida qurilish ishlariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Masalan poytaxt shahar Tushpada uzunligi 70 km

bo'lgan kanal o'tkazilgan. Uning alohida joylariga suv toshdan qilingan 10-15 metr uzunlikdagi akveduk bilan suv o'tkazmalari orqali suv yuborgichlar qo'yilgan. "Menua kanali" deb nom olgan bunday kanallar podsholikning boshqa yerlarida ham vujudga keltirilgan.

Menuaning o'g'li va merosxo'ri Argishti (mil. avv. 786-764) Urartu o'zining eng buyuklik darajasiga chiqqan. Uning davrida Urartu qo'shinlari Shimoliy Suriyagacha kirib boradi va mahalliy hukmdorlarni o'zlariga bo'ysundiradi. Janubiy-sharqda uning ta'siri Diala basseyniga qadar boradi va Bobil chegaralarigacha yetib boradi. Natijada Ossuriya uch tomondan Urartu va uning ittifoqchilari tomonidan egallab olingan edi.

Argishti shuningdek, Kavkazorti tomonga ham siljiy boradi. Uning qo'shinlari Kolxida va G'arbiy Gruziyaga qadar yetgan Sevan ko'lining chap qirg'oqlaridagi katta hududni egallab oladi. Uning tomonidan katta qurilish-xo'jalik ishlari olib boriladi. Mil. avv. 776-yilda Armavir yaqinida yirik shahar markazi - Argishtixili quriladi. Argishtixilida 4 ta yirik kanal quriladi, uzum va bog'lar barpo etiladi. Yirik don saqlovxonasi quriladi. Bu yerda davlatning yirik don mahsulotlari zaxirasi vujudga keltiriladi.

Hozirgi Yerevan o'rnida esa mil.avv.782-yilda yana boshqa shahar - Yerebuni barpo etiladi. Urartu davlatining iqtisodiy jihatdan ikkinchi o'rinda bo'lgan va asosiy harbiy harakatlardan uzoqroqda bo'lgan Kavkazorti hisoblangan. Argishtining ishlarini uning o'g'li Sarduri II (mil. avv.764-735) davom ettirgan.

Podsho Rusa I (mil. avv. 735-713) Urartuning qudratini qayta tiklashga harakat qiladi. Tashqi siyosatda u Ossuriya bilan ochiqdan ochiq qarshilik qilishdan qochsa-da, hamma joyda Ossuriyaga qarshi kayfiyatni qo'llab-quvvatlaydi. Janubda faol siyosat olib borsa qolaversa, Urartuning shimoliy oblastlariga kirib kelgan ko'chmanchi-kimmeriylar ham qiyinchilik tug'dirar edi. Shunga qaramay Urartuning Kavkazortidagi yerlari tizimli ravishda kengayib bordi, yangi shaharlar vujudga keldi. Rusa I tomonidan Urmiya shahridan shimolda rayonda yirik xo'jalik kompleksi barpo etilgan. Van ko'lini ham unutmagan, u yerda keng suv ombori qurdirgan, bog'lar barpo etilgan, yangi shahar Rusaxinili vujudga kelgan. Rusa I bunday energiya bilan Urartuni

mustahkamlayotganini ko'rgan Ossuriya yangidan zarba berishga shoshadi. Unga qarshi yurishga astoydil tayyorgarlik ko'radi.

Mil.avv.714-yilda Sargon II boshchiligidagi ossuriyalik qo'shinlar Urmiya ko'lining sharqi tomon harakat qilib mahalliy hukmdorlarga qarshi kurash olib boradi. Biroq Rusa I hal qiluvchi jang uchun vaqt poylab, u bilan kurashga kirishga harakat qildi. Afsuski jangda urartuliklar mag'lub bo'ldi. Natijada Urartu Old Osiyodagi gegemonligini yo'qotdi va o'rnini Ossuriyaga bo'shatib berdi.

Mil. avv. VI asr boshlaridan Urartu qadimgi Sharqning yangi yirik davlati – Midiya vassalligiga tushib qoladi. Mil. avv. 590-yildan esa mustaqil davlat sifatida tugatiladi.

Mamlakatda irrigatsiyaga katta ahamiyat qaratilgan, bog'lar, don saqlash, bog'lar barpo etish, shaharlar qurishga alohida ahamiyat qaratilgan. Shaharlari katta bo'lgan – maydoni 200-500 ga, Argishtixi shahrida hatto 400-500 ga.ga yetgan. Shaharlarning mudofaa devorlari bitta, ko'pincha 2 ta, ba'zan esa 3 qator devor bilan o'ralib, devorlarning qalinligi 3,5-4 metr qalinlikda bo'lgan. Ururtu saroylari 2 xil tipda bo'lgan: masalan Yerebuni saroyida 2 ta saroy, uning atrofida turli binolar joylashgan. Ikkinchi tipdagi saroyda esa kolonna zallari saroyning yadrosi hisoblangan.

Shunday qilib, Kavkazorti sivilizatsiyasi hozirgi kunda quyidagicha ko'rinishga ega:

1. Mil. avv. I ming yillikning birinchi asrlarida bu yerda bitta davlat markazi va sinfiy jamiyat – Urartu mavjud bo'lgan.

2. Keyin Kavkazortining Qoradengiz qirg'og'i – Kolxida qo'shiladi.

3. Ellinistik davrda bu hududning qolgan hududlari – Iberiya (hozirgi Sharqiy Gruziya)

4. Kavkaz Albaniyasi (hozirgi Ozarbayjonning va qisman Dog'iston hududi)

Kolxida – haqida so'z ketganda u metalluriya va temirning markazlaridan biri hisoblangan. Bu yerda turli xil hunarmandchilik va rivojlangan savdo bo'lgan. Ayniqsa, temir va oltindan yasalgan mahalliy hunarmandlar buyumlari alohida ajralib turgan. Savdo ham mahalliy ham tranzit ko'rinishida

bo'lgan. Pul munosabatlari ham mavjud bo'lgan. Qirg'oqlarda yunon shaharlarining tangalari keng tarqalgan. Kolxidaning ichki rayonlarida mahalliy ishlab chiqilgan tangalar ham ishlatilgan.

Qadimgi Kolxida madaniyatining eng ahamiyatli jihatlaridan biri – tub aholining yunon an'analari bilan o'zaro almashinuvida edi. Yunonlarga yaqin hududlarda Sinop, Gerakleylik yunon usta hunarmandlari faoliyat olib borgan. Bani shahridagi qazish ishlari natijasida bu yerdagi shahar 2 qismdan: 1. Baland tepalikda uchburchak shaklidagi akropol. 2. Quyi shahar – Slori va Rimehuni daryolari qo'shilish joyi bilan birlashib ketgan pastlikdagi shahar hisoblangan.

Akropol juda yaxshi mustahkamlangan. Shahar darvozalarining ichki tomonlarida haykallar – shaharni qo'riqlovchi ma'budalar tasvirlangan.




### Akropol

Kolxida o'ziga xos san'at markazlaridan biri hisoblangan. Bu yerda tosh va bronza haykallari, hatto kumushdan qilingan haykallar topilgan. Ko'p o'tmay Kolxida Rim imperiyasi provinsiyasi hisoblangan Kappadokiya tarkibiga qo'shib olinadi.

Milodning III-IV asrlarida G'arbiy Gruziya antik manbalarda Lazika nomi bilan tilga olinadi. Mahalliy aholi esa o'z yurtini

Egrissi deb atagan. Poytaxti – Arxiopol bo'lgan. Milodning IV asr boshlarida bu yerda xristianlik tarqala boshlaydi.

Iberiya – Kavkazortining qadimgi davrida alohida o'rin tutadi. Yunon-rim mualliflari Iberiyani “Sharqiy Gruzin podsholigi” deb ataydi. O'rta asr gruzin manbalari esa bu yerni “Kartli” deb nomlaydi. Bu yer hozirgi sharqiy va janubiy Gruziyaga to'g'ri keladi. Biroq, vaqt o'tishi bilan u Kolxidaning ba'zi rayonlari bilan cheklanib qolgan.



#### **Oltin sirg'alar. Kolxida. Miloddan avvalgi V asr**

Iberiya tarixi antik davr mualliflarining kam sonli ma'lumotlaridan o'rin olgan. Ellinizm davrida Iberiya davlatchiligining shakllanishi va mustahkamlanishi jarayoni ro'y beradi. Mil. avv. II-I asrlarida o'rganilgan joy “Yedoplis Mendori” deb ataladi. Qazilma davomida to'rtburak ko'rinishidagi 6 gektarga yaqin keladigan, devor bilan o'ralgan xaroba topilgan.

Saroy ko'rinishidagi joylar Baginetti, Armazesxari, Zalissidan topilgan bo'lib, tipik Rim usulidagi termolar ham ba'zi joylarda uchraydi.

Iberiya arxitekturasi o'zining juda yuqori rivojlanish darajasiga chiqqan. Ilk davrlardan oq murakkab usullar qo'llangan: tepaliklarni yonbag'irlarini terrassa qilish, qurilishda tosh va pishgan g'ishtni qo'llashgan.

Bu yerda mozaikalar ham o'ziga xos tarzda ishlangan. Ularda delfin, rakovina, saroylarda Dionis va Ariadna tasviri tushirilgan. Iberiyada Dionis kabi kultlari ancha mashhur bo'lgan.

**Kavkaz Albaniyasi** – yunon-rim dunyosidan naribroqda joylashgan bu davlat. Shuning uchun bu yerni yunon-rim mualliflari kamroq yoritgan. Bu yerdagi dastlabki davlatlar va sinfiy jamiyatning vujudga kelishi hozirga qadar bahs-munozarali. Bu yerda shaharlarning vujudga kelish shart-sharoitlari mil. avv. 12-ming yilliklarga borib taqaladi.

Milodning 1 asrlarida Kabala – mamlakatning yirik shahar markazi sifatida mashhur bo'lgan. Kabalani qazish vaqtida bu yerdan turli xaroba qoldiqlari topilgan. Hududda qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo ancha rivojlangan. Mahalliy tangalar ishlatilgan. San'atning eng mashhur ko'rinishlaridan biri – haykaltaroshlik nom qozongan, diniy xarakterga ega ko'plab haykallar mavjud bo'lgan. Mayda bronzadan ishlangan figuralar topilgan. Din ham o'ziga xos bo'lgan uchlikdan iborat edi:

1. Silen
2. Gelios
3. Zevs

Kohinlar podshodan keyingi ikkinchi shaxs hisoblangan.

### **Muhokama uchun savollar**

1. Urartu davlatining xo'jaligi va ijtimoiy tuzilishiga tavsif bering.

2. Qadimgi Sharqdagi qaysi davlat Urartu davlatining kuchsizlanishida muhim rol o'ynagan?

3. Qaysi qabilalar Urartu madaniyatini shakllanishiga ko'proq ta'sir ko'rsatgan, bu nimalarda o'z aksini topgan?

## **6-MAVZU. QADIMGI VA ILK O'RTA ASRDA ERON SIVILIZATSIYASI**

### **Reja:**

1. Elam sivilizatsiyasi.
2. Qadimgi Eron sivilizatsiyasida Midiyaning tutgan o'rnini.
3. Ahamoniylar davrida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy institutlar.

### **Elam sivilizatsiyasi**

Eron – qadimgi va yuksak rivojlangan sivilizatsiyalardan biri hisoblanadi. Bu yerda yashagan aholi mil.avv. III ming yillardayoq o'z yozuvi, o'ziga xos madaniyatini yaratgan va bundan keyingi ming yilliklar davomida ularni mukammalashtirib borgan.

Qadimgi Eron dini (zardushtiylilik, zervaniylilik, moniylik) antik dunyoning falsafiy qarashlariga, xristianlik va islom dinidagi esxatologik ta'limotlarga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Qadimgi va ilk o'rta asrlardagi ko'plab fors adabiyoti Uyg'onish davriga kelib arab, suriya, arman va boshqa tillarga tarjima qilingan, keyinchalik esa G'arb va Sharq adabiy yodgorliklari uchun o'rnak bo'lgan. Qadimgi eronliklar tomonidan yaratilgan san'at namunalari dunyo madaniy xazinalari to'plamlaridan o'rin olgan.

Eronning janubiy-g'arbiy qismida azaldan yashagan aholi ko'pgina olimlar Belujistonda, o'zlaridan sharq tomonda yashagan dravid qabilalariga yaqin bo'lgan elamliklar bo'lganligini ta'kidlab o'tadilar. Zagros tog' etaklarining g'arbiy qismida hamda Eronning shimoliy-g'arbida kelib chiqishi hind-yevropaliklarga mansub bo'lmagan qabilalar, jumladan, xurritlar, manneylar, lulubey va boshqalar yashagan. Mil. avv. XII-XI asrlarda G'arbiy Eron hududiga midiyalik va fors qabilalari kelib o'rnashib, keyinchalik ular butun Eron tog'liklarini egallagan va mahalliy aholi bilan aralashib ketgan.

Qadimgi Eron tarixi quyidagi bosqichlarga bo'linadi: Elam sivilizatsiyasining vujudga kelishi va gullab-yashnagan davri (mil. avv. IV ming yillik oxiridan VII asr asrlar), Midiya davri (mil.

avv. VIII-VI asr o'rtalari), Axmoniyilar davri (mil. avv. VI -330-yillar), Parfiya davri (mil. avv. III asr - mil. avv. 224-yillar).

Eronning janubiy-g'arbiy qismini Elam (hozirgi Xuziston hududi) tashkil etgan. Bu hudud ishlab chiqaruvchi kuchlar uchun juda qulay joy hisoblangan. Elamning yalanglik qismi (Suziana) qadimda Fors ko'rfaziga quyilib turuvchi Kerun va Kerx daryolari bilan sug'orilgan. Ushbu vodiylar eng qadimgi dehqonchilik madaniyatlaridan biri hisoblanadi. Mil. avv. IV-III asrlardayoq bu yerda donli ekinlar, mevalar yetishtirilgan. O'sha davrlardayoq hunarmandchilik ham vujudga kelgan. Ayniqsa, kulolchilik ancha gullab-yashnagan. Elamning tog'li qismi (hozirgi Baxtiyor tog'lari) o'rmonlar va foydali qazilmalar (mis, qo'rg'oshin va boshq.)ga boy bo'lgan. Tog'li aholining asosiy mashg'uloti chorvachilik hisoblangan.

Mil. avv. III ming yillik boshlarida qabilalarning dastlabki davlat birlashmalari vujudga kelgan. Ana shunday birlashmalardan birining poytaxti Suza bo'lib, bu shahar Karuv va Kerxi vodiysidagi, Elam va Ikki daryo oralig'i hamda Shimoliy-sharqiy Eron kesishgan joyda joylashgan yirik shahar hisoblangan. Bundan tashqari, Elamda Avan, Anshan, Kimash va Simash singari davlatlar ham bo'lgan.

Asta-sekin davlat boshqaruvining o'ziga xos tizimi ishlab chiqila boshlagan, bu tizim mil. avv. III ming yillik o'rtalaridan - mil. avv. II ming yillik o'rtalariga qadar mavjud bo'lgan. "Sukkalmash" (oliy vakil) unvoniga ega oliy hukmdor bilan bir qatorda uning o'rinbosari, odatda ukasi yoki oliy hukmdorning bo'lajak merosxo'ri ham davlat boshqaruvchida ishtirok etgan. U Simashning sukkali (vakili) deb atalgan. Davlat iyerarxiyasining uchinchi pog'onasida podshoning katta o'g'li - Suzianning hokimi turgan. U davlat hukmdori vafot etgan taqdirda uning o'rniga tayinlangan. Bundan kichikroq hududlar mahalliy aholi vakillaridan chiqqan shaxslar tomonidan boshqarilgan, ular vafot etgudek bo'lsa, hokimiyat ularning opa-singillarining o'g'illariga o'tgan.

Elamning podsho oilasiga xos bo'lgan jihatlardan biri - vafot etgan hukmdorning bevasi va singillariga uylanib, shu nikoh orqali hokimiyat boshqaruvini davom ettirish bo'lgan. Bunday

an'ana mil. avv. VII asr o'rtalariga qadar davom etib kelgan. Garchi Elamning butun tarixi davomida ayollar o'zining o'rnini saqlab qolgan bo'lsa-da, davlat boshqaruvida asta-sekin sezilarli o'zgarishlar sodir bo'la boshlagan. Mil. avv. XIII asrdan boshlab podshoning taxti ota tomonidan, otadan katta o'g'ilga o'ta boshlagan.

Mil. avv. III ming yillikda Elamning ijtimoiy va iqtisodiy tuzilmasi qishloq jamoalari hisoblanib, ularga qarindoshlik rishtalaridan qat'iy nazar, yerga jamoaviy ishlov berib, unga birgalikda egalik qiluvchi barcha erkin kishilar kirgan. Ushbu jamoalar u yoki bu shahar yoki qishloqdagi xalq yig'inlarida saylangan oqsoqollar tomonidan boshqarilgan. Xalq yig'inlari va unga saylangan shaxslar yer-mulk bilan bog'liq bahsli masalalarni muhokama qilgan, jinoyatchilarni sud qilgan. Biroq mil. avv. II ming yillik boshlaridan boshlab qullar mehnatidan foydalanuvchi xususiy xo'jaliklar ham jadal ravishda rivojlana boshlagan. Bu esa mulkiy tabaqalanishni, qishloq jamoalari tizimini buzilishi, yeri va mehnat qurollaridan ajralgan erkin jamoachilarning xonavayron bo'lishiga olib kelgan. Yerlar iqtisodiy jihatdan qudratliroq bo'lgan oilalar qo'lida to'plana borgan. Mil. avv. II ming yillikka kelganda yo'qola boshlagan qishloq jamoalari o'rniga uy jamoalari vujudga kelgan. Uning tarkibiga kirgan ishlab chiqaruvchilar qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan edi. Uy jamoalari yerga jamoaviy egalik qilgan, birgalikda unga ishlov bergan hamda undan olingan daromadni o'zaro taqsimlab olgan.

Vaqt o'tishi bilan uy xo'jaliklariga ularga qarindoshlik aloqasi bo'lmagan kishilar ham kirgan bo'lishi ehtimoli yo'q emas, albatta. Buning uchun "birodarlik" to'g'risida kelishuv tuzilishi va yerni jamoaviy boshqarishga berilishi mumkin bo'lgan. Biroq asta-sekin bu kabi kelishuvlar jamoalarga kirib o'z yeridan mahrum bo'lgan va yerga ishlov berib, undan olinadigan hosilning ma'lum bir qismiga ega bo'lgan oz yerga ega erkin kishilar hisobiga ishchi kuchi sonini ko'paytirish uchun qo'llanila boshlagan. Kambag'allashgan kishilar uyi yoki bog'larini garovga qo'yib, bug'doy yoki pul ko'rinishida uzoq muddatli qarz olar edilar. Qarzni uzish uchun qarz beruvchi foiz ham talab qilgan. Shuning

uchun kambag'allar bo'yniga qarz ilingan qulga aylanib qolar edi. Bora-bora mulkiy tengsizlik uy xo'jaligini chirishiga, yagona xo'jalik yacheykasi hisoblangan oila jamoasining qulashiga, jamoa mulkini uning alohida a'zolari tomonidan bo'lib olinishiga, hatto yerni ijarasi va uni sotilishiga olib kelgan.

Keyinchalik Elamda jamoaviy, so'ngra esa xususiy xo'jaliklardan tashqari podsho va ibodatxona xo'jaliklari ham vujudga kelgan. Ibodatxonalar, savdo, don va pulni foizga qarzga berib, sudxo'rlik bilan shug'ullanuvchi yirik yer egalarning mulki bo'lgan. Bu yerlarning ma'lum bir qismi ijaraga berilgan, qolgan qismiga ibodatxona qullari hamda jamoa a'zolari tomonidan ishlov berilgan. Biroq mil. avv. I ming yillikda ajnabiylarning bir necha bor Elam hududiga bostirib kirishi va tinimsiz urushlar natijasida ibodatxona xo'jaliklari xonavayron bo'lib, mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynashdan to'xtagan.

Elamiylar e'tiqodiga ko'ra, qonunlar xudolar tomonidan belgilangan bo'lib, ularni buzish Quyosh xudosi Naxxunte tomonidan jazolanadi, deb hisoblangan. Bu jamiyatda nafaqat diniy qonunlar, balki o'g'il farzand asrab olish, mulkni bo'lib olish, uni sotish va boshqa dunyoviy qonunlar ham mavjud bo'lgan. Elam huquqi uchun xususiyatli jihatlardan biri - jinoyatchilarni shafqatsizlik bilan jazolash bo'lgan. Masalan, yolg'on qasam ichgani uchun qo'l yoki tili kesilishi yoki daryoga cho'ktirib yuborilishi mumkin edi. Ba'zan kelishuvni buzgan kishilar ham o'lim jazosiga mahkum qilingan hollar bo'lgan.

Elamning siyosiy tarixi Mesopotamiya tarixi bilan bog'liq holda kechgan. Har ikki mamlakat bir-biri bilan tez-tez urushib turar, tinchlik kelishuvlarini tuzar va jonli tarzda savdo va madaniy aloqalarni o'rnatgan edilar.

Mil. avv. XXIV-XXIII asrlarda Elam Akkad davlati tarkibiga kirgan. Elamdan topilgan tarixiy qadimiy yozuvlar va ko'plab hujjatlar akkad tilida yozilgan.

Mil. avv. XXII-XXI asrlarda Urning III sulola podsholari davrida Elam Ikkidaryo oralig'i hukmronligi ostida qolgan, ammo mil. avv. XXI asrning ikkinchi yarmida mustaqillikni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'lgan va mil. avv. XIV asr o'rtalariga qadar o'z mustaqilligini saqlab turgan.

Taxminan mil. avv. 549-yillarda Elam forslar tomonidan egallanib, o'z mustaqilligini butunlay yo'qotgan. Biroq Elam sivilizatsiyasi Qadimgi Eron moddiy va ma'naviy madaniyatiga juda katta ta'sir ko'rsatdi.

Elamliklar o'ziga xos madaniyatni yaratdilar. Mil. avv. III asr boshida ular piktografik yozuvni kashf qilgan. Ular bilan yonmayon yashagan shumerlar bu yozuvning vujudga kelishiga turtki bergan bo'lishi ham ehtimoldan holi emas. Biroq elamliklarning yozuvi yozuvning mustaqil ko'rinishlaridan biri hisoblanib, protoelam yozuvi nomini olgan. U 400 yil mobaynida xo'jalik hisobotlarini yuritishda ishlatib kelingan, Butun bir tushuncha va so'zlar ma'nosiga ega bo'lgan 150 dan ortiq asosiy belgilariga ega bo'lgan yozuv hisoblangan. Bu yerda loydan yasalgan taxtachalarga turli xil suratlar tushirilgan yozuvlarni ko'plab uchratish mumkin. Faqat Elamning o'zida (Suza, Anshan va boshqa yerlar)gina emas, Markaziy Eron, uning janubiy-sharqiy chekkasi (Karmanadan 300 km uzoqlikda)da ham ana shunday yozuv namunalari topilgan. Bu esa mil. avv. III ming yilliklarda Elam madaniyatining keng yoyilganligidan dalolat beradi. Lekin haligacha ushbu yozuvni o'qishning imkoni bo'lmagan.

Mil. avv. III ming yillikning ikkinchi yarmidan Elamda protoelam yozuviga aloqasi bo'lmagan, toshga, loyga va metalga yozilgan, chiziqli-bo'g'inli yozuv kashf qilingan. Ammo bu yozuvni elamliklar uzoq muddat qo'llamagan. Ular tomonidan yozilgan asosiy yozuvlar mil. avv. XXIII asrga oid deb hisoblanadi.

Mil. avv. III ming yillikning oxirlarida elamliklar shumer-akkad mixxat yozuviga o'tib, undan to mil. avv. V asrga qadar foydalanganlar. Mil. avv. II ming yillikning birinchi yarmida rasmiy hujjatlarni yuritish va adabiy matnlarni yozishda odatda akkad yozuvidan foydalanilgan. Mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmidan boshlab elam tilidagi mixxat yozuvigina soni oshganligi kuzatiladi. Garchi Elam dini Mesopotamiya dini bilan bog'liq bo'lsa ham, uning o'ziga xos alohida diniy markazi Suza shahri hisoblangan.

Dastlab elamliklarning bosh xudosi sifatida "Buyuk ma'buda" - Pinekr turgan. Bu esa Elam jamiyatida matriarxat huquqi qoldiqlarini saqlanib qolganligidan guvohlik beradi.

Bundan tashqari Suza homiysi Inshushinaka kulti ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Mil. avv. II ming yillik o'rtalariga kelib Xumban elamliklarning bosh xudosi aylangan. Quyosh xudosi Naxxunte esa kunning yaratuvchisi hisoblangan.

Mil. avv. IV ming yillikdayoq elamliklar o'ziga xos san'at namunalarini vujudga keltirganlar. Ularning idishlariga geometrik naqshli qush, odam va hayvonlar suratlari tushirilgan.

Mil.avv. II ming yillikda bobilliklarning tasviriy san'ati Elam san'atiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Bu davrda Bobilning dumaloq haykallar yaratish an'alariga binoan ishlangan yodgorliklar mavjud. Masalan, mil. avv. XIII asrga tegishli Malika Napirasuning 1800 kg og'irlikdagi bronzadan mahorat bilan ishlangan haykali Elam san'atining yuksak namunalaridan biri hisoblanadi.

Elam me'morchiligidagi eng yirik yodgorlik – Suzadan 30 km uzoqlikda joylashgan Dur-Untashda qurilgan zikkurat hisoblanadi. U mil. avv. XIII asrda podsho Untash-Napirishe tomonidan qurdirilgan. Zikkurat 7 ta darvoza va 4 ta qavatdan iborat bo'lib, uning quyi qavatining uzunligi 105 metrni, balandligi 42 metrni tashkil qilgan. Zikkurat qurilishida millionlab g'isht va yuzlab toshlardan foydalanilgan. Arxeolog olimlar tomonidan olib borilgan qazish ishlari natijasida ushbu zikkurat xarobalari orasidan metall, marmar, oynadan ishlangan turli idishlar, shuningdek, yuzlab podsholarga tegishli yozuvlar topilgan. Dur-Untash mil. avv. VII asrda ossuriyaliklarning katta qo'shinining Elamga bostirib kirishi bilan vayron qilingan.

### **Qadimgi Eron sivilizatsiyasida Midiyaning tutgan o'rni**

Midiya va forslar Eron qabilalari dunyosida alohida o'rin tutgan. Ular o'rnashgan hudud Shimoliy Qora dengizdan to hozirgi Afg'oniston yerlarigacha edi. Bu qabilalar eron tillarining turli shevalarida so'zlashgan. Yaqin vaqtlarga qadar olimlar eronliklarning kelib chiqqan vatani O'rta Osiyo va unga qo'shni rayonlar bo'lib, mil.avv. IX-VIII asrlarda qabilalar Eron yassitog'liklariga kelib o'rnashgan, deb hisoblashgan. Biroq

hozirga kelib ko'pchilik mutaxassislar eron qabilalari Kavkaz orqali janubiy Rossiya yerlaridan kelganligini ta'kidlaydilar.

Nima bo'lgan taqdirda ham, midiyalik va forslarni Eron yassi tog'liklarida mil.avv. I ming yillikning IX-VIII asrlarida paydo bo'lgan, deyish mumkin.

Midiyaliklar va forslar bu hududlarga kelgan vaqtda, ularda rivojlangan madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy an'ana va institutlar shakllanib bo'lgan edi, ya'ni ular chorvachilik va ot boqish, metallarga ishlov berish bilan shug'ullangan, harbiy yurishlarda g'ildirakli aravalardan foydalangan.

Midiya podsholigi va keyinchalik Fors davlati eron etnik elementlari vujudga kelgan hududlarda, ya'ni o'zidan avval yashagan eron qabilalarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlari asosida vujudga kelgan.

Eronliklarning eng qadimgi tarixi haqida yozma ma'lumotlar juda kam saqlanib qolgan. Ossuriyaliklarning yozma manbalarida keltirilishicha, midiyaliklar mil. avv. I ming yillik boshlarida shimoliy-sharqiy Eron hududiga kelib o'rnashgan.

Shuningdek, forslar haqida birinchi bor mil.avv. IX asrga tegishli Ossuriya yozma manbalarida ham uchraydi. Jumladan, Ossuriya podshosi Salmanasar III tomonidan tax. mil.avv. 843-yilda tuzilgan yozuvda Parsua hududi tilga olinadi. Unda yozilishicha, mil. avv. 834-yilda bu hududning 27 ta "podsho"sidan soliq (o'lpon) olgan. Taxminlarga ko'ra, bu hudud Markaziy Zagros tog'ida joylashgan bo'lib, bu davrda hali forslar birlashmagan, bir-biridan mustaqil boshqaruv yuritgan va o'zlarining ko'p sonli yo'l boshchilariga ega bo'lgan davr bo'lgan.

Mil. avv. VIII asr oxirlarida Ossuriya matnlarida hozirgi Sulaymoniya shahridan sharqda, ya'ni Elamdan shimoliy-sharqda joylashgan Parsumash mamlakati tilga olinadi. Hoynaxoy mil. avv. 800-yillarda forslar o'zlariga qarindosh bo'lgan midiyaliklardan ajralib, janubiy-sharqqa tomon siljigan. Mil. avv. 714-yilda ular Ossuriya podshosi Sargon II ning aholisi sifatida tilga olinadi. Vaqt o'tishi bilan ular Eronning janubiy-g'arbidagi qadimiy Elam hududini egallagan va bu yerga yangidan kelganlarning nomi bilan Parsa deb atala boshlagan. Bu hudud hozirgi Eronning Fors viloyatiga to'g'ri keladi.

Mil. avv. VII asrning 40-yillariga qadar forslar elam podsholariga qaram bo'lgan, keyin qisqa muddat ossuriyaliklarning o'lpon to'lovchisiga aylangan. Hoynaxoy shu davridayoq forslar Axamoniylar urug'idan bo'lgan yo'lboshchilar tomonidan boshqarilgan qabilaviy ittifoqqa ega bo'lgan bo'lsa kerak. Ushbu sulolaning asoschisi an'anaviy tarzda Ahamon hisoblanadi. Mil. avv. 675-650-yillar atrofida fors qabilalari ittifoqini keyinchalik an'anaviy tarzda Ahamonning o'g'li sifatida ko'rilgan Chishpish boshqargan.

Mil. avv. 624-yilda Midiya podshosi Kiaksar skiflarni mag'lubiyatga uchratib, barcha Midiyadagi qabilalarni poytaxti **Ekbatana** (hozirgi Xamadon) bo'lgan yagona davlatga birlashtiradi. Ko'p o'tmay, avvalgi qabilaviy tamoyillarga ko'ra tuzilgan ko'ngilli qo'shin o'rniga qurollariga qarab (nayza ko'targanlar, kamonchi, otliq) doimiy harbiy qo'shin tuzadi.

Mil. avv. VII-VI asrning birinchi yarmida Midiya Eronning moddiy va ma'naviy markaziga aylangan. Keyinchalik forslar uni o'zlashtirib, rivojlantirgan.

Gerodot va Polibiyning asarlarida Ekbatanadagi podsho saroyi bayoni keltirilgan ma'lumotlar saqlanib qolgan. Ularda yozilishicha, saroy 7 ta qal'a devorlari bilan o'ralgan. Bir darvoza ikkinchisiga nisbatan balandroq qilib qurilgan. Qal'alar turli ranglarga bo'yalgan. Ularning saroyga tutashgan ikkitasi kumush va oltin rangga bo'yalgan. Ushbu devorlar ichida saroy va g'azna joylashgan. Saroy aylanasi bir km.dan uzun bo'lgan. Shift va ravoqlari oltin va kumush bilan qoplangan kedr daraxtidan qilingan.

Hali Midiya tarixiga oid ko'plab qazish ishlari olib borish lozim, chunki o'rganilmagan juda ko'p yodgorliklar mavjud. Shu kunga qadar topib o'rganilgan arxeologik yodgorliklar esa temir davriga oid bo'lib, mil. avv. 1300-600-yillar oralig'ini tashkil etadi. Shu o'rinda "Luriston bronzalari"ni alohida ta'kidlab o'tish lozim.

1947-yilda mahalliy aholi tomonidan Sakqiz shahridan 42 km sharqda joylashgan baland tepalikdan katta xazina topilgan. Bu yerdagi xazinalar orasida podshoga tegishli bo'lgan oltin taqinchoq, oltindan yasalgan podsho tojining bir bo'lagi va boshqa turli-tuman jihozlar bo'lgan. Topilgan buyumlarning

aksariyatida kiyik, burgut yoki arslon boshli gavnali qanotli maxluq (grif), quyon yoki qo'y tasvirlangan. Keyinchalik arxeologlar mil. avv. VIII-VII asrlarda xazina o'rnida qal'a joylashganligini aniqlaganlar.

1951-yilda Eronning shimoliy-g'arbiy qismida joylashgan 25 metrlik Xasanlu tepaligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida ham Midiya davriga oid ashyolar topib o'rganilgan. Bu yerdan ham har birining orasi taxminan 10 metrni tashkil qilgan 12 ta minora bilan o'ralgan mustahkam bino qoldiqlari ochilgan (bu xaroba saroy bo'lgan deb taxmin qilinadi). Ushbu binoga 4,5 metr keladigan peshayvon orqali o'tilgan. Ushbu bino urartuliklarning mamlakatga bostirib kirishi natijasida olovda xarobaga aylangan.


1961-1962-yillarda G'ilon viloyatidan Marlik qadimgi qabristoni ochib o'rganilgan. Ushbu yodgorlikda boy ashyolar bilan ko'milgan 53 ta dafn qilingan odam suyaklari topilgan. Ular orasida marosim kiyimidagi odamning oltindan ishlangan haykalchasi, sopoldan ishlangan erkak va ayol maymun-odam haykalchalari, turli hayvonlar, shu jumladan, sarguzashtli hayvonlar surati tushirilgan oltin va kumush idishlar alohida ahamiyatga ega. Bundan tashqari, Xamadondan 70 km janubda joylashgan Nushi Jontepa nomini olgan Midiya davriga oid arxeologik yodgorlik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mil. avv. 750-600-yillarda bu yerda ma'muriy va kult ahamiyatidagi binolar, hukmdorlar va ularning amaldorlariga tegishli turar joylariga ega Midiya qo'rg'oni joylashgan edi. Xom g'ishtdan qurilgan qo'rg'on binolari 8 metr balandlikkacha saqlanib qolgan. Qo'rg'on hududida shuningdek, rasmiy qabul zali va 2 ta olov ibodatxonasi joylashgan bo'lib, ularning barchasi minoralarga ega g'ishtdan qurilgan aylana devor bilan o'ralgan edi.

### **Ahamoniylar davrida Qadimgi Eronning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy institutlari**

Mil. avv. 558-yilda fors qabilalari podshosi Kir II bo'ldi. Qadimgi Eronning poytaxti Pasargad shahri atrofida joylashgan

bo'lib, uning jadal qurilishi davri Kir II ning hukmronlik qilgan davrining boshlariga to'g'ri keladi.

Kir II Eronning podshosi bo'lgan davrda Yaqin Sharqda to'rtta yirik davlat: Midiya, Lidiya, Babil va Misr mavjud edi. Ahamoniylar qisqa davr ichida mintaqadagi barcha davlatlarni deyarli bosib oldi.



**Persepolis shahri xarobalari**

Mil. avv. VI asr oxirlariga kelganda Ahamoniylar davlati chegaralari sharqda Hind daryosidan g'arbda Egey dengiziga qadar, shimolda Armanistondan janubda Nil daryosining birinchi ostonasiga qadar cho'zilgan edi. Shunday qilib, o'nlab mamlakat va xalqlarni eronliklarning Ahamoniylar sulolasining birlashtirgan yirik davlati vujudga keldi.

Ahamoniylar davlati davrida qaror topgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy institutlar jahon tarixida juda katta rol o'ynadi va Aleksandr Makedonskiy, Salavkiylar, Parfiya, Sosoniylar davlatiga xizmat qilib, ko'p yuz yilliklar davomida saqlanib qoldi.

Ko'p o'tmay, mil. avv. 334-yilda Ahamoniylarning jiddiy raqibi - Aleksandr Makedonskiy paydo bo'lib, Eronga qarshi

yurish boshlaydi va mil. avv. 329-yilga qadar u Ahamoniylarga tegishli barcha hududlarni qo'lga kiritadi. Shu yildan boshlab Ahamoniylar davlati tugatiladi.

O'zining ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzi va an'alariga ko'ra qadimgi Eron podsholari turlicha bo'lgan. Bu imperiya tarkibiga Kichik Osiyo, Elam, Bobil, Suriya, Finikiya, Misr kirgan bo'lib, ular fors qabilalarining davlatlari vujudga kelguniga qadar rivojlangan sivilizatsiyasi hamda ijtimoiy institutlariga ega bo'lgan. Iqtisodiy jihatdan ancha ilg'or bo'lgan ushbu davlatlar bilan bir qatorda forslar urug'chilik bosqichining tugashi arafasida bo'lgan qabilalarni ham egallagan edilar. Bunday turli shakldagi hududlarni boshqarish uchun samarali usulni qo'llash kerak edi. Taxminan mil. avv. 519-yillarda Doro I o'zining mashhur ma'muriy-moliyaviy islohotlarini amalga oshirishga kirishgan: davlatni **satrapliklar** deb atalgan yigirmata ma'muriy-soliq (o'lpon) to'lovchi okruglarga bo'lgan. Satrapliklarni Kir II va Kambiz davrida mavjud bo'lgan satrap boshqargan. Doro I satraplarning hokimiyatini cheklab, ular va harbiy boshliqlar o'rtasidagi vazifalarni ajratgan. Endi satraplar harbiy emas, fuqaroviy hokimga aylangan edi. Ular o'zlariga qarashli hudud ma'muriyati boshida turar, bu yerda sud hokimiyati vazifasini, xo'jalik hayot, soliq va majburiyatlarni undirish ishlarini boshqarar edilar.

Qo'shin esa satraplardan mustaqil bo'lgan, bevosita podshoga bo'ysungan harbiy boshliqlar qo'l ostida edi. Biroq Doro I vafotidan so'ng harbiy va satraplarning vazifasi bilan bog'liq bo'linishga qat'iy amal qilinmagan.

Yangi islohotlarni amalga oshirilishi ortidan podshoning devonxonasi bilan birga markaziy apparat ham vujudga keltirilgan. Markaziy davlat boshqaruvi Suza shahrida - Ahamoniylar davlatining poytaxtidan turib amalga oshirilgan. Podsho saroyi qishni va kuzni Bobilda, yozni esa Ekbatanda, bahorni Suzada, katta bayramlarni esa Pasargad va Persopolda o'tkazar edi.

Ahamoniylarning rasmiy tili oromiy tili bo'lib, undan davlatning devonxonasidagi muloqot uchun foydalanilgan. Rasmiy

hujjatlar shu tilda joylarga markazdan turib yetkazilgan. Joylarda mahalliy tillardan ham foydalanilgan.

Satrapliklarni boshqarish uchun doimiy pochta xizmati ham yo'lga qo'yilgan. Buning uchun yirik shaharlarda davlat tomonidan qo'riqlanadigan maxsus saroylar barpo etilgan. Masalan, Sard shahridan Suza shahriga qadar bo'lgan ana shunday pochta yo'lining uzunligi 2470 km.ni tashkil etgan bo'lib, ular orasida 111 ta stansiya mavjud bo'lgan. Ot va choparlarni almashtirgan holda bir kunda 300 km yo'lni bosib o'tish mumkin bo'lgan. Sarddan Suzagacha bo'lgan butun bir yo'l, odatda, bir hafta ichida bosib o'tilgan. Biroq pochta xizmati qadimda faqat davlat ehtiyojlari uchun qo'llangan. Xususiy xatlar yoki choparlar, yo'lovchi yoki xususiy kishilar xizmatida bo'lgan ayg'oqchilar orqali yuborilgan.

Ahamoniylar imperiyasida soliq tizimi ham yaxshi yo'lga qo'yilgan edi. Biroq Kir II va Kambiz davrida davlat tarkibiga kiruvchi mamlakatlarning iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olishga asoslanib, qat'iy tartibga keltirilgan soliq tizimi bo'lmagan. Taxminan mil. avv. 519-yilda Doro I yangi davlat soliqlar tizimini joriy qilgan. Unga ko'ra har bir satraplik haydaladigan yer va undan olinadigan hosilning darajasidan kelib chiqib qat'iy belgilangan tartib asosida kumush pul bilan soliq to'lashi kerak bo'lgan. Gerodotning asarida ana shunday soliq turlari to'g'risida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Uning yozishicha, oltin qumi bilan soliq to'lagan Hind satrapliklarini hisobga olmaganda, podshoga qaram bo'lgan barcha xalqlar umumiy hajmda taxminan 7740 bobil kumush (232 200 kg) to'lagan. Bundan tashqari natura ko'rinishidagi turli soliqlar to'lanishi ham belgilangan edi.

Doro I butun davlati uchun yagona tanga birligi – umumiy og'irligi 8, 42 g ni tashkil etuvchi oltin darik (doriy) ni ham joriy qilgan. Oltin tanga podshoning alohida imtiyoziga kirgan bo'lsa, odatiy almashinuvda 5,6 g ni tashkil etgan kumush tanga ishlatilgan. Kumush tangalarni Kichik Osiyo va boshqa podshoga qaram satrapliklar podsho nomidan ham chiqarish huquqiga ega bo'lgan.

Biroq forslarning ushbu kumush tangalari Kichik Osiyodan tashqarida cheklangan tarzda ishlatilgan va savdoda ikkinchi

darajali rol o'ynagan. Odatda, savdo-sotiq kumush quymasi orqali amalga oshirilgan.

Siyosiy jihatdan barqarorlik va turli satrapliklar o'rtasidagi doimiy aloqalar, dengiz va quruqlikdagi yo'llarning mavjudligi xalqaro savdoni rivojlantirish va bunday aloqalarni shu davrga qadar bo'lmagan miqyosda kengaytirish imkonini bergan.

Ahamoniylar imperiyasida ko'plab karvon yo'llari ham mavjud bo'lgan. Jumladan, Zagros tog'larida kesishib, Bobilni Ekbatana bilan bog'lovchi va so'ngra Baqtriya va Hindiston chegaralariga qadar boruvchi yo'l muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Imperiyaning savdo munosabatlarini rivojlanishiga tabiiy va iqlim bilan bog'liq omillar ham juda katta ta'sir ko'rsatgan. Hindistondan oltin, fil suyagi, xushbo'y va ziravor o'simliklar keltirilgan bo'lsa, So'g'diyona, Baqtriya va Old Osiyodan lazurit va yarim qimmatbaho tosh – serdolik, Xorazmdan – firuza kelib turgan. Misrdan esa g'alla va qalin gazlama, Bobildan jundan qilingan kiyimlar, Finikiya shaharlaridan vino va hunarmandchilik buyumlari (birinchi navbatda shisha idishlar) olib kelingan.

Ahamoniylar davlatining barqarorligi uning qo'shiniga ham bog'liq edi, albatta. Uning o'zagini midiyalik va forslar tashkil qilgan. Forslarning erkaklarini ko'pchilik qismi harbiylikka olingan. Ular harbiy xizmatni 20 yoshdan boshlagan. Ularning qo'shinida sharqiy eronliklar ham muhim rol o'ynagan.

Muhim harbiy yurishlar davrida imperiya tarkibiga kiruvchi barcha xalqlar belgilangan harbiylarni yetkazib berishga majbur bo'lgan.

**Madaniyat va din.** Mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmida Sharqiy Eron va O'rta Osiyoda zardushtiylik dini vujudga kelgan. Ahamoniylar davlati Qadimgi Eron xalqlarining madaniyatiga juda katta ta'sir ko'rsatgan. Biroq Avestoda ahamoniylar atamaları uchramaydi. Unda shuningdek, ular tomonidan ishlatilgan tangalar, soliq tizimi, ijtimoiy va davlat institutlari, midiyalik va ahamoniy podsholari tilga olinmaydi.

Umuman olganda, Qadimgi Eron o'ziga xos yuksak rivojlangan sivilizatsiya yaratgan. Uning eng yirik yutuqlaridan biri – qadimgi Eron mixxat yozuvi bo'lib, u 600 belgidan tashkil topgan akkadliklarning yozuvidan farqli o'laroq, jami 43 ta

belgidan iborat. Faqat Eron yozuvi asosan podsholarning qabrlari, devorlari va saroy koshinlarini bezashda yoki metall idishlar, qurol, muhrlarni yasashda ishlatilgan. Ular orasida eng mashhuri Behustun yozuvi hisoblanadi. Unda Kambizning hukmronlik davrining oxirlari va Doro I ning podsholik davri boshlari haqida soʻz yuritilgan. Bu yozuv tushirilgan yodgorlikning uzunligi 7,8 m, kengligi 22 metrni tashkil etadi. Boshqa ahamoniylar yozuvi singari bu yozuv ham qadimgi fors, elam va akkad tilida bitilgan. Bundan tashqari Elefantina orolidan bu yozuvning oromiy varianti, Bobildan uning akkad versiyasi yozilgan katta tosh boʻlagi topilgan. Ahamoniylar yozuvlari Naqshi Rostam, Persopol, Suza, Ekbatan va Misrda ham topilgan.

Mil. avv. VI asrdayoq qadimgi fors taqvimi vujudga kelgan. Bu taqvim oy taqvimi boʻlib, 29 yoki 30 kundan iborat 12 ta oydan tashkil topgan, 12 oy 354 kundan iborat boʻlgan. Shunday qilib, qadimgi Eron taqvimi quyosh yilidan 11 kun qisqa boʻlgan.

Ahamoniylar davrida sanʼat ham oʻziga xos tarzda rivojlangan. Bu davlat faqat Pasargard va Persopol, Suzadagi yodgorliklari bilangina emas, koʻplab boshqa sanʼat yodgorliklari bilan ham mashhur.

Ahamoniylar sanʼati, eng avvalo, podsho hokimiyatining buyukligi va ulugʻvorligini ifodalovchi saroy arxitektura sanʼati edi. Bu asosan, turli toshlardan boʻrtib ishlov berilgan metall idishlar, fil suyagidan ishlangan ritonlar, zargarlik buyumlari, kumush nitrat (lyapis)- lojuvarddan ishlangan haykalchalar va boshqalarni tashkil etgan.

Badiiy hunarmandchilik ham yuqori choʻqqiga chiqqan. Bu davr sanʼatining oʻziga xos xususiyatli jihatlaridan yana biri - boshqalaridan alohida ajralib turuvchi predmetlarni yuksak mahorat bilan tasvirlanishidir.

Bundan tashqari chaqmoqtosh (kvars va xalsedon), rangli toshlardan yasalgan silindrsimon muhrlar alohida eʼtiborga loyiq. Podsholar, qahramonlar, sarguzashtli va haqiqiy jonzotlar tasviri tushirilgan ushbu muhrlar shaklining mukammalligi va oʻziga xos mazmuni bilan hozirga qadar tomoshabinlarni hayratga solib keladi.

Miloddan avvalgi 250-yilda Eron va Turkmaniston hududida Parfiya davlati vujudga keladi. Mazkur davlat Arshakiylar sulolasi davrida ulkan imperiyaga aylandi. Parfiya davlati kuchaygan vaqtda Rim bilan bir necha bor urushlar olib borib g'olib keladi. Parfiya jamiyatida qullar bo'lmagan. Yirik shaharlari Gekotompil, Ekbatan, Niso, Mari hisoblangan. Oromiy yozuvi keng tarqalgan. Zardushtiylik dini hukmron din sanalgan. Me'morchilikda mahalliy va yunon an'analari ustun bo'lgan. Niso shahridan ritonlar topilgan.

Parfiya davlatiga bir necha yarim qaramlikdagi hududlar kirgan. Ana shunday birlashmalardan biriga Soson boshchilik qilgan. Keyinchalik uning nomi bilan Sosoniylar sulolasi hukmronlikni davom ettirgan.

Shunday qilib, Eron hududida milodiy 224-yildan Sosoniylar davlati vujudga keladi. Feodal munosabatlar shakllanish jarayonida bu yerda ozod kishilar asosiy o'rin tutgan. Ularning qo'lida qaram kishilar bo'lgan. Jamiyatda dastlab zardushtiylik hukmron din sanalgan bo'lsa, keyinchalik bu hududda Moniy ta'limoti vujudga keladi. Mazkur ta'limot hukmron tabaqaga norozilik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Biroq bu davrda hukmron doira o'z hududlarini kengaytirish yo'lida qo'shni davlatlarni o'z ta'sir doirasiga kiritish harakatida bo'lgan.

Keyinchalik Mazdak ta'limoti vujudga keladi. Ular yirik yer egalariidan katta yerlarni talab qiladi. Hatto Kubod davrida davlat dini sifatida qabul qilinadi. Sosoniylar davlati Xusrav I davrida yuksak cho'qqilarga chiqadi. Mamlakatda ozod kishilarning mavqei yanada oshgan hamda eftaliylar zaiflashuvidan O'rta Osiyoni ham o'z ta'sir doirasiga kiritishga harakat qilgan. Sosoniylar davlati milodiy 651-yilda arablar tomonidan tugatilgan.

### **Muhokama uchun savollar**

1. Elam sivilizatsiyasining vujudga kelishining asosiy omillari nimalarda aks etgan?

2. Qadimgi Eron qabilalarining davlat birlashmalari qaror topgan hududning tabiiy shart-sharoitlari va iqlimini ta'riflang.

3. Midiya davlatining eng gullab-yashnagan davri qaysi davrga oid? Asoslang.

4. Qadimgi Eronning qaysi hududida va qachon ilk davlatlar vujudga kelgan?

5. Qadimgi Eron ijtimoiy tuzumi haqida nima deya olasiz?

6. Mesopotamiya, Ossuriya va Elam, Eron sivilizatsiyalari o'rtasida qanday o'zaro aloqalar qaror topgan?

7. Eron va O'rta Osiyo sivilizatsiyasida Midiya podsholigi qanday rol o'ynagan?

8. Eronning o'zidan ancha rivojlangan davlatlar ustidan erishgan muvaffaqiyatlarini qanday izohlaysiz?

9. Doro I ning iqtisodiy va siyosiy sohada amalga oshirgan asosiy islohotlari nimalardan iborat edi?

10. Fors davlatining kuchsizlanishi va oxir-oqibat qulashida yunon davlatlari qanday rol o'ynagan?

## **7-MAVZU. QADIMGI XITOIY SIVILIZATSIYASI**

### **Reja:**


1. Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasi asoslari.
2. Xitoy sivilizatsiyasiga mansub bo'lgan insonlarning fikrlash tarzini shakllanishi.
3. Koinot va inson, sinergetika ibtidolari, axborot maydoni g'oyasi – Xitoy sivilizatsiyasi tushunchalari.
4. Xitoy sivilizatsiyasining o'ziga xosligi.

### **Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasi asoslari**

Hozirgi “Xitoy” nomi mo'g'ullarning Kidan qabilasi nomidan kelib chiqqan, bu qabila X-XI asrda Xitoy imperiyasining shimolini zabt etib, shu yerda o'z davlatini tashkil qilgan. Xitoyliklarning o'zlari esa, azaldan o'zlarini xan deb nomlaydilar, bu nom mamlakatda miloddan avvalgi III asrdan boshlab, milodiy III asrga qadar 500 yil hukmronlik qilgan sulola nomidan kelib chiqqan bo'lib, ana'anaviy Xitoy davlatchiligi va madaniyatiga asos solgan. Mamlakatning nomiga kelsak, qadim zamonlardan bu mamlakat Chjoungo deb, ya'ni “O'rta podshohlik”, “o'rta imperiya” deb nomlangan. Bunday nomlash atamasida o'zini atrofdagi dunyoga qarshi qo'yish, o'zini qandaydir markaz sifatida anglash yotadi. Buning uchun asoslar ham mavjud edi. Xitoy sivilizatsiyasi azaldan ham Xuanxe daryosining basseynida shakllangan. Bu daryoning janubiy qirg'og'ida Anyan joylashgan, bu shaharga har yili minglab odamlar bitta maqsadda tarixi uch ming yildan ziyod bo'lgan qadimgi Xitoyning buyuk sivilizatsiyasining qoldiqlarini ko'rish maqsadida keladilar. Bu shahar Shan sulolasining poytaxti bo'lib Anyan shahridan 2 chaqirim uzoqlikda shimoliy-g'arbda joylashgan. Hozirgi paytda Shan bilan bog'liq bo'lgan barcha narsalar qabul qilinadi, Anyan atrofidagi joylar esa dunyodagi eng ishlangan arxeologik joy hisoblanadi. Ming yillar davomida sirli Shan tarixchilarni hayajonga solgan, uydirma va fantaziyalarning markazi bo'lgan.

Miloddan avvalgi VI asrda yashagan Konfutsiy ismli xitoylik faylasuf Shan haqida shunday der edi: “Ularni marosimlari haqida

qanday gapirish mumkin? Na hujjatlar qolgan, na uni ko'rib bilgan odamlar qolgan". Shan davri hozirda qadimgi Xitoyning "Oltin asr"i sifatida e'zozlanadi. Qolgan ikki sulola bu Shandan oldin hukmronlik qilgan Sya sulolasi va Shandan so'ng taxtga erishgan Chjou sulolasidir. Dastlabki ikkitasini hisobga olmagan holda, aksariyat tarixchi va arxeologlar Xitoy tarixi Chjou sulolasidan boshlanadi, deb hisoblashar edi. Buning sababi Sya va Shan sulolalariga mansub bo'lgan yodgorlik va buyumlarning yo'qligidir. Ehrom va saroylar saqlanib qolmagan: har bitta keyingi sulola dastlabki sulolaning binolarini buzib, uning xarobalarida o'z tarixini shakllantirgan.



**Shan-In davridagi fol suyaklaridagi yozuvlar**

Shanning arxivlari poytaxtni Chjoular g'alabaga erishib, qo'lga olganlaridan so'ng yo'q qilinib tashlangan, bu voqea

miloddan avvalgi II ming yillikning yarmida bo'lgan, qolganlari esa asta-sekin yillar ichida yo'q bo'lib ketdilar. Yer ostida ko'milib qolgan Xitoyning ulkan tarixiy merosi ko'p yillar davomida qat'iy ta'qiq ostida edi, bu ta'qiq vafot etganlar bilan bog'liq bo'lgan. Ammo milodiy 281-yilda qaroqchilar U davlatiga keldilar va Xuanxe va Yanszi daryolarini birlashtirish uchun suv yo'lini barpo etish buyrug'ini berdilar. Bu kanal Xan Gou deb nomlangan bo'lib, uning uzunligi deyarli 100 ming, u hozirgi paytda Xanchjou va Pekinni birlashtiruvchi buyuk kanalning qismidir. Li tomonidan miloddan avvalgi 250-yilda barpo etilgan to'g'on, kanal va shluzlarning tizimi shu qadar takomil ediki, uning qismi hozirda ham Sichuan provinsiyasida amaldadir. Sharqiy Chjou davri ustalari bronzadan haddan ziyod murakkab va ajoyib bezakli buyumlarni tayyorlashgan, oziq-ovqat va ichimlik uchun idishlar, ayollar bezaklari, kamarlar kumush va oltindan tayyorlangan bo'lib, ishning nafisligi va mohirligi bilan lol qoldiradi. Yunonlar notiqlik san'atini qay darajada e'zozlab, hurmat qilgan bo'lsalar, shu darajada Xitoy an'anasiga ko'ra, o'qish va yozish qobiliyati ham e'zozlangan.

Xitoy yozuvining paydo bo'lishi ming yillar davomida tarixda sir bo'lib qolmoqda. Ilk loydan yasalgan idishdagi yozuvlarning davri aniqlangan, bu miloddan oldingi V-IV asrlar hisoblanadi. Xitoy yozuvini o'zlashtirishga xitoyliklarning o'zi ham hattoki, 10 yil vaqt sarflaydi, biroq madaniy jihatdan bunda ulkan mukofotga erishiladi. Xitoy o'tmishining barcha mumtoz matnlarini o'qish mumkin. Konfutsiyni o'qish zamonaviy she'riyatda murakkabroq emasligi lol qoldiradi. Qazilmalar paytida tasodifan topilgan predmet, uzoq o'tmish bilan yuzma-yuz kelish imkoniyatini beradi. Masalan, Tutanxamon - misrlik Fir'avnning qabrida topilgan kumush nay va Mayya qabrlaridagi kichik loydan yasalgan buyum o'tmish va hozirgi paytni bog'laydi. Xitoyda ham xuddi shunday voqea sodir bo'lgan. 1979-yilda Xenan provinsiyasida 2400-yil oldin Xitoy zodagoni dafn etilgan maqbarada 26 ta qo'ng'iroq topildi, ulardan har biri 2 ta har xil tovushdagi nota chiqarar edi. Qo'ng'iroqlarning cheti va o'rtasiga kichkina bolg'achalar bilan urilganda ular juda nafis ovoz chiqaradilar. Va nihoyat, 1988-yilda bu qo'ng'iroqlarda musiqa

chalib har bir qo'ng'iroqning tovushini yozib olishga qaror qildilar. Amerikalik Norman Derki ismli bastakor Vashington shtatidagi Sietl shahrida qo'ng'iroqlar ko'rgazmasining tashkilotchilari buyurtmasiga ko'ra, bu qo'ng'iroqlar uchun pyesa yozdi. Ko'rgazmaga tashrif buyurganlar qadimiylkning musiqa asbobida yaratilgan ajoyib musiqasini eshitdilar.

Xitoy siklik turdagi sivilizatsiyaning mumtoz namunasi. Qadimdayoq mazkur mamlakatning tarixida mayatnik mexanizmi aniqligi bilan amalda bo'lgan ma'lum ritm birligi aniqlandi. Har bir yangi sulola yangi siklni boshlar edi, gullab-yashnab farovonlikka erishar edi. Biroq ma'lum paytdan so'ng mamlakatda pasayish kuzatilar, dehqonlar qashshoqlashib, provinsiyalar markaziy hokimiyatdan mustaqillik uchun kurashishni boshlardilar, mansabdor shaxslar poraxo'rga aylanar edi. Xalq isyoni barbod bo'lishning oxirgi nuqtasi bo'lgan.

Miloddan avvalgi 206-yilda Xan sulolasi hokimiyatga keldi, bu sulolaga isyonkorlarning rahbarlaridan biri oddiy dehqon asos soldi. Imperiya jadal rivojlanib, yaxshi boshlaganiga qaramasdan, milodiy II asrning o'rtasiga kelib barbod bo'lish davriga keldi. III asrda Xitoy 3 ta mustaqil davlatga ajralib ketdi, ammo yangi Szin suloasi bir necha o'n yillikda yaxlitlikni tiklashga muvaffaq bo'ldi. IV asrdan boshlab Xitoyga mamlakatni bo'laklarga ajratib tashlagan ko'chmanchilar kirib keldi. Suy sulolasi Shimol va Janubni birlashtirishga muvaffaq bo'ldi, ammo u ham VII asrning boshida Tan sulolasiga hokimiyatni bo'shatib berdi, Tan sulolasi X asrgacha hukmronlik qilganidan so'ng uning o'rniga mamlakatni XIII asrgacha boshqargan Sun sulolasi keldi. Xitoyga ko'chmanchi qabilalarni kirib kelishining yangi to'lqini sabab mo'g'ullarning Yuan sulolasi paydo bo'ldi (1280-1368). Barbod bo'lgan iqtisod mo'g'ullarning hokimiyatidan norozi bo'lganlarning soni tobora oshishiga, bu esa isyonga olib keldi, unga Chjou Yuan Chjan rahbarlik qildi. U o'zini Min sulolasi deb e'lon qildi. Mazkur sulolaning gullab-yashnashi, farovonligi XVII asrning boshida Sin sulolasini tashkil qilgan Manjurlarni bostirib kelishi tufayli tugatildi. Bular Sin sulolasini boshlab berdilar. Sin sulolasi XX asrning boshlarigacha hokimiyat tepasida bo'lib, o'z ichida

Konfutsiychilik madaniyati va Xitoy sivilizatsiyasining an'analarini uyg'unlashtirdi.

Xitoy sivilizatsiyasi rivojining siklliligi XX asr voqealari bilan tasdiqlandi. Buyuk Mao (Mao Szedun) va uning siyosati Xitoyni to'liq barbod qildi, biroq bu buyuk sivilizatsiya XX asrning yakuniga kelib butun dunyoni iqtisodining ko'tarilishi va rivojlanishi bilan lol qoldirdi.

Xitoy sivilizatsiyasini doimo rivojlanishning quyiroy bosqichida turgan qabilalar o'rab turgan. Shimol va G'arbdan cho'l ko'chmanchilari, Yao va Myao qabilalari Janubdan, Shandun tog'laridan kelgan tog'liklar – bularning barchasi xitoyliklar tomonidan yovvoyi, "dunyoning to'rt tomonidan kelgan varvarlar" sifatida qabul qilinib, ularning madaniyatini Xitoy madaniyati bilan hech qanaqasiga taqqoslab bo'lmas, chunki ular hattoki, yozuvga ham ega emas edilar. Keyinroq Xitoy chegaralarida xunlar paydo bo'ldilar, ularning o'rniga mo'g'ullar keldilar. Xitoy o'z chegaralarini Sharqda dengizgacha, Janubda subtropiklargacha kengaytirdi, ammo bu hududlardagi boshqa xalqlar madaniy rivojlanishda Xitoydan ancha ortda edilar. Xitoyga ketma-ket ko'chmanchilar o'rdalari hujum qildilar, uni qisman yoki to'liq egallab oldilar: IV-VI asrda turklar, mo'g'ullar XII-XIV asrda, manjurlar XVII-XIX asrda. Biroq ularning barchasi qum suvni shimib olgandek, o'rta imperiyaning ko'p millionlik aholisi tomonidan "shimilib" ketar edi, chunki bu xalqlar Xitoyning ming yillik madaniyatiga qarshi hech narsa qo'ya olmasdilar.

Xitoyda doimo sivilizatsiya va madaniyat juda yuqori baholangan, madaniyat "ven" iyeroglifi bilan belgilanar edi, unda "de" ruhiy farovonlikni, u esa o'z navbatida, mutlaq "dao"dan kelib chiqar edi. Ven insonning birlamchi tabiatiga tarbiya orqali singdirilardi, bu xitoyliklarni rivojlanmagan insondan farqlovchi o'ziga xos ruhiy naqsh edi. Shuning uchun ham madaniyat qo'pol kuchdan yuqoriroq e'zozlanib, hurmat qilinardi, fuqaro xizmati esa harbiydan afzalroq hisoblanardi. Qiyoslash uchun G'arbiy hukmronlar harbiy kiyimlarni kiyib maqtanishi, Sharqiy hukmronlar esa o'zlarining nafis adabiy so'zini shakllantirib, rivojlantirganini qayd etish mumkin. Xitoyning deyarli har bir hukmroni – Xan podshohlik uyi asoschisi U Dzi imperatoridan

boshlab, to rais Maoga qadar barchalari she'riyat bilan mashg'ul bo'lganlar. O'rta imperiyaning hokimlari o'zlarini samo osti hokimlari sifatida nomlar edilar. Shuning uchun ular elchilar bilan uchrashganda syuzeren vassalga, ya'ni janob xizmatchiga qilgan muomalada bo'lar, ulardan sovg'alarni soliq sifatida qabul qilib, 9 marotaba salom berishni talab qilar, o'z elchilarini boshqa mamlakatlarga yubormas edilar.

Xitoyliklar yevropaliklarni varvar deb hisoblashgan: birinchidan, ular iyerogliflarni bilmas edilar, demak, xitoyliklarning nuqtai nazaridan savodsiz bo'lganlar. Ikkinchidan, Xitoy marosimlarini bilmas edilar, demak, eng oxirgi kalamushdan battar edilar. Barcha yevropaliklar xitoyliklarning manmanligini ta'kidlab o'tar edilar. 1904-yilda Sankt-Peterburgda "Xitoy va uning hayoti" deb nomlangan muallifi noma'lum bo'lgan nemis nashrining rus tiliga tarjimasini chop etildi. Bu asarda "Xorijliklarga nisbatan mensimaslik" deb nomlangan maxsus bob bor edi. Muallif shunday yozadi: "Ular bizni mexanikadagi o'z kashfiyotlarimiz bilan oldinda deb tan olsalarda, bu kashfiyotlarni foydasiz deb hisoblaydilar". Mexanik sivilizatsiyani qabul qilmaslik xitoyliklarning xalq ongida oq yuzli (yovuzlikning ramzi) va an'anaviy Xitoy soch turmagi qilinmagan sariq sochli deb tasavvur qilgan "dengiz ortidagi shayton" degan salbiy obrazidan kelib chiqadi. Xitoy sivilizatsiyasining birlamchi madaniyat yasovchi asosini "Uch ta'limot" ("San Szyao") - konfutsiychilik, daotsizm va buddaviylik shakllantirgan.

### **Xitoy sivilizatsiyasiga mansub bo'lgan insonlarning fikrlash tarzini shakllanishi**

Konfutsiy shogirdlari tomonidan "Mulohaza va suhbatlar" deb nomlangan kitob tuzilgan, biroq konfutsiychilik so'zini yevropaliklar kiritgan, aslida Xitoyda bu hodisa doimo kitobchilar maktabi deb atalgan, chunki u uzoq o'tmishning donishmandligidan o'z ibtidosini olgan. Konfutsiy ta'limotining bosh fikri bu "tabiat dunyosida insonning o'rni" hisoblanadi. Qadimgi odam o'zgarayotgan dunyoda yashayotganini aniq ko'rgan, bu esa, mashhur "O'zgarishlar kitobi"da aks etgan.

O'zgarishlar harakatlanayotgan doira sifatida tasavvur qilingan, tarix harakatining ibtidosi konfutsiychilik ta'limoti tarafdoriga "oliy qadimiylik" deb qabul qilingan, unga u doimo o'z ruhiy nigohini qaratgan. Konfutsiy: "qadimiylikni sevaman va bunga ishonaman" deb aytgan. Bu iborada qadimgi zamonlardan qolgan barcha narsani imkon qadar ehtiyotkorlik bilan saqlashga bo'lgan talab kelib chiqadi, Konfutsiyning "yetkazib beraman, ammo ijod qilmayman" degan iborasi rahbar g'oya bo'lgan. Konfutsiychilik Sharq xalqlari hayotida 2,5 ming yilni qamrab olgan holda, butun bir davrni yaratdi. U ta'limot ijtimoiy insonga qaratilgan edi. Inson bu dunyoga kelganida xulq-atvorning qog'ozga tushurilmagan meyorlarini tushunmagan holda tug'iladi, biroq bu qoidalar inson hayotida teri va havo kabi zarurdir. Aynan shuning uchun "Li" – qoidalar xizmat qilgan, bular qatoriga etiket, marosim, urf-odatlar kirgan. Faqatgina "Li" ga burkangan inson inson unvoniga loyiqdir, "li"siz inson kalamushdir. "Li" bo'lmasa, dunyo barbod bo'ladi, unda hech qanday qadriyat qolmaydi. Shuning uchun xitoylik doimo "o'z yuzini yo'qotishdan" qo'rqadi, bu fuqaro o'limiga tengdir. "Li" xitoy tilini hurmat, odobning standart iboralari asosida shakllantirdi, biroq "li" bu hissiyotlarning ko'rinishi, inson shaxsini o'z-o'zini barkamollikka erishtirish g'oyasidir.

Konfutsiy tashqi shakllar haqiqatda oliyanob insonni shakllantirishi haqida orzu qilgan. Shakllar dunyosi xitoyliklarni tartibsizlik, xaosdan qutqargan, "Li" tufayli har bir inson, har bir muayyan vaziyatda qanday harakat qilishini tasavvur qila olgan, har bir inson o'z o'rnini bilgan. O'tmishga qaratilgan qadimgi Xitoyda asoslarning asosi ajdod, ota-ona va kattalar bo'lgan: Xitoyda doimo "ildiz"ni afzal ko'rishgan bo'lsa, G'arbda esa faqatgina shox – ya'ni bolalar, farzandlar qimmatli bo'lgan. Farzandning qadriyati uni urug'ni davom ettirish vazifasidan iborat bo'lgan, chunki konfutsiychilikning "o'g'il farzandlarning ehtirom, hurmat kitobi"da ota-onalarga ehtirom va hurmatsizlikning eng yomon jazosi deb farzandsizlikni ko'rsatgan.

Xitoyning 1,5 mlrddan ortiq aholisi qadimgi ta'limotning asrlar osha saqlanib qolganligidan dalolatdir. Samo osti imperiyaning abadiyligining garovi konfutsiychilik ta'limotiga ko'ra, quyini yuqoriga tobeligidadir: fuqaro – davlatga, farzandlar

- ota-onaga, xotinni -erga, ammo konfutsiy ta'limotida yuzadagi boshqaruv haqidagi fan asosiy bo'lmagan, konfutsiy ta'limotidagi asosiy bu ichki chuqur ma'no - insonni ichki jihatdan o'z-o'zini barkamollikka erishtirish haqidagi ta'limotdir. Konfutsiy "o'zingni boshqara olmasang, insonlarni qanday boshqara olasan" deb o'rgatgan. "Mulohaza va suhbatlar" kitobi konfutsiyning eng bosh mulohazasi bilan boshlanadi: "o'qimoq va doimo takrorlamoq - bu xursandchilik emasmi? Konfutsiy axloqiy barkamollikka ehtirolarni yo'q qilish hisobiga erishish mumkin degan, fikrdan yiroq bo'lgan. Dao rohibi Konfutsiy uchun ideal bo'lmagan. "Agarda osmonga qaramasa, yerni obodonlashtirish mumkin emas, ammo yerni obodonlashtirmasang, osmonni ko'ra olmaysan" deb o'rgatgan Konfutsiy.

Konfutsiychilik insonni o'zini o'zi barkamollikka erishishini Jen - insonparvarlik orqali amalga oshirilishi lozim, deb ko'rsatadi. Jen atamasi "Mulohaza va suhbatlar" kitobida 109 marta uchraydi. Bu so'z konfutsiychilikning kalitidir. Jen tarjima qilinganda insoniylik, inson ibtidosi, insonparvarlik, vijdon, rahm ma'nosida keladi. Jenning mohiyati "inson inson bo'lishi kerak" degan fikrdan iborat, u Konfutsiyning asosiy ta'limotidan kelib chiqadi va o'z ichiga 2 ta tamoyilni qamrab oladi: birinchidan, grafik jihatdan jen ikkita belgidan iborat, bittasi insonni tasvirlasa, ikkinchisi ikkini, ya'ni 2 ta inson mavjuddir. Inson sirini ijtimoiy maqomidan qidirish lozim. Har bir insonning o'z taqdiri mavjud, demak vazifa inson sotsiumini yaratishdan iborat, chunki insonning vazifasi boshqa insonlarga to'g'ri munosabatda bo'lishdan iboratdir. Ikkinchidan, insonni to'g'ri tanlovining mezoni va meyoru bu "o'zarolik"dir. Yevropaliklarda bu "o'zingga xohlamagan narsani boshqalarga qilma" degan iborada o'z ifodasini topgan".

Konfutsiy "sivilizatsiyali" tarbiyalanganlik, ziyolilik kutilmagan ehtirolarning o'rniga chuqur o'ylangan so'z kelishidan iboratdir" deb ta'kidlagan. Bundan ta'lim, madaniyat, tarbiya muhimligi kelib chiqadi. "Agarda insonda tabiiylik tarbiyaviylikdan yuqori bo'lsa, u savodsizdir, agarda aksi bo'lsa bu kitobiylikdir. Ikki fazilatning muvozanati insonni oliyanob qiladi" - deb o'rgatadi Konfutsiy. Shunday qilib, Jen, Li, Venlar kabi

muhim tushunchalar ideal shaxsning tomonlaridir. Oliyjanob tushunchasi ziddiyatlidir: oliy qatlam mavjud, bu yerda mukammal va oliyjanob bo'lish bu ijtimoiy majburiyatdir, ammo konfutsiyda "insonning mukammalligi mukammal jamiyatga olib keladi". Oliyjanob inson doimo insonparvarlik tamoyiliga rioya qilishi lozim. Xoh ovqat yesin, xoh band bo'lsin, xoh muvaffaqiyatsizlikka uchrasin, bu – Jen.

Oliyjanob o'zini qoida, an'ana, marosim, urf-odatlar, ya'ni Li bilan cheklashi lozim. Oliyjanob inson doimo o'qishi lozim bo'lib, – Ven hisoblanadi. Inson oliyjanob bo'lib tug'ilmaydilar, oliyjanob bo'lib shakllanadilar. Shakllanish jarayoni uchun ikki tomon muhim: birinchidan, inson o'ziga va boshqa insonlarga qanday munosabatda bo'lishi, ikkinchidan, uning hayotiy faoliyatida amaliy xulq-atvor va kitobiy bilim qanday mutanosiblikda ekanligidadir. Oliyjanob inson barchaga bir xil munosabatda bo'lib, insonlardan yaxshi narsani o'zlashtirishi lozim, chunki odamlardan har doim biron-bir narsani o'rganish zarur bo'lgan. Inson qanday mansabda bo'lmasin, uni insonlarga ta'sir qilishning bittagina vositasi bor – bu o'z xulq-atvorining oliyjanoblighi va benuqsonligidir. Oliyjanob insonning qarama-qarshisi bu "quyi" insondir, uning maqsadlari foyda olish, u janjalni yaxshi ko'radi, barcha odamlarni ayblaydi, qo'pol, odobsiz va o'zi xohlaganini qiladi. Buning barchasi o'ziga nisbatan yomon munosabatda bo'lganning oqibatidir. Bunday insonga "o'zaroviylik" g'oyasi yoddir.

### **Koinot va inson, sinergetika ibtidolari, axborot maydoni g'oyasi – Xitoy sivilizatsiyasi tushunchalari. Daotsizm**

Bu ta'limot qadimiy ta'limotlardan biri bo'lsa-da, u bizning paytimizga ham hamnafasdir. Kosmos va inson, rezonans, aks etishning barchani qamrab oluvchi nazariyasi, sinergetika ibtidolari, axborot maydoni g'oyasi, taraqqiyot oqibatlarini oldini olish – bularning barchasini insoniyat Xitoy sivilizatsiyasidan olgan. Bunga atrofda dunyoning kuchlarini g'ayritabiiy, tafakkurga bo'ysunmaydigan darajada egallab olishga bo'lgan ishonch hamrohlik qilgan. Konfutsiy so'z yuritmagani narsalarini

daoslar o'z tafakkurlarining obyektiga aylantirdilar. Yo'qsizlikning tubida ilohiy urug' szin paydo bo'lgan, keyin u inson mavjudotida unib chiqib teri va tanaga ega bo'lib, hosil beradi, bunda ko'paygan ma'naviyatni samo va dunyoga qaytaradi. "Inson ruhiy efir bilan vujudga keltiriladi, vafot etganidan so'ng yana unga qaytadi. Efir insonni suv muzni yaratgan kabi yaratadi. Ruh quyuqlashib insonga aylanadi. Muz eriganidan so'ng yana suvga, inson vafotidan so'ng esa, ruhga aylanadi" deb yozadi milodiy I asrda yashagan Van Chun.

Ruh dunyosi va son-sanog'i yo'q jismoniy shakllar dunyosini dao - borliq yo'li tushunchasi birlashtiradi. Dao oqimi butun dunyoni qamrab oladi, qadimgilar daoni keng suv oqimiga o'xshatganlar, bu oqimda qandaydir anglanilishi qiyin bo'lgan barcha joyga kira oladigan shaklsiz bir narsaning hissi mavjud. Daoni his etish murakkabdir, buning uchun shakl va bo'yoqlar dunyosida, fikr va ruhning kerak bo'lmagan hissiyotlaridan kechish lozim, shundagina inson haqiqatga erishadi. Yurak daoga o'xshashdir, yurak orqali buyuk oqim o'tadi. Bu yerda inson mikrokosmos va ulkan kosmos, borliqning yaxlitligi g'oyasi yangraydi, aslida bu ikki tushuncha bir narsadir. Dunyoning o'qi Shimoliy yulduz orqali va inson yuragi orqali o'tishi mumkin. Xitoy sivilizatsiyasi uchun harakatsizlik konsepsiyasi qiziqarliidir. Xitoyliklarning, ayniqsa, mansabdorlarning shaxsiy tashabbusning yo'qligi voqealar rivojiga aralashmasligi - bularning barchasi yevropaliklar uchun g'alati edi. Muvaffaqiyatga erishish istagida bo'lganlar ildizlarga ta'sir qiladi. Narsalarning ildizi esa daodadir, shuning uchun ham hovlidan tashqariga chiqmasdan, dunyoni idrok etish mumkin. Lao Szining ta'kidlashicha, harakatsizlik yo'li bilan qilish mumkin bo'lgan narsa yo'qdir. Harakatsizlik bu mavjud bo'lmagan sohadagi harakat, bu yerda inson o'z fikri bilan sayohat qilib, narsalar g'oyasini o'ziga bo'ysundiradi. Dao haqiqat bo'lganligi sabab ilhom faqatgina undan olinadi, shuning uchun ilhom va iste'dod bilan yolg'onni yozish mumkin emas. Har bir inson o'zi daoga qo'shilishi lozim, shuning uchun bo'yoq, mo'yqalam, kitob va rasmlar Xitoyda doimo ilohiy darajada hurmat qilingan. Qadimgilarning fikricha, yozuv belgilari samo

obrazlariga o'xshatib yaratilgan, ularni dao yer va yulduzlarning harakatida namoyon qiladi.

Xitoyda boshqa ta'limotlar ham mavjud bo'lgan, bular qatorida Yaqin sharqiy islom, xristianlarning nestorianligi, fors moniyiligi, protestantizm, katolitsizm va pravoslav kabi ta'limotlarni ko'rishimiz mumkin. Biroq Xitoyning konservativ zaminida buddaviylikdan boshqa hech narsa rivojlanmadi. Buddaviylik daolikka yaqinligi sabab u Xitoyning 3 ta'limoti qatoriga kirdi, bu yerda buddaviylik va daotsizmning sintezi namoyon bo'ladi. Xususan, buning natijasi meditatsiya amaliyotiga asoslangan turli xildagi jangovor san'atlarning rivojida ko'rinadi. Shunisi qiziqarliki, xitoyliklar oy to'lgan va yangi oy chiqqan kunlarida 2 konfessiya ehromlariga ziyorat uyushtirganlar: tongda yorug' buddaviy ehromga, tunda esa qorong'u dao ehromiga borganlar. O'z ijtimoiy hayotida ular konfutsiychilik qoidalariga rioya qilganlar. Buddaviy rohiblarga Xitoyda doimo shubha bilan qarab, ba'zida ularni quvg'in ham qilganlar. Sodda odam buddaviy rohiblarni oila va ajdodlardan ixtiyoriy ravishda voz kechishini doimo jirkanish, hazar qilish bilan qabul qilgan, chunki bu o'g'il farzandning ehtirom, hurmati tamoyilining buzilishi edi. Hukumat esa buddaviy rohiblarni mehnat bilan shug'ullanmasligini qabul qila olmas edi. Umuman olganda, xitoyliklar dunyoni doimo ruh va ilohlarga to'la deb hisoblaganlar, bu ruh va ilohlar bilan muomalada bo'lish lozim edi. Yevropaliklarni lol qoldirgan Xitoy uylarining tomlarini shu qadar egilganligi faqatgina amaliy maqsadga ega edi: havo makonida uyga qarab uchib kelayotgan yovuz ruhlarni qaytarib jo'natib yuborish, qadimgi bino va ehromlarning tomlari arslon, ajdarho va boshqa qo'rqinchli mavjudotlarining tasvirlariga to'laligi va hokazo. Xitoyda ko'plab ilohlar mavjud, har qanday ruhga qurbonlik qilish mumkin. Xitoyning birinchi dono hukmdori Fu Si bo'lgan, u xitoyliklarning yovvoyi ajdodlarini olovda ovqat tayyorlashni o'rgatgan. Xuanding xotirasi ham yuqori qadrlangan, u Xitoy millatining asoschisi hisoblangan.

Inson o'z ichida samo va yer, ezgu va yovuz, qorong'u va yorug', erkak va ayol, o'zgaruvchan va o'zgarmasni o'z ichida birlashtiradi. Shuning uchun ham u go'yoki yer va samo bilan bir

xildir. Xitoyliklarning fikricha, koinotning faoliyat yuritishi insonga bog'liqdir. Shuning uchun jamiyatdagi har qanday axloqsizlik va isyon tabiat va koinotning holatida o'z aksini topadi va turli tabiiy hodisalarda ifodalanadi. Xitoyda podshohning hokimiyati doimo yakka bo'lgan, ammo to'xtatib turuvchi omillar ham bo'lgan. Hukmron yovuzliklari uchun samo undan yuz o'girishi va samo ostini boshqarish mandatidan mahrum etishiga ishongan va sulolasi yo'q bo'lib ketishini bilgan. Xitoyning etniklararo madaniy-siyosiy yaxlitligi asta-sekin shakllangan. G'arbiy Chjou davrida podshoh samo farzandi va uning yerdagi yagona ifodasi deb e'lon qilingan. Miloddan avvalgi 1-ming yillikning o'rtasiga kelib o'rta podshohliklarning barqaror etnomadaniy, siyosiy majmuasi tashkil topadi va ularni dunyoning 4 tarafidagi varvarlar ustidan yuqoriligi, oliyligi haqidagi tasavvur paydo bo'ladi.

Qadimgi Xitoy madaniy turini shakllanish davri 3 tarixiy bosqichni: miloddan avvalgi V-III asrdagi jang qilayotgan podshohliklar davri, (o'zaro jang qilgan davlatlar orasida eng qudratli 7 tasi ajralib chiqadi) Sin davri (miloddan avvalgi 221-yilda ulkan imperiyaga Sin - Shi Xuanszi rahbarlik qildi, u Sinning birinchi imperatori bo'ldi) hamda madaniy qoidalarni amalga oshirgan Xan davrini qamrab oladi. Bu 3 davrning madaniy izchilligi qadimiy sivilizatsiyaning o'ziga xos betakror turini yaratish imkoniyatini berdi. Ma'muriy-byurokratik boshqaruvning yagona tizimi samoning o'g'li, ya'ni ilohiy shaxs bo'lgan imperator hokimiyati bilan yakunlanar edi. Xitoy mansabdor va diniy ulamolarni yopiq kastasining asosini shakllantirmadi, ammo mansabdor-boshqaruvchining ratsional turini shakllantirdi. Shanyan (milodiy IV asrning o'rtasi) davridayoq ma'muriy lavozimlarni egallashni naslning zodagonligi bilan emas, balki davlat oldidagi xizmatlar bilan, birinchi navbatda, harbiy xizmatlar bilan bog'laydi. Imperator jahon tartibini dunyoning 4 tomoniga qarab saqlab turar, bunda u voqealarga aralashmas edi, chunki tabiiy tartib faqatgina qo'llab-quvvatlantirilishi lozim bo'lgan. Imperator katta oilaning boshlig'iga o'xshar edi. Mazkur madaniy tizimdagi inson tabiatni bo'ysundirishga emas, balki jonli hayotni tabiiy to'liqligi va

ratsional tuzilganligiga qarab intilgan. Tafakkurning vazifasi o'zgartirish va barbod qilish emas, balki inson va samoning barkamol birligida umumiy yo'l – daoga rioya qilish edi. Xitoyda II asrdayoq davlat apparatiga munosiblarni tanlash imtihonlarining tizimi ta'sis etilgan bo'lib, bu tizim deyarli 2 ming yil davomida faoliyat yuritdi. Aslida ziyoli Shenshi qatlami eng yaxshi va iste'dodli insonlar bilan to'ldirilishi uchun barcha say-harakatlar amalga oshirilardi. Imtihonlar 3 bosqichdan iborat bo'lib, 3 yilda bir marotaba provinsiyadagi sinovlarning g'oliblari poytaxtga kelar edilar. Musobaqaning yakuniy bosqichini samo o'g'lining shaxsan o'zi o'tkazgan. Oxirgi imperator sulolasi (XVII-XIX asrlarda) davrida har 3 yilda shu tarzda 70 mingdan ziyod mansab va lavozimlarga odamlar qabul qilinar edi. Davlat xizmatchisi o'zi tug'ilgan joyga emas, balki boshqa provinsiyaga ishga tayinlanar va har 5 yilda uni boshqa provinsiyaga jo'natishgan. Aynan shu qatlam tufayli Xitoyda yangi davrda umummilliy og'zaki til paydo bo'ldi, dastlab u "amaldor" yoki "mandarin tili" deb nomlangan. Xitoy mandarinlari zo'ravonligi va poraxo'rligi bilan ham shuhrat qozongan edilar. Shunday davrlar bo'lganki, oliy mansabdor shaxslar ochiq-oydin mansablarni sotar, pora esa qonunlashtirilgan edi. Biroq boshqa narsalar ham yuz berardi: shunday odamlar bor ediki, ular o'z hayotlarini xavfga qo'yib, olampanohlarga haqiqatni aytishgan. Masalan, tarixda Xay juy nomi qolgan, bir necha asrlardan keyin ham u "madaniy inqilob" nomi bilan mashhur bo'lgan davrda zo'ravonlikka qarshi kurashda da'vat sifatida yangrar edi.

### **Xitoy sivilizatsiyasining o'ziga xosligi**

Xitoy sivilizatsiyasida davlatchilik piramidasining asosi doimo oila bo'lgan. Oila ko'p sonli bo'lib, qarindosh-urug'larning bir nechta avlod va ajdodidan iborat bo'lgan, aka-ukalar birgalikda yashaganlar. Oila a'zolari yuzlab va minglab bo'lishi mumkin edi. Oila 5 ta turg'unlikka rioya qilish asosida mavjud bo'lgan: ota burch va adolatga rioya qilishi, ona rahmdil bo'lishi, akalar kichiklarga do'stona munosabatda bo'lishi, kichiklar kattalarga

hurmat va izzatda, barcha o'g'illar ota-ona va yoshi ulug'larni e'zozlashlari lozim edi.

Xitoy jamiyatida ayol va erkakning yo'llari tubdan farqlangan. Konfutsiy axloq-qoidalariga muvofiq ular, hattoki, yo'ning turli tomonidan yurishlari lozim edi. Xitoyda ayol doimo hayotni uzaytirish, sog'liqni mustahkamlash vositasi hisoblangan, uy naqadar boy bo'lsa, ayol shu qadar huquqsiz edi. 5 ta turg'unlikda faqatgina ona qayd etilishi tasodif bo'lmagan. Faqatgina o'g'ilni tug'ilishi ayolni oila boshlig'ining hukmronligiga yaqinlashtirardi, ayolni qaynona sifatidagi huquqlari cheksiz bo'lgan. Umuman olganda, oilada Xitoy ayolining eng yovuz holati kelin sifatidagi holat edi. Butun urug' "yagona tana" ko'p yuzli "hali amalga oshmagan kelajakdan asta-sekin chiqayotgan va bugungi kun orqali o'tmishga ketayotgan" mavjudot sifatida tushunilar edi.

Barchaning taqdiri bitta hisoblangan: hozirgina vafot etganlarning taqdirini o'zgartirishlari, vafot etganlar esa muvaffaqiyat, omad va boylik hadya etishlari mumkin edi, shuning uchun ham qabrni to'g'ri joylashtirish va ajdodlarga qurbonlik qilish muhim sanalgan. Insonlar olamidan ruhlar olamiga o'tishning o'zi muhim edi. Podshohlarni dafn etish marosimi haddan ziyod dabdabali bo'lgan. Masalan, oxirgi hukmron bo'lgan imperator Si Sining dafn marosimi 750 mln dollarda baholangan, Syan Fen imperatorining erta vafot etgan birinchi xotini sharofatiga motam urf-odatda ko'rsatilgan 3 yilning o'rniga 14 yil davom etgan. Umuman olganda, beva ayol yana turmushga chiqishi mumkin emas edi, Xitoy jamiyati doimo quyidan yuqorigacha bir-biri bilan bog'liq bo'lib, qo'shni-qo'shniga javob berar, otasi o'g'li uchun, tavsiya beruvchi tavsiya qilingan uchun mas'ul edi. 100 yillar davomida "bao szya" mashhur tizimi mavjud bo'lib, unga muvofiq jinoyatchi bilan javobgarlikni to'rt tomondagi qo'shnisi ham bo'lishgan, chunki ular albatta bilishar edi-yu, lekin yetkazishmagan hisoblanishar, shuning uchun ularning uylari yer bilan yakson qilingan. Oila har bir a'zosi uchun javobgar edi, shuning uchun bitta insonning aybiga oilaning to'rt avlodi qatl etilgan.

Bizning tasavvurimiz Xitoyda qariyalarni e'zozlash chuqurligini tushunishga qodir emas, chunki masalan, yosh kelin o'z farzandi ochlikdan o'layotgan bir paytda tishi yo'q qaynonasini emizadi, yoki 8 yoshlik bolacha yozda chivinlar ota-onasini emas, uni chaqishi uchun yalang'och bo'lib yotadi. Xitoylik barcha harakatlari va fikrlari bilan kelajakka emas, o'tmishga qaratilgan, bu yevropaliklardan ko'ra o'zgacha bo'lgan Xitoy madaniyatining yo'naltirilganligi deyarli barcha narsada shakllangan. Alohida inson juda kam narsa biladi, Yevropa ismidan farqli ravishda Xitoy ismidagi hozirgi paytgacha ham oila belgisi o'z ismidan oldin keladi: oldin urug', ota ismi keyin inson. Shu bilan birga, o'zini shaxs sifatida anglash Xitoyda Konfutsiy davridan, ya'ni 2,5 ming yil oldin boshlangan. Konfutsiy davridan boshlab, ustozni yoniga kelgan yosh yigitlar falsafiy maktabni oila deb nomlay boshladilar, faylasuf o'quvchilarni esa og'a deb aytdilar. Albatta, o'sha davrdan o'tgan XXVI asr mobaynida ko'p narsa o'zgargan bo'lsa-da, bugungi bir farzandli Xitoy oilasida ham eng yaxshi narsalar avvalgidek ajdodlarga va kattalarga beriladi.

Xitoy ko'plab buyuk kashfiyot va ixtirolarning vatanidir, choy, shoyi, porox kabilar u yerda ixtiro qilingan. Tog' va sahrolardan o'tgan karvon yo'li Xitoyni Rim imperiyasi bilan bog'lagan. Bu yo'l Buyuk Ipak Yo'li deb atalgan. Katta pullarga Rim ayollari o'zlariga nafis shoyi matolarni sotib olganlar. Mashhur yapon choy marosimlari Xitoydan kelib chiqqan. Xitoyliklar qog'oz, seysmograf, kitob nashr etish, chinni kabilarni ixtiro qilganlar. Jasur yigitlar La-manshdan uchib o'tgan, yengil bambuk va qog'ozdan yasalgan havo velosipedlari qadimgi Xitoyda ma'lum bo'lgan. Le Szining qadimgi risolasi miloddan avvalgi II ming yillikning oxirida mohir raqqos - mexanik insonni qurilganligi haqidagi ma'lumotni beradi. Biroq umuman olganda, Xitoyda texnik yangiliklarga bo'lgan munosabat doimo salbiy bo'lgan: daotsizmdan kirib kelgan konsepsiya xitoyliklarni mexanik ixtirolarni qilib, ulardan foydalangan inson mexanik yurakka ega bo'ladi, degan fikrga olib kelar edi, natijada daoning abadiy joni bo'lgan ruhiy ummon bilan doimiy aloqani yo'qotadi. Xitoylik inson o'zini doimo tabiatning qismi deb hisoblagan.

Qadimgi Xitoy faylasufi Sun Szi shunday yozadi: “Olov va suvga jonli szi efiri xos, ammo hayot xos emas. Daraxt va o‘tlarga hayot xos, ammo ularda ong yo‘q. Hayvon va qushlarga ong xos, ammo ularda burch va adolat tushunchasi mavjud emas. Insonga esa si, hayot, ong, burch va adolat xosdir, shuning uchun u samo ostidagi eng qimmatlidir”. Xitoylik tabiat ritmlariga qo‘shilgan edi: qishda yerda hech qanday ish olib bormagin, uxlab qolgan yerni uyg‘otish mumkin emas; jinoyatchilarni tabiat bilan o‘lishi uchun kuzda qatl etishgan va ularni yevropadagi kabi tongda emas, peshindan keyin, ya‘ni kun tugayotgan paytida qatl etishgan. Tog‘ va suvlar dao naqshi deb qabul qilingan, ularni ma‘naviy to‘lqinlar moddiy dunyomizning qumida qoldirgan. Shuning uchun bu belgilar orqali, ya‘ni ko‘l va daryolar orqali inson o‘z yuragi va qalbi bilan koinotning sirli asosi ildiziga yaqinlasha olar edi. Tabiat Xitoy she‘riyatini ramzlarga to‘ldirgan. Shoirilar bahor elchilari bo‘lgan olxo‘ri gullari “mey”, sovuqdan qo‘rqmaydigan xrizontema, yuqori samoda uchib o‘tayotgan yolg‘iz bulutdan, yolg‘iz egilib, chiroyli bo‘lib turgan qarag‘aylardan ilhom olar edilar.

Qadimgi Xitoy taraqqiyotga ishonmagan va uni xohlamagan, dunyo o‘zgarishini doira bo‘yicha harakat sifatida qabul qilgan. Qish ketidan bahor, yoz ketidan kuz kelar edi. Va nihoyat, yer yuzida datun bo‘ladi, ya‘ni buyuk birlashish, qadimiylilikning takrori hisoblanadi. Dunyoni bunday idrok etish XX asrda Xitoyda sotsialistik va kommunistik qarashlarni tarqalishini osonlashtirdi. Xitoy madaniyatining har bir tomoni o‘ziga xosdir. Xitoy arxitektura va teatr, adabiyot va park san‘ati, xattotlik va rasm, Xitoy taomlari, tibbiyot, harbiy jang san‘ati bularning barchasi “jahon sivilizatsiyalari kursi”da maxsus o‘rganishga loyiqdir.

Xitoy sivilizatsiyasi jahonning asosiy madaniyatlari qatoriga kiradi, shuning uchun O.Shpengler, N.Y.Danilevskiy, A.Toynbi, M.Veber, jahon sivilizatsiyasini tasvirini tadqiq etganlarida Xitoy madaniyatini, albatta, avtoxton va o‘ziga xos madaniyat sifatida belgilab o‘tadilar va uni jahon madaniyatiga qo‘shgan hissasini ulkan, deb baholaydilar. Qadimgi Xitoy madaniy-mintaqaviy Uzoq Sharq jamoasini shakllantira oldi, bu esa uni qo‘shni Hindiston, G‘arbiy Yevropa, Rossiya, musulmon dunyosi, Lotin Amerikasi

kabi miqyosli sivilizatsiya birlashmalari bilan bir qatorga qo'yadi. Zamonaviy ilmiy tafakkurga hamnafas bo'lgan jahonning Xitoy modeli Koinotni "yo'qlik"dan hech qanday tushuntirilmagan "birinchi impuls"dan yoki "buyuk o'zgarish"dan ("tay i") keyin evolyusion o'z-o'zidan rivojlanishini nazarda tutadi. Xitoyda Yaratuvchi - Xudo g'oyasi yo'q. Insonlarning yaratuvchisi Nyuy Va yoxud Buyuk Daoning personifikatsiyasi sifatida namoyon bo'luvchi "Tug'ilmagan Ona" ("Ushen Laomu") Yaratuvchi - Xudo g'oyasiga mos kelmaydi. Doimiy o'zgarishlar g'oyasi xitoyliklarda moslashuvga bo'lgan ajoyib xususiyatni shakllantirgan. Bunga urug', davlat kulti va shaxsning manfaatlarini doimo chetga surib qo'yish, e'tiborga olmaslik ham ko'maklashgan va har safar sun'iy chegaralar ochib tashlanganda yoki sustlashganda shaxs yangi voqelik, reallikka yuqori darajadagi moslashuvning misoli sifatida gavdalanadi.

Shunday qilib, Xitoyning ulkan hududi - g'arbdagi sahro va shimoldagi o'rmon va vodiylardan tortib janubdagi junglilarga qadar homo sapiyens va undan oldingi turlar uchun deyarli ikki million yil mobaynida qulay joy bo'lgan. Bu serhosil yerlar lantyan odami- gominidning yashash joyi bo'lgan, bu tur qazilmalardan topilgan qoldiqlarga ko'ra bir yarim million yil oldin yashab o'tgan, undan so'ng esa gomo erektus, pekin odami, sinantrop yashagan, uning qoldiqlari yarim million yilga teng. Boshqa topilmalar tufayli Xitoy hududida homo sapiyens 200 ming yil oldin paydo bo'lgan. O'z rivojlanishining bir necha ming yillik tarixida xitoy xalqi o'ziga xos, osongina tanib olinadigan madaniyatni yaratdi. Rivojlanishning ma'lum davrida ba'zi bir xalqlardan ilgarilab (Yaponiya) yoki boshqalarning rivojida "doimo mavjud bo'lib" (Vetnam) Xitoy ma'lum madaniy umumiylikni shakllantirdi, u butun Uzoq Sharq mintaqasini qamrab oldi. Bu hududning eng sezilarli farqlovchi belgisi Xitoyda vujudga kelgan iyeroglif yozuv bo'ldi. Tarixning istagiga ko'ra Xitoy sivilizatsiyasi shimol va g'arbnig cho'l ko'chmanchilari, yao va myao qabilalari va "dunyo to'rt tarafining boshqa varvarlari" bilan uchrashib, ularni konfutsiychilik va buddizmda rivojlantirib o'z boy madaniyati bilan boyitishiga to'g'ri kelgan. Konfutsiyning buyuk shogirdi Min Szi (miloddan avvalgi IV-III asrlar): "Men

varvarlar xitoyliklardan o'rganganini bilaman, ammo xitoyliklar varvarlardan o'rganganini eshitmaganman" deb yozadi.

Qadimgi Xitoy zamin bo'lib xizmat qilgan Uzoq Sharq mintaqasining madaniy umumiyligi G'arbiy Yevropa, Rossiya, musulmon dunyosi, Lotin Amerika kabi miqyosli sivilizatsiya birlashmalari bilan qatorda turadi. Yer yuzida eng ko'psonli mazkur halqning madaniyati bilan Volter va Didro, Leybnits va Gyote, D.I.Fonvizinlar zavqlanib maftun bo'lganlar.

Ko'p ekspertlar mamlakatning chegarasi ortida yashovchi xitoyliklarning ulkan rolini ta'kidlaydilar. Tayvandan tashqari bugungi kunda xitoyliklar Gonkong, Malayziya, Tailand (5 mln dan), Indoneziyada (4 mln), Singapur, Vetnam, Fillipinlarda hammasi bo'lib 22 mln dan ziyod istiqomat qiladilar. Qarindoshchilik va urug' aloqalari bilan birlashgan, muloqotga kirishimli, ishchan, mehnatsevar xitoylik tadbirkorlar XX asrning oxirida jamiyat hayotiy faoliyatining barcha sohalariga ulkan hissalarini qo'shdilar. Xitoyning o'zida Den Syaopin mafkuraviy qoida va dogmalardan yiroqlashib amaliy uslubda faoliyat yuritib mamlakatni tarixiy rivojlanishining yangi bosqichiga olib chiqa oldi.

### **Muhokama uchun savollar**

1. Xitoy sivilizatsiyasining o'ziga xos xususiyatini aniqlang.
2. Nima sababdan konfutsiychilik Xitoy sivilizatsiyasi shakllanishi va rivojlanishida muhim rolni o'ynadi?
3. Daotsizm va buddizmlarning roli qanday?
4. Konfutsiylik ta'limotining Xitoy jamiyatida tutgan o'rnini qanday baholaysiz?
4. Nima sababdan Xitoy madaniyati jahonning asosiy madaniyatlari qatoriga kiradi?

### **Talabalarning mustaqil ishlashi uchun tavsiyalar**

2009-yil Xitoyda ishlangan "Konfutsiy" ("Kong Zi") filmini tomosha qiling, Konfutsiy ta'limoti va filmda ishlatilgan tasvirning o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratib, filmga sharh yozing.

## **8-MAVZU. HINDISTON SIVILIZATSIYASI**

### **Reja:**

1. Hind sivilizatsiyasining tarixiy ildizlari va uning o'ziga xosligi.
2. Hind xalqlari mentalitetining shakllanishi. Jonli etika.
3. Hindistonning musulmonlar tomonidan zabt etilishi.
4. Buyuk Britaniyaning mustamlakachiligi. XXI asrga qadar Hind sivilizatsiyasining o'ziga xosligini saqlab qolishi.

### **Hind sivilizatsiyasining tarixiy ildizlari va uning o'ziga xosligi**

Hindiston bu turli din va madaniyatlarning bog'liqligi va o'zaro ta'siridir. Hind xalqi o'zida o'z mamlakati, tabiati, iqlimi, til, madaniyat yodgorliklarining barcha xilma-xilligini aks ettiradi. Zamonaviy Hindiston aholisining etnik tarkibi g'oyat xilma-xildir. Chunki bosqinchilar va zabt etganlar, migratsion oqimlar etnik xilma-xillikni ta'minlab berdi. Bugungi kunda Hindistonda 14 ta asosiy til va 250 ga yaqin mintaqaviy sheva mavjud. Hindistonning tillari 2 ta mutlaq farqli bo'lgan til oilalaridan: Janubda dravidlar tili va Shimolda hind-yevropa oilasidan kelib chiqqan. Hindiston dinida ham xilma-xillikni kuzatish mumkin. Bu yerda induizm bilan bir qatorda islom, sitxiylik, jay, buddaviylik, zardushtiylik, xristian dini va bir qator ko'plab diniy ta'limotlar mavjud. Hindistonni bunday xilma-xilligini uning sivilizatsiya asoslarini shakllanishining tarixiy manbalarini kuzatibgina tushunish mumkin. Hindistonning 3 ta geografik hududi hind sivilizatsiyasi shakllanishining markaziga aylandi. Hindiston shimolida dunyodagi eng baland tog' tizmasi bo'lgan Himolay tog'lari bu tarafdin kelayotgan insonlarni yo'lidagi ishonchli to'siq bo'lgan. Himolaydan janubga Ganga va Hind daryosi vodiylari sivilizatsiya vujudga kelishida muhim rolni o'ynagan va ilohiy hisoblanadi. Shimolning tog' tizmalarida Dekan platosigacha bo'lgan hududda Hindiston joylashgan, u tog' tizmalari bilan chegaralangandir, bu tog'lar ortida Hindistonning eng janubiy qismi Hind ummoni bilan tutash kelgan uchinchi hududi joylashgan. Bu 3 ta geografik hudud etnik guruhlarni joylashishi va ularni harakatlanishining asosiy manzillari bo'lgan. XX asrning 1-choragida arxeolog olim ser Jon Marshal Hind vodiysining Raviy daryosi

hududidagi sirlarga jiddiy qiziqdi. Qazilmalar shuni ko'rsatdiki, Xitoy, Shumer, Misr, Mesopotamiya sivilizatsiyalari bilan bir qatorda Harappada dunyoning qadimgi sivilizatsiyalaridan biri paydo bo'lgan. 1944-yildan boshlab qazilmalarga ser Mortiner Uiler rahbarlik qildi. XX asrning 70-yillarida murakkab, biroq aniq radiouglerod uslublari yordamida Harappa shaharlarining yoshi aniqlandi.



**Harappa - Hind (Harappa) sivilizatsiyasi**

Harappa yoki protohind sivilizatsiyasi xalqlarning tinimsiz mehnati, iste'dodi va diniy e'tiqodlari natijasida shakllangan. Harappa va Mohenjodaro kabi buyuk shaharlarni yaratgan sivilizatsiya miloddan avvalgi II ming yillikning birinchi yarmida yo'q bo'lgan. Bu qadimgi xalqqa nima bo'lgan? Uning madaniyati keyingi hind sivilizatsiyasiga qanday ta'sir ko'rsatgan? Tan olish kerakki, yevropaliklar hali qishloqda yashaganida Harappa shahrida shaharni suv va kanalizatsiya bilan ta'minlashning eng mukammal tizimi mavjud bo'lgan. Har bir uyda cho'milish joyi va hojatxonalari bo'lgan. Mohenjodaro shahrining markazida basseyn bo'lgan, bu esa o'z paytining texnik mo'jizasi hisoblangan. 600 dan ziyod silindr

shaklidagi quduqlar qazilgan, ularning devorlari chekkasi toraygan shakldagi maxsus g'isht bilan ko'tarilgan. Bu joylarning tabiati saxiy va ajoyibdir. Bu esa eng qadimgi hind sivilizatsiyasining rivojlanish jarayonini belgilab bergan, katta va kichik daryolarning ko'pligi ziroatchilik va chorvachilik rivojiga ko'maklashgan. Bu yerda yozuv va yuqori rivojlangan hunarmandchilik mavjudligi isbotlangan, shaharlarda hunarmandlarning butun mavzolari topilgan. Monumental arxitektura qulaylikning yuqori darajasi bilan uyg'unlashgan. Harappa sivilizatsiyasidagi shahar ijtimoiy integratsiyaning shakli bo'lgan. Harappaning ikki daryo oralig'idagi davlatlar bilan savdo aloqalari bo'lgan. Bu sivilizatsiya tamoman yo'q bo'lib ketgan bo'lsa-da, u Hindistonning turli xalqlari tarixida o'z izini qoldirgan. Miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtasidan boshlab, Hindistonning tub dravid aholisi Janubga siqib chiqarildi, Shimol esa yangi etnik o'zaro ta'sirlarning sahnasiga aylandi. Oriy qabilalari birinchi bo'lib Harappa sivilizatsiyasiga yetib keldilar, ular o'z hayotiy ukladi, afsonalari, tilini olib kelib hind-yevropa madaniyatining yadrosini tashkil qildilar. Asta-sekin oriyliklar Ganga vodiysi bo'yicha joylashdilar. Hind oriylari quyosh, yomg'ir, samoga sig'inib, ularga qurbon keltirar edilar. Ularning xudolari – Varuna, Chandra, Indra, Savitar – qadimgi fors ilohlarining ismini takrorlaydi, bu esa ularning kelib chiqishi umumiyligidan darak beradi. Hind oriylari ruhlarning ko'chishiga, o'limdan keyin hayot borligiga ishonar edilar. Hozirda ham hind jamiyati tuzilmasining asosida yotgan kasta tizimi eng qadimgi zamonlarda shakllangan. Oliy kasta sifatida braxmanlar kastasi hisoblanar edi, ulardan so'ng harbiylar-kshatriy va hunarmandlar-vayshilar turar edi. Kasta tizimi sivilizatsiya manfaatlariga xizmat qilar edi: birinchidan, qatlamli kasta tizimi hayot uchun vositalarni asosan, qishloq xo'jaligi hisobidan ta'minlab berar edi, ikkinchidan, Hindiston uchun xos bo'lgan ijtimoiy-madaniy modelni rivojlantirar, uchinchidan, keyinchalik barcha dinlarni o'ziga bo'ysundirgan induizmning ustuvorligini ta'minlab berar edi. Hindistonda kasta to'rtta qatlamdan kelib chiqqan, bular oriy jamiyatining varnalaridir. Barcha to'rt asosiy varna va u yoki bu varnaga tarkibiy qism sifatida kirgan ko'p sonli jotiylar izchil joylashgan: eng yuqorisi brahmanlar, eng quyisi shudralar hisoblangan. Tegib bo'lmaydiganlarni ba'zida

alohida guruh deb hisoblaydilar, ba'zida esa shudralar varnasiga kiritadilar. Hindistonda kasta bo'yicha bo'lish sabablari haqida ko'plab fikrlar olg'a surilgan, ular vaqt o'tgani sari to'rtta asosiy konsepsiyani shaklantirgan: kasta tizimi – hind madaniyatining abadiyligini ta'kidlab beruvchi hind sivilizatsiyasining o'ziga xosligidir. Kastalar tizimi sof va iflos tushunchalarga asoslangan; kastalarga bo'linishning asoschilari – Hindistonning tub qabilaviy hamjamiyatlari bo'lib, kastalarga bo'linishning asosida mehnat faoliyati bo'yicha bo'linish yotadi. O'ylaymizki, u yoki bu konsepsiyaning to'g'riligini faqatgina Hindistonning ma'naviy, axloqiy hayotining rivojlanishini o'rganish asosida tushunish mumkin.

Buddizm va jaynizm kabi falsafiy va diniy ta'limotlar miloddan avvalgi IV asrga kelib, davlat diniga aylandi. Asta-sekin buddaviylik Hindiston chegaralari ortiga – Xitoy, Yaponiya, Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlariga tarqaldi va bu yerda hozirgi paytga qadar asosiy din bo'lib qolmoqda. Hindistonning o'zida buddizmning taqdiri murakkab bo'lgan: Hindistonning shimoli-g'arbiy qismidan Fors qo'shinlari o'tgan. Aleksandr Makedonskiy esa forsning ustidan g'alaba qozonganidan so'ng Hindistonga yurish qilgan. Antik Yunoniston ham Hindiston madaniyatiga ulkan ta'sirini o'tkazdi, bu xususan, yunon buddaviy haykaltaroshligida o'z ifodasini topdi. Aleksandr Makedonskiy qo'shini ketganidan so'ng hind yerlari Maurya sulolasi davrida birlashdilar, bu hind sivilizatsiyasining buyuk farovonlik davri edi. Chandra Gupta podshohligining poytaxti xorijliklarni o'z boyligi va go'zalligi bilan lol qoldirar edi. Ashoka podshohligi davrida Mauryalar imperiyasi davlat boshqaruvining aniq o'ylangan tizimiga ega edi. Ashokaning o'zi buddizmni qabul qilib, unga davlat dini maqomini berdi va o'z qarorlarida ko'p sonli axloq qoidalarini mustahkamladi.

## **Hind xalqlari mentalitetining shakllanishi.**

### **Jonli etika**

Buddizm qadimgi Hindistonning buyuk ilmi va bilimidir. Oxirgi 2,5 ming yil ichida mavjud bo'lgan barcha sivilizatsiyalar buddizm ta'sirida bo'lgan va yahudiylik, xristianlik hamda islom dinlari

buddizmdan ancha kech paydo bo'lgan. Sharqqa Aleksandr Makedonskiy bosib kelgandan so'ng shu yo'l orqali buddizm O'rta Yer dengizi mamlakatlariga, so'ngra u Rossiya va Polshaga ham kirib keldi. Hind afsonalarida hikoya qilinishicha bundan 2,5 ming yil avval ovchi nayzasidan o'ldirilgan 125 yoshli Krishna o'z jismoniy tanasidan chiqib ketadi. Oriy irqi uchun Qorong'u asr boshlandi. Hindistonda kastachilik qonunlari hukmronlik qildi, ular shu qadar qattiq ediki, Vedalar mamlakati zindonga aylandi. Tub aholi, ya'ni shudralar rad etilgan bo'lib, har qanday ehtiyotsizlik bilan aytilgan so'z uchun jazolanganlar. Ularning og'iz va quloqlariga qizdirilgan yog' quyilib, tomoqlariga qizdirilgan xanjar tiqilar edi, odamlar Veda xudolariga sig'inib, o'z hayotlarini o'zgarishi va bir-birlaridan uyalib qo'rqishlarini to'xtashini iltijo qilib so'rar edilar. Ko'p asrlik iltijo va sig'inishlar shu qadar kuchli ediki, insoniy umidlar mamlakatga eng yuqori qatlamlardan qutqaruvchi, ozod qiluvchini chaqirib olinishiga sabab bo'ldi.

Qutqaruvchi-ozod qiluvchi Himolay tog'laridan keldi, u yosh, go'zal va dono edi, eng oliy kastadan, ya'ni podshoh taxtining vorisi bo'lgan edi va Hindistonning butun sharqiy hududida yengil tortish ohi yangradi, muhabbatning buyuk ruhi yangi insoniy ruhni yaratishga kirishdi. Buddha bu ism emas, bu ong holati, insondan yuqori bo'lganning bilimining oliy darajasidir. Buddha bu – yoritilgan, haqiqatga erishgan, xohlagan paytida, lozim topganida tashlab yuborishi mumkin bo'lgan jismoniy tanasi mavjud bo'lmagan insondir. Albatta, bu jonli kiyim yeyishni, ichishni istaydi, og'riqni sezadi, ammo bu boshqa insondir. Buddaning shaxsi mavjud, ammo u o'zidan o'zi mavjud bo'la olmaydi, chunki u ma'naviy-axloqiy tafakkurga bo'ysungan bo'lib, ruhan yoritilgan materiya hisoblanadi: "bu oppoq kiyimlarda faqatgina mutloq go'zal ilohiy istak va fikrlar o'tishi mumkin". Yer yuzida bittagina budda bo'lmagan va butun dunyo Buddha Gautama deb tanigan Hindistonning buyuk o'g'loni insoniyatni millionlab yillar davomida o'qitgan tafakkur o'g'lonlarining ilohiy sulolasining birinchi va oxirgi vakili emasdir. U miloddan avvalgi 621-yilda tug'ilgan. Buddha bu ko'rinib turgan koinotning barcha narsa va hodisalarning "mutloq norealligini" idrok etgan insondir. Koinotning barcha haqiqiy narsalari, masalan, quyosh, oy, yer ko'rinmaydi, ularni his etib bo'lmaydi, eshitib

bo'lmaydi, shundan "noreallikni tushunish" degani nima ekanligi tushunarlidir. Budda inson Yerdagi hayotimizning tashqi shakllarining sarobligini anglagan, bular hammasi faqatgina ongsiz, ruhsiz, o'tkinchi qobig'lardir, haqiqiy inson, buyum, hodisalarning kiyimlaridir, ular ko'z va quloqdan berkitilgan. Jismoniy odamni sezish bu muvaqqat narsadir, yerdagi hayot eng qo'pol, yolg'onchi, soxta va tez o'tuvchidir. Nima uchun Budda odamlar orasida? Buning sababi quyi mavjudot, bilimsizligidan aziyat chekayotgan, mukammal bo'lmagan insonlarga rahmdir. "Ammo Budda taqdirga aralashish huquqiga ega emas va insonni boshqa yo'l bilan yurishga majburlay olmaydi, u faqatgina yo'l ko'rsata oladi, inson esa erkin ravishda tanlaydi". Buddaning holati yer yuzidagi inson imkoniyatining eng cho'qqisi va uning chegarasidir. Bunday mukammallikka faqatgina yagonalar erishadi. Buddaviylikka o'xshashga erishgan oxirgi inson bu Szon Xava (XIVasr) hisoblanadi. 600 yil ichida biron-bir ham yangi shaxs chiqmagan. Shahzoda rohib etik (axloq) ta'limotni yaratgan, bu yurak hayot ta'limoti yoki jonli hayotiy etikadir. Gautama jahonda birinchi bo'lib insonlarning teng huquqligi haqida e'lon qildi. Uzoq qadim davrda Gautama Budda Vedalarni barcha insonlarga ochib berdi, u tafakkurning erkinligiga o'rgatib, shunday der edi: "kimdir ishongani uchun ishonma, tadqiqotchi bo'l, haqiqatni o'zing top. Shunday ishonib, o'ylamasdan ishonib, hech narsani amalga oshirib bo'lmaydi". Ammo haqiqatni tushunish uchun sof aql va yurakka ega bo'lmoq lozim. Gautama "haqiqat - bu erkinlik" deb o'rgatgan. Taxt va boyliklardan voz kechib, shahzoda dinlar tarixida o'z ma'ruzalarini hayotga tatbiq etgan birinchi inson bo'ldi. Uning ma'ruzalari hindlarning yurak va qalblarini larzaga keltirar edi. Gautama Budda uch asosiy jahon dinlaridan birining asoschisidir, biroq uning ta'limoti din emas edi, bu etik ta'limot: o'z hayoti tushunarli, oson, yorug'roq bo'lishini xohlagan har bir inson uchun amaliy tavsiyalar edi. Gautama Budda ta'limotining asosiy qoidalari nimadan iborat? Xudo bu inson va uning kuchi barchaning farovonligiga mehnat qilishdadir, mehnat bu insonning namozi va ibodatidir. Gautama Budda birinchi bo'lib, jamoada mehnat qilishga asos solgan. Deyarli 2,5 ming yil avval u jamoa mehnati, jamoa tarzida xo'jalik yuritishning asosini barpo etgan, u "koinotda ham xorlik va o'zaro yordamsiz hech narsa

mavjud bo'lmaydi", deb o'qitgan. Faqat o'zini o'zi o'ylaydigan va savodsiz mag'rur inson yoki xalq koinot qonuni kuchi bilan ertami, kech hayot oqimidan tushib qoladi. Gautama samodagi quyosh va yulduzlarning Koinotda uyg'unligi jahon hamjamiyati g'oyasiga yordam berishi uchun ko'p asrlar o'tishini bilar edi. Ammo "tarqoq insonlar ongiga jamoa bilan yashash va hamkorlik qilish urug'larini ekish payti keldi". Jamoa ongi - bu ruhning eng qiyin sa'y-harakatlaridan biridir, u insoniy hissiyot va fikrlarning nafisligini talab qiladi. Gautama mulkning quli bo'lmaslikka o'rgatgan, u insonning axloqiy qiyofasiga yuqori talablar qo'ygan. Uning ta'limoti ruhiy va jismoniy mehnatdan qo'rqmagan, o'zini o'zi barkamollikka intiltiruvchi inson uchun jonli etika bo'lgan. Gautama shogirdlaridan qo'rquvni to'liq bartaraf etish, ya'ni fikr va harakatning jasurligini talab qilgan. Gautama evolyutsiyani koinot bilan ijodkorona hamkorligi va uzoq dunyolar bilan muloqot sifatidagi maqsadini ko'rsatdi, budda ta'limotidagi inson o'limdan qo'rqadigan kuchsiz, gunohkorona mavjudot emas, buddaning insoni jahon va dunyolarning sohib qirolidir. Koinotning aksi bo'lgan inson o'z imkoniyatlarida cheksiz qobiliyatga ega. Insoniyatni qutqaruvchi shaxsiy xudo g'oyasi Gautama Buddha uchun to'g'ri kelmaydi, chunki u butun koinotda mavjud bo'lgan insondan sababchisi o'zi bo'lgan o'zining qiyinchiliklaridan o'zini o'zi ozod etish uchun shaxsiy sa'y-harakatlarni talab qilgan universal karma qonuniga to'g'ri kelmas edi. Buddha inson ruhi o'zgarmaydi, degan fikrni rad etgan, u garchi hamma narsa doimiy tarzda o'zgarsa, ruh ham o'zgaradi deb o'rgatgan. Aks holda, evolyutsiya o'z ma'nosini yo'qotar edi, natijada hayotning o'zi ham ma'nosini yo'qotar edi. Gautama Buddha o'z shogirdlari ziddiyatlarning juftligini tushunishini talab qilar edi, masalan, + va -, ruh va materiya, yuqori va quyi, ha va yo'q, yovuzlik va yaxshilik. Bularsiz inson ongi rivojlanmaydi va kengaymaydi, u nafis bo'la olmaydi. Buddaning ta'limotiga ko'ra, bizning taqdirimiz, bizning karmamiz bu, avvalo, bizning fikrimizdir. Fikr ezgulik va yovuzlikni vujudga keltiradi, chunki o'z ichida aytilgan insoniy fikr makonga chiqib ketadi, u yovuzlik va yaxshilikni olib harakatlanadi, inson taqdirini yaratib, Yer, atmosfera aurasiga yovuzlik yoki yaxshilikning yana bir qism parchasini hadya etadi. 500 yildan so'ng Xristos xuddi shu narsalarni alligoriya tarzida o'rgatadi: "dunyoda

barchaga ma'lum bo'ladigan hech qanday sirli narsa yo'q, shuning uchun qorong'ulikda aytganingizni, yorug'likda eshitasiz, birovning qulog'iga uy ichida aytganingiz, uyning tomida yangraydi". Shunday qilib, barchaning asosiy unsuri bu fikrdir, fikr hamma narsadan yuqori, hamma narsa fikr yordamida amalga oshiriladi. Buddaning ta'limoti shunday deb o'rgatadi. Bugungi kunda ham buddizm o'z asosiy qonunlarida o'zgarimasdan qolgan: o'ldirma (chunki mavjud bo'lgan narsa yaxlitdir), hasad qilma (chunki tinchlik nimaligini unutasan), o'g'irlama (chunki yuz barobar to'laysan), o'zingga iloh yaratma (chunki dunyoni aks ettiruvchi inson ruhidan nima buyukroq bo'lishi mumkin) va h.k. Buddizmda xudo emas, inson e'tiborning bosh obykti – bosh qadriyatidir. Aynan shuning uchun u barcha e'tiqod va dinlarga bag'rikeng bo'lib, umumiy og'a-inilik va rahmdillikni targ'ibot qiluvchi erkin dindir. Gautama quyidagi so'zlarni takrorlar edi: "har bir oqibat sababga ega, har bir sababning oqibati bordir. Inson o'zini o'zi yaratadi, muntazam yaratadi, o'z taqdirini o'zi yaratadi". Inson buddizmda o'z peshonasi, undan o'laroq puli bilan xudolardan kechirim so'rashi lozim emas, u o'z xato yoki jinoyatlarini anglashga va ijobiy harakat bilan ularni to'g'rilashga majbur. Inson o'z ongidan haydab yuborishi lozim bo'lgan narsa bu inkor: inkor etib inson ruhiy energiyaning rivojini to'xtatadi, uning ongi turg'un suvda aylanadi. Inkor – bu ruhning o'limiga olib keluvchi yo'l. Evolyutsiyaning cheksiz harakatini bilgan Budda shunday deydi: "Men yerga kelgan birinchi va oxirgi Budda emasman, kerakli paytda donolikka ega bo'lgan butun koinotni o'z ichiga olgan baxtli bo'lgan boshqa Budda vujudga keladi. U sizlarga men ta'lim bergan abadiy haqiqiqatlarni ochib beradi". Deyarli XVII asr davomida, ya'ni milodiy XII asrga qadar Buddaning ta'limoti Hindistonda asosiy ta'limot bo'lib qolaverdi.

### **Hindistonni musulmonlar tomonidan zabt etilishi**

Hindistonning islomlashish davri milodiy 1000-yillar atrofida boshlandi, bunda Hindistonga G'aznaviy sultoni yurish qildi. Buyuk olim va mutafakkir al-Beruniy shunday yozadi: "hindistonliklar barcha tomonlarga tarqalgan qum zarralariga aylangandek bo'ldi, ular insonlar og'zidagi qadimgi rivoyat va afsonalarga aylandilar".

G'aznaviylar hukmron holatini saqlab qolgan holda, o'zga madaniyatni o'zlashtirdilar, Hindlashib ular ongli ravishda xalqning hayot tarzi va urf-odatlarini o'zgartirishga harakat qilmadilar. XII asrning oxirida kirib kelgan afg'onlar hindistonliklarga til va madaniyati bo'yicha yaqin edilar. Hindiston ular uchun vatanga aylandi, Dehli esa yangi davlat Dehli sultonligi poytaxtiga aylandi. Dehliga mo'g'ullar zulmidan qochgan Eron va O'rta Osiyodan minglab odamlar oqib keldi, ular orasida shoir, hunarmand, rassom, olim, mutafakkirlar ham bor edi, bu esa Dehlini islom sivilizatsiyasining yirik markaziga aylantirdi, bu shaharda ko'p sonli saroylar barpo etildi, bog'u roglar yaratildi. Tug'luq sulolasi hokimligi davrida XIV asrning o'rtasida Dehli saltanati rivojining eng yuqori cho'qqisi kuzatildi. 1398-yilda Amir Temur tomonidan Dehli sultonligi bosib olindi. Hindistonning butun hududida esa islomiy madaniyatning yangi markazlari paydo bo'ldi, bular qatoriga Agra, Lakxnau, Xaydarobod kirdi. XVI asrdan boshlab Hindistonda buyuk Boburiylar hukmronlik qila boshladi. Hind jamiyati o'z madaniy konglomeratiga yangi urug' yoki qabila jamoasini osonlikcha kiritar edi, biroq islomiy jamoa bilan munosabatlar doimo murakkab bo'lgan va shundayligicha qolmoqda. Mahalliy aholini islom diniga kiritish mamlakatning shimoli-g'arbida, Ganga vodiysi shaharlarida, ba'zi bir janubiy hududlarda dehqon va savdogarlar orasida amalga oshirildi. Quyi sinflar islomda ham, induizmda ham yagona umumiy haqiqatning ifodasini ko'rdilar.

### **Buyuk Britaniyaning mustamlakachiligi. XXI asrga qadar Hind sivilizatsiyasining o'ziga xosligini saqlanib qolishi**

Shimoliy g'arbdan turli madaniy etnik va diniy ta'sirlarning kirib kelishidan tashqari o'zga yurtliklar dengiz yo'li bilan janubdan ham kirib kelishgan. Buning boshi XVI asrda portugaliyaliklarning hujumi bilan boshlanadi. Bu davrda janubiy Hindiston o'zga yurtliklarning bosqinidan hali zarar ko'rmagan boy va gullab-yashnayotgan edi. Podshohlikning poytaxti Bijanagar o'z go'zalligi va boyligi bilan betakror va beqiyos edi. Hindistonga birinchi xristian missionerlari kirib keldilar. Iyezuitlar mahalliy aholi orasida

katolitsizmni targ'ib qildilar. XVIII asrdan boshlab Hindiston umuman boshqa turdagi ta'sirga tushib qoldi. XVIII asrning o'rtasida boshlanib, 1947-yilda yakun topgan (Hindiston mustaqilligi e'lon qilingan yil) Britaniya mustamlakachiligi nafaqat o'zga turdagi sivilizatsiyaga bo'ysunishni, balki yangi texnologik madaniyat, hayotning yangi tarzini olib keldi. Hind madaniyatining asoslariga putur yetkazildi, madaniyatda ham o'zgarishlar bo'ldi, biroq madaniyat ichki jihatdan juda ham mustahkam va barqaror edi. O'zga madaniyatdan voz kechish XIX asrning turli islohot harakatlarida o'z ifodasini topdi, bu harakatlar milliy ozodlik xarakteriga ega edi. Induizmning o'zgarishi neoinduizm, neovendatizm da o'z ifodasini topdi. Bularning barchasi hind madaniyatining buyuk arboblari bilan bog'liq, bular qatoriga Rama Krishna (1836-1886) va Svami Vivekananda (1863-1902)lar ham kiradi, ular madaniyat va diniy universallikni targ'ib qilganlar. Mavjud bo'lganning barchasini ichki yaxlitlikka intilishi qadim zamonlardan hind tafakkuri, falsafasi uchun xos edi. Bu qadriyatlar "satyam- shivam-sundaram", "ezgulik-haqiqat-go'zallik" formulasida mujassamlashgan. Hindistonning madaniyatini umuman, an'anaviy madaniyat deb atashadi. Bu an'ana to'rt ming yillik kurash va o'zgarishlar, sulolalarning yuksalishi va barbod bo'lishi, din va falsafiy maktablarning almashinuvi, shaharlarning farovonligi va xarobalari, badiiy shedevrlarni yaratilishining natijasidir. J.Neruning fikricha, izchillikning sababi bu "madaniyatning o'zida unga qandaydir dinamik kuch ichki hayotiy qobiliyat va hayotni anglashni beruvchi bir nima borligidadir". Aynan hind vodiylaridagi sivilizatsiya madaniy yaxlitlik, birlikning asoslarini yaratdi, o'tmish va hozirgi zamon aloqalarini, kelajakni belgilab beruvchi zaminni yaratdi. "Ustoz" - bu har bir an'anaviy sivilizatsiyaning buyuk figurasidir, uni bilim va an'analarning majmuasi bo'lganligi uchun hurmat qilib qadrlaydilar. Boshqa komponent bu yetkazib beriladigan materialning o'zi, ya'ni matn, uchinchi matn esa, bu axborotni yetkazib berish vositasidir. Hind madaniyati uchun axborot matnlari alohida ahamiyatga ega edi, yuqorida biz vedalar haqida gapirdik, endi Upanishadalarini ko'rib chiqamiz.

Upanishadalar miloddan avvalgi IX-V asrlarda yaratilgan diniy-falsafiy matnlar. Ular haqiqatni ochib berganlar, bu haqiqatni bilish

ruhiy ozodlikka olib kelishi lozim edi. Upanishadalar Karma, jahon ruhi haqidagi ta'limotda aksini topgan. Upanishadalarining tuzilishi ularning maqsadli yo'naltirilganligi bilan tushuntirib beriladi, bu yerda ilohiy ilm ustozdan shogirdga yetkaziladi. Upanishadalarda pand-nasihatlarining to'plamlari hamda mashhur ustoz, donishmand va maxfiy bilim egalari borliqning buyuk sirlarini bilmoqchi bo'lgan yoshlar, shogirdlar bilan dialoglari ham mavjud. Upanishadalar dunyo yaratilishining muhim savollariga javob izlaydilar, ularning xatti-harakatlari ichki "men"ni idrok etishga yo'naltirilgan. Sutralar nasriy asarlar bo'lib, miloddan avvalgi V asrga yaqin paydo bo'lgan, ularni bir nechta bo'limlarga tasniflash mumkin: dxarma sutralar davlat va jamiyat boshqaruviga talablardan iborat edi; grixya sutralar - uy egalari uchun maishiy marosimlar edi. Girautra sutralar esa veda marosimlarining tasvirlaridan iborat edi. "Ramayana" va "Mahobxarat" epik poemalari bu qissa va ilohiy bilimning uyg'unligidir. J.Neru shunday ta'kidlaydi: "Men dunyoning biron-bir mamlakatida ommalarning tafakkuriga shu qadar uzoq muddatli va chuqur ta'sirni ko'rsatgan bu ikki asar kabi kitoblarni bilmayman. Qadimiylikda yaratilgan bu asarlar hozirda ham hind xalqining hayotida jonli, tirik kuchdir". Mahobxarat miloddan avvalgi 1-ming yillikning yarmida og'izdan og'izga o'tadigan yaxlit matn sifatida tashkil topdi. Mahobxarat o'z hajmiga ko'ra dunyoda tengi yo'q. Poemaning yadrosi bu mamlakat ustidan hukmronlik qilish uchun qarindosh-urug'chilik rishtalari bilan bog'liq bo'lgan Kaurav va Andavlarning podshohiy sulolalarining kurashi haqidagi qahramanona qissadir. Poema yuz mingdan ziyod 2 satri she'rlardan iborat, 18 ta kitob yoki parvlarga bo'lingan. Birinchi kitob Adi (ibtido) deb nomlanib, unda eposning qahramonlari tanishtirilgan, ularning kelib chiqishlari haqida so'z yuritilgan. Ikkinchi kitob Sabxa (majlis) deb nomlangan bo'lib, unda soqqa tashlash o'yinining dramatik epizodi mavjud: yutqazgan pandavalar o'rmonga surgunga yuboriladi. Ularning o'rmondagi hayoti uchinchi Vana (o'rmon) deb nomlangan kitobning mavzusi, bu yerda qadimgi hindlarning urf-odat, an'analari haqida epizodlar mavjud. 12 yillik surgundan so'ng pandavalar 1 yil Virata podshohi huzurida bo'ladilar, bu voqealar Virata deb nomlangan to'rtinchi kitobda hikoya qilinadi. Beshinchi kitobdan boshlab, Pandavalarning

g'alabasigacha bo'lgan g'arbiy voqealar tasvirlanadi, bu yerda ularni toqqa ketib samoga ko'tarilishi ham nazarda tutiladi, biroq bu voqealar 18-kitob Svargaxonada (osmonga ko'tarilish) tasvirlangan. 6-kitobning nomi Bxagavatgita - hind madaniyatining buyuk matnlaridan biri.

Ramayana Mahobxarotdan kichikroq bo'lib, yetti qismdan iborat, bu yerda 24 mingta 2 satrli she'rlar bo'lib, kitob ming yildan beri ma'lum. Mazkur kitobdagi shahzoda Rama va uning jufti haloli go'zal Sita haqidagi hikoya, qahramonlarning qiyinchiliklari, kechinmalari, uchrashuv va ayriliqlari har bir hindning hayotiga kirib kelgan. Poemaning bosh qahramonlari Rama va Sita va Xanuman bugungi kunda ham nafis va ilohiy sevgi, sadoqat kabi hissiyotlarni ulug'laydi. Bu poemadan hindlarning avlodlari savodni o'rganib xulq-atvor va odob me'yorlarini o'zlashtirganlar. San'atning tabiati haqidagi ilk ma'lumotlarni biz musiqa, san'at, raqs va dramaga bag'ishlangan "Natiya shastra" risolasidan topamiz. Risolaning muallifi deb afsonaviy donishmand Bxarat tilga olinadi, bu risola miloddan avvalgi V va milodiy I asrlar o'rtasida yozilgan. Bu yerda estetik rohatlanish oliy rohatlanish tushunchasi bilan tenglashtiriladi. Inson hayoti va badiiy ijodning 3 ta maqsadlaridan oliy maqsadi bo'lgan hissiy tajriba ham hind san'atining barcha sohalarida ulkan rolni o'ynaydi. Hind estetiklari muhabbat va go'zallikni, ruhning oliy holati bilan aloqadorligi orqali tushuntirgan bo'lsalar-da, hind san'atining aksariyat qismi bu yerdagi go'zallik va muhabbatni madhiyasidir. Hind madaniyatidagi ko'plab marosimlar o'yin orqali amalga oshiriladi, ulardan eng qiziqarlisi Krishna Villa, Krishnani cho'pon qizlar bilan sevgi o'yinlari, bular Bxagavata Purandada tasvirlangan va ko'p sonli ashula, qo'shiq, raqs, haykal, miniatyura, poemalar uchun asos bo'lgan. Hind san'ati hech qachon jamiyat hayotidan alohida o'rganilmagan. Keng ma'noda san'at bu "insoniy vazifalarni amalga oshirish uchun energiya va mohirlikni tizimli va tashkillashtirilgan holda qo'llash"ni aks ettiradi. Shu bilan bir paytda san'at orqali asketizmga da'vat, dunyo yovuzligidan ozod bo'lishga da'vat ham yangragan. Hind madaniyatida turli jabhalar o'zaro uzviy bog'liqdir - bu boshqa xalqlar tomonidan hind madaniyatini idrok etilishiga qiyinchilik yaratadi, biroq bir paytning

o'zida bu hind madaniyatining betakror va o'ziga xos qiyofasini belgilab beruvchi jozibador tomondir.

### **Muhokama uchun savol va topshiriqlar**

1. Protohind sivilizatsiyasining o'ziga xosligi nimalardan iborat?
2. Hind-oriy sivilizatsiyasining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Hindistondagi asosiy falsafiy-diniy ta'limotlarni sanab o'ting, ularning hind madaniyati uchun ahamiyati nimadan iborat.
4. Hind-islom madaniy sintezini madaniyatlarni o'zaro ta'sirining misoli sifatida tavsiflang.

## 9-MAVZU. YAPON SIVILIZATSIYASI

### Reja:

1. Yaponiya va materik sivilizatsiyasi.
2. Yapon sivilizatsiyasi rivojini davrlashtirish.
3. Yapon madaniyatining xususiyatlari.

### Yaponiya va materik sivilizatsiyasi

O'ziga xos madaniyatga ega bo'lgan Yaponiya uzoq davrlardan buyon nafaqat unga qo'shni mamlakatlar – Xitoy va Koreya, balki XIII asrga kelib Yevropada ham qiziqish uyg'otgan. Yaponiya (Ji-pangu, Chipungu) go'zal va boy mamlakat bo'lib, bu yerda oltin va marvaridlar ko'p bo'lgan, xushmuomala va go'zal odamlar yashaydigan mamlakat sifatida ta'riflanadigan qarashlar bor. N.A.Iofanning "Qadimgi Yaponiya madaniyati" asarida<sup>1</sup> bu g'oya XVII-XVIII asrlarda Yevropada saqlanib qolganligini yozadi.

Yaponiya, uning san'ati, madaniyatiga bo'lgan qiziqish ko'plab manbalarda aks etgan. Masalan, "Kapitan Golovkin flotining yaponlar qo'lida asirlikda bo'lganligi haqidagi esdaliklari". Uning "Yaponiya davlati va xalqi haqidagi mulohazalari"<sup>2</sup>, S.Arutyunovning "Bizning asrimizda Yaponiya etnik tarixi"<sup>3</sup>, V.Brodskiyning "VI-XVI asrlar yapon san'ati", N.I.Konradning "G'arbiy Sharq" va "Yapon teatri", V.Kostilevning "Yaponiya tarixidan lavhalar" kabi asarlarda yapon sivilizatsiyasining kelib chiqishi va rivojlanishi haqida boy ma'lumotlar beriladi. Ijodiy universitetlar talabalari uchun S.B.Lupinosning "Musiqqa san'atidagi kanon va dunyoning an'anaviy modeli", "Yaponlarning zamonaviy tafakkuri", "Yaponiya musiqiy merosi: an'anaviy model, dunyo va musiqiy tafakkur" asarlari<sup>4</sup>, Rossiyaning Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga kirishi bilan XXI asr boshlarida zamonaviy yuqori rivojlangan Yaponiya tajribasini o'rgangan L.A.Moiseyevaning "Bozorga o'tish davridagi

<sup>1</sup> Иофан Н.А. Культура древней Японии. — М.,1974.

<sup>2</sup> Конрад Н.И. Очерк истории культуры средневековой Японии. — М.,1980.

<sup>3</sup> Лупинос С.Б. Музыкальное наследие Японии: традиционная модель мира и музыкальное мышление//Этнос и культура. Сб. научных трудов. — Владивосток: Дальнаука, 1994.

<sup>4</sup> Мещеряков А.Н. Герои, творцы и хранители японской старины. -М.,1988.

innovatsiyalar: muammolar va yechimlar”<sup>5</sup> nomli monografiyalari ham Yaponiya, uning san’ati va madaniyatiga bo’lgan qiziqishning ortganligini ko’rsatadi.

Yapon sivilizatsiyasi, uning san’ati, adabiyoti, texnikasiga bo’lgan qiziqish bugungi kunda ham so’ngani yo’q. Yaponiya san’atining oddiy va bosiqliqi, garmoniya va bir maqsadga yo’naltirilganligi, go’zalligi va aniqligi, o’tkir xususiyatlari ko’pgina xalqlar madaniyatiga ijobiy ta’sir ko’rsatgan.

Yaponiyaning o’zi esa bizga ma’lum bo’lgan tarixiy davrda o’zini sivilizatsiyalashgan olamning periferiyasi sifatida anglab yetdi va so’nggi yarim asrdan tashqari hech qachon madaniy, siyosiy va harbiy markazlikka da’vo qilib chiqmadi. Yaponiya mintaqasidan va Yaponiyadan tashqi dunyoga chiquvchi ma’lumotlar oqimi so’nggi davrlarga qadar bir-biri bilan solishtirilmagan. Tashqi dunyo ham Yaponiyani periferiya sifatida qabul qilgan. Bu mamlakat faqat real jihatdan tashqi olam bilan faqat ikki marta: XIII asr (mo’g’ullar)da va XIX (G’arb) asrda to’qnashishiga to’g’ri kelgan.

Yaponiya sivilizatsiyasi o’z tarixi mobaynida mintaqaviy sivilizatsiyalar yutuqlarini qo’llab keldi. Yapon sivilizatsiyasi va madaniyatida uning Uzoq Sharqdagi qo’shnilaridan ajratib turuvchi qandaydir bir narsani topish qiyin: o’zining mintaqaviy prototipi bilan yapon qilichlari, quruq toshli bog’lari va bonsayi, dzen-buddizm, choy marosimi, umuman, Yaponiya madaniyatida o’ziga xoslik mavjudki, bu madaniyat ana shu “hodisa” va “buyum”lardagi o’ziga xoslik asosida yuksalib borgan.

Yaponiya - ko’p jihatdan juda o’ziga xos mamlakat hisoblanadi. Tarixiy izolyatsionizm mahalliy mentalitet va turmush tarzining o’ziga xos xususiyatlarini saqlab qolish, Yaponiyaning o’ziga xos xususiyati, uning madaniyati va tarixiy yo’li, yapon tilining o’ziga xosligi, yapon landshaftining go’zalligiga kuchli ishonchning shakllanishiga olib keldi.

Ko’rib chiqilayotgan muammoning mohiyatiga o’tishdan oldin yapon sivilizatsiyasi rivojlanishini davrlashtirishga to’xtalib o’tamiz.

---

<sup>5</sup> Моисеева Л.А. Нововведения в период перехода к рынку: проблемы и решения. — Владивосток, 1998.

## **Yapon sivilizatsiyasi tarixini davrlashtirish**

Xitoy yozma manbalaridagi ma'lumotlar, arxeologik natijalar yapon sivilizatsiyasining bir qancha o'choqlari, jumladan, Kansayda (ya'ni, Osaka markazi bilan – Kioto), Kyusyu (Yamageti), Kanto rayoni (hozirgi Tokio markazi) bo'lganligidan dalolat beradi.

1. Paleolit davri (bundan 40.000-13.000 yil avval). Aholining antropologik tuzilishi aniq emas. Ko'p savollar tug'iladi, paleolit davriga oid yodgorliklar ko'p emas. Ular ham urushdan keyingi yillari ochib o'rganilgan.

2. Neolit davri – Dzyomon (bundan 13 000 yil avval – milodning III asri). Bu davrda aholining asosiy qismi Xonsyuning shimoliy-sharqiy qismida konsentratsiyalashgan. Dzyomon madaniyati (arqonsimon sopol ornamenti tipiga ko'ra shunday nomlangan ) Xokkaydodan Ryukyugacha bo'lgan hududda mavjud bo'lgan.

3. Bronza-temir davri – Yayoy (Mil. avv. III milodning IV asri). Bu nom ham Tokio rayonidan topilgan keramika sharafiga shunday atalgan. Bu davrda materikdan (Koreya yarimorolidan) oltoy tilli guruhlar yirik migratsion jarayoni sodir bo'lgan. Ular o'zlari bilan yerga guruch ekish, ipakchilik, bronza va temirni ishlash texnologiyasini olib kelgan. Ular kelib chiqishi austronezionalik bo'lgan mahalliy aholi bilan aralashuvi natijasida protoyaponlarni vujudga keltirgan.

4. Qo'rg'on davri – kofun (III-VI asrlar). Qo'rg'on tipidagi ko'p sonli qabrlar topilgani tufayli shunday nomlangan. Bu davrda protoyapon davlat – Yamato shakllana boshlagan

5. Asuka davri (552-646). Yamato podsholari qarorgohlari joylashgan Asuka (ya'ni, markaziy Yaponiya)dan kelib chiqib shunday nom berilgan. Bu davrda buddizm shakllangan, davlatchilik qaror topa boshlagan.

6. Ilk Nara davri (646-710). Bu davrda Xitoydan keng miqyosda yozuv o'zlashtirilgan, amaldorlik tizimi, boshqaruv nazariyasi va amaliyoti shakllangan. 646-yilda Yamotoni Xitoyga xos namunadagi "sivilizatsiyalashgan" shaharga aylantirish uchun islohot boshlangan, ya'ni birinchi qonunchilik to'plamlari,

davlatning yerga egaligi, yerdan foydalanishning chek yer tizimini yaratish boshlangan.

7. Nara davri (710-794). Birinchi doimiy poytaxt – Nara aniqlangan. Bu davrda mamlakat nomi ham “Nixon” (quyosh chiqadigan joy)ga o‘zgartirilgan, dastlabki yozma yodgorliklar “Kodziki”, “Nixongi” afsonaviy solnomalar to‘plami vujudga kelgan. Xitoy va Koreyalik hamda qabilaviy zodangonlar o‘rtasida ziddiyatlar kelib chiqqan, bu esa buddizmni kuchsizlantirib, sintoizmni mustahkamlagan.

8. Xeyan davri (794-1185). Mamlakatning yangi nomi – Xeynan (*ya’ni*, hozirgi Kioto). Xeynan 1868-yilga qadar “Osmon o‘g‘li”– imperatorning rasmiy qarorgohi bo‘lib qolgan. Bu davrga kelib davlatning yerga monopoliyasi yo‘qotilgan va “syoep” – tomorqa, zodagonlarning xususiy yerlari paydo bo‘la boshlagan. Xitoy va Koreya aloqalari uziladi. Fudzivaralar avlodi (sulolasi) kuchayadi.

9. Kamakura (1185-1333) – Minomoto syogunligi. Birinchi syogun Minamoto Yorimoto bo‘lgan. Bu davrda samuraylar o‘z ijtimoiy hukmronligini o‘rnatgan, biroq imperator sintoizmning oliy ruhoniysi sifatida qolgan. XIII asrda mo‘g‘ullarning 2 marta omadsiz urinishi bo‘lgan, bu esa yapon etnoslarining o‘z-o‘zini anglashida juda muhim turtki vazifasini o‘tagan.

10. Muromati davri (1392-1568) Asikaga syogunligi kelib chiqishi Asikaga (Kioto rayoni)lik syogun Muromoti nomi bilan shunday ataladi. Shahar madaniyati, aholi soni o‘sgan. Missionerlik orqali kirib kelgan yevropaliklar bilan dastlabki aloqalar o‘rnatilgan.

11. Edo davri (1603-1867) Tokugava syogunligi. Tokugava Yaponiyani fuqarolar urushi holatidan olib chiqqan, mamlakatni birlashtirgan, yevropaliklarni xristianligi bilan birga haydab chiqargan, mamlakatni tashqi dunyo bilan aloqasini uzgan. Iqtisodiyot, shaharlar, aholi soni jadal o‘sgan. Aholining rasmiy dini neokonfutsiylikka aylangan. Yapon mentaliteti jamiyatning deyarli barcha qatlamlarida shakllanib bo‘lgan.

12. Meydzi davri (1868-1911) Matsuxito.

Qadimgi yapon sivilizatsiyasi boshqa regionlardagi qadimgi va o'rta asrlar madaniyatiga juda katta ta'sir ko'rsatmagan. Uning jahon madaniyatidagi ahamiyati boshqa yerda. Turli-tuman va turli darajadagi o'ziga xos san'at, adabiyot, dunyoqarash elementlari asosida Yaponiya o'z madaniyati qadriyatlarining ko'rsatib bera olgan. Yapon sivilizatsiyasi anchagina yosh hisoblanadi. Uni vujudga keltirgan aholisi ham. Bu aholi murakkab va ko'chib kelgan turli davrdagi etnik aralashuvdan so'ng vujudga kelgan.

Yaponiyada yashagan ilk qabilalar, ehtimol bilan protoayn hamda kelib chiqishi malay-polinezey qabilalari bo'lgan, deyiladi. Mil. avv. I ming yillikda Koreya yarimorolining janubiy qismidan protoyapon qabilalarining jadal migratsiyasi kuzatiladi. Bu qabilalar ma'lum darajada Yaponiya janubidagi aholi bilan assimilyatsiyaga kirishib (S.A.Starostin tadqiqotlarining so'nggi natijalariga ko'ra, yapon tili koreys tiliga yaqinligi aytiladi) bu davrda Yaponiyada o'rnashgan qabilalar ibtidoiy jamoa tuzumida yashagan. Aynan mahalliy aholi bilan assimiliyatsiyadan so'ng mil. avv. IV-III ming yilliklarda guruchni sug'orib ekish hamda metalga ishlov berish kuzatiladi.

Shundan boshlab 6 asr davom etgan (milodning III asriga qadar) davr yapon tarixshunosligida "yayoy" davri deb ataladi (bu nom Tokiodagi kvartalda birinchi bor topilgan madaniyat qoldiqlariga ko'ra shunday nomlangan).

Yayoy madaniyati asosiy mashg'uloti sug'orma dehqonchilik bo'lgan jamoasi bilan xarakterli hisoblanadi. Yaponiyaga bronza va temir bir vaqtning o'zida kirib kelgan bo'lsa-da, amalda bronzadan mehnat qurollari yasalgan: marosimlar uchun oynalar, qilich, qo'ng'iroq va shunga o'xshash. Temirdan esa, mehnat qurollari yasalgan.

Boshqa mamlakatlardan o'zlashtirish shakllarini, ayniqsa, milodning III-IV davlatchilikning vujudga kelishida kuzatish mumkin.

Xitoy yozma manbalari, arxeologiyasi va madaniy yodgorliklari ma'lumotlari Yaponiya sivilizatsiyasining paydo bo'lishini bir qancha markazlar, jumladan, Kansay (markazi

Osaka-Kioto), Pa Kyushu (Yamageti) va Kanto mintaqasi (markazi bilan) mavjudligi bilan asoslaydi.

Zamonaviy Yaponiya to'rt ming oroldan tashkil topgan davlat bo'lib, ulardan eng kattasi to'rtta - Xonsyu, Kyushu, Sikoku va Hokkaydo. Yaponiya Shimoliy Yevropa va Shimoliy Amerikadan farqli o'laroq, taxminan 10 000 yil avval tugagan muzlik davrida global miqyosdagi muzlashni boshdan kechirmagan. Ya'ni, Yaponiya juda xilma-xil floraga ega mamlakat hisoblanadi.

Issiq va sovuq dengiz oqimlari Yaponiyaning bevosita yaqinida joylashganligi sababli, o'simlik va suv hayvonot dunyosini boyishi uchun juda qulay shart-sharoitlarni yaratadi: hozirgi vaqtda dengiz qirg'oqlarida 3492 turdagi baliq, mollyuskalar va dengiz hayvonlari yashaydi. Bu jihatlar, albatta, yaponlarning ijtimoiy hayotini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlariga ham ta'sir qilgan: mamlakatning butun tarixi davomida iqtisodiy hayotda baliq ovlash haddan tashqari mulkiy tabaqalanishga yo'l qo'ymaydigan cheklovlardan biri bo'lib xizmat qilgan. Qisqa daryolar va soylarning ko'pligi, relyefning qo'polligi Qadimgi Misr, Mesopotamiya, O'rta Osiyo, Shimoliy Xitoyda bo'lgani kabi, despotik boshqaruvning avtoritar shakllarini talab qiladigan ulkan sug'orish tizimlarini qurishni istisno qilgan. Avtarkiya va yarim avtarkizmning uzoq davrlarida Yaponiya hududi yetarli darajada katta bo'lganligi va uning resurslari sanoatdan oldingi yopiq rivojlanish siklini ta'minlash uchun yetarlicha darajada boy ekanligini isbotlab beradi. Yaponiya aholisining Jomon davridagi 1 milliondan 1872-yilda 35 millionga ko'tarilganligi esa Yaponiyani yuqori darajada rivojlangan madaniyatni yaratishga qodir bo'lgan kichik materikning o'ziga xos sivilizatsiyasi sifatida belgilash mumkinligini tasdiqlaydi.

A.Toylnbi har qanday xalqning "har qanday yot ta'sirdan mutlaqo xoli milliy madaniyat" yaratishga harakat qilishi xato bo'lishini ta'kidlaydi. Yaponlar ular dunyoning qolgan qismidan ajralgan juda o'ziga xos xalq ekaniga aminlar. Darhaqiqat, ular Yaponiya XVII asrdan - Tokugava davridan beri misli ko'rilmagan izolyatsiya asosida o'sgan, o'lim azobi ostida chet elga barcha sayohatlar taqiqlangan va hatto, chet elliklar tomonidan halokatga uchragan va qutqarilgan yapon baliqchilari ham qabul qilinmagan.

Yaponiya ikki asrdan ko'proq vaqt - 1853-yilgacha qo'mondon Metyu Perri yettita qora kemada Yaponiya qirg'oqlariga yaqinlashib, qurol bilan Yaponiyadan tashqi dunyo bilan savdo qilish uchun o'z portlarini ochishni talab qilguniga qadar yolg'iz yashadi. Yaponlar hali ham chet elliklar orasida o'zlarini noqulay his qiladilar, ularni "gejjin" - "tashqi odamlar" deb ataydilar.

Yaponiya o'z eshiklarini dunyoga ochdi, lekin har doim o'zining bir xilligini - madaniy, milliy, ma'naviyatini saqlab qoldi.

Doimiy ravishda jahon bozorining o'zgaruvchan sharoitlariga moslashish, innovatsiyalar, o'zgaruvchan texnologiyalar holatida bo'lish - bu yaponiyaliklarning ajoyib qobiliyati, ularning katta ustunligini ko'rsatib beradi.

Yaponlarning yana bir muhim fazilati - bu ularning qat'iyatidir. Jahon bozorida maqsadlilikni aniqlash, uning mohiyatini so'z bilan ifodalash juda qiyin. Yaponiyaning insoniy "materiali" yaponiyaliklarning turmush tarzi va ularning ta'lim tizimining natijasidir: muvaffaqiyat qobiliyatga bog'liq emas, balki to'siqlar va muvaffaqiyatsizliklarga qaramay, maqsadlarga erishishdagi tirishqoqlikka bog'liq.

Yaponiyadagi ishbilarmonlar orasida shaxsiy munosabatlar va o'zaro majburiyatlar katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Yaponiya kompaniyalari shartnomaga huquqiy vosita sifatida emas, balki munosabatlarni o'rnatish uchun asos sifatida qaraydi.

Yapon falsafasi va turmush tarzining bir qismi - sifat va samaradorlikdir. Ya'ni "Sifat - ruhiy holat, mahsuldorlik - ezgu xulq-atvor". Ular Yaponiya sanoatining mahsuldorligini oshirish uchun umumiyapon harakatini tashkil etish zarurligini anglab yetganlar.

O'tgan asrning oxirida Amerika prezidenti Teodor Ruzvelt "Tinch okeani davri" boshlanishini bashorat qilgan edi. Deyarli yuz yil o'tgach, bashorat amalga oshmoqda: dunyodagi eng rivojlanayotgan o'nta davlatdan sakkiztasi Tinch okeani suvlari bilan yuviladi. Fransiyaning "Ekspansion" iqtisodiy jurnalining prognoz markazi T.Ruzveltning bashoratini tasdiqladi: Tinch okeani havzasi asta-sekin G'arbdan jahon iqtisodiyotining lokomotivi, rivojlanish va farovonlik markazi rolini olib tashlamoqda.

Bunda kompyuter va kommunikatsiya texnologiyalarining ilg'or rivojlanishi juda muhim rol o'ynadi. Elektronikaning keng qo'llanilishi yangi global mehnat taqsimotini shakllantirishga imkon berdi. Axborot jamiyatining vujudga kelishi bilan bir mamlakat erishgan yutuqlar muqarrar ravishda butun dunyo mulkiga aylanib, butun jahon hamjamiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Yaponiya turli sohalarda: yarimo'tkazgich sanoati, quyosh energiyasi, optik aloqa liniyalari, yangi metallar va qotishmalar, keramika, stereo uskunalari, zavodlarni avtomatlashtirish va robototexnika sohasida birin-ketin G'arb davlatlarini ortda qoldirmoqda. Butun mamlakat bo'ylab ilm-fan shaharlari tarmog'ini yaratish bo'yicha "Texnopolis" loyihasini e'lon qilish orqali yaponlar o'z milliy siyosatining asosiy e'tiborini sanoatni rivojlantirishdan ijodkorlik va innovatsiyalarni rag'batlantirishga o'tkazmoqda. Ushbu resurslarni rivojlantirish uchun turli xil mintaqaviy strategiyalar shakllantirilmoqda.

### **Yapon madaniyatining xususiyatlari**

Yaponiya xalqi G'arbnings sivilizatsiyaviy yutuqlarini osonlik bilan o'zlashtirganligi, shuningdek, ular hayratlanarli darajada kichik bo'linish narxiga ega bo'lgan o'lchov shkalasiga ega ekanligi bilan izohlanadi. Ushbu tarozi xitoyliklardan qarz olib, uni o'z madaniyatining ajralmas qismiga aylantirdilar.

Madaniy bir xillikning eng muhim sharti aholining yuqori zichligi edi, bu yerda axborot signalining tarqalishi minimal buzilish va yuqori tezlikda sodir bo'ladi. Yaponiya aholisi etnik, til, diniy, mulkiy va ijtimoiy jihatdan ham bir xil. Bunga VII asrdan boshlab ko'chmanchilar oqimining yo'qligi yordam berdi.

Sintoizm har doim yapon mentalitetining asosi bo'lib kelgan. O'rtacha yuqori darajadagi ta'limga ega, rivojlangan individual aks ettirishga ega bo'lgan yaponlar hanuz G'arb va Rossiyada o'zlarining jamoaviy turmush tarzi bilan mashhur. Boshqacha qilib aytganda, gap yaponlarning jamoat maqsad va manfaatlari yo'lida shaxs erkinligini rad etishda erkin va ongli tanlovi haqida ketmoqda.

Ilmiy va texnik ma'lumotlarni o'zlashtirish nuqtai nazaridan hech qanday ruhiy to'siqlarsiz yaponlar "Yamato ruhini" qat'iy himoya qiladi, bu esa yaponlarni yaponlarga aylantirgan. Bu himoya mexanizmini oldindan belgilab beruvchi sintoizmdir.

Sinto (so'zma-so'z "xudolar yo'li") VIII asrda paydo bo'lgan diniy tizimdir. Uning mohiyati ikki komponentdan iborat: birinchidan, rivojlangan ajdodlar kulti; ikkinchidan, tabiiy xudolarga sig'inish.

Yapon san'atini o'rganayotganda shuni yodda tutish kerakki, buddizm Yaponiyaga kirib kelgan paytdan boshlab buddist ikonografiyasi namunalari tayyor shaklda olib kelingan. Yaponiyaga buddist ziyoratgohlarini olib kirishning ko'plab faktlari haqidagi ma'lumotlar yapon, xitoy va koreys manbalarida mavjud.

Buddaviy tasvirlarning Yaponiyaga yetkazilishi, birinchidan, ularni joyida yasashdagi qiyinchiliklar (quymaning qiyinligi, bronzaning qimmatligi), ikkinchidan, xaridorlarning ziyoratgohlarni to'g'ridan to'g'ri qaysidir joydan olib qo'yish istagi bilan izohlanadi. Buddistlar tomonidan hurmat qilinadi.

Turli vaqtlarda Yaponiyaga olib kelingan ikonografiya namunalari turli buddist e'tiqodlariga tegishli. Oddiy qilib aytganda, ularni buddizmning ikkita asosiy yo'nalishiga qisqartirish mumkin - Hinayana (asketizm, asketizm orqali odamni qutqarish g'oyasi) va Mahayana (Budda Amitabha tufayli birgalikda najot g'oyasi, Yaponiyada - Amida).

Avalokiteshvara tasviri Yaponiyaga Xitoy orqali keldi va bu yerda u ayol xudoga aylandi - shifoatchi ma'buda sifatida hurmatga sazovor bo'lgan Kannon Yaponiyada Maitreyaga sig'inish Eronning qutqaruvchi - Saoshanta afsonasi ta'siri ostida rivojlangan.

Yaponiyadagi Buddist panteoni xilma-xil bo'lib, bu plastik tasvirda ham, go'zal va grafikada ham aks etadi.

VII-VIII asrlarda yapon san'atida Shuxavati haqidagi hikoyalar - "Baxtli mamlakat", "G'arbiy jannat" - haykaltaroshlik, rangtasvir va grafikada janubdan - Hindistondan va shimoli-g'arbdan - "G'arbiy o'lka" mamlakatlaridan, ya'ni Sharqiy

Turkiston va Markaziy Osiyodan kelayotgan murakkab ta'sir ostida namoyon bo'ladi.

Asta-sekin haykal ko'proq dunyoviy xususiyatlarga ega bo'ladi, bu inson tanasining go'zalligiga qiziqishning namoyon bo'lishidan dalolat beradi. Hind va ellinistik haykaltaroshlardan farqli o'laroq, Uzoq Sharq ustalari yalang'och tanani tasvirlashdan voz kechdilar. Inson go'zalligi ular tomonidan passiv-tafakkur va yuksak xotirjamlik, ayollik va nafosat nuqtai nazaridan o'ylab topilgan. Demak, cho'zilgan nisbatlar, tananing engil va silliq chiziqlari, xotirjam poza.

VII asrning 80-yillarida Taika islohotlaridan so'ng Yaponiyada me'morlar, haykaltaroshlar va rassomlar o'qishni boshladilar. Shunday qilib, 661-672-yillarda Gabu tashkil etilgan - tasviriy san'at bo'limi - uning tarkibiga 64 kishi kirgan: 4 ta magistr va 60 ta talaba. Horyuji ibodatxonasi arxivlarida ikki aka-uka haykaltarosh - Xitoydan kelgan muhojirlar esga olinadi: Qi Peng Hui va Qi Yaponlarga o'z mahoratini o'rgatgan.

Rassomlar astarlar, chizmalar va kontur rassomlariga bo'lingan. Shuning uchun qadimgi rasmlarning mualliflarini aniqlash qiyin.

Horyuji, Yakushiji, Kofukuji, Todayji ibodatxonalari qadimgi buddist san'atining asosiy boyliklari hisoblanadi. Ushbu ibodatxonalarining ichki qismi haykaltaroshlik, rasm va hunarmandchilikning o'ziga xos muzey ekspozitsiyasidir.

606-yilda Tori Bussi boshchiligida Gangoji ibodatxonasida mashhur zarhal bronza triadasi o'rnatildi: Shaka-Nyorai Buddaning balandligi 84,5 sm, ikkita bodhisatning balandligi taxminan 90 sm. Triada umumiy xususiyatga ega, katta halo-ikko-sanzon.

Tori Bussi triadasi g'ayritabiiy xususiyatlarga ega xudo bo'lgan eng hurmatli ziyoratgohga aylandi. Yaponiya zaminida butunlay yangi sharoitlarda Xitoydan olib kelingan an'ana davom etmoqda.

VIII asrda ko'p ibodatxonalarda Buddaning yonida boshqa belgilar bo'lgan o'zlarining triadalarini paydo bo'ldi. Shunday qilib, kvartira triadasi Yakushijining markazida Yakushi Buddasi bor. Balandligi 2,5 m bo'lgan Nyorai baland, taxminan 0,5 m

balandlikda joylashgan, bronza plintus va uning o'ng va chap tomonida yog'och va zarhal qilingan Gakko va Nikko lotus gullarida turadi. Yakushiji triadasining muallifligi xitoylik ustaga tegishli bo'lgan.

Yapon badiiy uslubining shakllanishi nuqtai nazaridan, eng qiziqarli yodgorliklarga portret haykallari kiradi: Gyoshin, Giyen, Ganjin - uchta avliyo. Ma'naviy yutuqlarning go'zalligi yapon haykallarining asosiy mazmunidir. G'arbdan tubdan farq qiladi. U moyli rasm chizish texnikasidan mutlaqo bexabar. Uzoq Sharq rasmi, qoida tariqasida, monoxrom siyohda yoki qora siyoh va tempera kombinatsiyasida - sof yoki mum bo'yoq yoki suv bo'yoqlar (mineral) bilan siyoh qo'shilishi bilan amalga oshiriladi.

Rassom yoki chizmachining yagona quroli cho'tka edi. Ular turli qalinlik va zichlikdagi qog'ozga va ipakka yozdilar.

Xitoy rasmida asosiy rol hajm bilan emas, balki chiziq, kontur, chiaroscuroning deyarli to'liq yo'qligi, tekislik bilan o'ynaydi. Xitoydan nafaqat texnika, balki turning o'zi, syujeti, rangi, kompozitsiyasi ham olingan.

Buddizm Yaponiyaga jahon madaniyati xazinasiga kirish imkonini berdi. Ko'p o'tmay, provinsiyaviy izolyatsiyani yengib, yaponlar jahon san'ati durdonalaridan kam bo'lmagan ajoyib obidalarni yaratdilar. Yapon ustalari o'zlarining uslublarini rivojlantirib, milliy san'atning asoslarini tashkil qiladilar.

Yapon teatrining paydo bo'lishi VII-VIII asrlarga to'g'ri keladi. Kagura sirlari, gigaku raqs dramalari, dengaku (dehqon qo'shiqlari), bugaku (kult tomoshalari) va sarugaku (xalq farsi ko'rinishi) elementlari saqlanib qolgan.

Eng qadimiy yapon spektakli - kagura: ma'buda Ame- no Uzume haqidagi afsona, u o'zining g'ayrioddiy raqsi bilan quyosh ma'budasi Amaterasuni yashiringan g'ordan chaqirib, ukasi Syuzanundan g'azablangan. Kaguradagi syujet raqs va musiqa orqali uzatiladi.

Gigaku - Hindistonda paydo bo'lgan va Buddha oldida marosim raqsi sifatida ijro etilgan raqs dramasi. Hindistondan bu raqslar janubiy Xitoy qirolligi Vuga (yapon tilida Go), u yerdan Koreyaga olib kelingan. VI asrda raqs dramasi teatr maskalari bilan bir vaqtda Yaponiyada ham paydo bo'lgan.

Hozir Yaponiyada qadimiy teatr maskalari to'plami butun dunyoda tengi yo'q hisoblanadi. Qimmatbaho yog'ochdan (yapon sarvlaridan) tayyorlanib, turli xil ranglarda bo'yalgan. Ba'zi niqoblar mato va lakdan yasalgan va keyin bo'yalgan: qora - ezgulik, qizil - quvonch va qahramonlik, yashil - baxt va boshqalar. Ranglarning kombinatsiyasi xarakterning o'ziga xos psixologik xususiyatlarini beradi.

Gigakuning g'ayrioddiy katta o'lchamlari (yarim metrdan ortiq) aktyorning butun boshini qoplagan. Gigaku maskalari odamlar, qushlar va hayvonlar sifatida mujassamlangan xudolarni o'z ichiga oladi. VIII asrda Yaponiya tuprog'ida raqs tomoshasi asta-sekin dunyoviy spektakl xarakteriga ega bo'lib, sud teatriga aylandi. Teatr tomoshasining yana bir shakli - bugaku (so'zma-so'z "ham raqs, ham musiqa") mavjud bo'lgan.

Taika islohoti (649) bo'limni tashkil etadi - Jibusho, u barcha marosimlar - nikoh, motam, nasabnoma va imperatorlarning merosi, chet elliklarni qabul qilish, teatr va musiqa uchun mas'ul edi.

Yapon xalq musiqasining kelib chiqishi juda qiziq. Yapon musiqashunoslari (Iba Takashi, Yamane Ginji va boshqalar) qadimgi yaponlarning musiqiy uslubi Aynu, Tungus va Uzoq Sharqning boshqa xalqlarining musiqiy uslubi bilan bog'liq deb hisoblashadi.

Siba Sukehiro (1898-1967) - mashhur bastakor va musiqa tarixchisi - VIII-XI asrlarning partituralarini shifrlagan, keyin esa Yevropa notalarida yozib olgan va nashr etgan.

Sessiyada qadimiy cholg'u asboblari: turli nog'ora va gonglar, bambukdan yasalgan nay va go'yo kabi puflama cholg'u asboblari saqlanadi.

VII-VIII asrlarda Xitoy va koreys musiqachilari Yaponiyaga tobora ko'proq taklif qilingan. Xitoyda bo'lgani kabi, Yaponiyada ham xitoylashtirilgan musiqa nazariyasi bitta tovushning, ya'ni alohida olingan tovushning hal qiluvchi roli prinsipiga asoslanadi. Bu Uzoq Sharq va qadimgi Yevropa mamlakatlari musiqa nazariyasi o'rtasidagi tub farq bo'lib, unda tovushlar nisbati asosiy rol o'ynaydi.

Antik va oʻrta asrlar musiqasining klassik Xitoy nazariyasiga koʻra, pentatonik miqyosdagi har bir alohida tovush qandaydir element, rang yoki falsafiy substansiyani bildirgan. Lu tizimining oʻn ikki bosqichli shkalasi hayvonlar shaklida paydo boʻlgan yilning oʻn ikki oyiga toʻgʻri keldi: yoʻlbars, quyon, ajdaho, ilon, ot, qoʻchqor, maymun, xoʻroz, it, choʻchqa, kalamush, buqa va boshqalar.

VIII asrda oʻziga xos koʻlami bilan lu tizimiga qoʻshimcha ravishda Yapon ritual musiqasida gagaku (Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari - Vetnam va Kambodja orqali) va hind musiqasi raga shkalasiga asoslangan holda paydo boʻladi.

736-yilda Vetnamdan Yaponiyaga bir qancha buddist olimlar kelgan. Ular oʻzlarining raqslari va musiqalarini oʻrgata boshlagan. Yapon manbalariga koʻra, 763-yilda Nara shahrida boʻlib oʻtgan saroy festivalida birinchi marta Janubiy Vetnam musiqasi (Champa) ijro etilgan, uning musiqiy uslubi keyinchalik, taxminan 400 yildan soʻng, Xitoy uslubiga ham oʻzlashtirilgan.

Yapon polifoniyasining xarakterini shakllantirishda, shubhasiz, bugaku raqslarida boʻlgani kabi, xuddi shu tamoyil – “oʻng” va “chap” musiqaning qarama-qarshiligi muhim rol oʻynadi. “Oʻng” musiqaga Bohai musiqasi va Koreya musiqasi uslubida olingan yoki bastalangan orkestr qismi kiradi; “chapchi” musiqaga hind va xitoylik partiyalar kiradi.

Orkestrning ikkala qismi uchun umumiy boʻlgan asboblardan tashqari biva, koto, tayko, shoko va hitiriki – “oʻng” qismda komabue nay va kichik san-no baraban solistlardir. Bugaku raqslariga joʻr boʻladigan musiqa xarakteriga hind tala ritmi taʼsir koʻrsatgan. Materikdan olib kelingan gagaku yadrosi yaxshilandi. Yaponiyada buning uchun sharoit materikka qaraganda qulayroq edi. Yaponiyalik musiqashunos Ushiyama Mitsuruning fikricha, musiqiy asar strukturasi ishlab chiqishda gagaku nazariyotchilari Yevropanikidan ancha oldinda boʻlgan va Filipp Emanuel Bax, Yan Vatslav Stamits, Jozef Haydn va Volfgang Amadey Motsart sonata shakliga yaqinlashishdan taxminan sakkiz asr oldin oʻz nazariyalarini yaratgan. Bu haqda N.A.Iofanning “Qadimgi Yaponiya madaniyati” (234-235-betlar) kitobidan koʻproq bilib olishingiz mumkin.

Yapon olimlarining fikriga ko'ra, yaponlar ikki turga bo'linadi: Yaponiya dengizi sohilidagi Toxoku tipi va Kinay tipi. Birinchi turdagi Ainu bilan umumiy xususiyatlarga ega, ikkinchisi, koreyslar bilan. S.B.Lupinosning so'zlariga ko'ra, musiqiy tafakkurning turli darajalarida (tembrlar, teksturalar, metro-ritmlar, kompozitsion tuzilmalar tizimi, intonatsiyani aniqlash tizimida) o'zini namoyon qiladigan yapon orollari musiqiy merosining strukturaviy tamoyillarining xilma-xilligi, jarayonlar yapon va Ainu dunyosining kesishgan modellarining ko'plab ishlash shakllarini aks ettiradi. Bu musiqa merosining quyi tizimlarining hech biri o'zini o'zi ta'minlay olmaganiga olib keldi va XX asr sharoitida ularning ifloslanish tendensiyasini belgilab berdi. Yaponiyada landshaft xudolari juda ko'p: hovuz, bog', tog' va boshqalar. Ularning o'z homiy xudosi bor. Tabiatga bo'lgan muhabbat butun yapon she'riyatida singib ketgan. Inson va tabiat o'rtasidagi uyg'un munosabatlar tabiiy kuchlarga ta'sir qilishning asosi hisoblanadi.

Ulardagi qoralamasiz nasriy asarlar umumiy ilhom asosida yaratiladi. Shunday qilib, Sei-shonagonning dunyoga mashhur "Boshidagi eslatmalar" yoki Kenko-xoshining "Zikkilikdan eslatmalar"i o'zining qisqaligi bilan yevropaliklarni hayratga soladi. Shu bilan birga, yapon mualliflarining nigohi tashqi dunyoga emas, balki o'z ichki dunyosiga - yaqin dunyoga qaratilgan.

Buddizmni yuqori darajadagi yaponcha aks ettirish (nasr va mentalitet) ushbu davlatning rivojlanishida muhim rol o'ynagan.

### **Yaponiyaga Xitoy sivilizatsiyasining kirib kelishi**

XV asrlarda Xitoy sivilizatsiyasining yapon tiliga ta'siri sezilarli bo'ldi. 522-yilda Yamato sulolasi hokimiyatga keladi va Nara shahrini poytaxt deb e'lon qilib, Xitoy ma'muriy boshqaruv tizimini Yaponiyada joriy etishadi. Dastlab bu ta'sir buddizm bilan, keyin konfutsiylik bilan o'tdi. Shahzoda Shotoku-Taishi Yaponiya bilan Xitoy va Koreya o'rtasida yaqinlik siyosatini olib bordi. Shotoku Xitoy va koreyalik rohib va hunarmandlarni mamlakatga taklif qiladi, yoshlarni Koreya va Xitoyda o'qish uchun yuboradi.

645-yilda Yaponiyada nufuzli aristokrat oilalar tomonidan mashhur to'ntarish qilingan. Shahzoda Karu imperator bo'lib, "Osmon o'g'li" degan nomga ega bo'ldi.

Davlat hokimiyati tizimi Xitoy va hatto, Koreyaga qaraganda ancha zaifroq edi. Ikkinchidan, yerda barcha kuch katta yer egalari qo'lida to'langan, markazga qaramlik faqat soliqlarni to'plashda ifodalangan. Uchinchidan, mahalliy hokimiyatlar va dehqonlar o'rtasidagi munosabatlar Xitoyga qaraganda birmuncha farqli tarzda rivojlangan. Chunki Yaponiyada uning holati, xususan, jamiyatda feodal tendensiyalar shakllangan, bu esa o'z navbatida dehqon g'alayonlariga olib kelgan. To'rtinchidan, yer egalari ularni isyonkor qishloqlardan himoya qilish uchun samuray jangchilarini yollagan. Asta-sekin, yopiq samuray mulklari katta yer egalari uchun qudratli kuchga aylangan, o'zlarining shafqatsiz ichki kuchlariga qarshi kurashda o'z pozitsiyalarini kuchaytirgan.

### **Xitoy sivilizatsiyasining Yaponiyaga ta'siri**

XV asr oxirida shahzoda Shotoku-Taishi Yaponiya bilan Xitoy va Koreya o'rtasida yaqinlik siyosatini olib borgan. Bo'layotgan islohotlar Xitoy modeli bo'yicha butun mamlakatni qat'iyat bilan qayta tashkil etish, imkoni bo'lgan hamma narsani qarzga olish uchun mo'ljallangan edi. Shu bilan birga, Xitoy modelidan nusxa ko'chirilmadi. IX-X asrlarda allaqachon Yaponiya va Xitoy, Koreya va Vietnam modellari o'rtasidagi asosiy farqlar aniq bo'ldi. Bu bir qator xususiyatlarda namoyon bo'lgan.

Uzoq muddatli meliorativ jarayonda hamma narsada: xitoy klassikasi, kalligrafiya, rasm, arxitektura, davlat institutlari, qonunchilik o'zgarish obyekti bo'ldi.

Xitoy kabi Yaponiya ham viloyatlarga bo'lingan, ularning hajmi, albatta, Xitoydan ancha kichikroq. Mamlakat poytaxti Yara 710-yilda qurilganida, u Xitoy modeli - shimolda joylashgan imperator saroyi bo'lgan shaxmat taxtasining shakli bo'yicha rejalashtirilgan edi.

Xitoy ta'siri hamma joyda sezildi va yozuvchilar yozgan yozuvlari mandarinlar (yozilish uchun Xitoy belgilaridan foydalanilgan) bilan bir xil tarzda tuzildi. Xitoy sivilizatsiyasi Kioto

shahridagi imperator saroyi bilan aloqador bo'lgan nisbatan tor doirada katta ta'sir o'tkazgan va poytaxtdan uzoqda bo'lganligi sababli, u har doim katta o'zgarishlarni boshidan kechirgan. Bu qorong'ulik yig'ilib turgan yorqin nurning bir joyiga o'xshaydi.

## **XIX asrda Yaponiya**

Shunday qilib, Yaponiya sivilizatsiyasi tarixida ham odatda Sharqiy rivojlanish va progressiv G'arbning davri aniq. Har ikkala yo'nalish ham navbatdagi rolni o'ynadi va navbat bilan oldinga chiqdi. Natijada, Yaponiya o'z madaniyatining noyob an'analarini saqlab qoldi hamda Sharq va G'arb sivilizatsiyalari tajribasidan samarali foydalandi.

XII asrgacha dunyoni arab davlatlari o'zining ilm-ma'rifati, taraqqiy etishi bilan zabt etgan bo'lsa, XIX-XX asrlarga kelib Yaponiya davlati butun dunyoda yaponcha inqilob qilib G'arb davlati andozasi asosida Yapon sivilizatsiyasini vujudga keltirdi, ya'ni G'arb andozasi asosida yangi sivilizatsiya paydo bo'ldi. Yaponiyaning ham o'ziga xos yo'li shundan iborat edi. Boshqa davlat madaniyatini to'g'ridan to'g'ri o'zlashtirib olmasdan, balki uni o'z hayot tarziga moslashtirgan holda olib borish va shu yo'l orqali taraqqiy etishdir.

Bugungi kunda, XXI asr boshidagi iqtisodiy voqeliklarga qaramay, yapon milliy madaniyati o'z-o'zini saqlab qolishning kuchli mexanizmlariga ega.

## **Muhokama uchun savollar**

1. Yapon sivilizatsiyasining o'ziga xosligi qanday shakllangan va u nimalarda aks etgan?
2. Yaponiyaning XX asrdagi iqtisodiy "mo'jizasi"ning sabablari nimada?
3. Yaponlarning madaniy makonini "tashqi" va "ichki"ga munosabati qanday?
4. Yapon mentalitetining o'ziga xosligi nimada?

## **10-MAVZU. QADIMGI YUNONISTON SIVILIZATSIYASI**

### **Reja:**

1. Antik davr sivilizatsiyasi G'arb sivilizatsiyasining asosi.
2. Aleksandr Makedonskiy va Ellada davlatlari.
3. Ellada fani, madaniyati va san'ati.

### **Antik davr sivilizatsiyasi G'arb sivilizatsiyasining asosi**

Tarixchilar uchun qadimgi yunon sivilizatsiyasining vujudga kelish jihatlarini o'rganish va tadqiq qilish hamisha qiziq bo'lib kelgan. Dunyo tamadduni markazlaridan biri hisoblanmish Yunoniston sivilizatsiyasi dengizbo'yi sivilizatsiyalari turkumiga kiradi. Aynan uning dengizdagi imkoniyatlari mazkur hududda sivilizatsiya, ya'ni taraqqiyotni vujudga keltirishiga zamin yaratdi.

G'arb sivilizatsiyasi bir necha asrlar davomida, shubhasiz, dunyo yetakchisi bo'lib kelgan. G'arb haqida gapirganda, biz odatda Sharq ham borligini eslaymiz. XIX asrdan buyon "G'arb-Sharq" dixotomiyasi (muxolifat) jahon sivilizatsiyasi manzarasini belgilab berdi.

XXI asr boshlarida dunyoning sivilizatsiya xaritasi sezilarli darajada murakkablashdi, ammo hozir ham G'arb va Sharq o'rtasida tafovutlar mavjud. Garchi G'arb zamonaviylik bilan, Sharq esa an'ana va an'anaviylik bilan birlashtirilsa ham, G'arb hamon jahon sivilizatsiyasi fonida ajralib turadi. Shuning uchun G'arb sivilizatsiyasining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan tarixiy va madaniy sharoitlar nima ekanligini tushunish muhimdir.

Bu sivilizatsiyaning kelib chiqishini qayerdan izlash kerak? Bu borada hali ham bahslar mavjud. Ba'zi tadqiqotchilar Yevropa G'arbi yoki oddiyroq qilib aytganda, Yevropaning tarixiy ildizlari qadimgi davrga borib taqaladi, deb hisoblashadi.

Shunday qilib, biz antik davrni Yevropa (G'arbiy) sivilizatsiyasi yoki Yevropa antik tarixidagi birinchi, boshlang'ich davr deb hisoblaymiz. Qizig'i shundaki, antik davr ikki qismdan iborat: u qadimgi yunon va rim (sub) sivilizatsiyalaridan iborat. Boshqacha aytganda, antik davrning tashkiliy xususiyati dialoglik edi.

Qat'iy sivilizatsiya tuzilmasining mavjud emasligi ko'p jihatdan Yevropaning (G'arbning) tarixiy dinamikasini oldindan belgilab berdi va uning tarixiy o'sishi bo'yicha boshqa jahon sivilizatsiyalaridan oldinlab ketishiga yordam berdi.

Yevropa sivilizatsiyasi tarixi bir necha "genetik" bog'liq davrlarni o'z ichiga oladi, ularning har biri alohida sivilizatsiya bilan ifodalanadi: antik, o'rta asrlar va boshqalar. Qadimgi sivilizatsiya tarixi qadimgi yunon davridan boshlanadi, bu ham sivilizatsiya tushunchasiga mos keladi.

Qadimgi yunon sivilizatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari qanday bo'lgan? Qadimgi yunon siyosiy makonida markaz bo'lmagan: u mustaqil shahar-davlatlardan – polislardan iborat edi.

Avtarkizm tarzidagi polislar tabaqalashtirilgan yunon dunyosini shakllantirdi, bu ichki, tarkibiy xilma-xillikni madaniy birlik bilan birlashtirgan yangi tipdagi sivilizatsiyadir. Bu xilma-xillikning asosiy natijasi qadimgi Yunonistonni sharqiy davlatlar va sivilizatsiyalardan ajratib turuvchi ijtimoiy-siyosiy ohangning kuchayishi bo'lgan. Polis tuzumi doirasida doimiy siyosiy raqobat mavjud bo'lib, unga aloqador bo'lgan har bir kishi o'z kuchini va vositalarini ushlab turish uchun safarbar etishga majbur edi. Bunday jamiyatlar keyinchalik raqobatbardosh deb ataldi. Biroq, qadimgi yunonlarning lug'atida bu so'zning o'xshashi bor edi: agon. "Agon" so'zi birinchi navbatda sportni anglatadi. Qadimgi yunonlar hayoti uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan Olimpiya o'yinlarini eslaylik. Olimpiyachilarning (Olimpiya musobaqalari g'oliblari) tosh tasvirlari, biz bilganimizdek, ularning kichik vatanlarida o'rnatilgan. Olimpiya o'yinlarining sanalari qadimgi yunonlar uchun eng muhim tarixiy davrlar bo'lib xizmat qilgan. Shu bilan birga, raqobatbardoshlik qadimgi yunon jamiyatining barcha sohalarini qamrab oldi. U falsafiy bahslarda namoyon bo'ldi (Qadimgi Yunonistonda bir nechta falsafiy maktablar mavjud edi va ularning hech biri shubhasiz ustunlik qilmagan). Ommaviy yig'ilishlarda va sudlarda notiqlar ishontirish va notiqlik bo'yicha, haykaltaroshlar, dramaturglar, shoirlar san'at bo'yicha bellashgan.

Hunarmandlar professional san'at bo'yicha bellashdilar. Shunday qilib, agonallik qadimgi yunon sivilizatsiyasining eng muhim xususiyatlari va yangiliklaridan biri edi.

Qadimgi Yunoniston bu jamiyatlarning birinchisi bo'lib, ichki xilma-xillik, polisentrizm va agonalizm Qadimgi Yunonistonni zamonaviy Sharq jamiyatlari fonidan ajratib turadi.

Bu xususiyatlardan tashqari, yunon mo'jizasi tushunchasi boshqa muhim xususiyatlarga ega. Ulardan biri qadimgi yunon agonalizmiga hamroh bo'lgan o'ziga xos individualizmdir. Fuqarolik, polis jamoasi chegaralarida uning a'zolari, qoida tariqasida ajralib turishga intildi. Bu unga ijodiy keskinlik va ijtimoiy dinamizm berdi. Yana Sharq jamiyatlaridan farqi qadimgi Yunonistonda inson juda yuqori baholangan. Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, bu holda biz "insonning kashfiyoti" haqida gapirishga haqlimiz. Inson mavzusi qadimgi yunon mifologiyasida sezilarli. Shunday qilib, qadimgi yunon miflarining ba'zi insoniy qahramonlari xudolar bilan tenglashtiriladi. Sharq afsonalarida esa bunday emas.

Yuqoridagilardan tashqari yana qadimgi yunonlarning falsafa va ilm-fanida mujassamlashgan ratsionalizmni ham takidlab o'tishimiz lozim. Bularning ikkalasi ham qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan. Keyin bu yerda siyosiy demokratiya tug'ildi. Qadimgi yunonlarning iqtisodiy yangiliklaridan xususiy mulkni ham qayd etish kerak.

Aytish joizki, Yunonistonda polislar, ellinistik jarayonlar, Afina va Sparta to'qnashuvi kabi holatlar vujudga keldi.

Qadimgi Yunoniston sivilizatsiyasiga juda o'xshash, lekin o'ziga xos tarixiy voqea-hodisalarga boy Rim sivilizatsiyasi ham mavjuddir. Mazkur sivilizatsiyaning vujudga kelishida yunon sivilizatsiyasining ayrim hayotiy elementlari ko'zga tashlanadi. Ammo ikki sivilizatsiya bir-birini takrorlamas jihatlar bilan ajralib turadi.

Yunon sivilizatsiyasi boshqa sivilizatsiyalar: Lotin, Arab va Vizantiyaga ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, Qadimgi Yunoniston madaniyati sharqqa va Islom sivilizatsiyasiga ham ma'lum ma'noda ta'sirini o'tkazgan.

Ko'pchilik tarixchilar tomonidan qadimgi yunon sivilizatsiyasi formatsion tarzda yoritiladi. Qadimgi dunyo tarixchilari Yunoniston hamda davlatning vujudga kelishi, aholi turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini o'rganishda ikki xil shaklga amal qilgan:

1. Jismoniy shakl;
2. Yozma shakl.

Birinchi shaklda moddiyat ustun turadi. Sivilizatsiyaning vujudga kelishi arxeologik topilmalar asosida tahlil qilinadi. Ikkinchi shaklda esa, yozuv, matnlar tilga kiradi. Qadimiy sivilizatsiyaning vujudga kelishini aniqlashda har ikki shakl ham bir xil hisoblanadi.

Qadimgi Yunoniston tarixida inson yozuvdan uzoq vaqt oldin foydalana boshlagan. U yerda odamlar eng qadimgi Minoy sivilizatsiyasining ilk va o'rta bronza davridan yashagan. Ular shartli ravishda oroldagi mifologik shoh Minosning nomi bilan shunday atashadi. Ser Artur Evans tomonidan Knossdan eng ajoyib arxeologik yodgorliklar topilgan. Minos go'zallikning oliy namunasi sifatida, o'zidan ta'sirchan saroylar qoldirib, hozirga qadar Krit iyeroglofi va A chiziqli ikkita matn saqlanib qolgan. Minosda Misr bilan savdo-sotiq aloqalari mavjud bo'lib, bir Misr matnida ularning nomi "Keftiu" ostida zikr etilgan va Kritning shohi haqida gapiriladi. Manbalarga ko'ra orol yagona shoh hukmronligi ostida birlashadi. Ammo bu jarayonlar avvalboshida emas, keyinchalik davlatchilik kurtaklari paydo bo'lganda vujudga kelgan. Ungacha yakdillikda yashab hamfikir bo'lishgan.

Bronza asrini yunonlar shartli ravishda Miken sivilizatsiyasi vujudga kelishi bilan belgilaydi. Zamonaviy davrda birinchi bo'lib, Genrix Shliman yaxshiroq o'rgangan va Kichik Osiyodagi Troyani qazigan. Mikenga qiziqish bildirgan. Keyinchalik yunon afsonasida Mikenda bir mifologik Agamemnon ismli shohning qarorgohi bo'lgan. Troyaga qarshi urushgan.

1953-yil havaskor tilshunos Maykl Ventris Jon Chadvik bilan hamkorlikda bir dasturni topib o'rganadi. Mana bu tilda bronza davriga oid A chiziqli yozuv bo'lishi mumkin. B chiziqli yozuv, shunga qaramay, o'qiy olingan va ushbu matn, asosan, Pilos va Knossda, Miken jamiyatining zamonaviy tushunchasi bilan bog'liq.

B chiziqli yozuv davlat byurokrtiyasida ishchi hujjatlar emas, balki doimiy arxiv sifatida mo'ljallangan. Birinchi Miken davlati borligini hech kim bilmagan. Lekin u bir-nechta shohlar tomonidan boshqarilgan. U g'arbiy Pelopones va uzoq Shimoliy Elis Pizagacha uzaygan. Aholi ikki guruhga bo'lingan. Mallio, Zakro shaharlari bo'lgan.

Biz bugun Mikenning oxirgi yuz yil davomidagi boyligi va kuch-qudrati, qadimda qurilgan joy-majmualarining xarobalarini ko'ramiz. Ularning arxitekturasi va bezagi diqqat bilan qaralganda, Minoy uslubiga o'xshatiladi, shu bilan birga bir nechta ajoyib farqlari ham bor. Ular, odatda, tepaliklarda joylashgan bo'lib, hashamatli qalin devorlar bilan o'ralgan va ular Krit makonlaridan farqli o'laroq, ancha kichik edi. Biz Miken hukmdorlarining dastlabki vazifasi qirollikka bostirib keluvchi raqiblardan mudofaa qilish deb xulosa qilamiz. Qal'alarni o'rab olish yashirinish va istiqomat qilish uchun dastlabki shahar bo'lib xizmat qilgan. Keyinchalik yunonlarda juda katta devorlar, hatto insoniyat aqli bovar qilmaydigan darajada ulkan, zo'r qurilgan. Haqiqatdan ham bunday ishlar, ehtimolki, shohning maqtanishi, davlati va kuch-qudratini odamlarning saroyda yashashi, mudofaani bildirgan. Shuningdek, Miken makonlari Minoydan farqli, turli vaqt oralig'ida o'zlashtirildi. Krit komplekslarida hovliga tosh yotqizilgan, markazda to'g'ri to'rtburchakli saroylar bo'lib, zal, megarondan tashkil topgan. Megaron-bayramlarda kengash a'zolari va mehmonlarni kutib olish uchun ishlatiladigan tantanali markaz edi. Birinchi, hovli orqali peshayvon va kichik xonaga kiriladi. O'rtacha kata xona bo'lib, u yerda plastikdan yasalgan dumaloq o'choq, yon tomonida to'rtta ustun, ochiq balkon bo'lgan (Madad so'ralgan).

Yangi qirollik (miloddan avvalgi 1575-1087) yillarda Anadolliya, Suriya, Misrga agressiv harakatlar qilgan. Shunga qaramay, Meditarian dunyosida Miken madaniyati va diplomatik jarayonlar shakllandi.

Gomer "Illiada" va "Odyssey" dostonida Pilos shahri va Messaniya haqida gapiradi. "Nestor" makoni Amerika arxeologi Kar Belgan tomonidan 1939-yili Pilosdan topilib, so'nggi bronza davriga oidligi aniqlandi. Belgans ko'p sonli B chiziqli muhim

yozuvlarni topadi. B chiziqli yozuvlar Knoss va boshqa markazlardan ham topilgan. Unda Mikenning iqtisodiy jamiyati haqida ma'lumotlar uchraydi.

Yana bir markaz "Pilos" hisoblanib, B chiziqli yozuvda "Puro" deyilgan. Miloddan avvalgi 1400-1200-yillarning o'rtasigacha cho'zilgan. Nestonda inshootlar miloddan avvalgi 1300-1200-yillar bo'ylab qurilgan va ular kichikroq ko'rinishda bo'lgan. Pilos qirolligi katta va g'oyat yaxshi hisoblanadi. Ikki yuz atrofida shahar va qishloqlarni o'z ichiga oladi. Hududi 1400 kv km milni tashkil qilib, 2 ta viloyatga, viloyatlar esa yetarlicha tumanlarga bo'linadi. Apis piramidasida qirol (wannax) deyilgan. Qirolidan keyin peshqadamlik armiyada bo'lgan. Markazlashtirilgan ishlab chiqarish va tarqatish tizimi, asosan, hashamatli uylarda yashovchi mansabdorlar uchun xos bo'lib, kichik bo'lgan guruhlarining ba'zi qismi ta'minlangan. Lekin, ko'pchilik odamlarning bitta ishlab chiqaruvchi boyligi bo'lib, u dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, xizmat ko'rsatishdan iborat edi. Ular kamtar yashashgan, uylari bir-ikki xonali bo'lib, juda kamchiligi serhasham yashagan. Ko'pchilik oilalar oliy darajadagi kishilardan yerlarni ijaraga olgan, qolganlari esa, o'zining yeriga ega bo'lgan. Hunarmandlar, chorvadorlar va ruhoniylar yerlarning "shaxsiy" xo'jayinlari hisoblangan. Bir qishloq kishisi fermada ishlasa, yer, daraxtlar, tok, uy hayvonlariga qarashi, soliq to'lashi lozim edi. Bir necha uy xizmatkorlari armiyada ham xizmat qilgan. Ayol kishi uy ishlarini bajarib, ip yigiradi va to'qiydi, ovqat tayyorlagan. Shuningdek, qishloqdagi ayollar mato to'quvchilardan asboblarni ijaraga olib, ulush evaziga jun va zig'irdan buyumlar tayyorlashar edi.

Mikenda aholi uyda mahsulot tayyorlab, eksport qilgan. Ayollar to'qimachilik, ko'ylak tayyorlash, choyshab tikish bilan band bo'lsa, erkaklar duradgorlik, kulolchilik, charm tayyorlash va boshqalar bilan band bo'lishgan.

Yunonistondan mis, qalay, oltin, fil suyagi, bo'yoq, qahrabo va ziravorlar chet davlatlarga chiqarilgan. Ayniqsa, vino va qimmatbaho taqinchoqlar ko'p chiqarilgan tovarlar sirasiga kirgan.

B chiziqli yozuvga qaraganda, Mikenda aholi Zevs, Poseydon, Germes, Artemidaga ibodat qilgan. Zevsni "Osmon otasi" deb nomlashgan.

Qadimgi sharq davlatlaridan farqli o'laroq, Qadimgi Yunonistonda o'ziga xos sivilizatsiyani ko'rish mumkin. Egey dengizi va Bolqon yarimorolining janubiy qismlarida yunon tilida so'zlashuvchi xalqlar istiqomat qilishgan. Xalq tarkibini doriylar, axeylar, zoliylar va ioniyalar tashkil qilgan. Ularning har birini o'z shevasi, urf-odatlarini mavjud edi. Barcha yunonlar bir tilda gaplashgan, bir-birini yaxshi tushunishgan va o'zlarini bitta sivilizatsiyaga tegishli ekanligini his qilgan. Eng qadimgi axeylar mil. avv. III ming yillikning so'nggi choragida Bolqon Yunonistonining janubiy qismiga kelib o'rnashgan. Mil. avv. II ming yillikda Epir va Makedoniya hududlaridagi doriylar axeylarni assimlatsiyalashtiradi hamda axeylarning bir qismini tog'li hududlarga surib chiqaradi. Doriylarning ko'pchiligi Lakonika, Messeniya, Elida, Krit, Rodos va Kichik Osiyo hududlarining ayrim qismida joylashgan. Attika guruhi Kichik Osiyoning Ioniya viloyatida, Samos, Evbeya, Xios hududlarida joylashgan. Eoliylar esa Fessaliya, Beotiya, Eolida viloyatida va Lesbos orolida muqim o'rnashgan. Dastlab, Egey dengizi havzasida yunonlardan avval leleglar, pelasglar, kariylar yashagan bo'lib, yunon aholisining etnogenezida muhim rol o'ynamagan. Yana shuningdek, tog'li Frakiyaliklar ham bo'lgan.

Buyuk ko'chishlar Yunonistonga yangi xalqlarni keltirdi va yunon sivilizatsiyasi hududini kengaytirdi. Yunon shaharlari Anadolianing Egey dengizi qirg'oqlari bo'ylab joylashdi. Dodokanes kabi bo'sh yerlar o'zlashtirildi. Lekin, Pilos, Fiva va Knoss kabi davlatlar endilikda yo'q bo'lib ketdilar. Materik Yunonistonda va Kritda savodlilik deyarli tugadi, hatto hech kim B chiziqli yozuv qanday yozilishi haqida eslamadi. Shu boisdan, bu davrda yozilgan yozuv aniq tarixiy ma'lumotlar berolmasligi tufayli, bu davrni shartli ravishda "Zulmat zamoni" deb atashdi. Miloddan avvalgi VIII asrda ko'plab aholi Sitsiliya va Italiyaning janubiga dehqonchilik uchun yangi yerlarni o'zlashtirish maqsadida Yunonistondan ko'chib ketdi. Ular g'arbgacha dehqonchilik uchun emas, balki savdo uchun borgan ilk

sayohatchilar ortidan ergashdilar. X asrdan boshlab doimiy ravishda o'sib borayotgan chet elliklar bilan savdo-sotiq VIII asrga kelganda sezilarli ravishda kengaydi. 800-yilda evbeyalik yunonlar Shimoliy Suriyadagi El Mina xalqaro savdo bazasiga qo'shilganlar va hech qancha vaqt o'tmasdan boshqa evbeyalik Italiyaning janubidagi Pitekussada savdo koloniyasiga asos solganlar. Shuningdek, ko'p sonli yunon kemalari O'rta Yer dengizi bo'ylab o'tgan savdo yo'llarida suzganlar va hattoki, O'rta Yer dengizidagi yetakchi dengiz savdogarlari bo'lgan finikiyaliklar bilan ham raqobatlashgan. G'arbda paydo bo'lgan yangi yunon koloniyalari nafaqat, dehqonchilik uchun qulay yerlar, balki o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlarini sotish va qadimgi Yunoniston bilan Shimoliy Yevropa aholisi uchun xomashyo, ayniqsa, metall uchun borgandilar.

“Shahar-davlat” zamonaviy tushuncha bo'lib, Mesopotamiyada ilk bronza davrida shunga o'xshash atama vujudga kelgan. Shahar-davlat asosan, markaziy shahar va unga tutash bo'lgan hududlar birgalikda yagona, o'z-o'zini boshqaradigan, ma'lum geografik hudud hisoblanadi. Yunonlar buni polis deb atab, bizga “politika”, “siyosiy, siyosat” ma'nolarini meros qoldirishgan.

Biz yuqorida ko'rganimizdek, yunon shahar-davlatlarining asosiy jihatlari so'nggi zulmat asridayoq anglashilgan. Butun zulmat asrida mavjud bo'lgan shaharlar shahar-davlatlarga aylanadi va ularning ko'pchiligi Miken davridayoq markaz shaharlarga aylanib ulgurgandi. Hududiy jamoa “demos” va uning “yer” va “xalq” kabi Gomer eposlarida tasvirlangan yunon shahar-davlatlarining ikki asosiy boshqaruv organlari bo'lmish chaqiruv yoshidagi “erkaklar yig'ini”, “oqsoqollar kengashi” to'liq shakllangandi.

Klassik davrda Afina va Sparta siyosiy jihatdan mustahkamlandi. Polislar inqirozi yuz berib, hududlar ozchilik tomonidan boshqariladigan bo'ldi. Shunga qaramay, mil. avv. V-IV asrlarda bir necha yunon shaharlarida demokratik hukumat, qolganlarida oligarxiya boshqaruvi bilan farqlanardi. Yunonlardagi doimiy notekis taqsimlangan davlat boshqaruvi,

doimiy keskinlik va bezovtalikni keltirib chiqardi. Siyosatda fuqarolik almashinuvi tezlashgan.

Miloddan avvalgi 445-yilda ko'p yunonlarda optimistik tinchlik belgilari namoyon bo'ldi. Shunga qaramay, optimistik kayfiyat miloddan avvalgi 431-yilda ikkinchi Peloponnes urushining to'satdan boshlanishi bilan yo'qoldi. Aniq-nuqtai nazardan qaraganda, urush miloddan avvalgi 440-430-yillarda o'ziga xos mazmunga ega. Bu vaqt davomida Afina g'arb va shimoliy-sharqqa qattiq harakatlar qilgan. Miloddan avvalgi 431-421-yillarda yunon dunyosida Arxidam urushi bo'ldi. Bu Sparta boshlig'i va komandir Arxidam nomi bilan bog'liq.

Miloddan avvalgi XII asrda Yunonistonda ayrim joylar omon saqlangan edi. Yunon dunyosida shahar va qishloqlar tashlab ketildi. Ularda istiqomat qiluvchilar o'lgan yoki bir qismi Axeya, Arxadiyaga, Falastin va Kiprga borgan. Eski va klassik zamonda Sparta yunon dunyosining eng kuchli shahri bo'lgan. Uning tinchlik va qo'rqinchli urushiga qoyil qolish mumkin. Shuningdek, u qolgan qutblardan farq qiladi. Spartaliklar ko'p muhim tashkilotlarni taqsimlagan, qolgan yunonlar esa ularning jamiyatida patriarxal va iqtisodiy qullar va ishchilar sifatida muhim rol o'ynagan, qishloq xo'jaligining asosini tashkil etgan. Qonunlar va jangovar holat qadrlangan. Shunga qaramay, Spartaning ko'p noyob muhim jihatlari bor. Sparta shaharlari boshqa yunonlardan kuchli bo'lishga harakat qilgan. Tarixchi, faylasuf, feminist va iqtisodchi olimlarning fikriga ko'ra, Sparta va atrofdagi hududlar Lakonika yozuvidan foydalangan. Lekin Sparta yunon ma'naviyatida qiziqish uyg'otgan. Sparta tarixida "Sparta sarobi" g'oyasi saqlanib qolgan. Shuningdek, vatanparvarlik, kurasha olish, o'zga madaniyatni yo'q qilish ham. Yunonistonning boshqa shaharlari koloniyalarga asos solganiga qaramay, spartaliklar Shimoliy Italiyada bitta Taras koloniyasiga asos soldi. Sparta qo'shnilariga qarshi harbiy kuch bilan javob qaytarishga harakat qildi va sakkiz marta yurish qilib, chegaralarni zabt etdi. Ular Lakonika yerlarini o'z nazoratiga oldi. Lakonikada istiqomat qiluvchilar Sparta shahri atrofidagi maydonda, perrioika (Spartada yashovchi yoki chegaradosh)lar bo'lib qoldi. Boshqacha qilib aytganda, huquqsiz periyeklar ozod qullar qoldig'i edi. Ular

hukumat ishlariga qatnashishga ruxsat etilmasa-da, harbiy xizmatga majbur qilinardi. Ko'pchilik spartaliklar uzoq vaqt bunday yashashni yoqtirmagan. Ular uy ishlari, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdogarlik bilan shug'ullangan. Bu spartaliklarning o'ziga xos iqtisodiy tizimini tashkil etgan. Spartaliklar shuningdek, VIII asrning uchinchi choragida serhosil Messaniyaga bostirib kirgan va zamonaviy til bilan aytganda, birinchi Messaniya urushi boshlangan. Urush yigirma yil davom etib, miloddan avvalgi 720-yilda tugagan. Messaniya Sparta va Lakonikaga qaram bo'lib qolgan. Bir qancha Messaniyaliklar periyeklarga aylangan, lekin ularning ko'pchiligi qul bo'lib qolavergan. Ularni davlat chegaralarida spartalik xo'jayinlar ishlashga majbur qildi.

Spartada ishlab chiqarish ancha past bo'lgan. Spartadagi polislar miloddan avvalgi VII-VI asrlarga oid hisoblanadi. Spartada bola tug'ilganidan harbiylashgan hayotga o'rgatilgan. Spartada otasi ozod spartalik bo'lganlarga hukumat ishlarida qatnasha olgan. Otalar o'z bolalari uchun qaror qabul qilmagan. Sparta ta'limida bolalar, o'g'il bolalar, yoshlar, yosh erkak va balog'atga yetganlar ta'lim olgan. O'g'il bolalar uchun ta'lim 7 yoshdan boshlanib, harbiy san'at, itoatkorlik, chidamlilik, qurol ushlashga o'rgatilgan. O'g'il bolalar ta'limda o'qib, yozilmagan, lekin amaliyotda zarur harbiy san'atdan saboq berilgan. Sparta qo'shini 50 tadan guruhlariga bo'lingan.

Sparta ayollari esa go'zalligi bilan mashhur bo'lgan va Spartaning xotin-qizlari qo'shiqchilikda ham shuhrat qozongan. Spartalik turmushga chiqmagan qizlar madhiya yozgan, xor jamoalarida qo'shiq aytish imkoniyatiga ega bo'lgan. Qizil ipdan to'qilgan kiyim va oltindan ilon ko'rinishidagi uzuklar taqqan, ot choptirgan.

Sparta ayollari boshqa yunonlardan farqli o'laroq, uyda o'tirgan. Farzand tarbiyasi ularning birinchi vazifasi hisoblangan. Sparta uncha katta bo'lmagan 20 ta hududga bo'lingan. Sparta ayollari sirka suvi, asal, zaytun moyidan foydalangan. Afina progressiv madaniyat jihatdan yuqori bo'lsa, Sparta aristokratik, konservativ, agrar, madaniy jihatdan ancha qoloq edi. Ikkisi ham Peloponnesga da'vogar edi.

Shunday qilib, qadimgi Yunonistonda o'ziga xos sivilizatsiya vujudga keldi. Albatta, uni hali zamonaviy deb hisoblash mumkin emas. Oxir-oqibat u an'anaviy qadriyatlar asoslariga (xususiyl, ijtimoiyl iyerarxizm, naturalizmga nisbatan jamoaning ustuvorligi) tayangan. Shunga qaramay, qadimgi yunon tilida va umuman qadimgi an'analarda innovatsion salohiyat deb atash mumkin bo'lgan narsa allaqachon paydo bo'lgan. Bu tarixiy va madaniyl o'zgarishlar ehtimolini ko'rsatadigan an'ana edi. Umuman olganda, antik sivilizatsiyani - G'arbning birinchi tarixiy shakli deyish mumkin.

### **Aleksandr Makedonskiyl va Ellada davlatlari**

Yunoniston sivilizatsiyasining yakuniyl bosqichi makedonlar bilan bevosita bogliqladir. Bu bosqich mil. avv. IV asrning 70-yillari-mil. avv. 30-yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda ellin madaniylati yuksak darajada rivojlandi. Filipp II miloddan avvalgi 359-yil Makedoniya podshosi bo'ldi. Gerodotning yozishicha, Perdiksas Makedoniyaning birinchi qiroli bo'lgan. Makedoniya janubdan Fessaliyl o'rtasida, sharqda Xalkidika va Frakiya, shimolda Peonia, g'arbda Illiriya va Epir bilan chegaradosh bo'lgan.

Fitna natijasida vafot etgan Filipp miloddan avvalgi 336-yilda o'z taxtini o'g'li 20 yoshli Iskandarga tashlab ketadi. Arastu tomonidan oliyl Ellada madaniylati namunalarida tarbiyalangan Aleksandr Gerodot, Yevripid, Pigdarlarni yaxshi bilib, otasi tomonidan Gerakl, onasi tomonidan esa Axildan kelib chiqishiga ishonar edi, shuning uchun unga hamma narsa mumkin, chunki u o'zini hamma narsaga javobgar deb hisoblagan.

O'z raqiblari va taxtga da'vogarlarini tezda yo'q qilib, Aleksandr Bolqon yarim orolidagi isyonni bostirdi, Fivani yo'q qildi, keyin esa ulkan armiyani tashkil qilib, taxtga o'tirganiga 2 yil bo'lmasdan, Osiyoni zabt etishga yo'l oldi. Tarixchilar ko'p marotaba uning qo'shinini Osiyoga bostirib kelish sababini tushuntirishga harakat qildilar. Ba'zilarning fikricha, Iskandar Anatoliya Yunonistonini varvarlardan ozod etish va Yunonistonga yunon-fors urushlari paytida yetkazilgan talofatlar uchun qasos olish g'oyasi bilan bu yurishni amalga oshirgan. Boshqalarning fikricha, u Sharqqa yunon

madaniyatini tarqalishi haqida qayg'urgan. Aleksandr deyarli butun Kichik Osiyoni egallab oladi, Anatoliyani zabt etib, Suriyaga yetib keladi va miloddan avvalgi 333-yilda Issada eng buyuk podshoh Doro III ustidan g'alaba qozonadi. Podshoh jang maydonida onasi va xotinini tashlab, birinchi bo'lib qochadi, ammo birozdan so'ng o'ziga kelgan Fors podshohi Iskandar bilan muzokaralar boshlashga tayyor bo'lib o'z yaqinlari uchun tovon to'lashini aytadi, unga g'olib Doro podshoga to'liq bo'ysunishi kerak deb javob beradi. Dengizdagi forslar qudratini yo'q qilib, Tir, G'azoni mag'lubiyatga uchratgan Aleksandr Misrga kirib keladi, bu yerda uni ozod etuvchi sifatida qabul qilishadi.

Aynan shu yerda u Aleksandriyaga asos soladi. Miloddan avvalgi 331-yilning bahorida Iskandar Doroni to'liq mag'lubiyatga uchratadi. Fors imperiyasining poytaxtlari – Bobil, Suza, Persopol, Ekbatan, Parfiya, Girkaniyalar birin-ketin mag'lub bo'ldilar. Iskandar o'z imperiyasi chegarasini Sirdaryo Hinduqush bo'yicha belgiladi. Otasi Iskandarga qoldirgan meros, ya'ni Makedoniya podshohligiga u ko'plab mamlakatlar hududini qo'shdi. Bunda jahon zabt etilgan jangovar kuchlarning sonini kamligi lol qoldiradi: Osiyodagi urushda 40 mingga yaqin zobit, Hindistonda – 120 ming, hayotining oxirida 80 ming. Buyuk qo'mondonlardan eng buyugi, qattiqqo'l podshoh Iskandar o'zini iste'dodli tashkilotchi sifatida namoyon qiladi. Imperiya bir kishi tufayli mag'lub edi, u g'ayriinsoniy darajada mehnat qilish qobiliyatiga ega edi. Makedoniya va Yunonistonga umuman soliq solmagan Iskandar yetarli darajada murakkab fiskal (soliq) tizimini yaratadi: har bir satrapiya soliqqa tortilishining maxsus tizimiga ega edi (bojxona, ishlab berish, kishi boshiga soliq, mulk solig'i), bu esa katta daromad keltirgan.

Mahalliy boshqaruv lavozimlariga u tub aholi vakillarini tayinlaydi, chunki faqatgina ular an'ananing nafis tomonlari va tillarni tushunganlar. Iskandar zab etilgan xalqlarni yo'q qilishga emas, balki yunonlar bilan yagona yaxlitlikka aylantirishga harakat qilgan. Mazkur maqsadga erishishning eng yaxshi uslubi sifatida podshoh aralash nikohlarni hisoblagan. U o'zi namuna bo'lib Sug'diyona hukmdorlaridan birining qizi Roksanaga uylangan, keyin esa, 3 ta Fors malikasiga uylangan. Hindistondan qaytganidan so'ng uning harbiy qo'mondonlarining aksariyati va 10 mingta zobiti bir

kunda tantanali ravishda mahalliy qizlar bilan nikohlandilar, bu voqea "Suzadagi to'y" deb nomlandi. Iskandar 34 ta shaharni barpo etib, ularga o'z ismini berdi. Bu shaharlar yunon madaniyati va tilini targ'ib etar edi. Iskandar 37 mingta eronlik bolalarni yunon madaniyatida tarbiyalashga buyruq berdi, ammo u o'zga din va madaniyatni qattiq hurmat qilib, odamlarni ko'chishiga ko'maklashib yo'l, kanal, kemalarni qurgan.

O'zining iste'dodiga ishongan holda Iskandar imperiyada yaxlit pul birligi Makedoniya pulini joriy qildi, U Attika o'lchov standartiga ko'ra chiqarilgan bo'lib, Osiyodagi og'ir dariklar o'rnini bosdi. Iskandar yunon falsafiy tafakkur va Sharqning monarxik an'analarini izlanishida shakllangan podshohga sig'inishni joriy etdi. Iskandar kutilmaganda bezgakdan vafot etdi, bunda u miloddan avvalgi 336-yildan boshlab, 323-yilgacha, 12,5 yil taxtda o'tirgan.

Uni yunon va varvarlar o'rtasidagi farqni inkor etuvchi insonlarning yaxlitligi, birligi ideali, uning buyuk ixtirolari – bu Plutarxning ba'zida tarix bitta buyuk insonga bog'liq degan fikrining tasdig'idir. Pirr va Sezar ham Iskandarga havas qilgan, atigi 33 yil yashagan Iskandar yangi dunyoni yaratishga muvaffaq bo'ldi. Yunon deb nomlangan davr Iskandar vafotidan boshlanib, Rim yutuqlari bilan yakunlandi.

Bizgacha, boshqa sivilizatsiyalardan ko'ra, o'sha davrdagi hujjatlar ko'proq yetib kelgan, ular orasida papirus – alohida uslubda o'simlik tolalaridan to'qilib tayyorlangan varaqlar alohida o'rin egallaydi. Ba'zilar Misr tilida (demotik yozuv), ba'zilar yunon, kechkilari lotin tilida yozilgan. Papiruslar bizga xilma-xil hujjatlarni, jumladan, podshohlarning xatlari (ish bo'yicha va shaxsiy yozishmalar, maktab daftarlari, notarial arxivlar) va boshqalarni yetkazib bergan.

Ular orasida eng qiziqarlisi davlat boj va soliqlari haqidagi qonunlar hamda Zenonning arxividir. Kuchli urushlardan so'ng Iskandar barpo etgan davlatning chegaralari o'zgardi va 3 ta katta davlat ajralib chiqdi, imperiya hududida kichik va katta podshohliliklar paydo bo'la boshladi. Iskandarning davomchilari buyuk madaniyat va san'atni o'z ichida mujassam etgan ko'plab shaharlarni barcha joyda barpo etdilar.

## Ellada fani, madaniyati va san'ati

Aftidan, inson o'z shaxsini faqatgina jamoada rivojlantirishi mumkin: miloddan avvalgi V asrning oxirida rivojlanishni boshlagan individualizm, individual falsafaga bo'lgan yo'nalish rivojlanmasdan to'xtab qoldi. Shoirlar jamoalarga yig'ilib mushoiralar qilar edilar. Badiiy maktab an'analari tasviriy san'at rivojida birlamchi rolni o'ynadi, aniq tashkiliy tuzilmaga ega bo'lgan maktablarda falsafa va fan gullab-yashnadi. Birinchi 2 ta Ptolemey o'z poytaxtiga Muzey va kutubxonani hadya etdilar. Muzey tadqiqiy markazga aylandi. Olimlar monarxning saxiyligi bilan to'liq ta'minlanib, ish uchun barcha zaruriy narsalar, ya'ni kolleksiya, instrument, botanika va zoologiya bog'lariga ega edilar. Kutubxona fondlari doimo o'sib borar, unga sotib olingan Arastu kutubxonasi va Sezar davridagi 700 mingta asar ham kiritilgan edi. Sirakuza, Tarent, Pergam shaharlarida ham kutubxonalar paydo bo'ldi. Asta-sekin yuqori intellektual adabiyotga qiziqish rivojlandi, tragediya yo'q bo'lib, uning o'rniga komediya keldi. Miloddan avvalgi IV asrdan so'ng paydo bo'lgan komediya hayotni aniqroq tasvirlashga intilgan edi, unda qullar haqidagi syujet, zobitlarning maqtovlari, parodiyalar paydo bo'ldi. Masalan, Menandrning "O'zini o'zi jazolovchi", "Tretey sudi", "Javraydigan odam" deb nomlangan komediyalarida muhabbat, qarichilik, oilaviy munosabat, boy va kambag'allar o'rtasidagi munosabat, qulchilik, bid'at va din asosiy mavzuga aylandi. Ellinizm davridagi she'riyat Iskandariya she'riyati deb nomlanadi, chunki mashhur shoirlarning aksariyati aynan Aleksandriyadagi saroyda yashagan, bundan monarxni cheksiz maqtash motivi kelib chiqadi. Sirakuzada tug'ilgan Feokrit Sitsiliya peyzajini "Sirakuzalik ayollar" va "Jodugarlar" deb nomlangan poemalarda ko'rsatib beradi. "Sabablar", "Elegiya", "Madhiyalar" muallifi olim Kallimax Iskandariyada kutubxonachi bo'lib qoldi. Arpat ismli shoir "Fenomenlar" deb nomlangan asarda Knidlik Yevdoksning astronomik tizimini bayon etib, eng yuqori falsafa she'riyat bilan hamnafas bo'lishini ko'rsatdi. Bu she'riyat asrlar davomida san'at uchun san'atga intilganlar uchun tabiiy namunaga aylandi. Miloddan avvalgi III asrda Ellinlar davrida buyuk tarixchilarning asarlari yaratildi. Bizgacha ularning faqatgina ayrim qismlari yetib kelgan,

ularning mualliflari tarixiy materialni bayon etish uslubiga ko'ra va iste'dodi bilan farqlanadi. Masalan, Kardiyalik Iyeronim Makedoniya podshohlari saroyida xizmat qilgan va voqealarga bevosita duch kelgan. Shuning uchun uning "Diadoxlar tarixi" va "Epigonlar tarixi" deb nomlangan asarlari Iskandar vafotidan so'nggi 50 yil haqida yozilgan asarlardan eng ahamiyatlisidir, bu asarlar Plutarx tomonidan keng qo'llanilgan. Samoslik Durisning "Yunoniston tarixi" va "Makedoniya tarixi" deb nomlangan asarlari miloddan avvalgi 370-yildan boshlab, 280-yilgacha bo'lgan voqealarni tasvirleydi, Filarx esa miloddan avvalgi 220-yilgacha bo'lgan voqealar haqida yozadi. Filarxning asarlari bayonining obrazlilik va dinamikligi bilan insonni o'ziga jalb etadi. Miloddan avvalgi III asrdagi eng yirik tarixchi bu "Sitsiliya tarixi" asarining muallifi Timeydir. Timey o'zining tanqidiy tafakkurining misli ko'rinmagan kuchini namoyon qilib, asl hujjatlarda Afina, Sparta, Olimpiya, Argos taqvim tizimlari sanasini yagona tizimga keltiradi. Ammo Polibiy (miloddan avvalgi 210-125-yillar) haqiqiy shuhratga erishdi, u tarixda inqilobni amalga oshirdi. Turli hissiyotlar, ya'ni qiziquvchanlik, tafakkurga muhabbat, aniqlik va batafsillikka intilish, fanga ishonish kabi hissiyotlar asosida u aniqligi bo'yicha betakror bo'lgan "Tarix" asarlarini yaratdi. Bu olim voqealar bo'lgan barcha joylarga o'zi tashrif buyurib, barcha shaxsiy arxivlarni o'rganib, faylasuf, tarixchi, geograflarning asarlarini o'qib chiqadi. Shu davrda falsafa bilan shug'allanish kasbga aylandi. Afina falsafiy tafakkurning yirik markaziga aylandi. Aflotun maktabi va Aflotun akademiyasi miloddan avvalgi 268-yildan boshlab 241-yilgacha faoliyat yuritib, shuhrat qozondi. Aflotun ajoyib notiq bo'lib, ehtimollik nazariyasidan og'zaki dars berar edi. Miloddan avvalgi II asrda Karneat ta'limni tizimlashtirib, xatodan haqiqatni farqlash imkoniyati yo'q deb hisoblab, skeptiklarning mutloq shubhasi va stoiklarning buyuk gipotezalari o'rtasida yo'l topish kerak deb hisoblar edi. Miloddan avvalgi I asrda akademiyada 2 ta buyuk faylasuf Filon va Antiox faoliyat yuritishdi, ular ta'limotini tinglovchi sifatida Sitseron o'rgandi. Skeptiklar esa o'zlari haqida miloddan avvalgi IV asrning oxirida Pirrol orqali e'lon qildilar, u yirik mutafakkir bo'lib, Stoiklar dogmatizmiga qarshi chiqdi. Skeptiklar maktabi rimliklarning g'alabasidan keyin ham gullab-yashnaydi.

## **Yunon fani va san'ati rivojining cho'qqisi**

Ellinistik davrda fan falsafadan to'liq mustaqil bo'lib qoladi va keyingi davrda hech bir olim Arastu kabi inson bilimlarining deyarli barcha hajmini qamrab ololmaydi. Keyinchalik alohida ilmiy predmetlar shakllanib, haqiqiy tadqiqiy institutlarga asos solindi. Masalan, Iskandariyada Anatomik teatr, Observatoriyalar, Zoopark va botanik bog'larni o'z ichiga kiritgan Muzei kabi tashkilotlar shular jumlasidandir.

Matematika fanlar orasida o'zining birinchi o'rnini saqlab qolib, u dunyoni idrok etishga xizmat qildi. Iskandariyaga Ptolemey I Soter tomonidan taklif qilingan Yevrid miloddan avvalgi 300-yili o'zining "Ibtidolar" deb nomlangan kitoblarining 15 ta jildini tuzdi. U o'zidan oldin qilingan barcha tadqiqotlarni tizimlashtirdi. Ularga o'z tadqiqotlarini ham qo'shib, xususan, 5-postulat(unsur)ga tavsif berdi, biz uni Yevklid nomi bilan bilamiz. Yevklid soddadan murakkabga asosiy tamoyillarga asoslangan dalillar orqali o'tib, tizimli yondashuvdan foydalandi.

Miloddan avvalgi 267-200-yillarda yashagan pergamlilik Appoloniy "Buyuk geometr" taxallusiga ega bo'lgan. U "Pi" soniga birinchi bo'lib ratsional tavsifni bergan. Miloddan avvalgi 287-212-yilda yashagan Arximed ham matematikaga qiziqqan, xususan, u "pi" soni bilan shug'ullanib, uni 3,1416 ga teng deb aniqlagan. Bundan tashqari sferaga qiziqib, uning hajmi silindr hajmining  $\frac{3}{1}$  qismiga tengligini isbotlagan. Arximed o'z iste'dodini amaliy mexanika sohasida ham namoyon qildi. Richagni, mexanik o'yinchoqlar, turli mashinalarni ixtiro qildi, Misrda sun'iy sug'orish uchun ishlatiladigan vint nomi uning ismi bilan nomlangan. Arximed ixtirochilikka bo'lgan tomonlarini namoyon etib, Iskandariyada ajoyib muhandislarda ham ixtiroga bo'lgan layoqatni namoyon bo'lishiga ko'maklashadi. Masalan, iskandariyalik muhandis knidlik Sostrad Iskandariya mayoqining me'mori bo'lgan.

Matematika sohasidagi rivojlanish astronomiyaga ham asos bo'lib xizmat qildi. Ma'lum bo'lgan dunyoning chegaralarining kengayishi Yer, uning shakli va koinotdagi o'rni, harakatiga qiziqishni uyg'otdi.

Ellinizm davrida jonli organizmlar haqidagi fanlar ham gullab-yashnadi. Bunga Arastudan meros bo'lgan aniq kuzatuvlarga istak hamda tibbiyotning yutuqlari sabab bo'ldi. Iskandariya tabiiy bilimlarning eng mashhur manzilidir. Aynan shu yerda murdalarni yora boshladilar. Biroq Gippokratning vatani bo'lgan Kos Knid shahri kabi o'z shuhratini saqlab qoldi. Xalkedonlik Gerofil anatomiyadagi qaldirg'ochlardan biri edi. U nerv sistemasini kashf qilib, uning faoliyat yuritishining umumiy tamoyillarini tushuntirib berdi, bosh va umurtqa miya rolini ochib berdi, ko'z va ko'z nervini o'rgandi, puls asosida tashhis qo'yishni ishlab chiqdi. Keoslik Erasistrad fiziologiyaning asoschisi edi. U qon aylanishini maxsus o'rganib, kapilyar tomirlarning rolini kashf etdi.

Milodning III asriga kelib Diofand algebraning eng sodda unsurlarini va ibtidosini belgilab berdi. Leybnitsning aytishicha, "Arximed va Appoloniyni tushunganlar zamonaviy olimlarning ishidan kamroq darajada lol qoladilar". Bu rivojlanish shu darajada ham ahamiyatliki, chunki bu antik fanning yakuni edi. Rimliklar bu sohada yunonlar bilan hech qachon tenglasha olmadilar va insoniyat ilmiy-texnikaviy inqilob davri kashfiyotlariga qadar Iskandariya, Rodos va Pergamda to'plangan bilim manbai hisobiga yashaydi.

Bu davrda badiiy mahsulotlar hajmi ulkan bo'lib, katta qurilishlar amalga oshirilgan. Qazilmalar tufayli binolarni bezatish uchun mo'ljallangan minglab haykal va haykalchalar topildi. Buning sabablari birinchidan Ellada dunyosi farovon bo'lganligi va gullab-yashnaganligi tufayli hukmdorlar ularning poytaxt va saroylarini shon-shuhratini va mashhurligini yuqoriga ko'tara oladigan odamlar bilan o'rab olishiga intilishida, ikkinchidan, boy qatlam san'at va adabiyotga homiylik qilganidadir. San'at dunyoviy xarakterga ega bo'ldi, chunki eng katta buyurtmachilar podshoh va shahar aholisining boy qatlamlari edi.

Haykaltaroshlikda xudolar odamlar kabi tasvirlanar edilar va aksariyat hollarda diniy relyeflar o'rniga janr sahna ko'rinishlari tasvirlangan. Bundan tashqari ko'plab fuqaro binolari barpo etilgan. Ular ajoyib ratsional tarzda rejalashtirilgan shaharlarda barpo etilgan. Saroy va xususiy uylar boylik va qulaylikda raqobatbardosh edi. Diniy me'morchilikda, ya'ni mumtoz davr san'atini afzal ko'rgan me'morchilik janrida yangilik kam edi, ko'plab yangi ehromlar

an'anaviy me'yorlarga ko'ra barpo etildi. Me'morchilikning rivoji uy-joylarning qurilishida yorqinroq namoyon bo'ldi, uy-joylar kengroq, chiroyliroq, qulayroq bo'ldi. Bu sohada miloddan avvalgi IV asrda boshlangan o'zgarishlar chuqurlashdi. Endilikda polis fuqarosidan xususiy shaxsga aylangan inson o'z vaqtini xalq kengashidagi muhokamalarda emas, ko'proq o'z uyida o'tkazgan. Albatta, ko'p sonlik xarobalar ham bor edi. Iskandariyada kambag'allar ko'p qavatlik, hech bo'lmaganda 4 qavatli uylarda yashar edilar.

Hozirda O'rta Yer dengizi savdosining yirik markazlaridan biriga aylangan Appolon orolidagi qazilmalar bir-biriga yopishgan kichik uylar hamda butun bir kvartalni egallagan ajoyib saroylarni ko'rish imkoniyatini berdi. Bu binoda me'moriy bezaklar haykal bezaklari bilan bog'liq. Marmar stol va o'rindiqlar uyg'unlikda binoni bezatadilar. Delosda joylashib olgan italiyalik savdogarlarga bunday shinam va shu bilan birga, keng havoga to'la uylarda yashash nega yoqqanligi oydinlashadi. Ellinizm davrida rejali shaharsozlik qoidaga aylandi. Bunda ancha oldin qurilgan shahar qayta o'zgartirilishi yoki yangi shahar qurilishi farqlanmas edi. O'sha paytda butun Sharqda barpo etilayotgan shaharlar qulay tizim asosida qurilib, u kichkina Fayumdagi Filadelfiya kabi shaharlar uchun xos edi. Iskandariya va Antioxiya estetika va qulaylik qonuniga javob beruvchi mazkur tizimning amalga oshirilishining ajoyib misollaridir.

Iskandariya uzra Mayoq qad rostlagan, u dunyoning 7 mo'jizasidan biri bo'lib, bir-birini ustiga qo'yilgan parallipiped, 8 burchak va silindr shaklida qurilgan. Pergam esa Zevs va Afinaning ulkan mehrobini namoyon qiladi. Ellinistik davrining oxirida ko'chalar, xususan, Suriya va Anatoliyada kengroq va ustunlar bilan qurilgan. Toshda tashkil etilgan bu makonlarni rejalashtirgan shaharsozlar doimo ularda ham matematik hisob-kitob, ham teatr fantaziyasini ifoda etishga intilganlar. Delosda port yonida bir nechta, Korinf, Fasos, Meandrdagi Magnesiyada keng va uyg'un agoralar mavjud edi, ular ichidagi eng ajoyib Afina agorasi o'rta, Janubiy va Sharqiy portiklar bilan o'ralgan edi. Insonparvarroq bo'lgan sivilizatsiya dam olishga xizmat qiladigan ijtimoiy binolarni ko'paytirdi. Qir va adirlarning yon bag'irlarida toshdan yasalgan teatr binolari barpo etildi. Ellada teatrlaridan Delfa, Dodona, Orop, Delos, Priyena, Pergam, Sirakuza va Egeyetadagi teatrlar ulkan

bo'lgan. Matematik tadqiqotlar teatrlarni ilmiy barpo etilgan kompozitsiyalarga aylantirdi, ular planiga kiritilgan katta o'zgarishlar doim faoliyat yurituvchi haqiqiy sahnalarni yaratish imkoniyatini berdi.

Tarixda ellinlar davrida haykal va barelyeflarni sevgan kabi davrlarni topish qiyin. Albatta, bu asarlarning barchasi ham oliy va yuqori sifatda bo'lmagan: ehtiyoj va talabni ko'payishi so'zsiz san'atning pasayishiga olib keladi. Shunga qaramasdan, haykaltaroshlik eski an'analarni davomi bilan cheklanmagan jonli san'atligicha qoldi. Haykaltaroshlar avvalgi ideal go'zallikka intilishga to'yingan san'at o'z e'tiborining chetida qoldirgan bolalik, qariyalik, jismoniy nogironlik, qashshoqlik kabi kategoriyalardan voz kechmadilar. Yunoniston haykaltaroshligida ellinizm davrida yangiliklar deyarli yo'q edi, bu yerda ko'p asrlik haykaltaroshlik ko'p sonli shedevrlarga boy an'analar bilan qoniqqanlar. Haykaltaroshlar aksariyat hollarda g'oyalarini tushunmasalar-da, kechki mumtoz davrning buyuk ustalariga taqlid qilganlar.

San'atda diniy xarakterdagi sahna ko'rinish o'rnini janr sahnalari egalladi. Bu yerda yoqimtoy do'mboq yuzlik amurlar va oddiy hayvonlar tasvirlangan. Haykaltaroshlar xilma-xil ijtimoiy turlarni tasvirlashni yaxshi ko'radilar va kambag'al bo'lgan dengizchi, dehqon, baliqchi, masxarabozlarning hayoti ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Haykaltaroshlar buyuk Iskandariya ko'chalarida uchraydigan odatiy bo'lmagan etnik tiplar, nubiyalik, liviyaliklarni ham tasvirlaganlar. Iskandariya san'atining original asarlaridan biri bo'lgan relyefda haykaltaroshlar kamtarona doira ichiga butun bir peyzajni joylashtirganlar, Hayotning barcha ko'rinishiga bo'lgan muhabbat janr sahnalari va chiroyli relyeflarda, podshoh portretlarida ko'rinib turadi. Podshoh portretlarining eng yaxshilarida chuqur psixologik tahlilning natijasini ko'rish mumkin. Ptolemeylarning ajoyib byustlari, buyuk Kleopatra timsoli shular jumlasidandir.

Iskandariyada yunon san'ati hayotni ifoda etishga intilganida an'anaviy Misr san'ati yo'q bo'lishni boshladi. Haykaltaroshlar Fir'avn davri qonunlariga ko'ra ishlashni davom ettirdilar, buning dalili "Filantrop Ptolemey IV ni taxtga o'tirishi" relyefidir. Bu asarda hukmdor yuqori va quyi Misr ayol xudolari bilan o'ralgan holda

l'ir'avn ko'rinishida tasvirlangan. Ellinizm davridagi rassomchilik bir nechta noyob asl asarlarni kashf etilishi tufayli yaxshiroq ma'lum bo'ldi. Bu asarlar aksariyat hollarda maftunkordir, biroq ba'zida qo'pol axloqsizlik darajasigacha tushib ketadi. Rassomchilikning so'zsiz progressi nafaqat texnikaning boyitilishi, masalan, yangi bo'yoqlarning paydo bo'lishi, balki emotsionallikni chuqurlashishi bilan ham bog'liqdir. Rassomlar yirtqich hayvonlarni va fantastik mahluqlarni tasvirlashni yaxshi ko'rar edilar. Baliq yoki parrandalar ham uchrab turadi. Bu tasvirlar mevaga to'la savatlar bilan birga yunon san'atidagi ilk natyurmortlardir. Inson ko'zini xursand qilishga qaratilgan bunday asarlar bilan bir qatorda ko'plab personajlar tasvirlangan katta freskalar ham mavjud, ularda insonning va diniy g'oya tomoshabinning idrokiga qaratilgan.

### **Muhokama uchun savollar**

1. Qadimgi Antik davr sivilizatsiyasi (yunon-rim sivilizatsiyasi) hozirgi Sharq sivilizatsiyasidan nimasi bilan farq qiladi?
2. "Yunon mo'jizasi"ning asosiy belgilari nimalardan iborat?
3. Nima uchun Iskandar tomonidan yaratilgan "Jahon imperiyasi" buyuk sarkardaning faqatgina o'z g'oyasi bo'lib qoldi?
4. Ellinizm fan va san'atining jadal rivojlanishiga qanday jarayon ko'maklashdi?

## 11-MAVZU: QADIMGI RIM SIVILIZATSIYASI

### Reja:

1. Rimning buyuklik va barbod bo'lish yo'li.
2. Jahon fuqarosi bo'lgan Adrianning abadiy orzusi.
3. Rim sivilizatsiyasining asosiy yutuqlari.

O'rta Yer dengizining markazidagi Apennin yarimorolida yana bir dengiz sivilizatsiyasi – Qadimgi Rim sivilizatsiyasi vujudga kelgan. Uning shakllanishida qulay geografik va iqlim sharoitlari muhim rol o'ynagan. Aynan shu qulay geografik va iqlim sharoiti ushbu yarimorolning janubiy qismida yunon koloniyalarining vujudga kelishi va uning “buzoqchalar mamlakati” deb nom olishiga sabab bo'ldi. Biroq Italiya foydali qazilmalariga nisbatan kambag'al. Shunday bo'lsa ham bu sivilizatsiya rivojlanib, boshqa davlatlar yutuqlaridan keng foydalangan va o'zlashtirgan. Rim tomonidan ellinistik davlatlarning zabt etilishi, Sharqiy O'rta Yer dengizi mamlakatlariga siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirga ega edi. Rimga ellinistik madaniyat, mafkura, ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar kirib kela boshladi. Ellinistik dunyoning ko'plab xususiyatlari Rim imperiyasi tomonidan meros qilib olindi.

### Rim sivilizatsiyasining vujudga kelishi

Qadimgi Rim sivilizatsiyasining yuragiga aylangan Apennin yarimoroli hududida etnik, til va madaniy jihatdan turli-tuman xalqlar yashagan. Uning qadimgi aholisi: Italiyada - ligurlar, Sitsiliya orolida - sikanlar, Korsika orolida - korslar, Sardiniyada - sardlar bo'lgan. Mil. avv II ming yillik oxirlarida Dunay havzasi va Kichik Osiyoning g'arbiy hududlaridan yarimorolga turli qabilalar kirib kela boshlagan, ularning orasida eng ko'p sonlisi hind-yevropaliklarga mansub italiylar edi. Mil. avv I mingyillikda Italiyaning asosiy aholisini Latsiy viloyatida istiqomat qilgan lotinlar, osklar, umbrlar, sabiylar, shu jumladan, samnitlar, sabiyliklar tashkil etadi. Lotinlar va sabiniy qabilalarining aralashuvidan rimliklar shakllangan. Tibrdan shimoliy-g'arbda Kichik Osiyodan kirib kelgan etrusklar istiqomat qilgan. Etrusklar va yunonlar madaniyatining tarixi Rimni

rivojlantirishga olib keladi. Mil. avv. I asrda etrusklar paydo bo'ldi. Ular "tusk"lar deb ham ataladi.

XIX-XX asrlarda ko'p sonli dahmalarni qazilishi natijasida o'sha dekarativ san'at, haykal va yozishmalarni topishgan. Ularning 10 mingta etrusk yozishmalari bo'lgan. Etrusklar haqida birinchi xabarlar mil. avv. VIII asrda vujudga kelgan. Xuddi shu davrda Italiyaning o'rta qismida etrusk shaharlari: Viye, Kluziy, Peruziya, Populoniya, Tarkviniy, Vulchiy shaharlari paydo bo'ldi. Etrusk shahar qurulishining harakterli xususiyatlari: bu kengligi 10-15 m ko'chalarning bo'lishi, tosh ko'priklar, kanalizatsiya va suv quvurlarining borligidir. Etrusk shaharlari podshoh tomonidan boshqarilgan va mil. avv. VI asrga kelib magistr'larga almashtirilgan. Mil. avv. VII-VI asrlarda Etruriyada 12 ta shahardan iborat konfederatsiya tuziladi. Uning markazi Valsiniyada bo'lgan. Bu hududda etrusklarning oliy xudosi Vertumniya joylashgan. Bu siyosat 12 ta tigrada deb atalgan. 12 ta tigrada lukmonlar tomonida boshqarilgan. Kengashda 12 ta a'zo bo'lgan. Etrusklar dehqonchilik bilan shug'ullangan. Ular donli ekinlar, uzum, zaytun ekishgan. Keyin hunarmandchilik bilan ham shug'ullangan. Ular ruda, metallurgiya, metalni qayta ishlashda muvaffaqiyatlarga erishgan. Ayniqsa, mis bilan qalayni eritib bronza hosil qilishni bilgan. Etrusklik ustalar fil suyaklaridan tish protezlarini yasashni bilishgan. Injenerlar botqoqliklarni quritgan, ko'priklar va yo'llar qurgan. Ularda dengiz flotlari bo'lib, Sharqning ko'p davlatlari, ya'ni Misr va finikiyaliklar bilan savdo aloqalarini olib borgan. Iqtisodiy raqobat etrusklar va janubiy Italiya shaharlaridagi yunonlar o'rtasida qurolli to'qnashuvlarga sabab bo'lgan ekan. Mil. avv. 535-yil etrusklar Karfagen bilan ittifoq tuzdi. Keyin Allaliyda Korsika yunonlarga qarshi qonli dengiz jangi olib bordi. So'ng Korsika orolining ustidan o'zining nazoratini o'rnatdi. Mil. avv. 616-509-yillarda etrusklar sulolasi Rim hokimiyatini boshqargan. Shunday qilib VI asrda etrusklar hokimiyati rivojlanish cho'qqisiga erishadi. Lekin tez orada etrusklarning kuchi zaiflasha boshlaydi. Etrusklar bir vaqtning o'zida gallar, yunonlar, rimliklar bilan kurash olib borgan. Qarama-qarshilik etrusk shaharlarida ijtimoiy kurashni keltirib chiqaradi va ular bir-biri bilan doimiy kurash olib bordi. Mil. avv. 524-yildan etrusklar yunonlardan mag'lubiyatga uchradi. Mil. avv. 510-yilda

rimliklar podshosi Mag'rur Takviniy o'z shaharlaridan oxirgi etrusk sulola hukmdorlarini quvib chiqaradi. Yangi eraning boshlarida rimliklar bilan aralashib o'z tilini ham unutilib yuboradi.

Qadimgi Italiyaning kattagina hududi dehqonchilik bilan shug'ullangan. Unumdor tuproqlar, yumshoq iqlim, yuqori agronomik madaniyat va agrotexnika taraqqiyoti Etruriya, Kompaniya, Appuliyada yuqori hosil olishga imkon beradi. Bu yerda bug'doy, arpa, suli ekilgan. Janubiy Italiyada uzumchilik va zaytunchilik taraqqiy etgan. Mil. avv. 367-yilgacha jamoa yerlari bo'lib berilgan.

Mil. avv. VI-III asrlarda Italiyada ichki va tashqi savdo ham rivojlanadi. Etruriya shaharlarida metalni qayta ishlash rivojlandi. Etrusklik ustalar bronza mahsulotlarini faqat Italiyada emas, Bolqon Yunonistonida ham olishgan. Kulolchilik ishlab chiqarish yuqori bosqichga ko'tarilgan. Eng yirik savdo markazlari Terakuza, Tarent, Populoniya, Spenadir. Har yili Latsiyada yarmarka bo'lgan. Butun Italiyadan savdogarlar temir va bronza, mahsulotlardan kulolchilik na'munalari, non va zaytun yog'larini olib kelishgan. Tovar ayriboshlashda Italiya tangalaridan foydalangan.

### **Rim sivilizatsiyasining taraqqiyot omillari va bosqichlari**

Rim sivilizatsiyasi bir necha omillar, jumladan, umumitaliya madaniy fondining mavjudligi, yunon sivilizatsiyasi va etrusk madaniyatining ta'sirida shakllangan. Qadimgi Rim sivilizatsiyasi mil. avv. VIII asrdan (mil. avv. 753-yil) milodiy V asrgacha (476-yil) bo'lgan davrni qamrab oladi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: Rim respublikasigacha bo'lgan davr (mil. avv. VIII-VI asrlar), Rim respublikasi davri (mil. avv. VI-I asrlar), Rim imperiyasi davri (ilk imperiya davri va so'nggi imperiya davri, mil. avv. I asr oxiri-mil. V asr). Rim tarixining dastlabki bosqichi Podsholar davri deb ataladi. Arxaik davrda Rim ijtimoiy tuzilmasi urug'-qabilachilik munosabatlariga xos qirralarni saqlab qolgan edi. Rim jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy asosini oila tashkil etgan. Ma'lumotlarga qaraganda butun aholi 300 ta urug'dan tarkib topgan. Eslatib o'tilgan 300 ta urug' Rim xalqini tashkil etgan (*Populus Romanus*), bunga faqatgina urug' a'zosi kirgan, chunki u o'z urug'i orqali kuriya va trib a'zosi

bo'lar edi. Jamoaning muhim masalalarini oqsoqollar kengashi (senat) hal qilgan. Senatdan tashqari kuriylar bo'yicha yig'ilgan xalq yig'inlari (kuriat komitsiyalari) ham bo'lib turgan. Kuriat komitsiyalarida yangi qonun loyihalari rad etilgan yoki qabul qilingan barcha oliy amaldor shaxslar, shu jumladan, podshoh ham saylangan, yig'in urush boshlanishini e'lon qilgan, oliy sud instantsiyasi sifatida hal qiluvchi qarorni qabul qilgan (Rim fuqarosiga o'lim jazosini belgilashda). Davlatning umrbod saylab qo'yiladigan hukmdori ham kohin, ham harbiy sardor, ham hakam vazifasini bajarar edi.

Rimning eng qadimiy tub aholisi patriitsiyalar deb atalgan (lotincha "pater" ota degan ma'noni anglatgan). Patriitsiyalar Rim jamoasining to'la huquqli a'zolari sanalgan. Patriitsiyalarning nufuzli oqsoqollaridan "keksalar kengashi" tuzilgan bo'lib, lotincha senat deb atalgan. Plebeylar esa, asosan, ko'chib kelganlar va bo'ysundirilgan viloyatlar aholisidan iborat bo'lgan. Rim aholisining eng quyi tabaqasini qullar tashkil qilgan. Etrusk podsholaridan Serviy Tulliy (mil. avv. 578-534-yil) o'tkazgan islohotlari Rimning keyingi respublika davri taraqqiyotiga zamin hozirlagan. Uning o'rniga kelgan Mag'rur Tarkviniyning quvib yuborilishi bilan Rimda respublika davri boshlandi. Rimda respublika boshqaruvi taraqqiyotni ikki asosiy omilini belgilab berdi: patriitsiyalar bilan plebeylar o'rtasidagi keskin ziddiyat va Rimning butun Italiya ustidan o'z hukmronligini o'rnatish uchun kurashi. Patriitsiyalar va qo'shinning ko'pchilik qismini tashkil etgan plebeylar o'rtasidagi kurash mil. avv. 450-yili 12 ta mis lavhaga o'yib yozilgan qonunlarning qabul qilinishiga olib keladi. Mil. avv. III asr boshlariga kelib plebeylar Rimning to'la huquqli fuqarolari bo'lib olganlar. Respublika davrida hokimiyat organlari xalq yig'ini, senat va bir yilga xalq majlisi tomonidan saylab qo'yiladigan magistratlardan (konsullar, pretorlar, senzorlar) iborat edi. Mil. avv. V-III asrlarda Rim quldorlar va aslzodalar respublikasiga aylangan. Boshqaruvning demokratik shakli, tinimsiz bosqinchilik urushlari natijasida yuzaga kelgan ulkan davlat oxir-oqibatda qadimgi Rim sivilizatsiyasining qadriyatlar tizimini belgilab berdi. Unga vatanparvarlik, qul va erkin kishi o'rtasidagi tafovutni kiritish mumkin. Olib borilgan keng ko'lamlı istilochilik yurishlari Tibr

qirg'oqlaridagi uncha katta bo'lmagan oligarx respublikani butun Italiyaning xo'jayini va nihoyat butun O'rta Yer dengizi bo'yi va antik dunyoni zabt etib ulkan davlatga aylantirdi. Urushlar natijasida qo'lga kiritilgan boyliklar, yangi yerlar, qullar respublikaning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida jiddiy o'zgarishlarga olib keldi. Ammo aynan shu jihatlar uning inqirozi va tushkunligini ham boshlab berdi. Mil. avv. I asr boshida eng yirik quldorlik davlati bo'lgan Rimning katta hududini, bosib olingan yerlardagi ulkan xo'jalikni boshqarish murakkab boshqaruv apparatini talab etardi. Boshqaruvni markazlashtirish zaruriyati eski respublika shakllariga zid kelardi. Tabaqalar o'rtasidagi uzoq davom etgan kurash, unga hamroh bo'lgan fuqarolar urushi davridagi ijtimoiy ziddiyatlar natijasida hokimiyatning yangi siyosiy shakli - imperatorning harbiy diktaturasi tarkib topdi. Mil. avv. I asrning oxiridan Rimning qulashigacha bo'lgan davr (V asr) imperiya davri deb ataladi. Shu o'rinda I asrning oxiridan III asr oxirlarigacha bo'lgan davr prinsipat davri (printseps - ya'ni senatorlar va fuqarolar orasida birinchi) deb nom olgan. Bu davrda hokimiyatning amalda shakllangan monarxiya shakliga qaramasdan, rasmiy ravishda Rim davlatida hokimiyat prinseps (ya'ni imperator ) va senat o'rtasida bo'lingan deb hisoblanardi. Rim davlatchilik inqirozini yengib o'tish va imperiyaga asos solishga birinchi urinish Gay Yuliy Sezar (mil. avv. 100-44-yil) davrida amalga oshirildi. Sezar o'rnatgan harbiy diktatura uning halokati bilan yakun topdi. Uning vorisi Oktavian Avgust (mil. avv. 63-mil.14-yil) haqiqiy Rim imperiyasiga asos soldi. Milodiy I-II asrlarda Rim imperiyasi qator ziddiyatlarni boshidan kechirdi. Avgustning vorisi Tiberiy Klavdiy Neron boshida senat bilan kelishuv yo'lini tutgan bo'lsa-da, keyinchalik u o'z siyosiy raqiblariga qarshi qatag'onlar va mulk musodaralarini boshlab yubordi. Bu hodisa uning davomchilari Kaligula, Klavdiy va Neron davrida yana qaytarildi. Bu ziddiyatlar esa Rimda vaqti-vaqti bilan urushlarga olib kelardi. Milodiy II asr, ayniqsa, uning birinchi yarmini Rim imperiyasining "oltin asri" deb atashadi. Imperator - jangchi Mark Ulpiy Trayan (98-117) bu davrda o'z davlatining chegaralarini butun Rim tarixidagi eng katta hududlarga kengaytirdi. Bu esa Rimga yangi shon-shuhrat va cheksiz boyliklar olib keldi. III asrda Rimda ichki nizolar yanada kuchaydi. 235-yildan boshlangan yarim asrlik davr

tarixiga "soldat-imperatorlar" hukmronligi davri sifatida kirgan. Yangi eraning ilk ikki asrida 22 ta imperator hukm surgan bo'lsa, uchinchi asrning o'zida ularning soni 50 taga yetgan. Bu davrda ichki va tashqi vaziyat og'ir edi: varvar qabilalarining hujumi kuchayib borar, ko'plab hududlar o'z mustaqilligini e'lon qilardi. III asrning 70-yillarida Avrelian nisbatan muvozanat o'rnatishga muvaffaq bo'ladi. Ammo bu uzoqqa cho'zilmadi. Davlat tuzumining yemirilishi, ichki nizolar, german qabilalarining hujumlari va Sosoniylar bilan uzoq davom etgan muvaffaqiyatsiz urushlar Rimning iqtisodiy va ijtimoiy inqirozini kuchaytirdi. III asr oxiri-IV asr boshlaridagi Diokletianing ma'muriy harbiy va iqtisodiy islohotlari Rim imperiyasining hayotini yana 100 yilga uzaytirdi. Bu davrda imperator hokimiyati absolyut monarxiya xarakteriga ega bo'ldi, endilikda imperatorni "prinseps" emas, "dominus" hukmdori deb atashardi. Diokletian xristianlarning so'nggi jiddiy raqibi bo'ldi. Ma'muriy jihatdan imperiya sharqiy va g'arbiy qismlarga bo'lingan edi. Poytaxtni o'zi barpo etgan Konstantinapolga ko'chirgan imperator Kostantin Mediolan edikti bilan 313-yilda xristian dinini boshqa dinlar bilan teng huquqligini e'lon qilishi, bu dinni rasmiy davlat diniga aylantirishda birinchi qadam bo'ldi. Xristian dini asta-sekinlik bilan hukmron dinga aylandi.

### **Rimni buyuklik va barbod bo'lish yo'li**

Milodning 410-yilida Alarix boshchiligida Vestgotlar tomonidan Rimni talon-taroj qilganlaridan boshlab, Rim va uning forumi doimo barbod qilindi. Italiyani zabt etgan Ostgotlarning qiroli Teodoriy qadimgi poytaxtni saqlashga qaror qildi va ushbu qirolning hukmdorligi paytida 489-yildan 526-yilgacha shahar yaxshi holatda saqlandi. Biroq asrning o'rtasida shahar uchun jang qilgan Vizantiyalik va Ostgotlarning qo'shinlari Rimni xarobaga aylantirdilar. Qudratli davlat bo'lgan, ammo hozirda kuchsizlangan Rim barbod bo'la boshladi, biroq 800-yilda ham zabt etilgan shahar shunday katta ahamiyatga ega ediki, bu shaharda Franklarning qiroli Karl buyukning toj kiyish marosimi bo'ldi. Karl buyukning davrida Rimga ziyoratga kelgan sayyohlar "Tarkidunyo qilganning

yo'lnomasi" nomi ostida ma'lum bo'lgan qadimgi Manuskriptida tasvirlangan ko'plab yodgorliklarni ko'rishlari mumkin edi.

Bu hujjat Shvetsariyalik rohib tomonidan IV asrda yaratilgan shahar xaritasi asosida yozilgan. Ammo IX asrning boshida bo'lgan yer zilzilalari ko'plab haykallarni buzdi, xarobalar esa qoldiqlar ostida qolib ketdi va o'tmishda buyuk bo'lgan yodgorliklarning yozuvi ko'rinmay qoldi. Keyingi yillarda saroy, cherkov va boshqa binolarni barpo etganlar, Rimning qadimiy buyukligi xazinasini tashkil qilgan barcha narsani, ya'ni ustun, haykal, temir darvozalar, tillasuv yuritilgan va bronza cherepitsalarni ishlatdilar. Minglab arxitektura unsur va haykallari ohak olish uchun yoqib yuborilgan. Yevropadagi Napoleon yurishlari bu Rimni fransuzlar tomonidan yana talon-taroj qilinishidir. Fransuzlarning o'zlari shaharning arxeologik tadqiqotlariga asos soldilar. Imperator davri yodgorliklarini izlashga barcha kuchlarni tashladilar, forum tozalandi. 1898-yilda italiyalik arxeolog Jakoma Bonik jiddiy qazishmalarni boshladi: qadimgi forumni qoplab olgan qatlamlar birin-ketin olib tashlandi, birinchi qatlamgacha yetib borishdi, bu mil. avv. VI asrda to'kilgan shag'al edi. Olim sirli qoldiqlarni topdi va bularda ko'plab Rim mualliflari tomonidan tasvirlangan qora toshni tanidi. Qora tosh bu arxaik lotin tilida matni yozilgan tosh stelladir, u qora marmar bilan qoplangan. Mil. avv. VI asrda qilingan yozuvning birinchi satrlari shunday so'zlardan iborat: "Kimda-kim shu joyni harom qilsa, yer osti dunyoning ruhlariga topshirilsin, kimda-kim uni iflos qilsa, qonunga ko'ra, qirol uni mulkidan mahrum etadi". Zamonaviy olimlarning fikricha, paydo bo'lishining ilk paytidanoq forum ilohiy va tegilmaydigan joy bo'lib, Rimning muqaddas markazi bo'lgan, ammo varvarlar va qaroqchilar avlodida qilinmaganini rimliklar o'zlari qilmoqchi edilar. XX asrning 20-yillarida diktator Benito Mussolini o'z rejimini imperatorlar davridagi Rimning davomi deb e'lon qildi va Avgust, Sezar va Trayanning forumlarini qazishga buyurdi. Biroq bu harakatlarning barchasi imperatorlar forumi deb nomlangan yangi ko'chaning qurilishi bilan tugadi. Avtomobillarning ommasi abadiy shaharning ko'chalarida transportning baland shovqiniga sabab bo'ldi, vebratsiya va gazlar tufayli hech narsa bilan himoyalangan yodgorliklar yorila boshladi. 1978-yilda imperator faylasuf Mark

Avreliy sharafiga qo'yilgan katta ustunning qoldiqlari ag'darilib tushdi. 1981-yildan boshlab, Rimning qadimgi ko'chalarida transportning yurishi ta'qiqlandi. Asta-sekin tadqiqotchilar qadimgi abadiy shaharni binolarini haqiqiy qiyofasini tiklashga muvaffaq bo'ldilar. Mil. avv. 8-yilda tomi somondan bo'lgan bir nechta uylardan iborat bo'lgan Palatan tepaligida joylashgan italyancha qishloq Rim deb atalar edi. 500 yil ichida bu qishloq Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika va Yevropaning katta qismini o'ziga bo'ysundirgan davlatning poytaxtiga aylandi. Rim o'z nomini o'zining afsonaviy asoschisi Romul sharafiga olgan bo'lib, o'z qo'shnilari yunon va etrusklarning an'analarini meros qilib oldi. Shu bilan birga u shahar xarakteriga ega bo'lgan va nafis bo'lgan o'z madaniyatini vujudga keltirdi. Rimning ta'siri eng uzoqdagi imperiya va hukumatlarni qamrab oldi: barcha joyda beton va marmardan shaharlar barpo etildi va buyuk poytaxt ko'plab oynalarda aks etilgandek bo'ldi.

Rimni buyuklikka bo'lgan yo'li qanday ekan? Tadqiqotchilar Rim rivojida biz yuqorida ko'rib o'tgan davrlarni aniqlashdi.

Uning yakuni 410-yilda Rim Alarix boshchiligida gotlar tomonidan talon-taroj qilindi. Vandallar Galliya va Ispaniyani qo'lga oldilar, Shimoliy Afrikada o'z qirolliklariga asos soldilar, 455-yilda esa Rimni tamoman talon-taroj qildilar. Xunlar Attila boshchiligida Italiya va Galliyaga tahlika soldilar, keyin esa Dunayga qaytdilar. Oxirgi g'arbiy imperator Romul Avgustin 476-yilda mag'lubiyatga uchradi va Italiyaga Ostgotlarning qiroli Teodorix egalik qila boshladi, Sharqiy imperiya 1453-yilga qadar mavjud bo'ldi.

### **Jahon fuqarosi bo'lgan Adrianning abadiy orzusi**

Rimdan Sharqda joylashgan Tibur (hozirda Tivoli)dagi Adrianning saroyidan faqatgina xarobalar qolgan, biroq, bugungi kunda ham bu saroyning kattaligi, boyligi, imperatorning me'morchilik va san'at sohasidagi bilimlarining kengligidan lol qolish mumkin. Bir tarixchining gapiga ko'ra, Adrianning harakatlarining hosili bu 3 qirrali orzu bo'ldi – ajoyib bog'lar, fontan va sun'iy hovuzlar orasida barpo etilgan uylar, ehrom, teatr, pavilyon va boshqa inshootlar. Adrian Yunoniston, Shimoliy Afrika, Yaqin Sharqda ko'p vaqt o'tkazib, ko'rganlaridan katta taassurot olgan va

yunon san'ati va falsafasining ta'siri ostida bo'lgan. Masalan, kanal kabi barpo etilgan suv havzalari yonida Afinadagi Erextion ehromidan ko'chirilgan mashhur Kariatidalarining nusxalari bor edi, bu Adrianga sevikli Yunonistonini eslatar edi. Ammo Adrian o'zga madaniyatga ko'r-ko'rona taqlid qilishni istamadi va aslida barcha bino, suv havza va bog'lar aqlli va ma'lumotga ega bo'lgan insonning nafis va sermahsul yunon-rim madaniyatining tasavvurlarini o'z ichiga qamrab olgan. Bugungi kunda mehmonlar uchun xona, ba'zi bir suv havzalarining fragmentlari tiklangan, ularning barchasi haykallar bilan bezatilgan, jumladan, yunon xudolari bo'lgan Germes va Afina xudolari. Adrian dunyodagi buyuk sayohatchilaridan biri bo'lgan, o'sha vaqtda Rim imperiyasi tarkibiga kirgan 40 ta provinsiyasidan 38 tasini ziyorat qilgan, bundan tashqari Kichik Osiyo, Suriya, Misr, Shimoliy Afrika va Britaniyadagi qo'l ostida bo'lgan mahalliy podshohlar bilan uchrashgan. U me'mor, muhandis, hunarmand, olim va amaldorlarni ishga jalb etib, yaxshi ezgu ishlari orqali aholi bilan hamkorlik qilish va yaxshi munosabatda bo'lishga undagan, bu ustalar bandargohlar barpo etganlar, teatr, kutubxona, stadion, yangi bozor va yashash kvartallari, ehrom, kanal va tanga zarb etadigan joylarni qurgan. Uning xohish va intilishlari haqida tangalardagi yozuvlar dalolat beradi: masalan, "jahonga boyliklarni yetkazuvchi", "tiklovchi", "tartib". Kichik Osiyodan Misr va hozirgi Marokash hududiga qadar joylashgan shaharlar bir paytlari asosiy nom Rim nomi bilan atalgan. Ulardan ba'zilar 100 yillar ichida yer yuzidan yo'q bo'lib ketgan yoki ularning o'rnida barpo etilgan yangi shaharlar tagida qolib ketgan. Zamonaviy shahar bilan yonma-yon uning jufti, uning ruhi, go'zallik va buyuklik obrazlariga to'la qadimgi shahar mavjud. Abadiy shahar bo'lgan Rimning g'aznasiga zabt etilgan provinsiyalardan soliqlar, dala va bog'larning hosillari, hunarmandlarning mahsulotlari, oltin va kumush keltirilar edi. Adrian sayohat qilishni sevgan bu imperiya qanday paydo bo'ldi?

Mil.avv. I asrda Vergiliy Rimning afsonaviy manbalarini kuylagan "Eneida" poemasida "Rimlik! Sen xalqlarni boshqarishga o'rgan", deb vasiyat qilgan. Hammasi Troya barbod bo'lishidan boshlandi, o'z otasi va o'g'lini qutqargan ezgu-niyatli qahramon Eney olov qamrab olgan shaharni tashlab ketib, yangi shaharga asos solish uchun dengizda kemada ketadi. "Sening san'ating shundan iboratdir

- tinchlik shartlarini qo'yib, bo'ysunganlarga ezgu bo'lib, bo'ysunmaganlarni urush qilib g'olib bo'lish". Agarda Rimning taqdiri aynan shundan iborat bo'lgan bo'lsa, bu yo'l juda ham uzun edi. Mil. avv. 500-yilda Rim hududi atigi 906 kv.m.ni tashkil qilgan. Mil. avv. 260-yilga kelib, Italiya qabilalari va yunonlar bilan urushdan so'ng rimliklar o'z yerlarini 26 ming kv.mgacha kengaytirdilar. II asrdan so'ng rimliklar butun yarimorolni bo'ysundirdilar, ammo Rimga butun Italiya ham kichik ko'rindi. Rimliklar Finikiya davlatining merosxo'rlari bo'lgan karfagenliklarga qarshi chiqdilar, Sitsiliyani egalladilar, keyin esa Korsika va Sardiniyani, kechroq, Ispaniyani zabt etdilar va nihoyat, mil. avv. 146-yilda Afrikaning Shimoliy qirg'og'idagi Karfagenning asl yerlarini egalladilar. Qul va askar, soliq va bojlarining navbatdagi oqimi Rim ishtahasini qo'zg'adi, navbat Iskandar Zulqarnayn davlati barbod bo'lgan payt mil.avv. 146 va 39-yillarda paydo bo'lgan 3 ta katta podshohlik Makedoniya, Suriya va Misrga keldi. Rim ularning barchasini bo'ysuntirdi, Kichik Osiyodagi podshohliklar va Livan, Kipr, Krit orollari ham Rim qo'lostiga o'tdi. G'arb va Shimolda Galliya, Germaniya va Britaniyada yashovchi qabilalar ham zabt etildi. Adrian davrida Rim imperiyasi 5 mln. kv. m.ni tashkil qilardi. Rim yutib yuborgan dunyo murakkab va xilma-xil edi. G'arbiy va Shimoliy chegaralarda savodni bilmagan qabilalar yashar, sobiq Karfagen yerlarida o'z madaniyatiga ega Puni va Berberlar, Sharqdagi bir paytlari Iskandar zabt etgan yunonlashgan mamlakatlarda esa yuqori rivojlangan sivilizatsiyalar mavjud edi. Bu xilma-xillikni Rim hisobga oldi: jangovor qabilalar yashaydigan G'arbda rimliklar qat'iy nazoratni o'rnatdi, kuch kerak bo'lmagan joylarda esa, yumshoq rejim o'rnatildi. O'rta Yer dengizi hududlari zabt etilgandan so'ng Rim legionlari deyarli ko'rinmas edilar. Adrianning Rimi ko'p jihatdan provinsiyalarga bog'liq edi, provinsiyalar Rimning bekorchi aholisiga zaytun yog'i, meva va sharob, marmar, qimmatbaho metall, granit, yog'och, mo'yna va ko'plab boshqa mahsulotlarni yetkazib berar edi. Milodiy 130-yildayoq imperator Adrian Misr bo'yicha sayohat uyushtirib, go'zalligi va boyligi hattoki Rimdan yuqori bo'lgan Iskandariya hamda Misrning qadimgi poytaxti bo'lgan Vifani ziyorat qildi. Adrian ko'plab mo'jizalar ko'rdi, ammo uni tasavvurini 2 ta ulkan granitdan yasalgan haykallar lol qoldirdi, ular Adrian

davrida 1,5 ming yillik tarixga ega bo'lib, Melenon koloslari deb nomlanar edi (aslida bu haykallar Amenxotep II fir'avn davrida barpo etilgan). Misr rimliklarga nafaqat don yetkazib berar edi, u ajoyib jozibaga ega edi: rimliklar o'z panteonini o'zga xudolar bilan to'ldirar edilar, jumladan, Misrning Serapis va Isida ilohlariga ham sig'inar edilar. Provinsiyalar ham rimlik xudolar bo'lgan Yupiter va Vakx yoki Baxus, Venera va Yupiter bilan yaqinlashar edilar, ularga atab chiroyli, ulkan bino barpo etar edilar. Agarda Britaniyaning chegaralariga ulkan balandlikdan qarasak, u bo'ynini ulkan tosh ilon o'rab olgan g'alati hayvonga o'xshaydi. Bu ilon Adrianning mashhur devori, imperator uni milodiy 122-yilda barpo etishga buyurdi, uning uzunligi 117,5 km.ni tashkil qiladi, u Tain irmog'idan boshlanib, Irlandiya dengizigacha cho'zilgan. Bir paytlar u qal'a qo'riqchilik minoralari va darvozalarini birlashtirgan hamda Rim davlatining Shimoliy chegarasi bo'lgan. Bu devor orolning shimolida yashaydigan bo'ysunmagan kelt va piktlardan davlatni himoyalagan. Bunday ulkan inshoot Adrian siyosatining ifodasi edi: u imperiyasining chegaralarini aniq belgilashini istagan. Devorning balandligi 4,5 mni tashkil qilgan, uning eni 1,8 m.dan 3 m.gacha bo'lgan shimoliy tarafda uning asosida kengligi 8 va chuqurligi 3 metr bo'lgan chuqurlik qazilgan. Chuqurlikning tubidan boshlab, 9,5 metr devordan iborat to'siqdan o'tishning imkoniyati yo'q edi. Har 500 metrda devorda kuzatish minorasi bo'lgan, har 1,5 km.da esa shtab, boshliq uyi, shifoxona, tomi shiferdan bo'lgan kazarma, ombor, ustaxona va otxona, hammom va vodoprovodli qal'alar barpo etilgan. Rim imperiyasini vujudga keltirgan instrument bu dastlabki biron-bir qo'shinga o'xshamagan qo'shinlar edi. Qo'shin to'liqligicha professionallardan iborat edi, ular muntazam oylik maosh olib, ham buzishga, ham qurishga o'rgatilgan edilar. Har bir legion yo'lga qo'yilgan harbiy mexanizm edi, u og'ir va yengil qurollangan piyoda va otliqlardan iborat bo'lgan. Qo'shinlar quyidagi qurol bilan jihozlangan edi: artilleriya – katta toshlarni 730 metrga otgan va Katapulta – prujina kuchiga asoslangan 2 ta richagli ulkan o'zi otuvchi moslamalar, ular temir nayzalardan yomg'irni 275 metr uzunlikka otar edilar. Legion katta tezlik bilan harakatlanib, dushman qal'asiga yetib kelib, uni tezda barbod qilar edi, biroq xuddi shu legion o'rmondagi daraxtlarni yiqitib,

botqoqlarni quritib, kanallarni qaziy olar edi, ajoyib yo'l, ko'prik, qal'a, vodoprovod, suv omborlari, port va shaharlarni qurar edi.

Masalan, dastlab tor yo'laklar bo'lgan Britaniya vodiylarida yangi tosh va tekis yo'llar barpo etilgan edi. Bu yo'llarning barchasi Londiniyada boshlanar edi, bu qashshoq qishloq orolning ma'muriy poytaxtiga asta-sekin aylangan. Shimolga yo'naltirilgan yo'llar 500 dan ziyod km.ga cho'zilgan edi. Britaniyada esa o'sha davrdagi yo'llardan hozirda ham foydalanadilar, 2 ming yil o'tgandan so'ng ham Londondan Shotlandiyaga bo'lgan yo'l o'sha qadimgi qo'l asosida barpo etilgan. Rim qo'shinlari o'zlarining yuqori darajadagi qurilish mahorati bilan mahalliy aholining fuqaro hayotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan. Deyarli har bir qal'a yonida deyarli bir kun ichida kichkina qishloq barpo etilgan. Qayerdagi qal'a uzoq davr asrlar mobaynida buzilmay tursa, shu yerdagi qishloq shaharga aylanar edi. Odatda, legionerlar oila qurib, farzandlarini hunarga o'rgatar edilar.

Mil. avv. II asrning oxirida Galliya va Rim yerlarida rimliklar butun bir fuqaro koloniyalarini barpo etishni boshladilar, bu yerda ular veteran legionerlar va fuqaro shaxslarning guruhlarini yashash uchun ko'chirib keldilar. Rimliklar qurilish ishlarining sifatini qat'iy nazorat etganlar: legionlar ustun, minora, qal'a va devorlarda yuzlab yozuvlar qoldirgan. Ishni qabul qilgan amaldor aynan qaysi harbiy qism bu ishni bajarganini bilar, rimliklar yordamchi qo'shinlarga mahalliy aholini keng jalb etar edilar. Bunda ular yordamchi qo'shinlarning milliy yaxlitligi prinsipini saqlab qolganlar, bu mazkur qo'shimcha guruhlar o'z harbiy qo'nikmalarini yaxshiroq qo'llash maqsadida amalga oshirildi. Masalan, hozirgi Yunonistonning yerlarida istiqomat qilgan Sarmat qabilasi hamda Bolqon yarim orolidagi frakiyaliklar mohir chavandoz va nayza otuvchi, suriyaliklar esa mohir kamonchi bo'lgan. Erkaklar 25 yil xizmat qilganlar, xizmat tugaganidan so'ng ularga Rim fuqaroligi berilib, kichik yer maydoni va nafaqa belgilangan. Fuqarolik ko'plab imtiyozlar berar edi. Veteran bo'lgan qo'shimcha harbiy guruhda askarlik qilgan soliqlardan ozod etilib, uylanish huquqiga ega bo'lar edi, bunda bolalariga meros sifatida fuqaroligi va barcha imtiyozlarini bergan. Askarlar iste'foga chiqishda harbiy diplomga ega bo'lar edi, bu diplom matni o'yib tushirilgan 2 ta bronza yassi

taxtacha edi. Rim qo'shinlari tomonidan zabt etilgan davlatlar Rimning tinch provinsiyalariga aylangan.

Asrlar o'tgandan so'ng Uinston Cherchilning ta'kidlashicha, Britaniya Rim qo'l ostida bo'lganining deyarli barcha davrida "ko'p jihatdan eng baxtli, eng sokin va ma'rifatparvar davrda bo'lgan". Rim hukumati tomonidan birlashtirilgan va uzunligi 4 ming km.ni tashkil qilgan Rim yo'llari tarmoqlari bilan birlashgan Britaniya ilk bor doimiy qabilalararo urushlardan ozod bo'ldi. Hunarmandchilik va savdo rivojlanib, gullab-yashnadi, hayot darajasi yuqori bo'ldi. Shaharlarda kanalizatsiya, suv bilan ta'minlash tizimi, jamoa hammomlari, go'zal me'morchilik binolari, o'yin va fuqaro tantanalari uchun amfiteatrlar, keng bozor va savdo do'konlari barpo etildi. Rimliklar, odatda, shahar kengashiga boy aholi vakillarini tayinlaganlar va ular Rim fuqaroligini olganlar. Mahalliy zodagonlarning bu yangi qatlami hayotning qulay va nafis Rim tarziga o'rgandi. Qabila boshliqlarining ajdodlari ajoyib saroylarda yashay boshladilar, uylarda mozaika pollari, devorda rasmlar, isitiladigan hammomlar bor edi. Bular o'z navbatida, lotin tilida gapirib, kiyinishning Rim uslubini qabul qilib, past tabaqalarga namuna bo'ldilar. Rimliklar diskriminatsiya qilmas edilar, zabt etilgan xalqlar Rim davlat tizimiga kiritilar, ular uchun hech qanday huquqiy cheklovlar yo'q edi, fuqarolikni olgandan so'ng ular ijtimoiy zinapoya bo'yicha to'siqsiz ko'tarilar edilar. Ispaniyaliklar, afrikaliklar, armanlar, gallar, konsul provinsiyaning boshlig'i bo'la olar edilar. Milodiy 235 va 268-yillar o'rtasida 29 ta imperator almashdi, bunda ulardan atigi 2 tasi o'z o'limi bilan vafot etdi. Imperatorlar urush uchun to'lash maqsadida pulni doimo arzonlashtirdilar, natijada inflyatsiya imperiyani inqirozga olib keldi. Varvarlar Reyn va Dunaydagi himoyalangan chegaralar orasidan kela boshladilar.

### **Toshdagi meros**

Legionlar qadam bosgan barcha imperiya yo'llarida Rim me'morchiligining toshdan yasalgan asarlari qolgan. Adrian davrida askarlar faqatgina barpo etganlar. Butun Yevropa sivilizatsiyasi vujudga kelishi Rim quruvchilariga bog'liqdir, bu quruvchilar

Rimning o'zida va uning chegaralari ortida ko'plab yangiliklar barpo etganlar. Rimliklar betonni kashf etib, bosh me'morchilik unsuri sifatida arkani qo'llaganlar. Bu ikki yangilikni armiya butun imperiya bo'yicha tarqatdi, muhandislar har qanday daryo va jarliklardan ustun chiqib, ko'priklar va qudratli vodoprovodlarni (suv o'tkazgichlarni) barpo etganlar. Masalan, Ispaniyaning Sevogeshda shahridagi ko'prik hozirgi kungacha qo'llaniladi, u rimliklar tomonidan barpo etilgan bo'lib, balandligi 27,5 metr, uzunligi 823 metrni tashkil qiladi. Haddan ziyod baland ustunlar granitdan yasalgan bo'lib, hech narsa bilan mustahkamlanmagan, 128 ta nafis arkalardan iborat, bu muhandislik san'atining mo'jizasi milodiy 100-yilga yaqin paytda qurilgan. Ko'prikdan rimliklar qurgan suv o'tkazgich o'tadi, qo'rquv go'zallikni vujudga keltirdi va Rim ajoyib tarzda o'zgardi. Uning barcha 7 qirradi "zabt etib bo'lmaydigan devorning qobig'i bilan yaraqladi".



### Kolizey

Rim yo'llarini barpo etish tuproq ishlaridan boshlanar edi, ochiq joyda yo'llar tekis chiziq bo'yicha barpo etilsa, balandlik joylarda aylantirilib barpo etilar edi. Tog'larda tunnellar qazilib, botqoqliklarda maxsus qurilmalar asosida yo'l qurilgan. Rim

ko'priklari asrlar ortida ham mavjud, ular hozir ham mustahkam turibdi. Shunday qilib G'arbiy sivilizatsiya asosida turgan Rim madaniyati insoniyatni nafaqat huquqiy qonunlar bilan, balki muhandislik namunalari bilan boyitdi. Huquqiy qonunlar Rim huquqi deb nomlangan bo'lib, jamiyatda inson huquqlarini himoyalash g'oyasini o'z ichiga olib, dunyoga insonni o'z hayotini chiroyli, nafis loyiq qilish imkoniyatini berdi.

### **Rim sivilizatsiyasining asosiy yutuqlari**

Rim ma'naviy madaniyatida diniy qarashlar ham katta o'rin egallaydi. Ilk Rim diniga politeizm xosdir. Qadimiy rimliklar tasavvuri bo'yicha har bir narsa va hodisa o'zining ruhiga, xudosisiga ega bo'lgan. Qadimiy Rim dinida xudo qiyofasiz bo'lgan, shu sababli qadimgi Rimda uzoq vaqtlar xudolarning tasviri bo'lmagan. Ular keyinchalik etrusk va yunon dinlari ta'siri ostida paydo bo'lgan. Oilaviy va urug' e'tiqodlari sezilarli o'rinni egallagan. Qadimgi Rimda falsafa va huquq ham rivojlangan. Ilk Rim respublikasi davrida, urug'chilik qoldiqlarini o'zida saqlab qolgan, yopiq agrar jamoa uchun xarakterli bo'lgan o'ziga xos mafkura shakllangan. Ilk Rim respublikasi mafkurasi konservatizm, an'analarga sodiqlik, har qanday yangiliklarga dushmanlik bilan qarash kabi hususiyatlarga xos bo'lgan. Rim jamiyati taraqqiyotining o'ziga xos mahsulotlardan biri – bu huquq bo'lib, uni batafsil ishlab chiqish miloddan oldingi V-IV asrlarda boshlangan. Bu huquqning dastlabki elementlari podsholik davrida paydo bo'lgan bo'lsa-da, ammo asosiy tushunchalar ilk respublika davrida formulirovka qilingan edi. Boshlang'ich nuqta vazifasini, tarixchi olimlar fikricha, "XII jadval qonuni" o'tagan, bunga komissiyalar tomonidan qabul qilingan qonunlar qo'shib boravergan. Mil. avv. VII asrdan to milodning V asriga qadar bo'lgan o'n ikki asr mobaynida italiyaliklar san'ati va badiiy madaniyati o'zining gullagan davrini boshdan kechiradi. Italiyaliklar qadimgi Yunoniston san'ati va madaniyatiga zo'r hurmat bilan qaradilar. Uni ijodiy o'zlashtirdilar, nazariyasini yangi ilmiy bilimlar bilan boyitdilar.

Rimliklar yunonlar singari fizika, matematika, dengizda suzish, astronomiya, gidrotexnika va agronomiya fanlariga juda qiziqqanlar. Faqat rimliklar bu sohalarda nazariy tadqiqot ishlariga emas, ularning ilmiy yutuqlarini amalga tatbiq qilish bilan ko'proq qiziqqanlar. Ular savdo arifmetikasi, me'morchilik, gidrotexnika va agronomiyadan dastlabki qo'llanmalar yaratganlar. Rim ilmiy tafakkurining amaliy harakteri Katton Katta va Varron asarlarida ayniqsa, yorqin aks etgan. Rim davlatining qudratini mafkuraviy jihatdan mustahkamlash ehtiyoji yilnomachilarning dastlabki tarixiy-adabiy asarlarni yaratishga sabab bo'lgan. Rim me'morchiligining ahvoli ijtimoiy munosabatlarning murakkablashishi va urbanistik jarayonlarning rivojlanishi bilan shahar aholisi talablarning o'sishiga bog'liq edi.

Rim me'morchiligi yunon va etrusk ta'siri ostida rivojlangan. Rim me'morchiligida I asrning oxiri va II asr boshlarida eng katta me'morchilik komplekslari yaratildi, ko'p qavatli binolar vujudga keldi va shahar qiyofasini belgilaydi. Yuliyar, Flaviylar, Severlar kabi imperator sulolalari davrida qurilgan g'oyatda katta saroylar, zafar ustunlari shu davr ideologiyasini badiiy ifodalovchi yodgorlik sifatida xarakterlidir. Shunday me'morchilik kompozitsiyalaridan biri 81-yilda qurilgan Tit memorial zafar arkidir. Qadimgi Rimning eng katta binolaridan biri Kolizey amfeatrdir. Gladiatrlar jangiga mo'ljallangan bu binoga bir vaqtning o'zida 55 ming tomoshabin kira olgan. Rim me'morchiligining yana muhim yodgorligi "hamma xudolarning qasri" - Panteon hisoblanadi. Me'mor Apollodor Damashqiy tomonidan 118-125-yillarda qurilgan bu bino antik dunyoning eng katta gumbazli binosidir. Rim me'morchiligida paydo bo'lgan yangi tiplardan biri termalar - (suv saroylari)dir. Iliq va sovuq suv hovuzlar, gimnastika zallari, oromgohlar, kutubxona bo'lgan 2-3 kishiga mo'ljallangan bunday suv saroylari bezagiga alohida e'tibor berilgan. Imperator Karakalla davridagi terma (211-216-yillarda qurilgan), ayniqsa, katta va hashamatli bo'lgan (11 gektar). Uzoq davom etgan qonli fuqarolar urushi, o'zaro nizolardan so'ng yuzaga kelgan tinchlik va barqaror holat madaniy taraqqiyot uchun qulay sharoit yaratadi. Shu tufayli

mil. avv. I asrning so'nggi o'n yilliklari – Rim madaniyati va san'atining gullab yashnash davri bo'ldi.

Bu davrdagi adabiyot buyuk namoyondalar – Vergiliy, Goratsiy va Ovidiyning nomlari bilan bog'liq. Tarix sohasida bu davrda Tit Liviy, me'morchilikda mashhur nazariyachi Vitruviy faoliyat yuritgan. Shuni qayd etib o'tish kerakki, Avgust davrida Rim adabiyoti uchun eng yuksak ijodiy yutuqlar davri bo'lgan bo'lsa, tasviriy san'at sohasidagi buyuk yodgorliklar keyinroq, I asrning ikkinchi yarmi-II asrning birinchi yarmida yaratilgan. Imperiyaning birinchi asrlari ma'naviy hayotining yana bir o'ziga xos jihatlaridan biri falsafaga ommaviy qiziqish edi. Bu davrda yangi falsafiy tizimlar paydo bo'lmadi: o'sha davrdagi ko'zga ko'ringan faylasuflar – Seneka, Yepiktet, Plutarxlar edi. Biroq sayoq faylasuflarning ta'sirida falsafaga qiziqish tobora ommalashdi. Bu davrda falsafiy qiziqishlar metafizika va boshqa falsafiy sohalardan etikaga ko'chgan edi. Shunday qilib, Rim sivilizatsiyasi dunyoga davlatchilik prinsiplari, imperiya g'oyasi, huquqlar tizimi, fuqarolik qadriyatlar tizimini, butun o'rta asrlar davomida ma'rifatli Yevropa qo'llagan lotin tilini, me'morchilik uslublarini berdi. Qadimgi Rim sivilizatsiyasi jahon sivilizatsiya taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatdi.

### **Muhokama uchun savollar**

1. Qadimgi rimliklar Yevropa sivilizatsiyasiga nima olib keldilar?
2. Nima sababdan Adrianni jahon imperiyasini yaratish haqidagi g'oyasi faqatgina orzu bo'lib qoldi?
3. G'arb sivilizatsiyasining rivojida Rimning roli qanday?

### **Talabalarning mustaqil ishlashi uchun tavsiyalar**

1. "Qadimgi Yunoniston va Rim" jadvalini tuzing (sana, mintaqaning geografik xususiyatlari, din, ijtimoiy tuzilish, siyosiy tizim, falsafiy ta'limotlar, qo'shin, huquqiy meyorlar).
2. Zamonaviy dunyoda antik merosni qabul qilinishiga oid misollar keltiring.

3. Filmlardan biriga sharh yozing (tanlov bo'yicha).
1. 300 spartalik (AQSh, 1962)
  2. Avgust: birinchi imperator (AQSh, 2004)
  3. Aleksandr (AQSh, 2004)
  4. Attila (AQSh, 2001)
  5. Ben Gur (AQSh, 1959)
  6. Kleopatra (AQSh, 1963)
  7. Spartak (AQSh, 1960)
  8. Yuliy Sezar (AQSh, Germaniya, Italiya, 2002)

## **12-MAVZU. MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYASI**

### **Reja:**

1. Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi bo'yicha mulohaza va ilmiy farazlar.
2. Oks sivilizatsiyasi.
3. Markaziy Osiyo taraqqiyotiga Ahamoniylar va Yunon-Baqtriyaning ta'siri.
4. Kushon imperiyasida davrida sivilizatsion jarayonlar.

### **Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi bo'yicha mulohaza va ilmiy farazlar**

Markaziy Osiyo madaniyati ham jahon madaniyati tarixida muhim o'rin tutadi. Markaziy Osiyoning serhosil vodiysi, cho'l va dashti, tog'larida yashovchi aholining turmush sharoitidagi farqlar turli xo'jaliklarning ertaroq paydo bo'lishi o'ziga xos madaniyatlar shakllanishiga olib kelgan. Bu jarayon yaqin qo'shnichilik munosabatlari asosida sodir bo'lib, qabila va xalqlarning iqtisodiy va madaniy aloqalari tufayli taraqqiyotning ertaroq boshlanishiga imkon yaratgan. Eng qadimgi davrlardan dehqonchilik, chorvachilik va tog' ovchi qabilalari o'rtasidagi mahsulot ayirboshlash Markaziy Osiyo xalqlari iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega bo'lib, keyingi davrlarda ham u uzoq saqlanib qolgan. Turmush tarzi va xo'jalik faoliyatidagi farqlanish bilan birga mintaqa xalqlarining etnik va tillardagi yaqinlik judayam uyg'unlashib ketganligi qadimgi Yunon va Xitoy manbalarida ham qayd qilingan. Markaziy Osiyo xalqlarining kuchli iqtisodiy aloqalari, etnik va til birligi ularning bir-biridan ayricha yashashiga yo'l qo'ymagan. Natijada qadimgi Sharqning klassik (mumtoz) madaniyati orasida Markaziy Osiyo qadimgi madaniyati ajralib, o'ziga xos ko'rinishda shakllangan. Dastlab, bu madaniyatda ikki xil madaniyat aralashib ketadi: ko'chmanchilik va ibtidoiylik olami hamda sivilizatsiya olami. Markaziy Osiyoning o'troq dehqonchilik va ko'chmanchi xalqlarida ancha-muncha farqlar bo'lishiga qaramasdan ilgari yaqin munosabatlar o'rnatilgan.

Markaziy Osiyo madaniyatining o'ziga xosligining ikkinchi jihati - mintaqaning o'ta qulay jug'rofiy o'rnashganligi bilan bog'liq. Mintaqa Mesopotamiya, Hindiston va Xitoy kabi uchta buyuk Sharq sivilizatsiyasi bilan bevosita chegaradosh bo'lib, G'arb sivilizatsiyasiga xos beshinchi - Yunoniston va Rim bilan aloqada rivojlangan. Bunday aloqalarning muqarrarligi tufayli Markaziy Osiyo madaniyati Sharq va G'arb o'rtasida vositachilik missiyasini bajarishiga sabab bo'ldi, ya'ni iqtisodiy sohalarda, eng avvalo, xalqaro savdoda va madaniy sohalarda ham Markaziy Osiyo G'arb va Sharq o'rtasida bog'lovchi ko'prik vazifasini bajardi. Xususan, Markaziy Osiyo hududi orqali buddizm butun dunyoga yoyildi, Hindiston va Xitoyga ellinistik madaniyat ko'rinishlari o'tdi, Sharqdan G'arbg va G'arbdan Sharqqa madaniy boyliklar (bilim, diniy g'oya, kashfiyot, badiiy asarlarning) almashib turishida Markaziy Osiyo muhim vositachi bo'lib xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo madaniyatining buyuk vositachilik missiyasi boshqa madaniy qadriyatlarini yangilashi, o'zlashtirish mahorati va qayta ishlash kabi jihatlarisiz bo'lmas edi. Bu madaniyat qadimdan oq yangi hodisalarni o'zlashtirish va moslashtirish mahoratiga ega bo'ldi. Garchi, boshqa qadimgi Sharq madaniyatlaridagi kabi Markaziy Osiyo madaniyatida ham an'analar keng o'rin egallasa-da, ular aytarli xarakter kasb etmaydi, ya'niki, uzluksiz madaniy yangilanish va taraqqiyot jarayoniga to'siq bo'lmaydi. Shuningdek, an'analarning mustahkam hukmronligi tarixiy vaziyatga ham to'sinlik qilganligini ta'kidlash kerak. Mintaqa orqali katta bosqinchilik yurishlari, xalqlarning ko'chishlari yuz bergan bo'lib, bu Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi davomida bir necha bor madaniyatni sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Afsuski, ko'pgina urushlar Markaziy Osiyo madaniyatining qadimgi taraqqiyot davrlarining behisob dalillarini yo'q qildi. Arxeolog qazilma ma'lumotlar va yozma manbalar miloddan avvalgi I ming yillik boshlarida vujudga kelgan Markaziy Osiyoning ilk davlatlari Baqtriya, So'g'd va Xorazm madaniyati haqida bir oz ma'lumotlar beradi.

Miloddan avvalgi VIII-VI asrlarga oid Afrosiyob (Samarqand), Surxondaryo vohasidagi Qiziltepa, Qashqadaryo vohasidagi

Uzunqir, Xorazmdagi Ko'ziliqir kabi qadimgi shaharlarda o'tkazilgan tadqiqotlar murakkab ijtimoiy tuzilma va madaniyatning yuqori rivojlanganligini ko'rsatadi. Bu shaharlar mudofaa devorlari va suv ta'minotidan iborat kuchli istehkom tizimiga ega bo'ldi. Bu shaharlar mudofaa devorlari va suv ta'minotidan iborat kuchli istehkom tizimiga ega bo'lib, ichida hunarmandlar mavzei joylashgan. Ayrim shaharlarda saroy qoldiqlari qal'alar topilgan. Qadimgi davlatlar xo'jaligining asosiy sohasi hisoblangan dehqonchilik taraqqiyotining darajasi haqida ko'p tarmoqli sug'orish tizimining mavjudligi bunga dalildir. Markaziy Osiyo davlatlari Qadimgi Sharq mamlakatlari bilan yaqin aloqalar o'rnatgan. Midiya va Ossuriyaning siyosiy tarixida faol ishtirok etib, hunarmandchilik buyumlari va xom ashyo bilan (lojuvard, oltin, mis bilan) savdo-sotiq qilganlar. Bu haqda Ossuriya va Qadimgi Yunon yozma manbalarida gapiriladi. Xususan, Baqtriyaning yirik shaharlari, ko'p sonli aholisi haqida Baqtriya shohi Oksiartning afsonaviy boyligi haqida Ktesiy Knidskiy (mil. avv. V-IV asrlar) yozib qoldirgan. Ko'chmanchi massagetlarning udumi va turmush tarzi haqida mashhur qadimgi Yunon tarixchisi Gerodot (mil. avv. V asr) yozib qoldirgan. U massagetlarning harbiy qurollari (kamon-yoyi, nayzasi, oyboltasi)da oltindan bezak sifatida, misdan qurol va sovut uchun keng foydalanishini ta'kidlaydi. Gerodotning yozishicha, massagetlar yagona ma'bud quyoshga topinib, otni qurbonlik qilganlar.

Mil. avv. IV-III ming yilliklarda ming yillar davomida Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo hududida qadimdan dehqonchilik qiluvchi xo'jaliklar paydo bo'lgan. Aholi soni ortib boradi. Demografik portlash jarayoni yuz beradi. Ayniqsa, Yaqin Sharqda, O'rta Osiyoning ba'zi joylarida suv manbalari kam bo'lgan. Ibtidoiy dehqon hamda chorvador yangi joy qidira boshlagan. Shunday qilib, neolit davridayoq, butun dunyoga ishlab chiqarish iqtisodiyoti tarqay boshlagan. Ibtidoiy xo'jalikda dehqonchilik bilan bir qatorda kulolchilik, sangtaroshlik, duradgorlik, imoratsozlik kabi turli mashg'ulot turlari ham vujudga kela boshlagan. Bu esa mahsulot ayirboshlashga olib kelgan. Shu tarzda jamoatchilik sivilizatsiyasi bosqichiga tayyor bo'lgan.

Sivilizatsiya deganda yana bunda nimani tushunish mumkin, aholi sig'may ketib, katta-katta o'troq qishloqlarda minglab odam yashaganligi ortidan ijtimoiy muammolar paydo bo'la boshlagan, qarama-qarshiliklar, suv taqsimoti, yer taqsimoti, himoyalash tizimi shakllangan. Bu tizimlarni boshqarish uchun liderlar, ya'ni yetakchilar: bashoratchilar, botirlar, oqsoqollar kerak bo'lgan. Shu bilan boshqaruv shakllana boshlagan. Yirik maskanlarni devor bilan o'rash bilan shaharlar paydo bo'lgan. Ushbu shaharlarda ehromlar, xazina, harbiy arsenal, hisob kitobni talab qiluvchi yozuv paydo bo'lgan.

O'rta Osiyoda ibtidoiy davrda kichkina sivilizatsiya o'choqlari janubiy Turkmanistonda, Zarafshon vohasida neolit davridan boshlangan Joytun madaniyati yoki Kaltaminor madaniyatidagi aholi chorvachilik bilan shug'ullana boshlagan. VII ming yillikning o'zidayoq, Zarafshonning etagidagi hududlarda xonaki qo'y, echki, tuyalar xonakilashtirilgan.

**Oks sivilizatsiyasi.** Qadimgi dunyoda butun jahon tamonidan tan olingan to'rtta sivilizatsiya mavjud: Qadimgi Mesopotamiya, Misr, Hindiston va Xitoy sivilizatsiyalari. Qadimgi beshinchi sivilizatsiya sifatida Oks sivilizatsiyasini aytishimiz mumkin. Oks sivilizatsiyasi O'rta Osiyodagi eng qadimiy sivilizatsiyalardan biri hisoblanadi.

XX asrda Frankfort tomonidan o'rganilib, bu atama fanga kirib keldi. Uning tarqalgan hududi hozirgi Turkmaniston, O'zbekiston, janubiy-sharqiy Tojikiston, shimoliy Afg'onistonni tashkil etadi. Ushbu sivilizatsiya juda keng hududni, ya'ni Amudaryoning yuqori va o'rta oqimlarini egallaydi. Shu sababli ham Oks sivilizatsiyasi deb ataladi. Biroq Turkmaniston hududida tadqiqot ishlarini olib borgan V.Sarianidi Oks sivilizatsiyasini boshqa nom bilan - Baqtriya-Marg'iyona arxeologik kompleksi (BMAK) tushunchasi bilan ifodalaydi. Buning sababi Marg'iyona va Baqtriya hududida bir xil madaniyat tarqalganligi bo'lgan, keyinchalik Frankfort bu sivilizatsiyani o'rganib, uning kengroq ma'nodagi o'ziga xos sivilizatsiya ekanligini yozib, Oks sivilizatsiyasi deb atashni taklif etgan.

Darhaqiqat, ushbu sivilizatsiya bronza davrining o'ziga xos sivilizatsiyasi hisoblanadi. Sivilizatsiya qanday shakllanishi

noma'lum, qayerdan kelib chiqishini aniqlash ham qiyin. Biroq, har bir sivilizatsiyada bo'lgani kabi bu yerda ham o'zining rivojlanish bosqichi va tanazzuliga ega. Shunday taraqqiyot boshqa hech bir joyda kuzatilmaydi. Shu sababli ham sivilizatsiya nomi bilan ataladi. Ya'ni ma'lum bir hududning ma'lum bir davrda iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan eng yuksak rivojlangan davri bu sivilizatsiya nomi bilan ataladi.

Oks sivilizatsiyasi Yaqin Sharqdagi havoning isishi natijasida Kopetdog' oldilarida, Eron hududlarida ham havoning isishi natijasida u yerda yashayotgan va ishlayotgan aholi dehqonchilik bilan shug'ullana olmay qoladi. Shu sababli mil.avv. III ming yillikning oxiri - II ming yillikning boshlarida ularning dehqonchilik qilish imkoni mavjud yerlarga migratsiya qilish jarayoni kuzatiladi. Ular Murg'ob vohasiga (hozirgi Surxondaryoning Sherobod hududiga) kelib joylashadi. Migratsiya jarayonida yo'l-yo'lakay o'zlariga nimalarnidir singdirib olishgan. Shu sababli ular kelib yaratgan madaniyat o'ziga xos tarzda bo'lgan.

V.Sarianidi Oks sivilizatsiyasini o'rganish jarayonida uning uchta lokal tarmog'ini: Kopetdog', Dashtli, Murg'obni aniqlagan. Bu uchchala tarmoq davrlar bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Masalan Kopetdog' oldinroq shakllangan. Undan so'ng Dashtli hududi (bu hududda Oltintepa yodgorligi o'rnatilgan) bo'lib, bu Amudaryo bo'yiga ko'chib kelgan dastlabki manzilgoh Oltintepa bo'lgan, degan tushunchani bergan. Keyingisi esa Murg'ob vohasi bo'lib, bu vohada aholi kelib o'rnashgandan so'ng birdaniga yirik qal'alar paydo bo'la boshlagan. Tadqiqotchilar mil.avv. II ming yillikda shu hududda Oks sivilizatsiyasi aholisi ko'chib kelishi bilan Marg'iyona davlati shakllandi, degan tushunchani beradi.

O'z navbatida Surxondaryo hududini Baqtriyaning shimoliy qismida ham aholi (BMAK aholisi) ko'chib kelganidan so'ng mustahkam mudofaa devorlariga ega bo'lgan qal'alar paydo bo'ladi. Bu yerda ham o'z navbatida yo'q joydan birdaniga madaniyat paydo bo'la boshlagan. Ob-havoning isishi natijasida aholining, o'sha Kopetdog' oldi, shimoliy Eron hududlarida yashashga, dehqonchilikni rivojlantirishga imkoniyati bo'lmagan aholi hosildor yerlarni izlab g'arb tomonga ko'chish jarayoniga

sabab bo'lganligini ko'rsatgan. Shuning natijasida Oks sivilizatsiyasi vujudga kelgan.

Marg'iyonaning qaysi yodgorliklarida Oks sivilizatsiyasining izlari saqlanib qolgan?

Marg'iyona hududini paydo bo'lishi Murg'ob daryosi bilan bog'liq. Murg'ob daryosining eng quyi oqimida dastlab Gonur yodgorligi bunyod etilgan. Bu yodgorlik dastlab 20 gektar maydonni egallagan bo'lsa, keyingi yillarda, ya'ni XXI asrda olib borilgan tadqiqotlar natijasida undan ham keng hududni, ya'ni 50 gektar joyda bir shahar shakllanganligi aniqlandi. Bu hududda tadqiqot ishlarini olib borgan V. Sarianidi bu yerda nihoyatda simmetrik tarzda arxitektura inshootlarini bunyod etilgani Oks sivilizatsiyasining o'ziga xosligini ko'rsatib bergan. Bu yerda ibodatxona, ko'cha, hattoki suv xudosiga bag'ishlangan ibodatxona, qurbonliklar ibodatxonasi, turli xil ibodatxonalar qurilishining o'zi ham bu yerda me'morchilikning rivojlanganligini ko'rsatadi. Shuningdek, boshqa yerlardagi qurilishlarda bo'lmagan devorni suvashda gipsdan va somon qo'shib devorlarga ishlov berish jarayoni ham birinchi marta shu jarayonda qo'llangan. Bu ham o'sha Turkmaniston hududidan topilgan yodgorliklarning o'ziga xosligidan dalolat beradi.

Eng muhim jihati – Gonur-tepa yodgorligidan 350 metr uzoqlikda qabriston topilgan bo'lib, bu yerda o'n yildan ko'p tadqiqot ishlari olib borilgan. Tadqiqotlar natijasida to'rt mingga yaqin qabr topilgan. Qabrlardan topilgan topilmalar ushbu madaniyatning qanday madaniyat ekanligini izohlovchi eng asosiy dalillar saqlanib qolgan. Hattoki, bu yerda to'rt yil ichida yettita shoh qabri topilgan bo'lib, ular o'sha davrning yer osti saroylari tarzida ta'riflaydilar. Ya'ni o'sha shoh hayotlik tarzida nimalardan foydalangan bo'lsa, o'sha narsalarning hammasi uning yer osti sag'anasiga olib kirib qo'yilgan. Bu bilan biz o'sha Gonur-tepa aholisi nima bilan mashg'ul bo'lganligi, qanday ishlar qilgan degan savolga javob topishimiz mumkin.

Eng muhimi bu davrda shohning aravasi ham o'sha qabristonga ko'milgan. Bu uning nihoyatda katta ekanligini ko'rsatadi.

Yana bu yerdagi yangiliklardan biri – shoh sagʻanasi kirish oldida mozaika, yaʼni turli rangli shishalardan oʻsha davr odamlarining tasviri berilgan. Bu tasvirlar ham oʻz navbatida oʻsha davr odamlarining hayotini tasavvur qilish imkoniyatini beradi.

Murgʻob daryosining irmogʻi quriy boshlagandan soʻng Gonur-tepa yodgorligidan sal pastroqda, 20 km uzoqlikda hajmi jihatdan Gonur-tepadan kichikroq boʻlgan Togʻoloq tepa yodgorligi qurilgan.

Sopollitepa va Jarqoʻtonni oʻrganilishi davrlarida arxeolog olim V.I. Sarianidi tomonidan ham Turkmanistondan xuddi shu davrga oid, shu sivilizatsiyaga oʻxshash madaniyat topilgan. Bundan tashqari, bu kabi madaniyatlar shimoliy Afgʻonistondan (Dashtli tepa) ham topilgan. Bularning hammasi keyinchalik Oks sivilizatsiyasi doirasiga qoʻshilib, XX asrning 80-90 yillarida yagona va katta bir sivilizatsiya boʻlganligini oshkora koʻrsatgan.

Keyinroq maʼlum boʻldiki, xuddi shu sivilizatsiya Hindistonda, qadimiy eneolit davriga oid Harappa va Moxenjadaro sivilizatsiyasi soʻnggandan keyin yangi – Juxukar deb ataluvchi sivilizatsiya vujudga kelgan. Ushbu sivilizatsiyaning Oks sivilizatsiyasidan deyarli farqi boʻlmagan. Bundan tashqari yana aniqlandiki, eneolit davridan avvalroq ildizlari Suriyada vujudga kelgan sivilizatsiya bronza davridan avvalroq bu yerga kelgan. VII-IV ming yilliklarda muzliklardan soʻng paydo boʻlgan moʻtadil iqlimning vujudga kelishi bilan, IV ming yillikning oxiri –III ming yillikdan boshlab quruq sovuq iqlim kirib kela boshlaydi, qurgʻoqchilik boshlanadi. Koʻplab qadimiy madaniyat oʻchoqlari barbod boʻlib, inqirozga uchraydi. Aholi migratsiya jarayonida yangi hudud axtarib koʻchishga majbur boʻladi. Mana shu davrda juda katta migratsiya sodir boʻladi. Bir qism aholi toʻlqini Yevropaga qarab ketadi. Yana bir asosiy qismi Sharqqa, jumladan, Oʻrta Osiyo hududlariga tomon yura boshlaydi, Hindistonga Juhukar madaniyati kirib boradi, bu toʻlqin Markaziy Osiyo ustidan oʻtib, Qirgʻizistonda Oʻsh daryosining yuqori oqimlarida, Shagʻim degan katta qishloq topilgan boʻlib, aynan Sopollitepani oʻzi: imoratlari, bronza buyumlari, sanʼati, dehqonchilik sharoitlari juda oʻxshashligini koʻrsatgan. Xitoydagi Qashqar hududlarida va

shunga yaqin boshqa joylarda ham bu madaniyatning izlari topilgan.

Nima uchun Oks sivilizatsiyasi deb atalgan? Chunki Amudaryo havzasida shakllangan. Chegarasi ma'lum bir yagona hududga ega bo'lgan xususiyatga ega, ya'ni bu yerda ekologik sharoitga moslashgan, qadimgi madaniyatni o'z ichiga olgan va Eron, Uzoq Sharq, Hindistondan farqli, o'z qiyofasiga ega bo'lganligi bois Oks sivilizatsiyasi deb atalgan.

Qozog'iston, Xitoy, Eron va Afg'onistonda faoliyat olib borgan Anri fon Frankfort bu atamani birinchi bo'lib taklif qilgan. Nafaqat Sopollitepa, Baqtriya-Marg'iyona, balki Amudaryo - Oks havzasini hamma joyini qamrab olgan va tarqalgan degan g'oyani o'rtaga tashlab, yetarli darajada asoslab bergan. Bu fikrni butun dunyo qabul qildi. Oks sivilizatsiyasining asosiy markazlari yaqinda Turkmanistonda topildi. Murg'ob daryosi bir zamonlar Amudaryogacha borgan bo'lib, qurg'oqchilik tufayli Amudaryo va Sirdaryo shimolga ko'cha borgan. Shu bois Turkmanistondagi daryolar oqimi Qoraqumda tugaydi. Qoraqumning o'rtalarida asosiy maskanlar: G'ururtepa, Tug'uluq va boshqa bir qator yirik shaharlar topilgan. Misol uchun Tug'uluqdan tashqari, eng yirik yodgorlik G'onurtepa (Qo'ng'irtepa) bo'lib, uning uch qator devori mavjud bo'lgan. Ichki devori ichida asosan ehrom va saroylar mavjud bo'lgan. Tashqi devorlar ichida zodagonlar, uchinchi devor ichidagi maydonda qolgan aholi yashaganligi aniqlangan. Katta suv havzalari (Murg'ob suvi kichikroq) tashkil qilingan.

O'zbekistonda Jarqo'ton, Sopollitepa va SH.Shaydullayev tomonidan Tuzkondan topilgan yirik markazlar ham bo'lgan.

Markaziy Osiyoning serhosil vodiysi, cho'l va dashti, tog'larida yashovchi aholining turmush sharoitidagi farqlar turli xo'jaliklarning ertaroq paydo bo'lishi o'ziga xos madaniyatlar shakllanishiga olib kelgan. Bu jarayon yaqin qo'shnichilik munosabatlari asosida sodir bo'lib, qabila va xalqlarning iqtisodiy va madaniy aloqalari tufayli taraqqiyotning ertaroq boshlanishiga imkon yaratdi. Eng qadimgi davrlardan dehqonchilik, chorvachilik va tog' ovchi qabilalari o'rtasidagi mahsulot ayirboshlash Markaziy Osiyo xalqlari iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega bo'lib, keyingi davrlarda ham u uzoq saqlanib qoldi. Turmush tarzi va

xo'jalik faoliyatidagi farqlanish bilan birga mintaqa xalqlarining etnik va tillardagi yaqinlik judayam uyg'unlashib ketganligi qadimgi Yunon va Xitoy manbalarida ham qayd qilingan. Markaziy Osiyo xalqlarining kuchli iqtisodiy aloqalari, etnik va til birligi ularning bir-biridan ayri-ayri yashashiga yo'l qo'ymadi.

Natijada qadimgi Sharqning klassik madaniyati orasida Markaziy Osiyo qadimgi madaniyati ajralib, o'ziga xos ko'rinishda shakllandi. Dastlab, bu madaniyatda ikki xil madaniyat aralashib ketadi: ko'chmanchilik va ibtidoiylik olami hamda sivilizatsiya olami; bu yerdagi qadimgi madaniyatlarga xos madaniyatlarning o'zaro muloqotiga aks ta'sir ko'rsatgan "o'zining betakrorligi" haqidagi tasavvur shakllanmoqda. Markaziy Osiyoning o'troq dehqonchilik va ko'chmanchi xalqlarida ancha-muncha farqlar bo'lishiga qaramasdan ilgari yaqin munosabatlar o'rnatilgan.

Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining o'ziga xosligining ikkinchi jihati mintaqaning o'ta qulay jug'rofiy o'rnashganligi bilan bog'liq. Mintaqa Mesopotamiya, Hindiston va Xitoy kabi uchta buyuk Sharq sivilizatsiyasi bilan bevosita chegaradosh bo'lib, G'arb sivilizatsiyasiga xos beshinchi - Yunoniston va Rim bilan aloqada rivojlangan. Bunday aloqalarning muqarrarligi tufayli Markaziy Osiyo madaniyati Sharq va G'arb o'rtasida vositachilik missiyasini bajarishiga sabab bo'ldi, ya'ni iqtisodiy sohalarda eng avvalo xalqaro savdoda va madaniy sohalarda ham Markaziy Osiyo G'arb va Sharq o'rtasida bog'lovchi ko'priklar vazifasini bajardi. Xususan, Markaziy Osiyo hududi orqali buddizm butun dunyoga yoyildi, Hindiston va Xitoyga ellinistik madaniyat ko'rinishlari o'tdi, Sharqdan G'arbgacha va G'arbdan Sharqqa madaniy boyliklar (bilim, diniy g'oya, kashfiyot, badiiy asarlarning) almashib turishida Markaziy Osiyo muhim vositachi bo'lib xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo madaniyatining buyuk vositachilik missiyasi boshqa madaniy qadriyatlarini yangilashi, o'zlashtirish mahorati va qayta ishlash kabi jihatlari bo'lmas edi. Bu madaniyat qadimdan yangi hodisalarni o'zlashtirish va moslashtirish mahoratiga ega bo'ldi. Garchi, boshqa qadimgi Sharq madaniyatlaridagi kabi Markaziy Osiyo madaniyatida ham an'analar keng o'rin egallasa-da, ular aytarli xarakter kasb etmaydi, ya'niki, uzluksiz madaniy yangilanish va taraqqiyot

jarayoniga to'siq bo'lmaydi. Shuningdek, an'analarning mustahkam hukmronligi tarixiy vaziyatga ham to'sqinlik qilganligini ta'kidlash kerak. Mintaqa orqali katta bosqinchilik yurishlari, xalqlarning ko'chishlari yuz bergan bo'lib, bu Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi davomida bir necha bor madaniyatni sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Afsuski, ko'pgina urushlar Markaziy Osiyo madaniyatining qadimgi taraqqiyot davrlarining behisob dalillarini yo'q qildi. Arxeolog qazilma ma'lumotlar va yozma manbalar miloddan avvalgi I mingyillik boshlarida vujudga kelgan Markaziy Osiyoning ilk davlatlari Baqtriya, Sug'd va Xorazm madaniyati haqida bir oz ma'lumotlar beradi. Miloddan avvalgi VIII-VI asrlarga oid Afrosiyob (Samarqand), Surxondaryo vohasidagi Qiziltepa, Qashqadaryo vohasidagi Uzunqir, Xorazmdagi Ko'ziliqir kabi qadimgi shaharlarda o'tkazilgan tadqiqotlar murakkab ijtimoiy tuzilma va madaniyatning yuqori rivojlanganligini ko'rsatadi. Bu shaharlar mudofa devorlari va suv ta'minotidan iborat kuchli istehkom tizimiga ega bo'lib, ichida hunarmandlar mavzei joylashgan. Ayrim shaharlarda saroy qoldiqlari qal'alar topilgan. Qadimgi davlatlar xo'jaligining asosiy sohasi hisoblangan dehqonchilik taraqqiyotining darajasi haqida ko'p tarmoqli sug'orish tizimining mavjudligi bunga dalildir. Markaziy Osiyo davlatlari Qadimgi Sharq mamlakatlari bilan yaqin aloqalar o'rnatgan. Midiya va Ossuriyaning siyosiy tarixida faol ishtirok etib, hunarmandchilik buyumlari va xomashyo bilan (lojuvard, oltin, mis bilan) savdo-sotiq qilganlar. Bu haqda Ossuriya va Qadimgi yunon yozma manbalarida gapiriladi. Xususan, Baqtriyaning yirik shaharlari, ko'p sonli aholisi haqida Baqtriya shohi Oksiartning afsonaviy boyligi haqida Ktesiy Knidskiy (mil. avv. V-IV asrlar) yozib qoldirgan. Ko'chmanchi massagetlarning udumi va turmush tarzi haqida mashhur qadimgi Yunon tarixchisi Gerodot (mil. avv. V asr) yozib qoldirgan. U massagetlarning harbiy qurollari (kamon-yoyi, nayzasi, oyboltasi) da oltindan bezak sifatida, misdan qurol va sovut uchun keng foydalanishini ta'kidlaydi. Gerodotning yozishicha, massagetlar yagona ma'bud quyoshga topinib, otni qurbonlik qilganlar.

## **Markaziy Osiyo taraqqiyotiga Ahamoniylar va Yunon-Baqtriyaning ta'siri**

Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi va madaniyatining mustaqil rivojlanishi Eron ahamoniylari tomonidan birinchi yirik bosqinchilik tufayli to'xtab qoldi. Sug'd, Baqtriya, Xorazm mil.avv. VI-IV asrlarda Ahamoniylar davlati tarkibiga kirgan. Bu imperiya tarkibiga kirishi, yagona boshqaruv, qonunchilik, pul tizimining o'rnatilishi, oromiy yozuvning umumdavlat miqiyosda qo'llanilishi Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ahamoniylar davrida xalqaro savdoning rivojlanishi uchun qulay sharoitning vujudga kelishi Markaziy Osiyo shaharlarining taraqqiyotiga muayyan imkoniyat yaratdi. Ahamoniylar hukmronligida mamlakatlarga sayyohlar va olimlar borishi mumkin bo'ldi. Xuddi shu davrda Sharq mamlakatlariga Gerodot, Demokrit va boshqalar sayohat qilgan. Ahamoniylar imperiyasidagi yirik shaharlar: Suza, Persepol, Memfis, Nippur, Bobilda turli joylardan xususan, Xorazm, Baqtriya, Sug'ddan chiqqan kishilar, saklarning harbiy aholisi yashagan. O'z navbatida mil. avv. V asrda Oks daryosining o'ng sohilida miletlik yunonlarning manzilgohi tashkil topadi. Shu tariqa Ahamoniylar imperiyasi tarkibida Markaziy Osiyo xalqlari forslar, midiyaliklar, bobilliklar, misrliklar, yunonlar, hindlar bilan yaqin munosabatda bo'lish, madaniyatining ham o'zaro ta'siriga imkon yaratdi. Ahamoniylar imperiyasi madaniyati ham ko'pgina mamlakat xalqlari yaratgan ilmiy bilimlar, diniy e'tiqodlar, san'at yutuqlarining sintezi hisoblanadi. Bu madaniyatga Markaziy Osiyo xalqlari ham o'zining hissasini qo'shgan. Zardushtiylik Ahamoniylarning davlat dini sifatida qabul qilinishi bilan birga G'arbga ham keng yoyila boshladi. Ahamoniylar san'atining Suza va Persepoldagi ulkan yodgorligi qurilishiga Markaziy Osiyo mintaqasidan ko'plab xomashyo keltirilgan.

Saroylar qurilishiga Baqtriyadan oltin, Sug'ddan lojuvard va qimmatli toshlar, Xorazmdan feruza olib borilgan. 1877-yilda Tojikistonning janubidan topilgan Amudaryo xazinasi madaniy sintezning yorqin misolidir, xazinada, Eron va Baqtriyada tayyorlangan jihozlar -bejirim oltin aravacha, qanotli ikkita qirg'iy

shakli tushirilgan bilaguzuk hamda dashtliklarga xos "Hayvon shakli" bitilgan jihozlar mavjud. Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyat munosabatlari juda kengaydi, shuningdek, madaniy qadriyatlarning boyishi va turli madaniyatlarning o'zaro ta'siri jarayoni esa o'z madaniyatlarini juda tez rivojlanishi va boyishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ahamoniylar imperiyasi va Markaziy Osiyo yerlari yunon-makedonlar tomonidan bosib olingan Markaziy Osiyo madaniyatiga ellinizm elementlari kirib keldi. Ahamoniylar saltanatini yemirib tashlagan Yunon-Baqtriya bosqini Markaziy Osiyo mintaqasini, xususan, sug'd madaniyatini o'zgartirdi. Zero, Aleksandr Makedonskiy sipohilariga hech yerda Markaziy Osiyodagidek qarshilik ko'rsatilmagan bo'lsa kerak. Ozodlik harakatini beshafqat mahv etgan Makedonskiy yerli aholining ko'magiga muhtojligini seza boshladi. Vaqt o'tishi bilan u ongli tarzda barcha etnik to'siqlarni olib tashlashga, o'z saltanati hududida turli xalqlarni qorishib ketishi hamda yagona madaniyat va til birligini qaror topdirishga urindi. Shu maqsadda Maqedonskiy o'z saroyida Sharq udumlari va liboslarini joriy etdi, turli etnik guruh vakillarining nikohlarini keng yo'lga qo'ydi, o'z armiyasiga baqtriyalik va sug'dlik qismlarni kiritdi, 30 mingdan ortiq o'g'il bolalarga yunoncha tarbiya berishga hukm etdi.

Shunday qilib Aleksandr Makedonskiy Markaziy Osiyo madaniyatining ellinlashtirishni boshlab berdi. Ellinistik jarayon salavkiylar davlatidan mustaqil bo'lgan Parfiya va Yunon-Baqtriyada o'zining yuqori rivoji bilan ajralib turadi. Yunon-Baqtriya davlatida yunonlar va mahaliy madaniyatlarning sintezi qisqa vaqtda o'zining ijobiy natijalarini berdi, shaharlar soni tez sur'atda o'sdi, dehqonchilik, chorvachilik, ayniqsa, hunarmandchilik rivojlandi. Markaziy Osiyo mintaqasi Buyuk ipak yo'li bo'ylab o'tgan xalqaro savdoning markazi sifatida o'ta muhim o'rin tutadi. Diodotdan Galpokigacha bo'lgan yunon-Baqtriya podsholari davrida yuksak badiiy saviyada oltin, kumush va misdan tayyorlangan turli qiymatdagi tangalar (draxma, obol, dixalka, xalka) zarb etildi. Tovar-pul munosabatlarini o'sishida Baqtriya shohlarining o'z pullarini zarb qilishi xalqaro savdoning rivojiga ijobiy ta'sir qilish bilan birga, yuksak badiiy darajasi bilan ham ajralib turadi. Yunon-Baqtriya miqyosidagi ellistik

madaniyati bu davrda Oyxonum (Shim. Afg'oniston), Saksanoxur va Tahtisangin (Tojikiston), Dalvarzintepa, Yerqo'rg'on, Afrosiyob (O'zbekiston) kabi shaharlar qurildi. Yunon harbiy manzilgohlari aholisining turmush tarzi va madaniyatini aks ettiruvchi ellinistik uslublar Yunon-Baqtriya shaharlarida ochib o'rganildi. Inshoatlar tosh, xom va pishiq g'ishtdan tiklangan. Ustunlar korinf usulida ishlangan. Saroy va ibodat majmualari, gimnaziya, teatr binolari ochib tekshirilganda, ustunlar qattiq bazaltlar, akant yaproqlari, palmetallar, cheti naqshlangan cherepitsa-antifikslar singari unsurlardan foydalangan holda qurilgan. Mahalliy zodagonlarning ellinistik didi monumental va ixcham haykaltaroshlikni rivojlanishiga turtki berdi. Terakot haykalchalar va turli muhrlardagi obrazlarning miqyosi keng. Unda hosildorlik xudosi Anaxita, yunonlarning bosh va mahalliy xudolari, fantastik va real hayvonlarning timsollari ifodalangan. Haykaltaroshlik san'ati namunalari kam saqlanib qolganligiga qaramay, zarb etilgan Yunon-Baqtriya tangalarining orqa tomonida mashhur yunon san'atkorlarining rasmi tushirilganligi bu yerda yunon haykaltaroshligi ilmi ta'siri kuchli bo'lganligini bildiradi. Taxi Sanginda Oks daryosining xudosi Marsiyaning bronza haykalchasi qo'yilgan Mehrob topildi. Antik dunyoning Markaziy Osiyoga kirib kelgan haykaltaroshlik san'ati kushonlar davrida yanada ravnaq topdi.

Yunon-Baqtriya podsholigida teatr san'ati va musiqani rivojlanganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Baqtriya saroylarida yunonistonlik aktyorlar, musiqachi va raqqoslarning guruhlari saqlangan. Ayniqsa, yunon xalq teatrining «maskars», «mim» singari turlari keng yoyilgan. Ularni klassik tragediya va komediyalardan farqi belgilangan matn bo'lmagan, yoki matnsiz chiqilgan, lekin u yunon tilini bilmagan mahalliy aholiga tushunarli bo'lgan. Aktyorlar sharoit, tomoshabinlarning ruhiyatiga ko'ra matnlarni o'zgartirganlar musohaba, hazil-mutoyiba, hajv, hikoya, qo'shiq usullarida ijro etganlar. Raqs, musiqa, ko'zbo'yamachilik va akrobatik mashqlar teatr ijrochiligining muhim elementlari bo'lgan. Hukmdorlar homiylik ko'rsatgan mahalliy aktyorlar ham shakllangan. Milliy teatrning – «Masxaraboz» namunasida hamon ellinistik belgilar saqlanib

qolgan. Yunon-Baqtriya madaniyati sinkretizmi (qorishiqligi) turli tillarni yonma-yon faoliyat ko'rsatishi, har xil yozuvlar tizimi va dinlarning o'zaro singishib ketishida ham ko'rinadi. Miloddan avvalgi III-II asrlarda oromiy, yunon-baqtriya yozuvlari keng ishlatilgan, keyingisi yunon alfaviti asosida unga bitta harf qo'shib (jami 25 ta harf) Baqtriya yozuvi vujudga kelgan zardushtiylik hukmron din sifatida saqlansa-da, aholini yunon xudolari timsollariga sig'inish alomatlari paydo bo'lgan. Mahalliy aholi nazarida Olimp xudolarining obrazlari bilan zardushtiylik xudolarining timsollari - Zevs va Axuramazda, Appolon, Cheshos va Mitra, Afodita va Anaxita obrazlari uyg'unlashib ketdi. Agar yerli aholi o'rtasida Afina, Gerakl, Nika, Dionis timsollariga sig'inish qanchalik tarqalsa, Yunonistonda Mitra, Oksa (Oksho Amudaryo), Buyuk onaga sig'inish shuncha tarqaldi. Buni Oyxonim, Taxti Sangan manzilgohlaridan topilgan - tasvir mazmunida yunoncha va mahalliy an'analar ifodalangan san'at yodgorliklarida ham ko'rish mumkin. Yunon-Baqtriya madaniyati odatda Sharq ellinistik madaniyati deb ta'kidlanadi. Agar ellinistik madaniyatga yunon va Sharq madaniyati uyg'unligi xos deb xarakterlansa, markaziy Osiyo madaniyatida mahalliy o'ziga xoslik, sharqona betakrorlik ustuvordir. Ayni shu negizda yunon madaniyati qadriyatlarini o'ziga singdirgan madaniyat asosida keyingi davrlar madaniyati yanada rivojlandi.

### **Kushon imperiyasida davrida sivilizatsion jarayonlar**

Kushon saltanatining dastlabki markazini Baqtriya tashkil etdi. Iqtisodiyot asosi dehqonchilik bo'lib, murakkab irrigatsiya va yirik sug'orish inshootlari barpo etildi. Hunarmandchilik va savdo-sotiqning jadal rivojlanishi shaharlarni gurkirab rivojlanishiga, g'ishtlardan bino etilgan qal'a va saroylarni qurilishiga olib keldi. Bu paytda G'arb mamlakatlari, xususan, Rim imperiyasining sharqiy viloyatlari bilan savdo aloqalari birinchi o'ringa chiqdi. Kushon podsholarining tangalari Kiyev yaqinida, Efiopiya, Skandinaviya va Rim imperiyasi shaharlaridan topilgan. Savdo quruqlikdagi yo'llar va Hindistonning G'arbidagi port-dengiz orqali olib borilgan. Bu yo'llardan xilma-xil buyumlar,

jumladan, Rimga qandolat, qimmatbaho toshlar, fil suyagi, guruch, zebu-ziynat va jihozlar yuborilgan. Xitoydan shoh va teri buyumlar, Rimdan to'qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, oyna, qimmatbaho metallar, turli vinolar shu yo'l orqali olib o'tilgan. Rimning ko'p miqdordagi oltin va kumush tangalari aloqaga kiritilgan. O'sha davridayoq savdo-sotiqning ushbu yirik xalqaro arteriyasi "Buyuk ipak yo'li" deb nom oldi.

Madaniy yuksalishning Kushon davri (mil. I-IV asrlari) diniy tizimlarning yonma-yon yashashi bilan xarakterlanadi. Bunga ma'lum ma'noda Kushon podsholari, ayniqsa, Kanishka tomonidan diniy aqidalarga nisbatan sabr-qanoat va ishonch-muruvvat bilan yondoshilganligi imkoniyat yaratdi. Kanishka zarb ettirgan tangalarda indus, zardusht, ellin xudolarining nomi va tasvirlari tushirilgan. Adolatgo'y Mitra va hosildorlik xudosi Ordoxshi qudratli Vretragna bilan induslarni Shiva, Buddasini, Geshos, Selena, Sfapislarni ko'rish mumkin. Buddizm davlat dini maqomiga ega bo'lishiga qaramay, Kushon imperiyasi hududida zardushtlik, jaynizm, shivaizm, manixeylik, olimp xudolariga sig'inish keng tarqalgan edi. Buddizmning tarqalishi mahalliy din va san'atlarning tugatilishini anglatmaydi. Bilaks, buddaviylikni Baqtriyadagi ixlosmand targ'ibotchilari budda matnlarini shunchaki o'zlashtirib, uni sanskritdan tarjimasini bilan kifoyalanmay, ularni o'zlariga talqin etdilar, unga qayta ishlov berdilar. Markaziy Osiyo antik badiiy madaniyatining muhim uslubiy xususiyatini san'atlar sintezi tashkil etgan: haykaltaroshlik, tasviriy san'at, naqsh bunda umumiy me'morchilik rasamadiga va uning ritmiga bo'ysungan holda me'morchilik bilan yaxlitlikda namoyon bo'ladi. Bu sintez Kushonlar davrida ham mahalliy madaniyatda o'z ta'sirini saqlab qoldi. Kushonlar davri Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Pokiston va Hindiston xalqlari tarixidagina emas, balki butun dunyo madaniyatining taraqqiyotida alohida o'rin egallaydi. Turli xalqlar madaniyatining chatishishi natijasida bu yerda o'ziga xos yangi madaniyat shakllandi, shu bilan birga keyingi asrlar madaniyatining taraqqiyotiga zamin bo'lib xizmat qildi. Sharq va G'arb madaniyatining o'zaro ta'siri yangi tarixiy bosqichga qadam

qo'ydi. Ellin madaniyatining an'analari Kushonlar davrida ijodiy jihatdan qayta shakllandi va yangicha talqin qilina boshladi.



### **Kushon yozuvi**

Kushonlar davrida yozuvning turli tizimlari amal qildi. Oromiy yozuvi asosida kushon-baqtriya alfaviti, sug'd va xorazm yozuvi rivojlandi: Surx-xotalda (Afg'oniston) yunon alfavitidagi kushon yozuvi topilgan. Termizdagi Qoratepa, Fayoztepadan hindlarning Brahma, Kxoratshxa yozuvlaridagi bitiklar topildi. Kampirtepadan esa (Surxondaryo) Markaziy Osiyodagi eng qadimiy, noyob qo'lyozma (mil. avv. II asrning 1 yarmi) papirusdagi bitik topildi. Asrimizning boshida Buyuk Xitoy devori minoralaridan birida topilgan "ko'hna so'g'd yozuvi" alohida qiziqish uyg'otadi. Yozuv milodni 312-313-yillarida bitilgan bo'lib, unda Xitoydagi sug'd savdogarlarining faoliyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kushonlar san'ati qo'shni mamlakatlar va xalqlar san'atlariga ta'sir ko'rsatuvchi namunalarni yaratdi. Milodiy I-IV asrlardagi badiiy madaniyatning asosiy xususiyati Osiyoga olamni anglashga ellinistik ta'sirni tafakkur tarozisidan o'tkazishdir. Xalchayon (mil.

avv. I milodning 1 asrlari) - Kushon san'atining ilk yodgorliklaridan biri bo'lib, undan topilgan asarlarda ko'proq hukmdor Geroy Sanat ulug'langan. Qabulxona devorlarining yuqori qismidan o'rin olgan loydan ishlangan haykallar majmuida hukmdor va ayonlari tasvirlangan. Haykal obrazlari ifodali bo'lib, unda tasvirlanayotgan obrazlarning individual belgilari ko'zga tashlanib turadi. Unda tantanavor ruhdagi qabul marosimi va jang lavhalari aks ettirilgan.

Bunda Xorazm madaniyatini alohida ta'kidlash lozim. Shu mintaqa sug'oriladigan dehqonchilik, shahar madaniyati shakllangan eng qadimgi manzilgohlardan bo'lib, bu yerda O'zbekiston hududidagi qadimgi (miloddan avvalgi VII-VI asrlarda) davlat asoslangan. Xorazm (miloddan avvalgi IV asrlarda) Aleksandr Makedonskiy bosqiniga qadar Ahamoniylar istilosidan ozod bo'lgan davlat, xorazmiylar Hindiston, Xitoy, Yaqin Sharq va Yevropa Sharqi bilan qizg'in savdo aloqalarini olib borganlar va o'zlarining hunarmandchilik buyumlari bilan dong taratganlar. Tarixiy solnomalarda xorazmliklarni tadbirkorligi, ishtiyoqmandligi qayd etilib, ularni "ilm sohiblari" deb ataganlar.

Kanal, qal'a, ko'p qavatli saroylar, qurish nafaqat amaliy malakani, balki murakkab hisob-kitob va o'lchovlarni ham talab qilar edi. Xorazmliklar mil. I asridan VIII asrigacha o'zlari foydalangan maxsus taqvim tizimini yaratdilar. Bu taqvim Al-Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida mufassal tavsiflangan. Uning ma'lumotlarini arxeologlar tomonidan topilgan, III asrga oid asl nusxa hujjatlar ham tasdiqlaydi. Beruniyning ma'lumotiga ko'ra, xorazmliklar mustaqil astronomik kuzatishlar olib borganlar, osmonning yulduzlar xaritasini yaxshi bilganlar. Binobarin, Qo'yqirilganqal'ada observatoriyaning qadimiyligi mil. avv. III-II asrlarga tegishli. Doira shaklidagi, dastlabki diametri 42 metrli bu bino keyinchalik 8 ta mustahkam minoraga ega bo'lgan devorlar bilan o'ralib, diametri 80 metrni tashkil etgan. Ikki qavatli markaziy bino devorining qalinligi 7 metr bo'lgan. Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra Qo'yqirilganqal'a astronomik kuzatish, izlanishlar olib borilgan ilm qarorgohi bo'lgan. Binoni noyob qurilish tizimi, xonalarni maqsadga muvofiq joylanishiga ko'ra uni "Xorazm

Stounxenji” deb atash mumkin. Xorazm madaniyatining o‘ziga xos rivojlanishi keyingi davrlarda ham davom etdi. 2000 yillar muqaddam Markaziy Osiy, Shimoliy Hindiston, Pokiston va Sharqiy Eron yagona davlat hududini tashkil etgan. Qudratli Kushonlar imperiyasi Orol dengizi bo‘ylaridan Hind okeanigacha yastanib, o‘sha davrning boshqa uch buyuk davlati: Rim, Parfiya va Xanlar Xitoyi bilan bir qatorda turdi. Kushonlar imperiyasi davri Sharq va Jahon madaniyati rivojida yangi davrni tashkil etdi. Kushon madaniyatida qadimgi Sharq tipidagi mintaqaviy sivilizatsiya bilan ellinizm madaniyati an‘analari, Hindiston ma’naviy hayotining nozik qirralari bilan Osiyo kengliklaridagi dashtliklar olib kelgan o‘ziga xos uslublar ijodiy uyg‘unlashib ketgan edi.

Kushonlar imperiyasi davrida (I-III asrlar) Markaziy Osiyoda sug‘orma dehqonchilik, hunarmandlik, shaharsozlik, savdo-sotiq va iqtisodiy aloqalar ravnaq topdi. Bunga Kushon-Baqtriya yozuvlari, brahma va kharoshhi hind alifbosidagi yozuvlar, kushon tangalari guvohlik beradi. Buddizm dinning rasmiy darajasi budda ibodatxonalarining o‘sha zamon san‘ati bilan bezatilishida namoyon bo‘ladi. Termiz yaqinidagi Ayritomdan topilgan ibodatxona tashqi devori peshtoqlariga sarg‘ishroq toshlardan haykallar o‘rnatilgan. Bino ichida g‘ishtdan ishlangan “Budda” haykalining qoldiqlari topilgan. Haykallarning ishlanish uslubi, kiyimi, musiqa asboblari Hindiston, O‘rta Osiyo, Yunoniston madaniyatlarining o‘zaro ta‘sirida rivojlanganligidan dalolat beradi. Buni Xorazm, Farg‘ona, Sug‘d, Parfiyadan topilgan turli xil buyumlar, madaniy obidalar, topilmalar timsolida ham ko‘rish mumkin. Kushonlar davrida shaharlar qurilishi keng rivojlandi. Shaharlar qalin devorlar bilan o‘ralib, ichida ark va arkning atrofida har xil binolar qad ko‘targan. Sopol idishlar nihoyatda nafis va jarangdorligi hamda xilma-xilligi bilan ajralib turgan. Amaliy san‘at keng taraqqiy etgan. Zeb-ziynat buyumlari mehnat va jang qurollari yasash, mato to‘qish rivojlangan.

Umuman, Kushonlar davri madaniyati Markaziy Osiyoning eng cho‘qqisi hisoblanib, ma‘lum hudud va zamon bilan chegaralanmaydi. Bu madaniyat Old Osiyo, Markaziy Osiyo, Antik va Hind madaniyatlari yutuqlarini o‘zida jamlab, qo‘llab Sharq

xalqlarining o'rta asrdagi madaniyati rivoji uchun asos bo'ldi va jahon madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirdi.

Demak, Markaziy Osiyo nihoyatda boy tarixga va madaniy merosga ega bo'lgan insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy beshiklaridan biridir. Mintaqaning "Buyuk ipak yo'li"ni markazida joylashganligi, va unda yashovchi xalqlar Sharq va G'arb o'rtasidagi xalqaro savdo, ilmiy-fan yutuqlari va madaniyatlarining almashinuvini ta'minlovchi o'ziga xos muhim bog'lovchi rolini amalga oshirgan. Mintaqaning beshta mamlakati – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston o'z tarixi, madaniyati va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida ko'p uzviy o'xshashliklarga ega bo'lib, tarixan yagona ilm-fan va madaniy makon sifatida shakllangan.

### **Muhokama uchun savol va topshiriqlar**

1. Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi bo'yicha mulohaza va ilmiy farazlarni bayon qiling.
2. Oks sivilizatsiyasining o'ziga hos jihatlari.
3. Markaziy Osiyo taraqqiyotiga Ahamoniylar va Yunon-Baqtriyaning ta'sirini tavsiflang.
4. Kushon imperiyasida davrida sivilizatsion jarayonlarga baho bering.

## **13-MAVZU. ISLOM CIVILIZATSIYASI**

### **Reja:**

1. Islom sivilizatsiyasining vujudga kelish omillari.
2. Islom sivilizatsiyasining o'ziga xosligi.

### **Islom sivilizatsiyasining vujudga kelish omillari**

Arabiston yarim oroli ham qadim sivilizatsiya o'choqlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu hududlarda bundan 40-30 ming yil (so'nggi paleolit davri) avval odamlar yashay boshlagan. Mil. avv. III-II ming yilliklarda somiy xalqlarining janubiy Arabistonga siljishi kuzatiladi. Somiy qabilalari dastlab Old Osiyo va shimoliy-g'arbiy Arabistonda yashar edilar. Xo'jalikda chorva mollariga yaylovlarning yetishmasligi ularning janubga siljishiga majbur qilgan. Janubiy Arabistonda ular Sabey madaniyatiga asos scladilar.

Janubiy Arabiston hududiga ko'chib kelgan somiy qabilalari mil. avv. I ming yillik 2-yarmi, milodiy I ming yillik o'rtalarida Sabey davlatiga asos solib, asta-sekin unga butun Janubiy Arabiston qaram bo'lgan. Sabey davlatida chorvachilik, qisman dehqonchilik xo'jaligi rivojlandi. Ayniqsa, savdo-sotiqda Sabeylar Hindiston, Sharqiy Afrika va Shimoliy Arabistonni bog'lab turgan savdo yo'llarida ustunlik qilgan. Sabey davlati milodiy IV asrda Ximyariylar davlatiga qaram bo'lgan.

Mayn davlati esa mil. avv. VI-V asrlarda Janubiy Arabistonda tashkil topgan davlat bo'lib, uning hududi hozirgi Yaman davlati hududida, poytaxti lasil shahri bo'lgan. Mayn davlati xushbo'yliliklar bilan savdo qilishda ustunlik qilgan. Bu davlatning savdo faktoriyalari shimoliy Arabistonda ham mavjud bo'lgan. Birinchi asrda Mayn davlati Kataban podsholigiga qaram edi. Shu bilan o'zining savdodagi mavqeini Kataban davlatiga berib qo'yg'an. Ko'p o'tmay Sabey davlati Kataban davlatini, Mayn hududlarini bosib oladi. Bu hududlarning barchasi IV asrda Ximyariylar davlatiga tobe bo'ladi.

Ximyariylar davlati mil. avv. 195-yilda Yaman hududida tashkil topdi. Dastlab Sabey davlatiga qaram bo'lgan bo'lsa,

keyinchalik kuchayib, IV asrda butun Janubiy Arabistonni bosib oladi.

Ximyariylar davlatida Vizantiya xristian dinini davlat dini darajasiga ko'tarishni istasa, Eron zardushtiylik dinini targ'ib qilgan. Aslida har ikki davlat dengiz savdosida hukmronlik uchun kurash olib borgan. Vizantiya Aksum (Efiopiya)da xristianlik dinini davlat dini darajaga ko'tarilishi munosabati bilan bu davlatni Yamanga bostirib kirishga undagan. Eron va Aksum urushlari 570-yilgacha davom etib, Eronning Yamanni bosib olishi natijasida zardushtiylikning davlat dini darajasiga ko'tarilishiga imkon berdi.

Arabiston hududlaridan tashqarida yashagan arab qabilalari Laxmidlar Frot daryosi bo'yida Laxmid podsholigini, Suriyada esa Xasaniylar davlatini tuzgan. Arab madaniyati va davlatchiligi tarixida ushbu davlatlar chuqur iz qoldirgan.

### **Islom sivilizatsiyasi**

Islom sivilizatsiyasi – Sharqdagi eng yosh sivilizatsiyalardan biri hisoblanadi. U faqat milodning VII asridan boshlab shakllana boshlagan. Islom sivilizatsiyasining beshigi, o'z hududlarini kengaytirib, ko'pgina davlatlarni qamrab olgan Arabiston hisoblangan.

Arabiston yarimorolining katta qismi cho'llardan tashkil topgan; faqat uning chekka qirg'oq hududlari unumdor yerlarga ega. Mazkur yerlarning aholisi bug'doy, uzum, xurmo, xushbo'y va dorivor o'simliklar yetishtirgan, qo'y va tuyani ko'paytirganlar. Bu yerda O'rta Yer dengizi, Afrika va Hindiston bilan faol savdo-sotiq munosabatlarini o'rnatgan qadimgi shaharlar joylashgan edi. Aynan shu hududlarda davlatchilikning dastlabki ko'rinishlari vujudga kelgan.

Arabiston yarimorolining markazidagi aholi – ko'chmanchi-badaviylarning turmush tarzi boshqacharoq bo'lgan. Ular asosan chorvachilik bilan shug'ullangan va sahro bo'ylab yuruvchi karvonlarni (ma'lum bir to'lov evaziga) kuzatib turish va ularni o'zlarining tuyalari bilan ta'minlash bilan shug'ullangan.

Shunday qilib, VII asrga kelganda Arabiston madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan turlicha ko'rinishga ega edi. Yangi dinning paydo bo'lishi birlashtiruvchilik va sivilizatsiyaviy rol o'ynagan holda arablarning taqdirini tubdan o'zgartirib yuborgan.

Islomni qabul qilgunga qadar arablar turli xudolarga, shu jumladan, oy va quyoshga sig'ingan, ajdodlarni ilohiylashtirish keng tarqalgan, qabilalarning turli haykallari bilan o'ralgan Makka shahridagi Ka'ba esa, ayniqsa, muqaddas deb hisoblanar edi.

Ko'pxudolikka e'tiqod qilish birinchi navbatda Shimoliy va Janubiy Arabistonda, xristian va yahudiy jamoalari o'zaro hamjihat, tinch yashaydigan hududlarda kuchli ta'sirga ega bo'lar edi.

Muhammad (s.a.v) iudaizmga ham, xristianlikka nisbatan yaxshi munosabatda bo'lgan. Islom dinining muqaddas kitobi – Qur'onda yakka xudolik g'oyalari aks etgan edi.

Qur'onga ko'ra, kimki Allohga va uning payg'ambariga ishonsa, gunohlardan xalos bo'ladi. Haqiqiy e'tiqod qiluvchi o'z hayotini Allohga topshirishi, iymoni but bo'lishi, hayoti davomida faqat ezgu ishlarni amalga oshiruvchi, birovga ozor yetkazmasligi, belgilangan vaqtda ibodatlarini bajaruvchi, umrida bir marta bo'lsa-da, Makka shahridagi muqaddas Ka'ba ziyoratiga borishi lozim.

Islomning yoyilishi bilan bir vaqtning o'zida arab sivilizatsiyasi ham qaror topa boshlagan. Payg'ambar vafotidan so'ng xalifa Abu Bakr boshqaruv ishlarini davom ettiradi. O'zining ikki yillik boshqaruvi davrida islom barcha arab qabilalarini birlashtirgan. Abu Bakrdan so'ng xalifa Umar hokimiyatga keladi. Uning o'n yillik boshqaruvi davrida islom sivilizatsiyasi muvaffaqiyatli harbiy yutuqlarga ega davriga kiradi. Bu davrda Vizantiyaga qarashli Suriya va Falastin, undan so'ng Misr va Liviya, Eronning g'arbiy qismi egallanadi.

Xalifa Umar vafotidan so'ng islomning Sharq mamlakatlariga muvaffaqiyatli yurishlari davom etadi: VII asrning 40-50-yillarida Eron tamomila egallanadi, Shimoliy Afrika (Mag'rib) arablar hokimiyatiga bo'ysundiriladi.

VIII asrda avvalgiday jadal bo'lmasa-da, yurishlar davom ettiriladi. Bu davrga kelib islom davlatlari Atlantika okeanidan

Hind daryosiga qadar, Kaspiy dengizidan Nil daryosi ostonalariga qadar yetib boradi. Ispaniyani qo'lg'a kiritgach, arablar Pireney yarimoroli tomon yurishlarni amalga oshiradilar.

Egallab olingan yerlardagi mahalliy aholi xalifalarning iqtisodiy siyosati yordamida juda tez sur'atlarda islomlashadi: musulmonlar xazinaga o'ndan bir qism soliq to'lagan bo'lsalar, o'z e'tiqodini saqlab qolganlar ularga nisbatan birmuncha ko'proq hajmda yer solig'i (hosilning uchdan bir yoki uchdan ikki qismi) va jon solig'ini to'lagan. Jangchi - arablar, sobiq badaviylar yangi yerlarga o'rnasha boshlaganlar, ularning ortidan birmuncha yuqori madaniyatga ega bo'lgan shaharlik - arablar kela boshlagan. Nikohlar aralashuvi hisobiga etnik jihatdan turlicha bo'lgan sivilizatsiyaning faol ravishda arablashtirish jarayoni sodir bo'lgan.

Biroq juda tez sur'atlarda vujudga kelgan ulkan davlat, juda mustahkam birlashma bo'lmaganligi yuz ko'rsata boshladi. Markazlashgan davlat turli guruhlarning siyosiy birinchilik uchun kurashlari natijasida zaiflasha bordi.

IX asrga kelib amirlar deyarli mustaqil hukmdorlarga aylanib, yirik xalifalik davlati qismlarga ajralish jarayoni boshlandi. Yaqin Sharqning siyosiy xaritasi tez-tez o'zgarar edi: yangi sultonlar va amirliklar vujudga kelar va o'rnini boshqalariga bo'shatib berar edi. Xalifalik mavjud bo'lsa-da, keyinchalik, asosan, diniy hokimiyatni saqlab qolgan edilar.

Vaqtlar o'tishi bilan tarqalib ketgan xalifalik o'rniga unga nisbatan mustahkamroq, unga qaraganda yirikroq davlat birlashmasi vujudga keldi. XVI asrda Eronda Safaviylar va Hindistonda buyuk Boburiylar imperiyasi vujudga keldi. O'zini Arab xalifaligining merosxo'ri deb hisoblagan Usmoniylar imperiyasi esa XIX asrga qadar yevropalik mamlakatlar uchun jiddiy xavf tug'dirib keldi.

Xalifalikning ichki tuzilishi Ummaviylar davrida(661-750) rasmiylasha boshladi, ammo bundan avvalroq uning asoslari yaratilgan edi. Bu birinchi navbatda diniy va dunyoviy hokimiyatning yagona bir hokimiyatga birlashishi bilan bog'liq bo'ldi. Tabiiy, bu xalifalikni mavqeini juda kuchaytirib yuborgan: xalifalikka qarshi chiqish Allohga qarshi chiqishlikni bildirar edi.

Ummaviylar sulolasi vakillari yirik davlatni mustahkamlash va markazlashtirish yo'lida bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Yangi dinning yoyilishi muhim birlashtiruvchilik omili bo'ldi. Bunda arab tilining xalifalikdan tashqarida ham davlat tili sifatida istifoda etilishining ahamiyati katta bo'lgan: arab tilida davlat hujjatlari yuritilgan, ilmiy va badiiy va diniy asarlar yaratilgan. Mamlakatni boshqarish uchun ko'p tarmoqli boshqaruv apparati vujudga keltirilgan; o'zining uzoq o'lkalarda joylashgan hududlarini yaxshi yo'lga qo'yilgan pochta hisobiga amalga oshirishgan. Markaziy hokimiyat davlat xazinasidan yoki yer ulushidan maosh oluvchi harbiy qo'shinga tayangan.

Savdo-sotiq, hunarmandchilik gullab-yashnagan va ko'p sonli boy aholisiga ega yirik shaharlar davlatning qat'iy nazorati ostida bo'lib, maxsus ma'murlar tomonidan boshqarib turilgan.

Shaxsning o'rni ham to'la sharq an'anaviy despotik tarzida bo'lgan: biror-bir kishi qo'qqisidan ijtimoiy pog'onaning eng yuqori cho'qqisiga chiqib qolishi yoki, aksincha, birdaniga qashshoqlikka giriftor bo'lishi yoki bo'lmasa nochorlikdan vafot etishi mumkin edi.

Ba'zida markaziy hokimiyat separatizmni uddasidan chiqa olmay qolar edi: xalifalikka tegishli joylardagi amirlar o'z yerlarining haqiqiy xo'jayinlari edilar. Ularning tasarrufida moliya, qo'shin, byurokratik apparat jamlangan. To'g'ri, endigina vujudga kelgan davlatlar xalifalikning gullagan davridagi tuzilma singari ichki tuzilmasi bir xil bo'lgan vaqtlar ham bo'lgan.

Shu ma'noda islomning ushbu sivilizatsiyaviy modelida katta rol o'ynagan axloqiy me'yorlar musulmon dunyosi tarixida barcha keskin o'zgarishlarga qaramay, juda barqaror bo'lgan.

Islom sivilizatsiyasi madaniyati davlatchilik bilan birga rivojlanib borgan. Xalifalikning qulashi bunga salbiy ta'sir ko'rsatmagan: IX-XI asrlarda arab-musulmon madaniyati o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqqan. Islom aqidalari, islom huquqi shakllangan. Diniy bahs-munozaralarda e'tiqod va aql, vijdon erkinligi, taqdir bilan bog'liq masalalar tilga olingan. Nozik va nazokatli she'riyat, tarix, falsafa va tibbiyot, fizika, kimyo, astronomiya kabi yo'nalishlarga bag'ishlangan asarlar yaratilgan.

Madaniyatning bunday tez sur'atlarda rivojlanishini bir necha sabablar bilan izohlash mumkin. Birinchidan, arablarning shahar madaniyati VII asrdayoq, yetarlicha yuqori darajaga erishgan: adabiy til ishlab chiqilgan, she'riy ijod va notiqlik san'ati rivojlangan edi. Ikkinchidan, xalifalikka azaliy an'analarga ega bo'lgan madaniy markazlar ham qo'shilgan, ular arablarning ma'naviy hayotiga juda katta ta'sir ko'rsatgan.

Islom ta'limoti va ma'naviyatining muhim jihatini ilm tashkil etadi. Muhammad (s.a.v.) Payg'ambarga birinchi nozil bo'lgan "Alaq" surasida ham ilmga da'vat bor. Birinchi vahiydanoq ilm olishga da'vat, avvalo, og'zaki shaklda bo'ldi, so'ng yozuvda o'z ifodasini topdi. Zero, yozuv san'at darajasiga ko'tarildi.

Islomda ilmga muhabbat bilan qaralgani uchun kitob bezash, xattotlik hamda miniatyura san'atlari rivojlandi.

Xalifalik tomonidan bosib olingan hududlarda ko'zga ko'ringan shoir va olimlar: Firdavsiy, Ibn Sino, Beruniy, al Farg'oni, Farobiy va boshqa ko'plab olimlar ijod qilganlar.

Ilm-fan taraqqiyoti yo'lida arablar qadimgi yunon faylasuf olimlarining asarlarini qunt bilan o'rganganlar. Ulardan eng muhimlari arab tiliga tarjima qilingan. Bular: Aristotel, Arximed, Gippokrat, Ptolomey, Yevklid kabi allomalarning asarlari edi. Bu asarlarning arab tilidagi nusxalari lotin tiliga qayta tarjima qilingan. Yevropa olimlari shu tarjimalar orqali bu asarlardan bahramand bo'lganlar.

Yirik shaharlar ilm-fan markaziga aylangan. Bag'dod, Qurdoba, Qohira kabi shaharlarda yirik oliy o'quv yurtlari - madrasalar ochilgan. Ularda diniy bilimlar qatori dunyoviy ilmlar ham o'qitilgan. Minglab kitob xazinasiga ega bo'lgan kutubxonalar qurilgan.

Xalifa Horun ar-Rashid (786-809) Bag'dod shahrida ilm-fan markazi bunyod ettirdi. Bu markaz "Bayt ul-hikma" deb ataldi.

Xalifa Ma'mun (813-833) "Bayt ul-hikma"ning har tomonlama mustahkamlanishiga katta hissa qo'shgan. Bag'dod, Damashq kabi shaharlarda katta-katta rasadxonalar bunyod etilgan.

Suriya shaharlari, Aleksandriyada arablar antik san'at va fanlarning mevalari bilan tanishganlar VII asrning oxiri-VIII asr

boshlaridayoq yunon ilmiy merosining arab tiliga qilingan tarjimalari paydo bo'la boshlagan. Boshqa an'analarga nisbatan tolerant munosabatda bo'lish ham islom madaniyatining yuksalishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan.

Arab xalifaligi davrida turli xalqlar yuksak madaniyat yaratganlar. Bu madaniyat tarixga Arab xalifaligi madaniyati nomi bilan kirdi. Xo'sh, buning sabablari nimalardan iborat edi?

Avvalo, Arab xalifaligida nisbatan tinch, osoyishta hayot ta'minlangan. Bu esa xo'jalik (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq)ning yanada yuksalishiga imkon bergan. Bu omil o'z navbatida madaniyatning taraqqiy etishiga shart-sharoit yaratgan.

Ikkinchidan, istilo natijasida xalifalikka birlashtirilgan turli o'lka xalqlari (Suriya, Misr, Eron, O'rta Osiyo, Kavkazorti, Shimoliy Hindiston)ning ilg'or madaniyati imkon qadar bir-birini boyitdi. Bu o'rinda yagona davlat tili - arab tilining ilm-fan tiliga aylanganligi katta rol o'ynagan. Buyuk allomalar qaysi xalq vakillari bo'lmasin, arab tilida ijod qilganlar. Bu omil xalifalik tarkibidagi turli xalqlarga bir-birining madaniyati yutuqlaridan foydalanishga imkon yaratgan. Binobarin, xalifalik madaniyatini faqat arablar emas, xalifalik tarkibiga kirgan barcha xalqlar yaratganlar.

VIII-X asrlarda Arab xalifaligining ulkan hududida arab tili muloqot tili bo'lgan. Bu tilda Qur'on yozilgan. Shuning uchun o'sha davrdagi barcha olimlar va faylasuflar o'z asarlarini arab tilida yozgan, qadimgi davrning eng muhim asarlari arab tiliga tarjima qilingan, madrasalarda arab tili o'qitilgan. Arab tilini "Sharqning lotin tili" deb atashgan, uning keng tarqalishi esa shunga olib keldiki arablarning yagona davlati tarkibiga kirgan barcha mamlakatlar madaniyatini ham arab yoki musulmon madaniyati deb atay boshlashgan. Arab xalifaligi yuksak qadimiy madaniyatga ega bo'lgan ko'plab mamlakatlardan iborat edi. Ushbu yerlar bo'ysundirilgan bo'lishiga qaramay, bu o'lkalarning madaniyatlari rivojlanishda davom etgan. Albatta, bu madaniyatlar xalifalik tarkibidagi boshqa mamlakatlar va xalqlarning madaniyati bilan aralashib ketgan va ular bir-birlariga ta'sir qilishgan.

Uchinchidan, arablar ham o'zlari istilo etgan o'лка xalqlarining ilg'or madaniyati durdonalarini qunt bilan o'rganganlar.

To'rtinchidan, Mansur, Xorun ar-Rashid, Ma'mun kabi Abbosiy xalifalar ilm-fan, madaniyat rivojiga homiylik qilganlar. Bu omillar, shubhasiz, madaniyatning yuksak darajada taraqqiy etishini ta'minlagan.

Arablar forslar orqali hindlarning matematika va astronomiya sohasidagi yutuqlari bilan tanishgan. Ular hindlar raqamlarini olishgan, yevropaliklar ularni arab raqamlari deb atagan. Harbiy yurishlarda xitoyliklar bilan to'qnash kelgan arablar kompasdan foydalanish qulayligini tez anglab olgan va uni faol suratda amaliyotda qo'llay boshlagan.

## San'at

Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyatida san'at, ayniqsa, me'morchilik san'ati alohida o'rin tutgan.

Tasviriy san'atning rivojlanishida tirik jonzotni tasvirlashni man etgan bo'lsa-da, bu tasviriy san'atning umumiy taraqqiyotini buka olmagan. Islom dinining muhim xususiyatlaridan biri uni qabul qilgan xalq vakillari uchun Islom aqidalarini ishlab chiqishda ishtirok etish imkoniyatini berganidadir. U o'ziga xos uch taraqqiyot bosqichi yoki davrni bosib o'tgan. Birinchisini, shartli ravishda, Qur'on davri deb atash mumkin. Qur'oni karimda o'z aksini topgan Arabiston aholisining diniy ongi darajasini ifoda etuvchi diniy-siyosiy va ijtimoiy qarashlar, huquqiy va axloqiy mezonlar butun musulmon olami uchun hozirgacha shak-shubhasiz umumiy qadriyat hisoblanadi. Deyarli 4 asr davom etgan ikkinchi davr Islomda umumislomiy ahkomlar hukmronligi ostida turli fikrlar yo'l qo'yilgani bilan ajralib turadi. Islomdagi yo'nalishlar, mazhablar va fiqaralar ana shu davrda paydo bo'ldi. Musulmonlarning diniy birligi hal qilib bo'lmaydigan muammo bo'lib qoldi. X-XI asrlarda an'anaga sodiq sunniylar bilan imomiy shialar, mu'taziliylar hamda ash'ariylar o'rtasida munosabatlar, ayniqsa, keskinlashib ketdi. Xalifa Qodir (991-1031) an'anaviy Islomni qonun asosida barcha uchun majburiy bo'lgan davlat dini

deb qaror toptirishga urinib ko'rdi. Shu maqsadda an'anaga sodiq ilohiyotchilar imzolagan "Dinning qodiriy ramzi" e'lon qilindi. Unda "haq din" deb e'lon qilingan an'anaviy diniy ta'limotning asosiy qoidalari mufassal bayon qilib berildi, undan chetga chiqish jazolashga loyiq e'tiqodsizlik deb qaraldi. Biroq bu tadbir ham Islomda diniy birlik o'rnatilishiga olib kelmadi. G'oyaviy kurash keyingi asrlarda ham davom etdi. Bu kurashda sunniylar ilohiyotchisi Ibn Taymiya, ayniqsa, ajralib turdi. U ilk islomni tiklashga, "haq din" asosida diniy birlikni o'rnatishga astoydil harakat qildi.

Islomdagi uchinchi taraqqiyot bosqichi musulmon dunyosi "chekka" o'lkalarining ahamiyati va o'rni ortganligi bilan bog'liqdir. Batamom o'zga madaniy an'analarga ega bo'lgan xalqlar musulmon dunyosining ma'naviy hayotiga qo'shilgach, Islomga o'z diniy-axloqiy tasavvurlari, huquqiy me'yorlari va odatlarini olib kirdilar. Movarounnahr, Eron, Shimoliy Afrika, Hindiston, Indoneziya kabi yirik tarixiy madaniy mintaqalarda Islom o'ziga xos xususiyatlar kasb etadi. Mana shu ta'qiqlangan ishlar natijasida Sharqiy arab mamlakatlarida dastgohlik tasviriy san'atning rivojlanishi birmuncha qiyin bo'ladi. Uning o'rnini esa qo'lyozma kitoblarga ishlangan bezaklar-miniatiyura san'ati egallaydi.

Yozuv va kitobat san'ati islomning rivojlanishiga katta yordam berdi. Yozuvning turli usullari, naqshlar bilan birgalikda islom me'morchilik san'atida ham qo'llanila boshlandi. Bunga Samarqanddagi Tillakori madrasasining osmono'par gumbaziga ishlangan juda go'zal, jimjimador naqshlari ranglariga tilla suvi yuritilib, undagi o'simlik shakllari va gullarini jannatning ramziy tasviri deb talqin qilinishi yorqin misol bo'ladi.

Islomda muqaddas so'zning yozma ko'rinishi sifatida hattotlik nihoyatda rivojlandi va san'at darajasiga ko'tarildi. Bundan tashqari monumental me'morchilik, tasviriy san'at, musiqa san'atlari ham g'oyat darajada taraqqiy eta boshladi. Yozma adabiyotga e'tibor, badiiy madaniyatning yuksak rivoji, so'z san'ati bilan shug'ullanish madaniylikning muhim belgisiga aylanib qoldi. Masalan, mahobatli bino Allohning yolg'izligi, buyukligi va ulug'vorligi ramzi bo'lib, bino ichidagi Qur'on

oyatlarining go'zal naqshlarda aks ettirilishi, bu yozuvlar ilohiy kalom, Allohning insonlarga hidoyati, ilmi sifatida nihoyatda qadriligidan dalolat beradi. Shunday qilib, so'z bu Allohning kalomi deb tushunilib, musulmon madaniyatining muhim elementi sifatida qabul qilindi. Qur'ondagi so'zlar badiiy mahoratning noyob namunasi sifatida baholandi.

Islomda badiiy asarlar xattot tomonidan husnixat bilan ko'chirilib, rang-barang qilib bezatilgan. Qo'lyozma sahifalariga oltin rang purkalgan, naqshlar chizilgan. Kitobning asosiy bezagi uning miniatyuralari bo'lgan.

X asrda yashagan olim Ibn an-Nadimning "Fehrist ul-ulum" (Fanlar ko'rsatkichi) asarida yetti xil yozuv mavjud bo'lgani aytiladi. Yozuvning yangidan yangi, chunonchi, suls, tavqe', riqo, nasx, ta'liq, nasta'liq kabi turlari rivojlandi va tasviriy san'atda, kitobat san'atida, me'morchilikda keng qo'llana boshlandi.

Umuman, miniatyurani yuzaga kelishida badiiy adabiyotning ravnaqi, kitobning qadimdan ilmu ma'rifat manbai sifatida yuksak qadrlanganidan dalolat beradi. Miniatyura kaligrafiya, sahifalarni ziynatlash, muqova bezagi bilan bir qatorda qo'lyozmaning eng asosiy murakkab dekorativ elementlaridan birini tashkil qilar edi. Miniatyuraning asosiy ahamiyati tekst mazmunini tushuntirish va umuman olganda dunyoviy xarakterga ega bo'lgan asarlarni bezashdan iborat edi. Asosan proza, poeziya, ilmiy traktatlar, tarixiy xronikalar aks etgan asarlarga miniatyura ishlangan. Ular orasida "Kalila va Dimna" hikoyalari yunon tabibi Dioskoritning "Farmologiya", Rashiddinning "Jam'ut tavorix" asarlari bor edi.

O'rta asr musulmonlarining qadimgi qo'lyozmalari faqatgina guash bo'yoqlar bilan ishlangan. Bu bo'yoqlarni tayyorlash usuli Yaqin Sharqqa VIII asrda O'rta Osiyo orqali Xitoydan o'tgan. Madaniyat markazlarini vayron qilgan, tez-tez sodir bo'lib turgan bosqinchilik urushlari tufayli ilk arab miniatyuralari deyarli saqlanib qolmagan. Bizgacha yetib kelmagan arab miniatyurachilarining asarlari ko'p bo'lmay ular ham, asosan, XIII asrga taalluqlidir.

Arab-islom madaniyati Shom, Eron, Turon zamin xalqlari madaniyati bilan qo'shib, o'zaro boyib borgach, falsafa, ilmu fan, san'at rivojlandi, tasviriy san'atga ham mo'tadil munosabatning

nazariy asoslari yaratildi. Musulmon faylasuflarining ilohiyot haqidagi falsafiy qarashlari islom tasviriy san'atining qadriyatlari va o'ziga xos yo'nalishlarini belgilab berdi.

Sharqiy Arabiston xalqlarining san'at, me'morchiligining ham alohida o'rni bor. Xalifalikning (Suriya, Misr, Falastin, Shimoliy Afrika, Eron, O'rta Osiyo, Janubiy Ispaniya) ko'pgina shaharlarida rivojlangan O'rta asr arab madaniyati insoniyatning progressiv rivojlanishida yangi bir bosqich bo'ldi. Ushbu xalqlarining asosiy xizmati shunda bo'ldiki, ular keyingi avlodlarga antik yunon-rim madaniyatining ko'pgina yutuqlarini saqlab qolib, uni rivojlantirgan holda yetkazib keldilar.

IX-XIII asrlar davomida Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari, Eron, Ozarbayjon va O'rta Osiyo xalqdari bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lib kelganlar. Bag'dod, Sheroz, Tabriz, Samarqand kabi shaharlar madaniyati va taraqqiyotning markazi bo'lib, o'zlarining ko'zga ko'ringan olimlari, shoirlari hamda fan va madaniyat o'choqlari bilan butun dunyoga tanilgan edilar. Go'zallikda tengi yo'q hukmdorlar saroylari soya-salqin, yam-yashil bog'lar ichida bunyod etilgan. Shahar me'morchiligi ham juda rivojlangan. Shahar ko'chalariga tosh yotqizilgan. Ko'chalar chiroqlar bilan yoritilgan. Masjidlar shahar ko'rkiga-ko'rk qo'shgan. Masalan, VIII-IX asrlarda Qurdobada bunyod etilgan masjidga 600 dan ortiq marmar ustun ishlatilgan. Ustunlar nihoyatda nafis bo'lib, ular masjidga ulug'vorlik baxsh etgan. Qohira shahridagi Hasan masjidi tepasiga qurilgan balandligi 55 metrli gumbaz ham kishilarni hayratga solgan. Arab quruvchilari ajoyib saroylar, maqbaralar va qal'alar qurishlari bilan shuhrat qozonganlar. Amirning Ispaniyaning Granada shahridagi Al-Hamro saroyi butun dunyoga mashhur. Xalifalikning har bir shahrida, albatta, masjidlar bunyod etilgan.

Shunday qilib, arab madaniyati bosib olingan hududlardagi xalqlar va davlatlar: forslar, sur'oniylar, yahudiylar, O'rta Osiyo xalqlarining madaniy yutuqlaridan ko'pini o'ziga singdirgan. Arablar ellinistik Rim madaniyati merosidan ham keng foydalangan. Arab xalifaligida vujudga kelgan va keng tarqalgan ma'naviy madaniyatning ta'siri juda katta bo'lgan. U nafaqat Sharqni, balki G'arb mamlakatlarini ham qamrab olgan edi.

Yevropa tibbiyoti, geografiya va boshqa fanlar islom olimlari ta'sirida rivojlanib borgan. Yevropa ratsionalizmiga Aristotelning ilmiy merosi bilan tanish bo'lgan yahudiy, arab, fors, turkiy faylasuflar juda katta turtki bergan.

Islom sivilizatsiyasi o'rta asrlar mobaynida va qisman yangi davrda G'arbiy Yevropaga kuchli ta'sir ko'rsatish bilan bir vaqtda, ma'lum darajada harbiy xavf ham tug'dirgan. Sharqning barcha sivilizatsiyalari orasida islom sivilizatsiyasi birmuncha ta'sir doiraga ega sivilizatsiya hisoblangan.

### **Muhokama uchun savol va topshiriqlar**

1. Arab qabilalari islom vujudga kelguniga qadar qanday hayot kechirgan?

2. Islom dini boshqa dinlar bilan nimasi bilan yaqin va qanday jihatlari bilan farqlanadi? Solishtiring. Masalan, Islom va xristianlik, yoki konfutsiylik ta'limoti. Islom dinida inson shaxsi va tanlash erkiga qanday ahamiyat beriladi. Bu narsa sivilizatsiyaga qanday ta'sir ko'rsatgan?

3. Davlatning xususiy mulkka munosabati Xitoy variantida qanday edi, musulmon varianti bilan solishtiring.

4. Qanday omillar arab xalifaligining birligini ta'minlab berdi? Arab xalifaligining qulashining sababi nima edi?

5. O'rta asrlarda Islom sivilizatsiyasida madaniyatning cho'qqiga chiqishini nima bilan asoslash mumkin?

6. Arab Ispaniyasi G'arbiy Yevropaga qanday ta'sir ko'rsatdi?

7. Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari nimalarda aks etgan?

### **Talabalarning mustaqil ishi**

“Islomning besh ustuni”, “Arab istilolari”, “Arab madaniyatining Oltin asri”, “Zamonaviy Yevropada Islom”, “Shariat qonunlari” bo'limlari bo'yicha hisobot va ma'ruzalar tayyorlang.

## **14-MAVZU. VIZANTIYA VA ROSSIYA SIVILIZATSIYASI**

### **Reja:**

1. Vizantiya tarixi evolyutsiyasining asosiy davrlari.
2. Sivilizatsiyaviy rivojlanishning Vizantiyacha modeli.
3. Vizantiya sivilizatsiyasining madaniy makoni.
4. Rossiya sivilizatsiyasi.

### **Vizantiya tarixi evolyutsiyasining asosiy davrlari**

Sobiq Rim imperiyasi hududida Vizantiya va G'arb o'rta asrlar sivilizatsiyasi vujudga keldi. Ya'ni, Vizantiya imperiyasi 395-yil Rim imperatori Feodosiy I vafot etgandan so'ng, uning o'g'illari Arkadiy va Gonoriyning Rim saltanatini ikki qismga – G'arbiy va Sharqiy qismga bo'lib olishlari natijasida tashkil topgan edi. Bolqon yarimoroli, Egey dengizidagi orollar, Kichik Osiyo, Suriya, Falastin, Misr, Mesopotamiya, Kavkazorti, Qrim yarimoroli janublari Vizantiya imperatori Arkadiy qo'l ostida bo'lgan.

Vizantiya uchta mintaqa - Yevropa, Osiyo va Afrikaing kesishgan joyida joylashgan bo'lib, 1 ml.kv.km gacha bo'lgan maydonni egallagan. Uning hududiga Bolqon yarimoroli, Kichik Osiyo, Suriya, Falastin, Misr, Mesopotamiya va Armanistonning bir qismi, O'rta Yer dengizi, birinchi navbatda Krit va Kipr, Xersones, Kavkaz yerlari, Arabistonning va Sharqiy O'rta Yer dengizining ayrim hududlari kirgan.

Vizantiya, Bosfor bo'g'ozining Yevropa qirg'oqlaridagi Yevropani Osiyodan ajratib turuvchi qadimgi shahar bo'lib, yunonlar tomonidan mil.avv. 660-yilda asos solingan. Milodning 330-yilida Rim imperiyasining ko'zga ko'ringan imperatori Konstantin sharafiga Konstantinopol deb nomlana boshlagan. 395-yilda Konstantinopol rasman qaror topgan davlatning poytaxtiga aylandi. 476-yilda Rim qulagandan so'ng va 1443-yilda turklar zarbasi qulashidan keyin Vizantiya markaziga aylangan.

Vizantiya imperiyasi ko'pincha Romaniya, uning aholisi romeylar (rimliklar) deb atalgan. Etnik jihatdan Vizantiya aholisi yunonlarga yaqinroq bo'lgan, biroq turli Vizantiya chegaralarida har xil xalqlar o'rnashgan edi. Ruslar Konstantinopolni Sargrad

(Podsholar shahri) deb atagan. Turklar uni Istanbul nomiga almashtirgan, 1453-yildan 1923-yil davomida esa bu shaharni o'zlarining poytaxtiga aylantirganlar.

Vizantiya sivilizatsiyasi juda murakkab va qarama-qarshi tarixiy yo'lni bosib o'tgan. IV-VII asrlarda Antiklikdan O'rta asrlar davriga o'tish jarayoni sodir bo'lgan. Vizantiya sivilizatsiyasining rivojlanish bosqichlarini quyidagicha ajratib ko'rsatish mumkin:

**Ilk bosqich** – IV-VII asrning birinchi yarmi - Vizantiya davlatchiligining shakllanishi va xristianlikning asosiy dinga aylanishi.

**O'rta bosqich** – VII ikkinchi yarmi-XII asrlar – Vizantiya sivilizatsiyasining gullab-yashnashi, yagona xristianlik ibodatxonasining G'arbiy va Sharqiyga bo'linishi, huquq kodifikatsiyasining yakunlanishi, yunon tilining rasmiy davlat tiliga aylanishi.

**So'nggi bosqich** – XIII-XV asrlar. Bu davrda imperiyada turg'unlik hollari va sivilizatsiyaning tugashi boshlangan.

Vizantiya garchi qiyinchiliklar bilan bo'lsa-da, varvarlar hujumlariga bardosh bera olgan. Qulchilik an'analari V-VI asrlarda ham saqlanib qolgan. Hatto VI asrda harbiy hududlar (Varvar qirolliklaridan tortib olingan)da ham qulchilik tiklandi. Hatto VII -VIII asrlarda ham Vizantiya "Romeylar" (rimliklar) davlati bo'lib qolavergan, chunki Rimning siyosiy va madaniy an'alarini saqlab qolishda davom etayotgan edi. Shunday bo'lsa-da, ijtimoiy tartiblarda qulchilik tobora ko'proq kirib kela boshlagan. Vizantiyaning feodallashishida slavyanlar (bolgar, serb, xorvatlar) katta rol o'ynagan. Ular Vizantiya hududlariga kelib o'rnashib, germanlar Rim imperiyasida qanday rol o'ynagan bo'lsa, Vizantiyada shu rolni slavyanlar o'ynagan.

Vizantiyaning slavyanlashuviga, varvar qirolliklari, slavyanlar, sharqda Eron davlatiga qarshi tura olgan, qulchilik an'alarini qayta tiklagan imperator Yustinian (527-565) edi. Nafaqat Vizantiyada germanlar va slavyanlar hujumini qaytargan, balki ularga qarshi hujumga ham o'ta olgan. Yustinian I G'arbiy Rim imperiyasi hududlarini ham o'ziga qo'shib olish uchun kurashgan. Uning sarkardalari Velizariy, Narseslar 534-yil Shimoliy Afrikadagi Vandal qirolligi, 555-yil Italiyadagi Ostgot

qirolligi, shu yili Ispaniyaning janubiy-shimolida xunlar, Sharqda Eron bilan to'qnashuvlarda g'alaba qozonadi.

Vizantiya sivilizatsiyasining eng gullab-yashnagan davri imperator Yustinian I (527-565) ning hukmronlik qilgan yillariga to'g'ri keladi. U Vizantiya tarixiga juda katta hissa qo'sha olgan. Jumladan, Afrikadagi vandallar, Italiya, Shimoliy Afrika, Ispaniyaning ma'lum bir qismidagi ostgotlar qirolligini qo'lga kiritgan, uning yurishlari natijasida vizantiyaliklar Italiyani ma'lum bir vaqt mobaynida egallashgan va Rimni o'z hududiga qo'shib olishga erishgan. VI asr o'rtalaridan imperiya hududi deyarli ikki marta oshgan. Uning davrida Rim imperiyasining avvalgi chegaralari qayta tiklangan. Biroq bu hududlar ko'p o'tmay qo'ldan boy berila boshlagan. VII asrda boshlangan arablarning bostirib kirishi natijasida Vizantiya hududlari kamayib borgan.

Yustinian davrining yana bir ahamiyatli jihati shunda ediki, u davlat boshqaruvi, qonunchilik borasida ham bir qator islohotlarni amalga oshirgan. Uning hukmronligi davrida barcha Rim imperatorlari qonunlari to'planib, Tribonian boshchiligida 528-534-yillarda "Fuqarolar huquqlari to'plami" ishlab chiqilgan. Bu davrda Yustinian tomonidan "Fuqarolik huquqi majmuasi" yaratildi. Bu qonunlar majmuasi Vizantiya va unga qo'shni davlatlarda uzoq asrlar davomida saqlanib kelgan. Ushbu qonunlar to'plami to'rt qismdan iborat bo'lib, 1-qismiga 12-jildidan iborat Rim imperatorlari qonunlari to'plami kirgan, 2-qismda Rim huquqining turli sohalariga oid, Rim huquqshunoslarining degistlari (50 kitobdan iborat, 3-qism institusiya deb nomlanib, sudyalalar va yuristlar uchun 1 kitobdan iborat) qo'llanma hisoblangan, 4-qism novellalardan iborat bo'lib, u dastlab kodekslarga kirmagan, 535-yildan Yustinian umrining oxirigacha qabul qilgan qonunlaridir. Yustinian qonunlarida kishilar ikki guruhga, qaram (qul) va erkin kishilarga bo'linsa-da, qullarni erkinlikka qo'yib yuborish, kolonlar to'g'risidagi qonunlar imperiyaning feodallashishidan dalolat berar edi.

Yustinian I uzoq muddatga bo'lmasa-da, Rim imperiyasini qayta tiklagan. Bu davrga kelib Bolqon, Kichik Osiyo yarimorollari, Mesopotamiyaning bir qismi, Armaniston, Suriya, Falastin, Misr,

Krit va Kipr orollari, Qrimdagi Xersones va Kavkazdagi Lazika Vizantiya tarkibiga kirar edi.



**Avliyo Sofiya ibodatxonasi**

532-yilgi Nika qo'zg'olonlaridan keyin Yustinian yirik yer egalari, senatorlar, magnatlarga qarashli yerlarni bir qismini cherkovlar va harbiy xizmatchi, kam yerli, yersiz dehqonlarga bo'lib berishga erisha olgan. Ma'muriy boshqaruvda markaziy hokimiyat rolini oshirish uchun, mahalliy hududlardagi ikkinchi darajali mansabdorlarni ham imperator buyrug'i bilan tayinlash tartibini joriy qilgan. Tuz, ipak va boshqa bir qator mahsulotlar savdosida davlat monopoliyasi o'rnatilgan.

IV-VI asrlarda Aleksandriya, Antioxiya (Suriyada), Edesa (Mesopotamiya), Tir va Bayrut (Finikiya), Efes, Smirna, Nikeya (Kichik Osiyo), Yevropa qismida Fessalonika va Korinf imperiyaning yirik shaharlari hisoblangan. Imperiyaning umumiy hududi taxminan 750 ming km<sup>2</sup> ni tashkil etgan. Tarixchilarning hisob-kitoblariga qaraganda, aholisining soni 30-35 mln kishidan iborat bo'lgan. Ular orasida suriyalik, yahudiy, arman, gruzin, Misrda yashagan koptlar, yunonlar Vizantiyada yashagan

aholining katta qismini tashkil qilgan. Lotin tili uzoq vaqt mobaynida davlat tili sifatida ishlatilgan. VII asrda lotin tili yunon tiliga almashgan. Vizantiya tarixining dastlabki davrida xristianlik ko'pxudolik madaniyatini siqib chiqara boshlagan.

Vizantiyada feodallashuv jarayoni VII asrda yaratilgan "dehqonchilik qonunlari" kitobida, ayniqsa, yorqinroq namoyon bo'lgan. Qonunlarda Vizantiya dehqon jamoalarining yerdan foydalanish tartibi quyidagicha bo'lgan: Jamoa yerlari har yil bahorda jamoa a'zolari o'rtasida taqsimlangan. Hosil yig'ib olingandan so'ng, barcha yerlar yana jamoa mulki hisoblanib, jamoa egalari chorva mollarini boqqan, dehqonchilik qonunlarida aprax - dehqonlar, ya'ni yerni ijaraga olib ishlovchi dehqonlar ham tilga olinib, ular yirik xususiy yer egalari va jamoadan yer ijaraga olib, hosilning yarmini yer egasiga berganlar.

Vizantiya madaniyati ilk o'rta asrlarda Yevropadagi eng ilg'or fan yutuqlari natijasida yuzaga kelgan, desak xato bo'lmaydi. Chunki Vizantiya Rim imperiyasi vorisi sifatida antik davr an'analari, ilm-fanini davom ettirish bilan birga, sharqdagi bilimlar va imperiya yaxlitligi evaziga yuqori madaniy yutuqlarga erishgan. Ayniqsa, qasrlar, ibodatxonalar qurilishida bu o'z aksini topgan. 532-538-yillarda qurilgan avliyo Sofiya cherkovi o'z davri uchun yirik va betakror arxitektura namunasi bo'lib qoldi.

Tarix fani bo'yicha Prokopiylar Kesariyskiyning ("Urug'lar tarixi"), "qurilishlar tarixi", "Sirli tarix" kabi asarlarida nafaqat Vizantiya, balki unga qo'shni xalqlar tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar saqlanib qolgan. Ular VI asrda yashagan Agafiy Prokopiylar ma'lumotlarini bir qadar to'ldiradi. Aniq fanlar sohasida Sofiya ibodatxonasini qurishda ishtirok etgan Aleksandr Trallskiy, Pavl Eginskiy, matematik mexaniklar Miletskiy, Anfimiya Trollskiylarni ta'kidlash lozim. Geograflardan Kozma Indikoplavt o'z davri uchun eng aniq xarita chizgani bilan alohida ajralib turgan. Yustinian zamoni va undan keyingi og'ir urushlar davrida xalq ahvoli og'irlashgan. Shuningdek, turli eretik sektalar faoliyati ham kuchayib borgan. V-VIII asrlarda imperiya uchun monofizistlar va nestorianlar, ayniqsa, xavfli tus oladi. Monofizistlar - V asrda shakllanib, ular Isoni oddiy inson emas, xudo deb hisoblaganlar. Nestorianlar esa G'arbdagi Arianlikka

o'xshab, Isoni oddiy inson deb hisoblaganlar. Bu oqimlar Misr, Suriya, Mesopotamiya hududlarida keng tarqalgan.

Vizantiya madaniyati Sharqiy Yevropa xalqlari hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Vizantiya arxitekturasi an'analari asosida Bolgariya (Sofiya ibodatxonasi), Kiyev va Novgoroddagi Sofiya ibodatxonalari qurilgan edi. Vizantiya madaniyati, ayniqsa, rus madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatdi. IX-XI asrlarda ham Vizantiyada devorga freskalar va tasviriy san'at namunalari asosida ishlov berish, mozaik tasvirlar tasvirlash usullari rivoj topadi. Zargarlik buyumlari, o'ymakorlik, metalga ishlov berish Yevropada eng taraqqiy etgan sohalar edi. Shuningdek, qurolsozlik, kemasozlik, tog'-kon ishlari ham yaxshi rivojlangan. IX-XI asrlarda Konstantin VII ning "Imperiyani boshqarish", "Femlar haqida", "Odatlar haqida" asarlari, Patriarx Fotiy (820-891)ning "Mirioblibion", Ioann Malala, Feodan, Georgiy Amartol, Anna Komnin, Nikita Akominat kabi tarixchilarni sanab o'tish mumkin. Ularning asarlarida Vizantiya va unga qo'shni xalqlar, salb yurishlari bilan bog'liq masalalar yoritilgan.

Vizantiyada xristian dinining provoslav cherkovi hukmron mavqega ega edi. Lekin asta-sekin G'arbdagi katolik yo'nalishidan ancha farq qila boshlagan. Provoslav cherkoviga Eron bilan bo'lgan urushlar raqobat natijasida Eron hududlaridan moniy va mazdak oqimlari zardusht ruhoniylaridan qochib Vizantiya hududlariga kirib kela boshlagan. Natijada bu oqimlar xristian provoslav diniga singib, hatto moniylik xristianlikda Pavlikanlik yo'nalishiga aylanib ketgan. Katolik mazhabidagi mamlakatlarga ham kirib borgan. Moniylik ta'sirida ilohiy ikonalar chizish va uni ilohiy qudratiga ishonish kuchaygan davrlarda hatto ikonachilik (butparastlik)ka qarshi kurash jarayonlari ham kuzatiladi.

Pavlikanlik yeretik mazhab deb e'lon qilingan. Xristianlikni katolik va provoslav mazhablariga ajralib ketishi 1054-yili Rim papasi va Konstantinopol patriarxi boshqaruv tizimidagi ibodat tili, odatlari ustida kelishmovchiliklari tufayli janjallashib, bir-birlariga anafema (la'nat) o'qigan. Katolik mazhabidan farqli o'laroq, Provoslav cherkovi markazlashmagan tashkilot bo'lib, rus sivilizatsiyasining dastlabki davrlarida rus mitropolitini Konstantinopol patriarxi tayinlasa-da, Mitropolit mutlaqo

mustaqil faoliyat olib borgan.

Arxitekturada, ayniqsa, cherkovlar qurilishida bazilika keng tus olgan. Kichik Osiyo, Suriya va Kalat-Seman bazilikasi keyinchalik Sofiya ibodatxonasi (gumbaz diametri 31,5 m, balandligi 55 m.) qurilishida keng qo'llanilgan. VII-VIII asrdan boshlab gumbazli ibodatxonalar Fessolonika sobori, Konstantinopoldagi Andrey Xrisis, Feodosiy, XI-XII asrlarda bu an'analar davom etib, Fessolonika Bibi Maryam, Panteley Mon, Afinada Feodor ibodatxonalari Sharq va g'arb an'alarini uyg'unlashtirgan edi.

Tasviriy san'atda yunon, Rim, G'arbiy Yevropa, Janubiy slavyan, Sharq san'ati uyg'unligini ko'rish mumkin. Asarlarda soya, chiziqlar va rangdorlik nihoyatda ifodali bo'lgan. Bunga Ravenadagi San-Vitalle cherkovi (547) Nikidagi Uspensia (VII asr), Dofnadagi monastir (XI asr) va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin. Miniatyurali asarlardan kitoblarni bezash va badavlat kishilar portretlarini jamlagan "Isusnovin o'ramli yozuvlari" (VII asr) "Parij platri" (X asr) va boshqalar misol bo'la oladi.

Musiqa san'atida professional musiqa evfemik-pardali so'zlarni ibodatxonalarda qiroat bilan aytish, organ, truba jo'rligida ijro etish rasm bo'lgan. Zabur, injil oyatlari ijrosi keng tarqalgan. V-VI asrlarda yashagan shoir va musiqachi Roman Kondak deb nomlanuvchi shaxs madhiya-gimnlardan murakkab kompotsiziyalar tuzgan. VIII asrda yashagan I.Domaskiy munojotlarning eng atoqli muallifidir. IX asrgacha Vizantiya musiqasi Yevropada peshqadamlik qilgan. Keyin inqirozga yuz tutgan.

V-VI asrlarda falsafada neoplatonizm hukmronlik qilar edi. Uni Prokl Diodox (410-485) tizimlashtirgan. IV asrda yashagan Seren Antineyskiy konus va silindrning kesishishini tadqiq qilgan. Feon Aleksandriyskiy matematikadan tashqari optika va astronomiya bilan shug'ullandi. Vrach Oribasiy (326-403) meditsina ensiklopediyasini yaratgan. IV asrda Konstantinopolda oliy dunyoviy maktab ochilib, VII asrda yopiladi va IX asrda yana qayta ochiladi. Eng mashhur faylasuflari Mixail Psell (1018-1078), Ioan Itol (XI asr) falsafa va cherkov bir-biridan mustaqil, ularning har ikkisi ham haqiqatni alohida tahlil qiladi, deb hisoblaydilar.

Biroq VII asrga kelib Vizantiya jamiyatida uzoqqa cho'zilgan inqiroz davri boshlangan. Mamlakatning VII-VIII asrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos jihati turli hayot shakllarining sintezi hisoblangan. G'arbiy Yevropada mavjud bo'lgan yirik rivojlangan yer egaligining vassal-len tizimi Vizantiyada qaror topmagan edi. Qaram dehqonlarning ma'lum bir qismi "xarob" deb nomlanuvchi, yer egasi qo'lida mehnat qilgan va ma'lum bir miqdordagi soliqlarni to'lovchilar edi. Dastlab ular **komituralar**, keyinchalik esa **pariklar** deb atalgan. Vizantiya dehqonlarining ma'lum bir qismi shaxsan erkin bo'lib, jamoalarda yashagan. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy markazlari shaharlar hisoblangan, ammo savdo-hunarmandchilik doiralari davlat buyurtmalariga qat'iy qaram bo'lib, imperatorlik saroyining marhamatiga bog'lanib qolgandi. Vizantiyaning shahar aholisi qatlamlarining holati G'arbiy Yevropa shahar aholisi qatlamlari holatidan sezilarli darajada farq qilgan.

1204-yilda Konstantinopol G'arbiy Yevropalik ritsarlarning to'rtinchi salib yurishlari davrida talangan. Venetsiyalik savdogarlar ritsarlar qo'li bilan o'zlarining savdodagi raqobatchisini chetlatishni maqsad qilib olgan edi.

Salibchilar Konstantinopolda poytaxt bilan birga Lotin imperiyasini vujudga keltirdilar. Tuzilishiga ko'ra murakkab bo'lgan davlat tizimiga imperatorlar yerlari bilan bir qatorda bevosita Fessalon qirolligi, Axey knyazligi, Afina gersogligi va boshqalar kirgan edi. Ritsarlik knyazliklari birlashmalari bilan bir qatorda Epir podsholigi, Trapezund va Nikeya imperiyasi ham vujudga kelgan. Imperator Mixail VIII asrda 1261-yilda so'nggi marta Vizantiya yerlarini Konstantinopol atrofida birlashtirishga muvaffaq bo'ldi.

Vizantiya tarixining so'nggi davri juda murakkab kechgan. Fuqarolar urushi, italiyalik savdogarlarning zo'ravonligi, Bolgariya, Serbiya, Turkiyaga qarshi urushlar mamlakat kuchlarini holdan toydirib qo'ygan edi.

1453-yilning 29-mayida turk-usmonlilar tomonidan Konstantinopolni qamal qilish vaqtida Vizantiya imperatori Konstantin XI Paleolog vafot etadi. 1461-yilda turklar

Trapezundni egallagan. Shunday qilib Vizantiya sivilizatsiyasi o'z nihoyasiga yetgan.

Vizantiyaning asosiy iqtisodiyotida ming yil davomida qishloq xo'jaligi juda samarali bo'lgan. Suv va shamol tegirmonlari qurilgan. Dengizchilik uchun qiyalangan parusning kashf qilinishi juda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

678-yildayoq Suriyada mashhur "yunon olovi" kashf qilingan. Qoramoy, oltingugurt, neft, selitra va boshqa moddalarning qorishuvi yordamida yunonlar arab va turk flotlari bilan muvaffaqiyatli kurashlar olib borganlar.

Vizantiyada kimyo (bo'yoq, oyna, shuningdek, kuchaytirilgan zahar va boshqalarni ishlab chiqish) ham rivojlangan, maxsus kimyoviy moddalarning belgilari kiritilgan. Lev Matematik IX asrda birinchi bor matematik ramzlar sifatida harfli belgilardan foydalangan.

Vizantiya kosmografiyasi Yerni – okean va osmon majmuasi bilan qoplangan tekis to'rtburchakdan iborat deb hisoblagan. Tabiatshunoslikning ko'pgina sohalarida vizantiyaliklar o'z zamondoshlaridan ancha ilgari ketgan edi.

Vizantiya tarixining dastlabki bosqichida senat, davlat kengashi va dimlar – shahar aholisi birlashmasi mavjud bo'lgan. Vizantiya imperatori (**bazilevs**) senat, armiya va dimlar tomonidan saylangan. Ushbu muhim hodisa otchopar (bu davrda hali ham sirk deb atalgan)da, otlar musobaqasi vaqtida bo'lib o'tar edi. Turli nomzodlar tarafdorlari poyga aravasi izvoshchisining plash rangi bo'yicha "sirk partiyasi" atrofiga birlashgan: levkalar (oq rang), rusilar (qizil rang), prasinlar (yashil), venetlar (havorang).

Ot musobaqasi davrida poyga aravalari "partiya" boshliqlari, boy kishilar tomonidan olib chiqilgan. Dimlar o'rtasida ko'pincha keskin to'qnashuvlar kelib chiqar edi. Masalan, Yustinian I davrida va uning 532-yilda qo'llab-quvvatlashi bilan sirkda bir partiya yollanma – varvarlar yordamida to'g'ridan-to'g'ri o'zining 35 ming kishilik raqibini yakson qilishga muvaffaq bo'lgan. Konstantinopolning siyosiy hayoti fitna, suiqasd, xiyonatkorlik, qotilliklarga to'liq bo'lgan. Vizantiya siyosatchilarining prinsipsizligi, yolg'onchi va ikkiyuzlamachiligi, vahshiyiligi

“vizantiyacha fe'l-atvor” atamasini vujudga keltirgan edi. 107 ta mustaqil hokimdan faqat 42 tasi o'z ajali bilan yoki jang vaqtida o'lgan bo'lsa, qolganlari yo o'ldirilgan yoki taxtdan voz kechgan.

Shunday qilib, Vizantiya o'zidan avvalgi Rim sivilizatsiyasi merosining barcha asosiy elementlarini saqlab qola oldi. Yirik yer egaligiga o'tish G'arbiy Yevropaga nisbatan birmuncha sekinroq kechgan va bu jarayon XI asrga kelib yakunlangan.

Umuman olganda, Vizantiyaning ming yillik sivilizatsiyasi jahon sivilizatsiyaviy jarayonlarida alohida o'rin tutadi:

Birinchidan, Romaniya (ya'ni, boshqacha nom bilan aytganda Vizantiya) antik va o'rta asrlar davri o'rtasidagi buyuk ko'prik vazifasini o'tadi. Vizantiya tufayli nafaqat Antik madaniy merosining ma'lum bir qismi saqlab qolindi, balki Uyg'onish davrida antiklikni yangicha tushunishga ham asos tayyorlandi. Vizantiyaliklar o'zlaridan avvalgilarning yutuqlaridan foydalanmagan biror-bir soha yo'q, deyish mumkin. Iqtisodiy va siyosiy tuzilma, notiqlik, tasviriy san'at, oilaviy munosabatlar hamda odatiy turmush tarzi – barcha sohalarida vizantiyalik yunonlar Antik davr yunonlarining tirishqoq va munosib shogirdlari bo'lgan. Misol uchun, Vizantiyada ta'limning antik tamoyillaridan foydalanilgan. Konstantinopol universitetiga ham 1045-yildayoq asos solingani ham bejiz emas, u zamonaviy oliy ta'lim asoslari sifatida tarixiy birinchilik uchun da'vo qilishga to'la haqli.

Ikkinchidan, Vizantiya ming yillar mobaynida turli sivilizatsiyalar o'rtasida ko'prik vazifasini o'tadi. Geografik, geosiyosiy holatiga ko'ra Konstantinopol (keyinchalik Istambul) yevropaliklar uchun musulmon Sharqi “Osiyoga ochilgan darcha” hisoblangan bo'lsa, Sharq uchun “Yevropaga ochilgan darcha” vazifasini o'tagan. Shu munosabat bilan Vizantiya sivilizatsiyasi va madaniyati ekstravert (tashqi olamga nisbatan ochiq) xususiyatga ega bo'lgan, shu bilan bir qatorda qo'shni xalqlarga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Bu xususiyat Antik davr yutuqlarining akkumulyatori va inson hayot tarzining ko'pgina sohalaridagi turli innovatsiyalari uchun poligon sifatida Vizantiyaning rolini oldindan belgilab berdi. Vizantiyalik savdogarlar, diplomatlar, diniy vakillar, me'mor, rassom, imperiya manfaatlariga xizmat qiluvchilar

Vizantiyani o'zlarining antik va o'rta asrlar davri o'rtasidagi rishta bog'lovchi missiyasi amalga oshirishida yordam bergan.

Umuman olganda, sivilizatsiyaning Vizantiyacha modeli – Sharqiy Rim imperiyasi borgan yo'l hisoblanadi. U antik davrning barcha asosiy merosini (yirik shaharlar to'ri, savdo va hunarmandchilikka asoslangan iqtisodiyot, yer mulk jamoasiga mos holdagi qulchilik, madaniyat rivoji, rivojlangan huquqiy tizimga ega kuchli davlat) saqlay olgan.

### **Rossiya sivilizatsiyasi**

Rossiya geografik joylashuvi va etnik jihatdan Yevropa va Osiyoni o'ziga birlashtirganligini ko'rishimiz mumkin. Uni G'arb va Sharq o'rtasidagi o'rnini alohida ko'rsatib turuvchi nom – Yevroosiyo yoki O'rta dunyo deb atalishi ham bejiz emas. Bu narsa Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, uning davlatchiligi va ma'naviy madaniyatiga qay darajada ta'sir ko'rsatadi? G'arbm, Sharqm qaysi biri ko'proq ahamiyat kasb etadi? Rossiya rivoji qaysi yo'nalishdan bormoqda? Ushbu savollarning barchasi hozirda ham bahs-munozarali xususiyat kasb etadi. Ba'zi tarixchilar garchi Rossiya Yevropaga nisbatan birmuncha sekin rivojlanib borayotgan bo'lsa ham, uning bir bo'lagi sifatida qarashgan, boshqalari o'zining tarixiy yo'lga ega, alohida sivilizatsiya sifatida Yevropadan ajratib ko'rsatgan. Bu yondoshuvlarning qay birini to'g'ri deb hisoblash mumkin? Bu masalani hal qilish uchun tarixga murojaat qilish lozim.

### **Sivilizatsiyalar makoni**

Rossiyaning butun tarixi – bu geografik makonning uzluksiz, uzoq asrlarga cho'zilgan jarayoni hisoblanadi. Bunday yo'l ekstensiv yo'l bo'lgan: Rossiya doim yerlarni o'zlashtirish uchun sharqqa tomon siljish muammosi bilan to'qnash kelgan. Og'ir geografik va G'arbiy Yevropaga nisbatan past iqlim sharoitida aholining zichligini hisobga olganda bu “qochib borayotgan” sivilizatsiyaviy makonga ega bo'lish juda murakkab vazifa edi.

XVI asr oxirlarida kazak atamani Yermak (1581-1582)ning yurishi Sibirning boy tabiiy resurslarini o'zlashtirilishini boshlab berdi. Sibir tomon siljib borish juda tez sodir bo'ldi: XVII asrning birinchi yarmida kolonistlar Ural tog'laridan Tinch okeaniga qadar bo'lgan hududni bosib o'tgan. Bu hududlar dehqonchilik uchun deyarli unumdor bo'lmagan. Hosildorlik past bo'lgan. Qolaversa, bunday holat Rossiyada XIX asrga qadar saqlanib qolgan. Yevropada esa XVI-XVII asrlarga kelganda hosildorlik bundan ancha yuqori bo'lgan, masalan Angliyada, ya'ni dehqonchilik rivojlangan mamlakatda bundan ham ikki barobar ortiq edi.

Bundan tashqari, qattiq mintaqaviy iqlim qishloq xo'jaligi ishlari davrida hosildorlik darajasini juda qisqarishiga olib kelgan. Shimolda, Novgorod va Pskov rayonlarida u to'rt oy davom etsa, markaziy rayonlarda, Moskva atroflarida 5,5 oy davom etar edi (G'arbiy yevropalik dehqon uchun davr 8-9 oyni tashkil etgan. Ya'ni u yerga ishlov berish uchun ancha ko'p muddatga ega edi).

Rossiyadagi birmuncha hosildor qalinligi uch metrgacha keluvchi qora tuproqli sahroli yerlar nisbatan ancha unumdor hisoblangan. Qora tuproqli yerlar 100 mln ga yaqin maydonni tashkil etgan bo'lib, Rossiyaning dehqonchilik yerlarining yadrosini tashkil etar edi. Biroq, sahroli yerlar nisbatan kechroq – XV asr oxiri-XVI asrlarga kelib o'zlashtirilgan. Sahroli yerlar rossiyaliklar tomonidan XVIII asr oxirlariga kelib, ya'ni turklarga hal qiluvchi zarba berilgandan so'ng to'liq o'zlashtirilgan. Azaldan chorvachilik rivojlangan hududlar, rus qo'shchilari tomonidan dehqonchilik rayonlariga aylantirila boshlagan. Bunday yerlarni o'zlashtirish natijasida XVI asrga kelib non mahsulotlari sonini birdaniga o'sishiga erishilgan, XVII asrga kelib esa uni chetga sotish boshlangan.

### **Sibirni o'zlashtirilishi (ekspansiya to'liqlari)**

Rossiyaning iqtisodiy hayotida ovchilik, baliqchilik, asalarichilik kabi sohalar muhim rol o'ynagan. Bunday farovonlik manbaiga erishish hali odam qo'li tegmagan yangi va yangi yerlarni o'zlashtirish hisobiga amalga oshirilgan.

Katta oraliq masofa esa umuman faol rivojlanayotgan savdoga to'siqlik qilar edi. Bunda nafaqat mahalliy, balki yirik xalqaro ahamiyatga ega daryolar muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Masalan, Skandinaviyadan Vizantiyaga, Qora dengizga qadar boruvchi mashhur suv yo'li birmuncha ahamiyatga ega bo'lgan.

Umuman, barcha hududlar (ayniqsa, malakatning geografik doirasini o'sib borishi holatida) o'rtasida mustahkam iqtisodiy aloqalar o'rnatilishini ta'minlash oson bo'lmagan. Bu esa ularning iqtisodiy ixtisoslashgan va mahsulot bozorlari rivojini sekinlashtirar edi. Bozorlar rivojining kuchsiz rivojlanishi esa turli hududlarni iqtisodiy jihatdan ixtisoslashuviga yordam bermas, shuningdek, qishloq xo'jaligining unumdorligini oshishini rag'batlantira olmas edi.

Shunday qilib, Rossiya makoni o'zining boy potensial imkoniyatlariga ega bo'lgani holda, sivilizatsiyaning rivojlanishi uchun ma'lum darajada murakkabliklarni ham vujudga keltirar edi: axir uni o'zlashtirish lozim bo'lgan, bu esa vaqt, odam resurslari va og'ir sharoitlarni talab qilar edi.

Kristianlik bilan birga Qadimgi Rus Vizantiyadan tezlik bilan siyosiy ongga singgan monarxik davlat g'oyasini ham olgan edi. Rusda cho'qintirish davri aynan yagona va kuchli davlatni qaror toptirish va mustahkamlash buyuk knyazning hayotiy ehtiyojiga aylangan bir vaqt, ya'ni davlatchiligining shakllanishi davriga to'g'ri kelgan. Vladimirmi tanlovi aynan provoslav diniga tushgan edi – turli sabablardan tashqari va u katoliklikdan farqli o'laroq hokimiyatni to'la imperator hokimiyatiga bergan edi.

## **Hokimiyat va xristian gumanizmi**

Tarqoqlik davri (XIII)da kuchli hokimiyat idealini "Ibodat" («Moleniye»)ni yozgan Daniil Zatochnik ilgari surgan. Biroq yagona hokimiyat g'oyasi hokimiyat insonparvar va dono bo'lishi kabi talablar bilan chambarchas bog'liq edi.

Bunda siyosiy arbob va yorqin yozuvchi sifatida tanilgan Vladimir Monomaxning "Nasihati" qiziqish uyg'otadi. Monomax o'zining hoynaxoy ideal knyaz obrazi, ya'ni merosxo'rga bag'ishlangan "Nasihati"da hokimiyat axloqlilikka va yevangeliya

qoidalariga ko'ra bo'lishi uchun intilgan. Shuning uchun bunday qoidalar kuchsizlarni himoya qilishi, adolatga xizmat qilishi lozim edi. Ma'lumki, Monomaxning o'zi insonning yashash muddatini Xudoning o'zi belgilaydi, deb hisoblab, eng ashaddiy jinoyatchilarni ham qatl qilishdan voz kechgan. Bundan tashqari, uning fikricha, doimo nimanidir o'qib, o'rganib borish lozim. Ya'ni u "Qo'lingizdan kelsa, yaxshilikni unutmang, qo'lingizdan kelmasa, buni o'rganing", deb aytar edi. Qolaversa, knyaz o'z atrofida ijtimoiy holatidan qat'iy nazar, dono maslahatchilarni yig'ishni muhim deb hisoblagan. Masalan, Daniel Zatochnik "Dono kambag'al kishini nondan mosuvo qilma, boy ahmoqni osmon qadar ko'tarma", deb yozadi. Albatta, bu tavsiyalar va haqiqiy hayot o'rtasida katta farq mavjud bo'lgan. Hokimiyat uchun keskin kurashlarda knyazlar qasos olishlar, qotilliklar va boshqa jinoyatlarni ham sodir etgan, ammo bunday idealni mavjud bo'lishi hokimiyat harakatlarini tanqid qilish va unga baho berish imkoniyatini ham tug'dirar edi.

### **Hokimiyat me'yorlari (chegaralari) muammosi**

Hokimiyat g'oyasi markazlashgan davlat – Moskva Rusining vujudga kelishi davrida o'zgarishlarga uchradi. Bu davr Konstantinopolni olinishi (1453) hamda Vizantiyaning qulashi davriga to'g'ri keldi. Rus davlati o'zining siyosiy mustaqilligini (Serb va Bolgar podsholigi Vizantiya qulashidan avvalroq o'z mustaqilligini yo'qotib bo'lgan edi) saqlab qolgan yagona provoslav davlati bo'lib qoldi. Ivan III so'nggi Vizantiya imperatori – Sofiya Paleologning akasini qizi bilan nikoh tuzish orqali Vizantiya monarxlari merosxo'rlaridan biriga aylanadi. Moskva knyazi endi Vizantiyacha podsho va avtokrat sifatida ko'ri-la boshlaydi.

Hokimiyatning diniy-siyosiy jihatdan yuksalishi jarayonini Pskov cherkovi ruhoniylaridan biri Filofey tomonidan XVI asr boshida shakllangan "Moskva – uchinchi Rim" nazariyasi yakuniga yetkazdi. U Moskva podshosi – endi butun yer yuzidagi va barcha provoslavlarining himoyachisi, chunki ikkita Rim (Qadimgi Rim va

Konstantinopol) quladi, uchinchi – Moskva esa turibdi, to'rtinchi esa bo'lmaydi, deb ta'kidladi.

Rus provoslav dunyosining so'nggi va abadiy podsholigi, qadimgi buyuk provoslav davlatlari merosxo'ri deb e'lon qilindi. Bu davrda kuchli, hech narsa bilan chegaralanmaydigan hokimiyat ayniqsa, juda ommalashgan. Yakkahokimlik hukumatini Iosif Volotskiy (1439-1515) ruhoniylar boshchiligidagi cherkov guruhlarini qo'llab-quvvatladi. Rossiyada XIX asrda tarixchi V.O.Klyuchevskiy yozganidek, podsho o'ziga xos mulk egasi ham hisoblangan: butun mamlakat u uchun bo'lgan, ya'ni to'liq egasi sifatida boshqargan. Bu narsa, ayniqsa, Ivan Grozniy (boshqaruv yillari: 1533-1584)ga ham xos bo'lgan. Ivan Grozniy podshoning harakatlari sud qilinmaydi: uni jinoyatda ayblash va badnom qilish mumkin emas, deb hisoblagan. Podsho, uning fikricha, diniy-axloqiy me'yorlarga bo'ysunishi shart emas – bu me'yorlar uchun yaxshi, hamma narsada erkin bo'lgan yakkahokim uchun emas, ruhoniylar uchun yaxshi. Albatta, Ivan Grozniy nazariyasidagi bu kabi shaxsiy xislatlari va boshqaruvidagi o'ziga xoslik keskinliklarni ham keltirib chiqargan. Biroq, oliy boshqaruv tizimidagilar ongida uzoq vaqt saqlanib qolgan hokimiyatning roli va uning jamiyatga bo'lgan munosabatini Ivan IV birmuncha aniq ifodalab berdi.

Jamiyat avtoritarizmning vujudga kelishiga jamiyatning munosabati qanday bo'ldi? Bu davrda bir necha siyosiy nazariyalar vujudga keldi, ularning mualliflari hokimiyatning insonparvarligi va uning jamiyat oldidagi mas'uliyati masalasiga turlicha yondashdi.

Tug'ilib kelayotgan rus dvoryanligi o'z mafkurachisi – mamlakatda o'zgarishlar dasturi bilan Ivan Grozniyga murojaat qilib arznoma yozgan Ivan Peresvetovni ilgari surdi. Uning nuqtai nazariga ko'ra, podsho o'z maslahatchilari, дума bilan hokimiyatni boshqarishi va hech bir ishni ularning roziligidan o'tmasdan boshlashi mumkin bo'lmagan. Peresvetov mamlakatda boyarlar majburiyatlari, hokimlar yig'inlari, podsho hokimiyatining len tizimi ortidan kelib chiqqan mavjud qashshoqlik podsholik xizmatchilari orasida dushmanlikni keltirib chiqardi. Ammo bu holatdan chiqishning yagona yo'li bu,

Turkiyada mavjud tartiblar va Sharqqa xos bo'lgan despotik tuzumni kuchaytirilishi bo'lishi lozim, deb hisobladi. To'g'ri, bunda Peresvetov haqiqiy kuchli davlatda uning aholisi o'zini qul sifatida emas, erkin kishilar sifatida his qilishlari lozim, deb ta'kidlaydi.

G'arbnii mo'ljal olgan knyaz Andrey Kurbskiy esa o'zining "Buyuk Moskva knyazi tarixi to'g'risida" asarida monarxiya qatlami himoyachisi sifatida chiqib, yana bir yondashuvni ilgari suradi. Uning fikricha, podsho davlatni nafaqat o'z maslahatchilari bilan, balki "umumxalq" bilan boshqarishi lozim. Yakkahokim hukumat uning nuqtai nazariga ko'ra, xristianlikning tamoyillariga zid hisoblanadi: zolim, despotik podshoni o'zini Xudoga teng deb bilgan iblisga tenglashtiradi.

Aynan Kurbskiy bilan o'zining g'arbiy Yevropa siyosiy nazariyalariga yaqin bo'lgan ideallarga o'xshash rus liberal siyosiy tafakkuri shakllandi. Afsuski, Rossiyada bu nazariyalarni amalga oshirish uzoq asrlik og'riqli jarayon bo'lib, bu yo'lda jiddiy to'siqlarga uchradi.

XVI asrdagi yirik diplomat va yorqin mutafakkir Fedor Karpov jamiyatdagi adolatlilik va qonuniylikka katta ahamiyat qaratdi. Uning uchun jamiyat farovonligi mamlakat buyukligining asosini tashkil qiladi. Ya'ni jamiyatning qonunsizlik bilan "uzoq vaqt chidab turishi", itoatda bo'lishi oxir-oqibat davlatni yemiradi.

Shunday qilib, hokimiyatning qanday bo'lishi kerakligi to'g'risidagi fikrlar turlicha bo'lgan. Biroq bu muammoning o'zi XVI asrdayoq rus intellektuallari orasida bahs-munozara mavzusiga aylangan va borgan sari monarxning cheklanmagan hokimiyat g'oyasiga qarshi chiquvchilar ko'paya bordi.

Rossiya tarixi bilan shug'ullanuvchi ko'zga ko'ringan g'arb tarixchilaridan biri R.Payps, rus davlati borgan sari mamlakatda avtoritar rejim o'rnatgan holda jamiyatni bo'lak-bo'laklarga bo'lib "yutib" borgan, deb yozadi.

Haqiqatdan ham, G'arbiy Yevropadan farqli o'laroq, jamiyat davlatga ta'sir ko'rsatmagan va Rossiyada davlat va jamiyat o'rtasida bunday munosabatlar o'rnatilmagan edi. Rossiyadagi vaziyat boshqacharoq edi: bu yerda jamiyat davlatning kuchli bosimi ta'siri ostida bo'lib, so'zsiz uni kuchsizlantirgan (sharq despotizmini eslaylik: kuchli davlat - kuchsiz jamiyat) va uni

yuqoridan turib, asosan qat'iy usullar bilan boshqarib, yo'naltirib turgan.

## **Davlat va feodalizmning rivojlanishi**

Qadimgi Rus sintezsiz variantni bergan va shuning uchun sekinlashgan feodal rivojlanishi kuzatiladi. G'arbiy Yevropaning ba'zi mamlakatlari (Sharqiy Yevropa va Skandinaviya)ga o'xshab sharqiy slavyanlar ibtidoiy jamoachilik tuzumidan to'g'ridan-to'g'ri feodalizmga o'tgan. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tashqi omil - mo'g'ul-tatarlarning bostirib kirishi ham Rus davlatining ko'pgina ko'rsatkichlar bo'yicha ortga surgan holda salbiy rol o'ynagan.

Aholi sonining kamligi hamda Rossiya rivojining ekstensiv xususiyati, feodallarni dehqonlarning yerlarini tashlab ketishini oldini olishga bo'lgan harakatlari muqarrar edi. Biroq hukmron sinf bu muammoni mustaqil hal qilishga qodir emas edi - feodallar, asosan, qochqinlarni qabul qilmaydigan shaxsiy shartnomalarga uchar edilar. Bu sharoitlarda hukumat dehqonlarning iqtisodiyotdan tashqari majburiyatlarini o'z zimmasiga olib, feodal munosabatlarni qaror topishida faol rol o'ynadi. Krepostnoylashtirish natijasida krepostnoylarni asta-sekin bir feodaldan ikkinchi feodalga o'tishi imkoniyatidan mahrum qilish dehqonlar safidan chiqarish yuqoridan turib (1497-y. - Yuryev kuni qonuni, 1550-y. - "keksayganlik"ning oshirilishi, 1581-y. - "taqiqlangan yillar"ni) kiritilishi yo'li bilan amalga oshirib borildi. Va nihoyat, 1649-yilgi qonunnoma krepostnoylik huquqini uzil-kesil qaror toptirdi va bu bilan nafaqat mulkka egalik qilishda, balki krestyanlarning shaxsiga ham egalik qilish imkoniyatini berib, feodalga to'liq erkinlik berdi. Krepostnoylik huquqi feodal qaramlik shakli sifatida uning juda og'ir variantini aks ettirar edi. Natijada Rossiyada o'ziga xos vaziyat qaror topdi: shaxsiy qaramlikning eng kuchaygan payti ayni mamlakat yangi davr yo'liga kirgan vaqtga to'g'ri keldi.

1861-yilga qadar saqlanib qolgan krepostnoylik huquqi qishloqdagi tovar-pul munosabatlariga o'ziga xos shakl berib rivojlandi: nafaqat dvoryanlar, balki dehqonlar ham faol ishtirok

etgan tadbirkorlik, asosan, erkin yollangan ishchilarga emas, balki krepostnoylar mehnatiga asoslangan. Huquqni qo'lg'a kiritmagan tadbirkor-dehqonlarning ko'pchiligi o'zlarining faoliyatini himoya qiluvchi mustahkam kafolatga ega emas edilar.

Biroq kapitalizmning, ayniqsa, qishloqlarda sekinlik bilan rivojlanishining sababi faqat bugina emas edi. Bunda rus jamoasining o'ziga xos xususiyatlari ham muhim rol o'ynagan. Sotsial organizmning asosiy ijtimoiy hujayrasini tashkil etgan rus jamoasi ko'p asrlar davomida jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy hayoti dinamikasini belgilab bergan. Unda jamoaviy boshlanish nuqtasi juda yaqqol aks etgan edi. Feodal mulk shart bo'lgan rus jamoasining sharoitlarida ishlab chiqarish yacheykasi sifatida saqlanib rus jamoasi jamoa feodal ma'muriyatining boshlanishi ostida o'zini-o'zi boshqarish xususiyatini yo'qotgan edi.

O'z-o'zini boshqarish belgilari, ayniqsa, davlatning qo'l ostida bo'lgan dehqonlarda yorqinroq aks etgan: bu yerda mahalliy saylov boshqaruvi – zemstvo oqsoqollari saqlanib qolgan edi. Bu oqsoqollar Ivan Grozniy davrida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Jamoaning o'ziga xos turini kazaklar tabaqasi bergan. Bu yerda rivojlanishning individual ko'rinishi uchun imkoniyatlar kengroq bo'lgan, biroq bu jamoa Rossiya uchun belgilovchi muhim ahamiyatga ega emas edi.

Jamoa Rossiya jamiyatidagina yagona va o'ziga xos alohida bo'lmay, bunday jamoalar feodalizm davrida G'arbiy Yevropada ham mavjud bo'lgan. Biroq g'arb jamoasi asosida uning nemis varianti, ya'ni rus jamoasiga nisbatan birmuncha dinamik ko'rinishi yotar edi. Unda individuallik tezroq rivojlangan.

Rossiyada votchina va davlat jamoalari qishloq hayotini tenglashtiruvchilik tamoyilini qo'llab-quvvatlagan holda XIX asrga qadar saqlanib qolgan. Hatto islohotlardan so'ng jamoalar tovar-pul munosabatlariga tortilgandan so'ng ham, u hukumatning qo'llab-quvvatlashi, ayniqsa, dehqonlarning ma'lum bir qismiga berilgan tayanch hisobiga u o'zining an'anaviyligini yo'qotmadi.

Agrar o'zgarishlar tarixi ushbu ijtimoiy yacheykaning qay darajada hayotchanligi va bir vaqtning o'zida konservativ bo'lganligini yaqqol ko'rsatadi.

Rossiyadagi krestyanlar aholining asosiy qismini tashkil etgan. Biroq eng asosiysi qishloqlardagi iqtisodiy hayotdagi an'anaviylik va tenglashtiruvchilikni qo'llab-quvvatlash bilan jamoalar burjua munosabatlarini vujudga kelishi va qaror topishi uchun mustahkam to'siqlar qo'ygan edi.

**Davlat va jamiyat.** Hukmron sinf, feodallar dinamikasini o'sishi ko'p jihatdan davlat siyosatini belgilab bergan. Rossiyada yerga egalikning ikki xil shakli: merosiy huquqqa ega va yerdan to'liq foydalanish erkinligini qo'lga kiritgan boyarlar votchinasi hamda pomeschchik yeri (sotish va tortiq qilish huquqiga ega bo'lmagan), ya'ni dvoryanlarga (xizmat qilgan kishilarga) xizmati uchun maosh sifatida berilgan yerlar birmuncha erta qaror topgan edi.

XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab dvoryanlarning faol o'sishi kuzatiladi, bu jarayonda hukumat, birinchi navbatda Ivan Grozniyning qo'llab-quvvatlashi ham ma'lum darajada rol o'ynagan. Dvoryanlar markazlashgan hokimiyatning asosiy tayanchi bo'lish bilan birga, ma'lum bir majburiyatlar (soliqlar to'lash, majburiy harbiy xizmat)ni ham to'lab kelgan. Pyotr I hukmronligi davrida yirik yer egalarining deyarli barchasi xizmat qiluvchilar qatlamini tashkil etgan. Faqat Yekaterina II davriga kelib, dvoryanlar o'zining "oltin asri"ni boshidan o'tkazgan. Bunday deyilishi bejiz emas edi, chunki uning davrida dvoryanlar haqiqiy ma'noda imtiyozli ijtimoiy qatlamga aylangan edi.

Haqiqatda esa cherkov ham mustaqil siyosiy kuchlar rolini o'ynamagan. Hokimiyat birinchi navbatda uning jamiyatga ta'sir ko'rsatuvchi qudratli g'oyaviy kuchi tufayli cherkovdan foydalanar edi. Shuning uchun birinchi asrdayoq xristianlikni qabul qilgan buyuk knyazlar Vizantiyaning cherkov ishlariga aralashuvidan ozod bo'lishga uringan va rus mitropolitlarini qo'yganlar.

1589-yildan boshlab Rossiyada mustaqil patriarx taxti qaror topgan, ammo cherkov davlatga qaram edi. Cherkovning qaramlik holatini XVII asrda patriarx Nikon tomonidan o'zgartirish uchun bo'lgan bir necha urinish, muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Pyotr I hukmronligi davrida cherkov butunlay davlat ixtiyoriga o'tkazildi; "podsholik" "xristian ruhoniyligi" ustidan g'alaba qozondi. Patriarxlik Sinod (Ruhoniylar hay'ati) bilan almashtirildi, ya'ni u

davlatning mahkamalaridan biriga aylantirildi. Cherkovning daromadlari davlat nazoratiga o'tkazildi, monastirlar va yeparxlik votchinalari boshqaruvi dunyoviy ma'murlar boshqaruviga o'tkazildi.

G'arbiy Yevropada faol siyosiy kuch sifatida maydonga chiqqan va iqtisodiy hayotni ilgariga surayotgan hamda burjuacha munosabatlar suyanchig'i bo'lgan Rossiya shaharlardagi holat qanday edi?

Rossiyadagi shahar aholisi ham o'ziga xos xususiyat kasb etgan va G'arbiy Yevropa shahar aholisi qatlamidan ko'p jihatdan farq qilgan. Rus shaharlari ichida odatga ko'ra, feodallarning votchinasi (oq slobodalar) bo'lib, ularda posad – ya'ni shaxsiy erkin hisoblangan hunarmandlarga jiddiy raqobatda bo'lgan votchina hunarmandchiligi ham mavjud edi (feodallar shaharga bo'ysunishga majbur bo'lgan shahar-respublikalar Novgorod va Pskov bundan istisno bo'lgan).

Posad qandaydir Rossiyadagi alohida ahamiyatga molik ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanmadi. Qolaversa, tashqi iqtisodiy majburiyatlarning umumiy kuchaytirilishi posadga ham ta'sir ko'rsatgan edi: krepostnoy dehqon kabi posad aholisiga ham bir posaddan ikkinchi posadga o'tish taqiqlangan edi. Shaharlarning ijtimoiy faolligining kuchsiz bo'lishiga ularda faqat alohida saylov boshqaruvi ("yaxshi ko'rgan", ya'ni o'ziga to'q qatlamlardan saylangan shahar oqsoqollari) alohida belgilarining shakllanganligida namoyon bo'lgan edi (biroq bu nisbatan ancha kechroq, Ivana IV davrida sodir bo'lgan (bunda markaziy hokimiyatning yordami bilan bo'lgani o'ziga xoslikni tashkil qiladi).

Davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning bunday xususiyati, go'yoki Sharq variantini eslatadi. Davlat sivilizatsiya hayotida yetakchi rol o'ynaydi, ko'pgina, shu jumladan, iqtisodiy jarayonlarga aralashadi, birini sekinlashtirsa, ikkinchisini rivojlanishiga dalda beradi. Jamiyat esa davlatning keragidan ortiq vasiyligi ostida jipslashmasdan kuchsizlanib, hukumatning harakatlarini to'g'rilashga qodir bo'la olmaydi.

Aslida o'rta asrlar Rossiyasining siyosiy hayotida Sharq modelidan farqlantirib turuvchi bundan boshqa xususiyatlar ham

mavjud bo'lgan. Bu fikrni XVI asr o'rtalarida Rossiyada mavjud bo'lgan markaziy vakillik organi Zemstvo sobori ham tasdiqlaydi. To'g'ri, rus "parlament"i jamiyat tomonidan qo'lga kiritilmagan edi: u "yuqori"dan turib, Ivan Grozniy farmoyishiga binoan vujudga keltirilgan hamda podsho hokimiyatining kuchli ta'siri ostida bo'lgan. Biroq bu Sobor qandaydir "sun'iy" hayotiy bo'lmagan hodisa ekanligini anglatmaydi. G'alayonli davrlarda u katta faollik va mustaqillikni namoyon qilgan. Polsha-shved intervensiyasi vaqtida, monarxiya juda katta inqiroz davrini boshdan o'tkazayotgan kezlarda aynan Zemstvo sobori davlat va milliy uyg'onish uchun kurashning asosiy tashkiliy kuchiga aylangan edi. Biroq sobor huquqiy jihatdan mustahkamlangan va vakolatlarga ega hokimiyatning doimiy organiga aylana olmadi. Jamiyat bunday vaziyatda zarur bo'lgan qat'iylik va jipslashuvchilikni namoyon qila olmadi, davlat esa uzoq muddat o'ziga qaram xalqqa nisbatan odatiy munosabat variantiga qaytishni afzal ko'rdi.

Shunga qaramay, Rossiyaning o'rta asrlar tarixi garchi G'arbiy Yevropadagi kabi yorqin shaklda amalga oshmagan bo'lsa ham, hokimiyat va jamiyat o'rtasidagi muloqotning qaror topishi imkoniyatlari mavjud bo'lganligini ko'rsatdi.

### **Rossiya madaniyati Vizantiya merosi**

G'arbiy Yevropa misolida biz sivilizatsiyaning tez suratlarda rivojlanishi uchun merosiylik qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini ko'rib chiqdik. Rossiya uchun xristianlikni qabul qilish birinchi darajali ahamiyat kasb etgan jihat bo'ldi: xristianlik sivilizatsiyasiga kirar ekan, Rossiya o'ziga Yevropa va Vizantiyada yig'ilib qolgan diniy-axloqiy qadriyatlar, tabiiy ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'l ochdi. Biroq sharqiy va g'arbiy xristianlik dunyosi o'rtasidagi kurash darhol Rossiyaning xristianli dunyosidagi o'rni va madaniy aloqalardagi yo'nalishini belgilab berdi.

Missionerlik faoliyati bilan faol shug'ullangan Vizantiya ta'sirida Rossiya xristianlikning pravoslav shaklini qabul qildi va uzoq asrlar mobaynida G'arbiy Yevropadan chetlashdi. Bu albatta

umuman aloqalar bo'lmaganligini anglatmaydi, ular mavjud bo'lgan, ammo Rossiyaning o'rta asrlar davri mobaynida bu aloqalar ancha kuchsiz bo'lgan. Vizantiyaning ta'siri ancha kuchli bo'lgan, ayniqsa, XV asrda Qadimgi Rus o'zini uning diniy merosxo'ri sifatida his qilgan.

Diniy e'tiqoddagi farqlar o'rta asrlar ongi uchun shu qadar muhim ediki, Yevropa birinchi navbatda "lotinlik"ning markazi sifatida qabul qilingan. G'arb sivilizatsiyasi yutuqlariga bo'lgan qiziqish sekinlik bilan o'sib borgan va faqat XVII asrdan boshlab qat'iy xususiyat kasb etib, intellektuallarning birmuncha keng qatlamlarini qamrab ola boshlagan.

Vizantiya Rossiyaga o'zining boy moddiy madaniyatini "in'om" qilmagan. Bevosita sobiq Rim imperiyasi hududida rivojlangan G'arbiy Yevropadan farqli o'laroq, Rossiya Vizantiya sivilizatsiyasining mevalarini vositali tarzda o'zlashtirgan. Shuning uchun Vizantiya ta'siri, asosan, adabiyot, san'at, siyosat va ilohiyotga oid fikrlarda keng yoyilgan edi.

Vizantiya adabiyoti qadimgi Rus kitobchilari to'plagan hikmatlarining manbai hisoblangan; vizantiyacha namunada rus cherkovlari e'tiqod marosimlari amalga oshirilgan; Vizantiyalik ilohiyotchilarning ijodlari Qadimgi Rusda rivojlangan haqiqiy falsafiy fikrlarning asosini tashkil etgan; ikonalar vizantiyacha namunada yaratilgan, syujetlari esa ko'pgina Vizantiya afsonalari va avliyolari haqidagi adabiyotlaridan olingan va xalq ijodiyotiga kiritilib, ommaviyligini XX asrga qadar saqlab kelgan. Vizantiya madaniyatining rus madaniyatiga ta'siri Konstantinopol qulaganidan so'ng ham davom etgan.

Vizantiya madaniyati yosh, endigina o'z tarixini boshlayotgan Rossiya uchun nima berdi, Rossiya Vizantiyadan aynan nimalarni o'zlashtira oldi? Axir boshqa madaniyatning yutuqlarini o'zlashtirish - faollik va ijodni talab qiladi, bunda albatta o'ziga xos tanlov sodir bo'ladi: hamma narsa o'zlashtirilmaydi, balki birinchi navbatda qabul qilayotgan madaniyatning ehtiyojlari va darajasida mos keluvchi narsalar o'zlashtiriladi.

Vizantiya madaniyati orqali Rus antik madaniyat an'analari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishgan. Biroq Vizantiya va rus ruhoniylari antik davr faylasuflari va yozuvchilari ishlarining

tarjimalariga qiziqmagan. Qolaversa, ushbu antik davr adabiyotlari bilan cherkov aralashuvisiz, mustaqil ravishda tanishmoqchi bo'lganlar oldida til bilan bog'liq katta to'siq ham mavjud bo'lgan.

Qadimgi rusda ibodat qilish slavyanча cherkov tilida olib borilgan, lotin va yunon tilini o'rganish (Yevropadan farqli ravishda) majburiy bo'lgan. Natijada qadimgi rus o'quvchilarining asosiy qismi antik davr madaniyati to'g'risida vizantiyalik yozuvchilari va tarixchilarining hikoyalari orqali ma'lumotga ega bo'lgan. Hikoya qiluvchilar esa xristian bo'lgani bois ularga o'ziga xos sharhlarni ham birga berar edilar. Masalan, qadimgi rus kitobchilari solnomalaridan qadimgi yunon afsonalari mazmuni bilan tanishganlar. Biroq solnomachilar odatda ko'pxudolikni qoralab, bu hikoyalarning mazmunini soddalashtirar, hatto buzib ko'rsatar edilar: ko'p xudolarni la'natlar, ular haqida emas, balki qiziq va ibratnamo tarixlarni so'zlab berar yoki yozar edilar.

Antik davr faylsuflari asarlarining qismlari hikmatli so'zlar to'plamlariga joylashtirilgan. Ana shunday ishlardan biri "Asalari" deb nomlanib, deyarli butun o'rta asrlar mobaynida juda ommalashgan va faol ravishda ko'chirib yozilar va shu tarzda qo'ldan qo'lga o'tib kelgan. Biroq ularda ham qat'iy tanlov seziladi: qadimgi mutafakkirlar dunyosining surati emas, balki bu asarlarning mazmunini ularning amaliy maslahatlari va ma'naviy tavsiyalari tashkil etgan.

Gomer dostonlari va antik davr fojealari tarjima qilinmagan; faqat XV-XVII asrlarda Troyadan olingan "Troya qissalari" romanlari sikli vujudga kelgan, ammo ular Gomerning "Iliada" dostoni bilan juda ko'p jihatlarda umumiy bo'lgan.

Shunday qilib, antik davr adabiyotlari na xristianlikni qabul qilgan vaqtda va na keyinroq tarjima qilinmadi. Buni katta ehtimol bilan dunyoviy ta'lim tizimining mavjud bo'lmaganligi bilan ham, begona, xristian bo'lmagan madaniyat bilan mashg'ul bo'lish deb qaragan rus cherkovi pozitsiyasidan ham izohlash mumkin.

Qadimgi Rusda bilim olish rag'batlantirilmagan, deyish to'g'ri bo'lmaydi, albatta. Aksincha, ko'pgina qadimgi rus nasihatlarida kitoblar va o'qimishlilikni maqtash hollariga o'rin berilgan. Biroq

o'qimishlilik birinchi navbatda xristianlik ruhida bo'lishi kerak bo'lgan.

Faqat kamsonli intellektuallar, ayniqsa, mo'g'ullargacha bo'lgan davrda "ellincha hikmatga" yetishgan. Ulardan biri mitropolit Kliment Smolyatich (XII asr) bo'lgan. Uni zamondoshlari o'qimishliliigi uchun ko'klarga ko'targanlar. Chunki u Gomer, Platon va Aristotelni o'qigan. Biroq ruhoniylar uning "ortiqcha bilimdonligigi"ga ishonchsizlik ko'zi bilan qarar edilar, keyinchalik esa uni "e'tiqoddan adashgan"likda ayblab, uning barcha diniy-falsafiy ishlarini unutilishiga sabab bo'lganlar.

Antik davr merosini ikkinchi qo'ldan o'zlashtirilishi qanday natijalarga olib keldi?

Birinchi navbatda bu XIV-XV asrda shakllangan yangi g'oyalar yo'lida katta to'siqlarni vujudga keltirdi. Qadimgi Rus Uyg'onish davrini boshdan o'tkazmadi. Antik madaniyatdagi bilimlarning juda ham ozligi buning ma'lum bir sabablaridan biri (bu yagona sababi bo'lmagan, albatta) bo'ldi.

X-XII asrlardan keyingi davrdagi Vizantiyaning Qadimgi Rus madaniyatiga ta'siri XIV-XV asrlarga kelib yuz ko'rsata boshlagan. Mo'g'ul-tatarlarning hukmronligidan qutilish natijasida qadimgi (mo'g'ullarga qadar bo'lgan) madaniyat va Vizantiya madaniyatiga bo'lgan qiziqish orta borgan. Janubiy slavyan mamlakatlari, birinchi navbatda Bolgariya orqali Rus davlatiga adabiyotlar oqimi kela boshlagan. Biroq Vizantiyaga murojaat qilish rus madaniyatiga o'rta asrlarga qaraganda butunlay yangicha g'oya va qadriyatlarni keltirib chiqargan.

Vizantiya Qadimgi Rusga katta madaniy boylikni berdiki, uning imkoniyatlaridan o'rta asrlar davrida to'liq foydalandi. Unga XIX asrda V.Solovyev, K.Leontev, F.Dostoyevskiy, L.Tolstoy singari ko'zga ko'ringan faylasuf va yozuvchilar murojaat qilgan. Biroq Vizantiya madaniyati, umuman boshqa har qanday madaniyatlar singari o'ziga xos yo'nalish, ayniqsa, XVII asrga kelib rus madaniyatidagi tendensiyalar sabab ajralib alohida ajralib chiqqan yangi qadriyatlar tizimiga ega edi.

Qadimgi rusdagi qadriyatlar tizimi xristianlik ta'siri ostida qaror topa boshladi, biroq boshqa xristianlik sivilizatsiyalarida bo'lgani kabi bir xil ko'rinishda va harakatsiz bo'lmagan.

Dunyoviy behuda hayot tarzidan holi yashagan va o'zini faqat ibodatga bag'ishlagan avliyo-monax obrazi, albatta, qadimgi rus kishilariga katta ta'sir ko'rsatgan. Ammo bunday mistik-asketik ideal yagona hisoblanmagan. Dunyoviy hayotning boshlanishi folklor, dunyoviy yo'nalish garchi G'arbiy Yevropaga nisbatan kuchsizroq bo'lsa-da, Qadimgi Rus yozuvida ham rivojlangan edi. Qadimgi rus yozuvchilaridan biri – knyaz Vladimir Monomax o'zining mashhur “Pand-nasihatlari”da xristianlik qadriyatlari tizimi bilan dunyoviy faoliyat o'rtasidagi qandaydir tenglikni topishga urinadi. Monomax knyaz xristian ideal obrazi – “kuchli g'aribni nobud qilishi”ga yo'l qo'ymaydigan, qo'pol zo'ravonlikni inkor qiluvchi, o'z mamlakati manfaatlariga jon kuydiruvchi “g'arib”ga nisbatan insonparvar obrazini yaratdi. Uning fikricha, marosimlarni bajarish emas, balki chin e'tiqod va yaxshi amallar – haqiqiy e'tiqod ko'rinishlari hisoblangan.

Albatta, Vladimir Monomaxga o'xshagan mutafakkirlar soni ko'p bo'lmagan, cherkov qoidaga ko'ra dunyoviy hayot tarafdorlarini ma'qullamagan. Biroq cherkov dunyoviy faoliyatni to'liq inkor qildi, deyish to'g'ri bo'lmaydi. Ko'pgina rus siyosiy arboblari (knyazlar Boris va Gleb, Aleksandr Nevskiy va boshqalar) muqaddas kishilar sharafiga musharraf bo'lgani ham bejizga emas edi. Bunday sharafiga ularning nafaqat xristianlik yo'nalishidagi yaxshi fazilatli kishilar bo'lgani tufayli, balki davlat manfaatlarini o'zlarining shaxsiy manfaatlaridan yuqori qo'ygani yoki harbiy jasorat ko'rsatgani uchun muyassar bo'lgan edilar.

XVI asrda butunlay dunyoviy turmush tarzini kechirib, faqat o'limi oldidan monaxlikni qabul qilgan murom knyazi Petr ham o'zining rafiqasi Fevroniya bilan muqaddas kishi sifatida e'tirof etilgan. Ular Tristian va Izolda haqidagi roman singari jaranglagan syujetdagi kabi abadiy sevgi to'g'risida qissaning qahramonlariga aylandi. O'rta asrlar qadriyatlar tizimining “nurash, yuvilish” jarayoni asta-sekinlik bilan borgan. Bu jarayondagi tub burilish sifatida XVII asrni ko'rsatish mumkin. Bu davrda, ayniqsa, XVII asrning ikkinchi yarmida zamondoshlar so'zi bilan aytganda, “o'tmish va yangilik aralashib ketgan” edi.

Bu davrda borgan sari tasviriy san'atda inson shaxsiga, uning nafaqat ma'naviy, balki jismoniy qiyofasiga ko'proq urg'u berila

boshladi, cherkov musiqasida ham dunyoviy ko'rinishlar vujudga keldi, cherkov bezashda dekorativligi o'sdi, g'arb adabiyotining tarjimalari oqimi kuchaya bordi. Ta'lim tizimiga ham bevosita Yevropa emas, Ukraina va Belorussiya orqali g'arbning ta'siri kirib kela boshladi. Bu yerdan g'arb usullarini o'zlashtirgan cherkov arboblari Moskvaga kelib, yunon monaxlari bilan raqobatga kirishgan.

1687-yilda Slavyan-yunon-lotin hunar bilim yurti (keyinchalik u akademiya aylantirilgan), vujudga keltirildi. Unda faqat yunon tilida emas, balki lotin, shuningdek, har xil dunyoviy fanlar ham o'qitilgan. Bu davr adabiyotida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatiladi. Ko'pgina asarlarda inson va uning Yerdagi maqsad va xohish-istaklari oldingi o'ringa chiqadi. Xristianlikning fazilatli kishilari mo'ljal olgan ideal obrazdagi kishilar emas, balki yangi tipdagi – oddiy fazilatga va kamchiliklarga ega bo'lgan oddiy odamlardan yaratilgan qahramonlar paydo bo'la boshlagan. Misol uchun dvoryan boyishni xohlagan va foydali tarzda uylanishga muayassar bo'lgan Frol Skobeyev, qalbini sevgi, shuhrat va pul uchun iblisga sotgan savdogar Savva Grudsin, odamlarga nisbatan o'ziga xos, ezguliklar ko'rsatgan biroq mayda zaifliklarga ega bo'lsa-da, o'zining bu kabi noyob xislati tufayli Yulianiya Lazarevskaya kabilar muqaddas maqomiga musharraf bo'lgan. Ushbu yangi tendensiyalarning barchasi kurashsiz bo'lmagan va odamlar ongida tez fursatlarda o'rin egallamagan, albatta. Biroq XVII asrda sodir bo'lgan o'zgarishlar takrorlanmas xususiyatga ega bo'ldi.

O'rta asrlardagi, ayniqsa, intellektual orasidagi qadriyatlar tizimi o'tmishda qola boshlagan, lekin uning o'rniga Uyg'onish davrida G'arbiy Yevropada sodir bo'lgani kabi individualizm kirib keldi. Jamoaviy ideallar o'zining mavjudligini davom ettirdi, ammo bu ham rus madaniyatining kelgusi rivojida o'ziga xos iz qoldirdi.

### **Muhokama uchun savollar**

1. Vizantiya imperiyasining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzilmasi haqida nimalarni bilasiz?

2. Sivilizatsiyaning vizantiyacha modeli deganda nimani tushunasiz?

3. Vizantiya sivilizatsiyasi tarixining bosqichlarini sanab bering. Uning eng gullab-yashnagan davri qaysi davrga to'g'ri keladi va buning asosiy sabablari nimada?

4. Vizantiya sivilizatsiyasining jahon sivilizatsiyalar tizimidagi tutgan o'rni qanday? Izohlang.

5. Vizantiyaning tarixiy yo'li antik yo'ldan nimasi bilan farq qilgan? Uni Sharqqa nima yaqinlashtirdi?

6. G'arbiy Yevropa va Vizantiyadagi feodalizm genezisi o'rtasida qanday farqlar bor? Ular nima tufayli?

7. Rossiyaning rivojlanishidagi geografik va iqlimiy shart-sharoitlarning o'ziga xosligi haqida nimalarni bilasiz? Ular qishloq xo'jaligi darajasiga qanday ta'sir ko'rsatgan?

8. Nima uchun Rossiyaning rivoji ekstensiv deb hisoblanadi? Ekstensiv rivojlanish qanday qiyinchiliklarni keltirib chiqargan? Uning ijobiy natijalari qanday bo'lgan?

9. Rossiya merosiy sivilizatsiya hisoblanadimi? G'arbiy Yevropa bilan solishtiring.

### **Mustaqil ta'lim uchun tavsiyalar**

1. "Rossiya va Vizantiya o'rtasidagi savdo buyumlari", "Vizantiya savdo aloqalari", "Vizantiya ikonolari", "Vizantiya madaniyati" "Vizantiya piktogrammalari", "Vizantiya arxitekturasi", "Qadimgi Rossiya va Vizantiya jahon badiiy madaniyatida" bo'limlari bo'yicha taqdimotlar tayyorlang.

2. "Rus haqiqati" da qayd etilgan aholi toifalari" jadvalini tuzing.

## 15-MAVZU. G'ARB SIVILIZATSIYASI

### Reja:

1. O'rta asrlar Yevropa sivilizatsiyasining umumiy tavsifi.
2. O'rta asr davri madaniyati.
3. Uyg'onish (Renessans) davrida Yevropa dunyosi.
4. Yangi zamonning mohiyati.
5. Kapitalizmni o'rnatish yo'llari.
6. Yangi zamon odami.
7. Zamonaviy G'arb sivilizatsiyasi.

### O'rta asrlar Yevropa sivilizatsiyasining umumiy tavsifi

Yevropa tarixidagi navbatdagi sivilizatsiyani shakllanishi o'rta asrlardir. Ular ma'lum ma'noda qadimiy tarixni davom ettirdilar: o'rta asrlar antik davrdan falsafiy ratsionalizm va falsafiy matnlarni, badiiy madaniyatni, Rim huquqi va O'rta asrlar Yevropasining madaniy tiliga aylangan lotin tilini oldi.

Boshqa tomondan, Yevropa o'rta asrlari antik davrning bevosita davomi emas, uning o'ziga xos poydevori bor edi. Aksiologik (qiymat) ma'noda xristianlik shunday asosga aylandi. Bu Yevropa tarixiga antik davr bilmagan narsani olib keldi. Birinchidan, u antik naturalizmni, ya'ni antik davrning tabiatga yo'naltirilganligini yengib chiqdi: tabiiy kosmos yunonlar va rimliklar uchun eng yuqori hokimiyat edi. Masalan, qadimgi odam o'zini tabiatning bir qismi deb bilgan.

Xristianlik Yevropa madaniyatiga ma'naviy o'lchov kiritdi. Uning dunyo tasviri qadimgi rasmga qaraganda murakkabroq va tarixiy jihatdan istiqbolliroq edi. Tabiat Xudoning ijodi deb e'lon qilindi va shu bilan oliy haqiqat bo'lishni to'xtatdi. Tabiatning desakralizatsiyasi uni tadqiq qilish va (kelajakda) ilmiy-texnikaviy rivojlanishi uchun imkoniyatlar ochdi. Inson psixologik jihatdan tabiiy muhitdan ajralib chiqdi va o'zini faqat tabiiy ravishda qabul qilishni to'xtatdi. Xristianlik tufayli shaxs tushunchasi Yevropa tarixiga kiritildi. Antik davrning siklik davridan farqli o'laroq, xristian vaqti chiziqli va tarixiydir. Aytish mumkinki, nasroniylik nafaqat shaxsni, balki tarix va vaqtni ham kashf etdi.

Shunday qilib, Yevropa antik davri va Yevropa o'rta asrlari o'rtasida nafaqat davomiylik, balki ma'lum bir bo'shliq ham mavjud. Yevropa an'anaviy davrdan zamonaviylik makoniga chiqqanda shunga o'xshash narsa sodir bo'ladi. Tarixiy, davrlararo bo'shliqlar Yevropa sivilizatsiyasining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Yevropadan farqli ravishda Sharq sivilizatsiyalari evolyutsion asosda rivojlangan. Bu xususiyat tufayli Yevropa tarixi Sharq mamlakatlari tarixidan ko'ra ko'proq dinamik edi. Yevropa o'tmishdagi madaniy inersiyani osonroq yengdi.

Xristianlik qadriyatlari va qadimiy madaniy elementlardan tashqari, Yevropa o'rta asrlari qadimgi nemislarning ijtimoiy va madaniy an'alarini o'zlashtirgan. Qadimgi german sivilizatsiyasi qadimgidan ko'ra ko'proq arxaik edi.

Qadimgi german siyosiy elitasi vakillari shaxsiy qadr-qimmatning barqaror g'oyasi bilan ajralib turardi. Natijada, qadimgi germanlar, Sharq jamiyatlaridan farqli o'laroq, o'rta asrlar Yevropasi tomonidan qabul qilingan nisbatan markazlashmagan hokimiyat turini ishlab chiqdilar.

Ushbu uchta madaniy-tarixiy an'ana - nasroniylik, antiklik va qadimgi german sivilizatsiyasi substrati (meros) o'zaro ta'siridan o'rta asrlar Yevropa sivilizatsiyasi paydo bo'ldi.

O'rta asrlar (feodal) sintezi, umuman, 1-2 ming yilliklar bo'yida tugadi. Bu vaqtda ilk o'rta asrlar davri tugaydi va Yevropa G'arbi klassik (yuqori, rivojlangan) o'rta asrlar (XI-XIII asrlar) davriga kiradi. Bu sivilizatsiya yuksalishi davri edi: "agrar inqilob" sodir bo'ldi, aholi soni ko'paydi, shaharlar hunarmandchilik va savdo markazlari sifatida paydo bo'ldi, o'rta asrlar sinfiy jamiyati shakllandi, o'rta asrlar intellektual madaniyati paydo bo'ldi, uning markazlari - universitetlar edi.

O'rta asrlardagi mulklar va korporatsiyalar hokimiyat va boshqa ijtimoiy tuzilmalar oldida o'z-o'zini tartibga solish va o'z huquqlarini himoya qilishga intilishgan. Shuning uchun antik agonalizm o'rta asrlarda yo'qolmagan. U yangi tarixiy sharoitlarda ko'paytirildi va takomillashtirildi. O'rta asr G'arbi an'anaviy jamiyatning raqobatbardosh turidir.

XIV-XV asrlarda, Yevropa sivilizatsiyasi oldinga yangi qadam tashlaydi. Ushbu asrlarning ta'sirchan yutuqlaridan biri an'anaviy kuch markazini va davlat boshqaruvida ishtirok etuvchi mulklarni birlashtirgan mulk monarxiyasi edi. Ya'ni o'rta asrlardagi tabaqaviy vakillik organlari zamonaviy parlamentarizmning tug'ilishi uchun o'ziga xos zinapoya bo'lib xizmat qilgan. Bundan tashqari, bu asrlarda shahar tobora madaniyat markaziga aylangan.

XV va XVI asrlar oxirida Yevropa tarixida yangi tarixiy bosqich boshlanadi. Uni o'tish davri yoki erta zamonaviy deb atash mumkin. U XIX asrning o'rtalarigacha, kapitalistik iqtisodiyot, sanoat texnologiyalari, parlament tuzumlari, konstitutsiyaviy huquqiy tizimlar va shaxsiy erkinliklardan shakllangan yangi Yevropa tarixiy tuzumi shakllangan paytgacha davom etdi. Bunga ratsional va institutsional tarzda tashkil etilgan fan va san'at qo'shilishi kerak, bu esa tobora ko'proq an'anaviy me'yorlar va tasvirlardan tashqariga chiqadi.

Bu davrdagi Yevropa tarixidagi eng muhim o'zgarishlardan biri Yevropa davlatlari tizimining shakllanishi edi. Agar o'rta asrlar Yevropasi bir necha yuz xil siyosiy tuzilmalardan iborat bo'lsa - monarxik davlatlardan tortib kichik feodal mulklarigacha, u holda XVI-XVIII asrlar Yevropasi ancha ixchamroq: u faqat bir necha o'nlab shtatlarni o'z ichiga oladi, ularning soni asta-sekin o'ttiztaga qisqaradi.

Yevropa tizimi ham birlashgan, ham xilma-xil edi. Uning birligini umumiy - xristian dini, umumiy madaniyat tili (lotin) va XVI asr oxirida qabul qilingan umumiy kalendar (grigorian) ta'minladi. Bundan tashqari, Yevropa mamlakatlarida yagona ilmiy va ta'lim uslubi (standart), kapital, mehnat va mahsulotlarning yagona bozori, Yevropa ichidagi mehnat taqsimoti, umumiy moda, texnologik rivojlanishning umumiy darajasi, Yevropa hukmron doiradagi kishilarni qarindoshligini ta'minlovchi sulolaviy nikohlar, umumiy (xalqaro) huquq va diplomatiya mavjud edi.

Yevropa mamlakatlari tadbirkorlar, hunarmandlar, rassomlar, olimlar, diniy dissidentlar, qochqinlar va boshqalarning doimiy migratsiyalari bilan bog'langan.

Ichki farqlarga kelsak, ular alohida davlatlarning mavjudligi va ularning siyosiy va harbiy kurashi bilan bog'liq. XVI-XVIII asrlar Yevropa sivilizatsiyasining asoslarini silkitmagan va sivilizatsiya bo'linishiga olib kelmagan Yevropa urushlari to'ldirgan.

Yevropa birligi birinchi navbatda umumiy sivilizatsiya poydevori bilan ta'minlandi. Yevropaliklar o'zlarini yagona sivilizatsiya jamoasi sifatida his qilishdi va bu Yevropa ichidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga imkon berdi. XVIII asrda Volter Yevropani turli davlatlardan tashkil topgan respublika deb atadi. XVIII asr o'rtalarida "Yevropa" tushunchasi yevropaliklarning nasroniy (diniy) birligining muhimligini ta'kidlaydigan iboralarni Yevropa leksikonidan siqib chiqardi.

Osiyo davlatlaridan farqli o'laroq, Yevropa "kuchlanish ostidagi sivilizatsiya" edi. Ichki xilma-xilligi tufayli uning tarixiy dinamikligi boshqa sivilizatsiyalarga qaraganda ancha yuqori bo'lib chiqdi.

"Yevropa mo'jizasi"ning ma'nosini ochib berish uchun XVI-XVIII asrlarda Yevropaning madaniy evolyutsiyasini qisqacha tavsiflash kerak. Bu davr Yevropa madaniyati tarixi Uyg'onish davri, Reformatsiya, XVII asr falsafiy va ilmiy inqilob va ma'rifatparvarlik kabi hodisalarni o'z ichiga oladi.

### **O'rta asr davri madaniyati**

O'rta asr insoni haqiqiy va tasavvurda mavjud bo'lgan xavflarga to'la bo'lgan ulkan dunyo bilan o'ralgan bo'lib, o'z uyida qamalib u xavflardan qochishga intilgan. Antik turmush tarzining jamoaviyligi Ya'ni, fuqaro, har holda erkak o'z vaqtining aksariyat qismini ko'chada o'tkazgan va shunga muvofiq ko'chani chiroyli qilish, shaharsozlik muammolarida markaziy o'rinni egallagan, bu jamoaviylik keng shahar maydonlari, ochiq teatr, kengash majlislari joylari bilan birga o'tmishda qoldi. O'rta asrda turmush tarzi uy atrofida tashkillashtiriladi, albatta, uylar turli bo'lgan bo'lsa-da va dehqonning somon suvoq bilan bezatilgan uyi baron qal'asiga hech o'xshamasa-da, bitta tarafdin barcha uylar bir xil edi – ular uy egasini tashqi va shu sababli yovuz dushman bo'lgan kuchlarning ta'siridan egasini himoyalashi, berkitishi lozim edi.

XII asrning o'rtalarida roman me'morchiligi gotik me'morchiligiga o'rin beradi va XIII asrda gotik me'morchilik eng yuqori cho'qqisiga erishadi. Gotik degan nom shartli va g'alatidir, aslida gotik ehromlarda hech qanday varvar, gotik narsalar yo'q. Fransuzlar gotik uslubni yoysimon deb to'g'ri ataydilar. Yoysimon uslub ajoyib muhandislik yechimi bo'ldi, natijada tomni bosimi yengillashtirildi va devorlar qulayroq bo'ldi. Chiroyli va mozaikali naqsh va bezaklar fitraj, relyef va haykallarga joy beradi. Hajmli tosh figuralar cherkovning ham interyeri, ham tashqi taraflarini bezagan. Chormixga tortilgan haykallar ehromni ichki makonini mantiqiy markaziga aylandi.

Asta-sekin shaharlar mustaqilligining mustahkamlanishi va savdogarlar boyligining oshishi bilan shaharlarda yangi ijtimoiy binolar, ya'ni shahar kengashlari binolari, usti yopiq bozorlar, shifoxona va kollejlari, shaharda yashayotgan talabalar uchun yotoqxonalar, ombor va sex binolari barpo etildi. Shahar mustaqilligining ramzi bo'lgan shahar kengashi – ratusha binosi quyi qavatda ombor yoki arsenalga ega edi. Feodal qal'asiga taqlid qilgan holda Ratusha o'z ichiga bong uradigan qal'a, shahar qamog'i va shahar xartiya va g'aznasi joylashgan binolarni ham qamrab olgan edi.

Nemis ritsar she'riyatining gullab-yashnagan payti XII asrning 70-yillariga to'g'ri keladi, uning markazlari dastlab Venadagi Babenberglar saroyi, Vartburgdagi Turenge landravlarining saroyi, keyin esa Gogenshtaufenlar saroyi bo'lgan. Ayolga sig'inish Bibi Maryamga xristian dunyosining birinchi ayoliga sig'inishda alohida kuch bilan o'z ifodasini topadi. 1140-yilda Bibi Maryam bayrami tashkil qilindi. Ko'plab xudojo'ylar, jumladan, Bernar Klervoslik (1090-1153), bunday Mariolatiriya, ya'ni Bibi Maryamga sig'inishga qarshi chiqdilar, biroq xalq tomonidan Bibi Maryamga sig'inish tobora oshib bordi. Avvalambor, Bibi Maryamni Iso Masih oldida insonlarni himoyachisi sifatida talqin qilishdi.

Antik dunyoviy maktabning an'analari, asosan, Janubda Italiyada saqlanib qolgan. Alplardan Shimoldagi hududlardan maktab asosan cherkov yoki monastir xarakteriga ega bo'lgan. O'rta asr maktabi yosh bo'yicha chegaralanmagan, bolalar kattalar bilan birga savodga o'rganganlar. Monastir maktablarida bolalar katta

rohiblar kabi qat'iy intizomga bo'ysunganlar. O'quv dasturini kechki antik an'anaga ko'ra, 7 ta erkin san'at tashkil qilgan, ular o'z navbatida, 2 qismga bo'lingan. Birinchisi, trivium – 3 yo'ldan iborat va ikkinchisi, kvadrivium, ya'ni 4 yo'ldan iborat. Trivium o'qitishning boshlang'ich bosqichi bo'lgan, u grammatika, notiqlik va mantiqni o'z ichiga qamrab olgan. Kvadrivium tarkibiga arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa kirgan. O'rta asr davrining ilk bosqichida trivium ustuvorlik qilgan, umumta'lim tizimga kvadrivium XIII asrdan boshlab kirib keladi. Keyin o'rta asr ta'limining asosini tashkil qilgan grammatikaga o'tar edilar. XIV asrga qadar maktabda boshqa tillarni o'rganishmagan, biroq amalda savdogar yoki ritsar bir nechta til va shevada gapirishga majbur bo'lgan. Lotin grammatikasiga o'qitish biron-bir qadimgi muallifning asarini o'qib, talqin qilishdan iborat bo'lgan. O'qituvchi o'qiganidan so'ng xuddi shu bo'lakni o'quvchilar o'qib izoh berganlar.



**Skriptoriy (lot. scriptorium - “yozuvchi, ko’chiruvchi”)dagi rohib -  
qo’lyozmalardan nusxa ko’chirish ustaxonasi**

Asta-sekin o'qituvchilar cherkov va monastir hukumatidan ajralib, o'z korporatsiya – universitetlarini tashkil qila boshladilar. Dastlab, universitet atamasi umumiy manfaatlar bilan bog'liq bo'lgan va alohida huquqiy maqomga ega bo'lgan insonlarning har qanday birlashmasini anglatgan. Faqatgina XIV asrning oxiridan boshlab, uni akademik korporatsiyasiga nisbatan qo'llay boshladilar. Oliy o'quv yurtining o'rta asr nomi stadium generale (ilk bor 1237-yilda qayd etilgan) bo'lib, mashhur bo'lgan maktabga nisbatan qo'llanilar edi. Bu maktab uzoqdan shogirdlarni jalb etib, nafaqat 7 erkin san'atni, hech bo'lmaganda yana bitta maxsus fan fuqaro yoki kanonik huquq, xudojo'ylik yoki tibbiyotdan dars berishni ta'minlab bera olar edi. Bu maktablarni ba'zilarini urfga ko'ra, o'quv muassasa sifatida tan olib, universitet deb nomlashdi, ular asta-sekin mashhurlikka ega bo'ldi. O'rta asr universitetlari XII asrdan boshlab, G'arbiy Yevropa jamiyati urbanizatsiyasi bilan bevosita aloqadorlikda paydo bo'ladi. Bu Yevropa ijtimoiy va madaniy hayotining tamoman yangi hodisasi edi. O'rta asr atamasining to'liq ma'nosidagi eng qadimgi universitetlar bu xudojo'ylik sohasida ajralib turgan Parij va huquqdan dars berish bilan shuhrat qozongan Boloniya universitetlaridir. Bir paytning o'zida shakllangan bu ikki universitet o'z ichki tuzilmasi bo'yicha ahamiyatli ravishda farqlanar edi. Bu universitetlar o'rta asr universitetining 2 ta asosiy turining ifodasi edi. Boloniya va Paduyadagi universitet shaharga kelgan huquqshunos talabalarning manfaatini himoyalash uchun paydo bo'lgan talaba tashkiloti edi. Talabalarning boshqaruvdagi ishtiroki bir qator Ispaniya universitetlarining nizomlarida qayd etilgan, bir nechta Janubiy fransuz universitetlari, xususan, Monpelye, Anjer, Orlean universitetlarida talabalar cherkov hokimiyatiga qarshi kurashda professorlar bilan birlashgan. Shimoliy universitetlar Parij universitetlarining tipiga ko'ra tashkillashtirilgan. Parij universitetining tarixi aslida uni yepiskop hokimiyatidan ozod bo'lish va universitet faoliyatini, xususan, diplomlarni berishni nazorat qiluvchi yepiskop konsverining huquqlarini cheklashga bo'lgan kurash tarixidir. Albatta, o'rta asr talabalari orasida haqiqiy tenglik bo'lmagan: ba'zi bir talabalar boy, boshqalari esa o'z mehnati bilan o'zini boqar edi.

## Uyg'onish (Renessans) davrida Yevropa dunyosi

Inson va uning faoliyatining sezilarli izini qoldirgan tarixiy qismini biz davr deb ataymiz: romantizm davri, II jahon urushi davri va hokazo. Uyg'onish davri shunday davrlardan biri, biroq tiklanish vaqt hisobining davriy jihatini alohida tarzda belgilab berdi: bu o'zini davr deb anglagan ilk bosqich edi. Uyg'onish so'zi renessans so'zi bilan bir xildir, bu tushuncha XVI asrning o'rtasida ijod qilgan san'at tarixchisi Jorje Vazariyning 1550-yilda nashr etilgan "Eng mashhur rassom, haykaltarosh va me'morlar hayotining tasviri" degan asarida vujudga keldi. O'rta asrlar madaniy rivojlanishdagi to'xtash sifatida anglangan, ammo renessans davri qachon boshlangan, bu cheksiz tarixiy bahsning asosidir: u yoki bu davr qachon boshlangan, qachon yakunlangan, bu savolga javob berish murakkabdir. Gap shundaki, ijtimoiy munosabat, iqtisod, ishlab chiqarish uslubi nuqtai nazaridan hamma narsa o'z joyida qoldi. Bu davrni undan oldingi vaqtdan aniq ajratib olish uchun hech narsa o'zgarmadi. Biroq sabablar bor edi, bular ta'lim, san'at, ong sohasida edi. Eski dunyo chegarasida yangi inson vujudga keldi, u kim? Quyidagi savollarga javob berib bu masalaga aniqlik kiritishga harakat qilamiz.

To'xtovsiz urushlar jarayonida milliy davlatlarning siyosiy yaxlitligi bo'lgan Yevropa vujudga keldi. O'sha davrning iqtisodini ifoda etgan Yevropa dunyosi Markaziy, G'arbiy Yevropa hamda Shimoliy va O'rta Yer dengizlarini qamrab oladi. "... Yangi Yevropaning ibtidolarida bu 2 ta buyuk kompleksning, ya'ni Shimol va Janub, Niderlandiya va Italiya, Shimoliy dengiz, Boltiq dengizi va butun O'rta yer dengizining o'sishini joylashtirish lozim" deb ta'kidlaydi Fernand Brodel.

1992-yilda Rossiyada nashr etilgan "Moddiy tamaddun, iqtisod va kapitalizm, XV-XVIII asrlarda" deb nomlangan kitobida Fernand Brodel Yevropa o'z iqtisodiy o'sishini 2 ta qarama-qarshi tomondan boshlab, hech bo'lmasa, bozor darajasida birlashishni izlagan deb yozadi. Boltiq Yevropasi va O'rta Yer dengizi Yevropasi bir-birlarini izlab topadilar. 1291-yilda Genuya dengizchilari Italiya kemalari uchun arablar nazorat qiladigan Gibraltarni topadilar, biroq ancha avvalroq, O'rta Yer dengizidan ilk savdo kemalari Shimoliy dengiz qirg'og'ida joylashgan Bryugge shahriga keladilar. Savdo

quruqlikdan ham amalga oshiriladi, biroq dengiz eng ishonchli savdo yo'li bo'lib qoladi. Levantiyaning ziravorlari, vino va boylik buyumlari Flandriya matolariga almashish tarzida kelar edi. Janubdan insonparvarlik ta'limotining yangi g'oyalari kirib keldi, ular milliy madaniy an'analarni vujudga kelishi uchun muhim edi. Angliya misoli ayniqsa, namunalidir.

1066-yilda Fransiya Shimolidan kelgan va eski fransuz tilida gapiradigan Normanlar german tilining biri bo'lgan qadimgi ingliz tilida gapiradigan germanlar istiqomat qiladigan Britaniyani zabt etdilar. Keyingi 200 yil ichida zabt etuvchilar mag'lubiyatga uchraganlar bilan deyarli aralashmadilar, tillar ham parallel tarzda qo'llanildi. Ingliz tili aholining aksariyat savodsiz qismining og'zaki tili bo'lib qoldi, biroq bu tilda tuzilma o'zgardi: yakuniy qo'shimchalarning murakkab tizimi bartaraf etilib, ingliz tili flektiv tilidan analitik tilga aylandi va hozirda ham shunday bo'lib qoldi. Fransuz tili esa davlatchilik va madaniyat tilining maqomini saqlab qoldi, vaziyat XIV asrning o'rtasida o'zgarib boshladi. 1337-yilda Angliya va Fransiya 100 yillik urushni boshladilar, Kapeting sulolasi tugagandan so'ng ona urug'i tomonidan Fransiya qiroli Filipp IV ga nevara bo'lgan ingliz qiroli Eduard III Fransiya taxtiga o'z da'volarini e'lon qildi. Bu ingliz millati va davlatini shakllanishining tabiiy jarayoniga turtki bo'ldi.

Uzoq muddatli kelishmovchiliklar 100 yillik urush tugaganidan so'ng (1453) Qizil va Oq atirgullar urushi (1455-1485) bilan yakun topadi. XIV-XV asrlarning chegarasida bo'lgan ingliz voqealari Yevropa dunyosining holati uchun ko'rgazmalidir, chunki 100 yillik urush ko'plab davlatlarni ishtirokchiga aylantirdi, bular qatorida Portugaliya, Shotlandiya, Aragon, Kastiliya, Burgundiya gersogligi bo'lgan. Urush holati doimiy va umumiyga aylanadi. Bu holat esa ta'lim, ilm-fan, madaniyat tarqalishi va rivojlanishi uchun yaxshi sharoit yaratmaydi: Umum Yevropaning tiklanishdan oldingi davri haqiqiy Renessans bo'lish uchun kuchga ega bo'lmaydi, yangi davr uchun mustahkam tinchlik zarur edi va bu umumiy xavf qudratli Usmoniylar imperiyasi tomonidan xavf mavjudligi sabab tinchlik o'rnatiladi. Konstantinopol 1453-yilda barbod bo'lib, Vizantiyaning 1000 yillik tarixiga yakun yasaydi, shu yili Angliya va Fransiya 100 yillik urushini yakunlaydilar. Xuddi shu payt o'zaro doimo urush

holatida bo'lgan italyan davlati ham tinchlik sulhini Lodi shahrida 1454-yilda tuzib, Yevropa dunyosining zaif obrazini yaratadi.

Yevropaliklar II asrda yaratilgan xaritalar yordamida jahonni kashf eta boshladilar. 1492-yilda Kolumb Amerika qirg'oqlariga yo'l oladi, unga yetganidan so'ng Amerikani Hindiston deb qabul qiladi. 1497-98-yilda Vasko de Gama Afrikaning Janubiy qirg'oqlaridan o'tib, haqiqatda Hind qirg'og'iga yetganida yevropaliklar uchun dunyo kengayadi. 1521-1522-yildagi Magelanning yer atrofidagi sayohatidan so'ng yer makoni haqiqatda butun jahon makoniga aylanadi. Yana 20 yildan so'ng Kopernikning astronomik nazariyasi Ptolemeyning ta'limotini yo'qqa chiqaradi. Shunday qilib antoik davrning ishi natija beradi: ulardan o'rganishdi, ammo unga taqlid qilishmadi.

### Yangi odam

Renessans qachon boshlandi? Ba'zida bu sanani oy va kunini aniq belgilab aytadilar, ya'ni 1341-yil 8-aprelda Pasxa bayramida. Bu kuni Rim shahrining senatori Franchesko Petrarka ismli shoirga mukofot topshirdi. Shu payt bu yerda antik davrda o'rnatilgan va bir necha asrdan beri bu yerda amalga oshirilmayotgan shoirlarni mukofotlash marosimi bo'lib o'tdi, aynan shu an'anani tiklanishi bu davrning muhim va ko'rgazmali voqeasidir. Yangi insonni tug'ilishini aynan Petrarka shaxsi orqali tushunish mumkin, u uyg'onish davrining birinchi odami hisoblanadi. Petrarka o'zining katta yoshli zamondoshi Dante kabi florensiyalikdir, u albatta Florensiyaning o'zida emas, undan uzoqda bo'lmagan Aretsso shahrida tug'ilgan. Dante o'zi surgun qilingan edi, Petrarka esa surgun qilinganning farzandi bo'lgan. Dante surgunidan iztirob chekib qiynalar edi, Petrarka esa o'zini tabiiy his etib, jahon fuqarosi sifatida tinch hayot kechirgan. Petrarka butun Italiya va Fransiyada bo'lgan, Yevropaning boshqa hududlariga ham sayohat qilgan. XX asrning boshida O.Shpengler jahon madaniyatining o'z tizimida bu inson turini Faust turi deb nomlaydi va uni doimo harakatda bo'lgan kurashayotgan to'siqlardan o'tadigan va doimo o'zi va atrofdagi dunyodan qoniqmagan inson turi sifatida belgilab beradi. Faust mazkur tur uchun to'g'ri tanlangan ramziy obrazdir. Petrarka

Faustning katta zamondoshi uning ibtidosi, u xuddi shu savollarni yechishga qaratilgan, avvalambor, faoliyat va ruh haqidagi savollarni yechimini topishga harakat qiladi. Petrarka esa har qanday holatlarda o'zligini yo'qotmagan. Bo'linmaslik va alohidalik Renessans davrini boshlab beruvchi individuallikning birinchi 2 ta shartidir. O'zini o'zi idrok etishga bo'lgan harakat o'z xususiyatlarini sezgan va uni tushunishga intilgan individuallikning birinchi belgisidir. "Inson" so'zining lotin yozuvidagi "homo" tarjimasidan biz uyg'onish davrining xususiyati bo'lgan gumanizmni chiqarib olamiz.

Gumanizm bu Renessans tafakkurining mag'zi, uning falsafasidir. "Gumanist" so'zini ilk bor Leonardo Bruni qo'llagan deb hisoblanadi. Yangi g'oyalar Italiyada ham paydo bo'ldi, bu yerda ular kuch va hattoki, hokimiyatga ega bo'ldi. Butun Yevropada gumanistlar siyosatchi bo'ldilar, davlat boshqaruvida mansablarni egalladilar. Ular jasur o'zgarish va islohotlar ruhi bilan to'yingan edilar. Individual ongning ozodligi, erkinligining chegarasi qayerdaligi, insoniy va individual tomonga ilohiydan ajralish, inson gunohining yangi bosqichining ibtidosi bo'lishi haqidagi bahs Petrarka bilan Avgustin o'rtasida boshlangan bo'lib, hozirgacha ham yakun topmadi. Bu hodisa xudodan insonga o'z markazini o'zgartirgan din, e'tiqodning mohiyati haqidagi savolni ko'ndalang qo'ygan va qo'yishda davom etmoqda.

### **Ilk, oliy va kechki<sup>6</sup> Renessans**

Ilk Renessansda inson individualligi birinchi o'ringa qo'yiladi. Inson shaxsi albatta, jismonan, ruhan, hajmli tarzda tushuniladi. Inson go'yoki yangilanib, yosharib, o'z baxtini topa boshlaydi – u atrof-muhit va o'zi bilan uyg'unlikda yashaydi. Odatda, ilk Renessansning asoschilari deb Mazachcho (1401-1428), Donatello (1386-1466), Brunelleski (1377-1446)larni hisoblashadi, ularni rasmlarining Florensiya maktabiga mansub deb tan olishadi. Mazachcho mag'rur va o'ziga ishongan odamni tasvirlaydi, uning ishlari inson tanasining 3 qirrali tasviri asosida bajarilgan bo'lib, haykaltaroshlik asarining tasavvurini beradi. Donatelloga kelsak,

---

<sup>6</sup> O'z taraqqiyotining so'nggi davrida bo'lgan bosqichi.

uning hammaga ma'lum bo'lgan "David" asarini nomini aytish yetarlidir. Brunelleski esa Florensiyadagi Soborning gumbazini qurgan me'mor sifatida shon-shuhrat topgan. O'z me'morchilik harakatlari bilan Umbriya maktabi (Pyero della Franchesko (1420-1492) va Shimoliy Italiya maktabi (Mantenya, 1431-1506) shon-shuhrat qozongan. XIV asrning eng oxiriga italiyalik rassom Chennino Chennining risolasida rassomchilik o'ziga xos fan deb e'lon qilinadi va rassomlarga qanday va nimani tasvirlash lozimligi haqida tavsiyalar beriladi. L.Peberti (1381-1455) antik san'at tarixi haqidagi "Kommentari" asarini Abu Ali ibn Sino, Rodjer Bekon, Vitelo va boshqalarning falsafiy konsepsiyalaridan foydalanib yozgan. Pyero della Francheskoning "Rassomchilikning istiqbollari haqida" deb nomlangan risolasi hamda haykaltarosh va me'mor bo'lgan Antonio Averlino Filarete (1400-1469)ning "Me'morchilik haqida"gi risolasi qiziqarlidir. Renessansning birinchi bosqichining yakunlanishini belgilab beruvchi figura bu Leon Battista Alberti (1404-1472)dir, u "me'morchilik" haqida, "Rassomchilik", "Maqom" haqidagi asarlarning muallifidir.

Oliy tiklanishning falsafiy-estetik asosini Nikolay Kuzanskiy (1401-1464)dan boshlash maqsadga muvofiq bo'ldi. Bu inson nafaqat Renessans davri, balki umuman yangi va eng yangi Yevropa falsafasining yirik mutafakkiridir. Uning falsafasini birinchi asosi tuzilmaviy matematik uslubdir. Uning fikricha, xudo borliqning sof imkoniyatidir. Kuzanskiy to'g'ri chiziq, uchburchak, doira va shar cheksizlikda bitta bo'linmaydigan o'xshashlikka aylanishini isbotlaydi, bu haqda u o'zining "Ilmli ilmsizlik" deb nomlangan risolasida bayon qiladi.

Inson ijodiy ibtidodir, bu Renessans gumanizmidir. Renessans davrida biz nafaqat Italiya madaniyati tarixida, balki, umuman, Yevropa madaniyati tarixida ajoyib hodisaga duch kelamiz, uning nomi Marselio Fechinno boshchiligidagi Florensiya Aflotun akademiyasidir. Florensiyadagi Aflotun akademiyasi o'zining qisqa, ammo ajoyib tarixiga ega bo'lgan. Renessans badiiy asarlari syujetlarining aksariyati Injildan olinganligi tasodif emas, odatda, bu syujetlar juda yuqori xarakter ham diniy, ham axloqiy, ham ma'naviy, ham psixologik va umuman hayotiy xarakter bilan ajralib

turadi. Renessans asarlarining eng suyukli syujeti bu Bibi Maryam qo'lida go'dak bilan, Iso Masih, umuman Injil tarixidir.

Oliy Renessansning yuqori cho'qqilaridan biri bu Sandro Botichelli (1444-1510) ning ijodidir. Botichellining mashhur "Bahor" asari hozirgacha ham odamlarni lol qoldirib, bahslarga sabab bo'ladi: Botichelli o'zining "Bahor" va "Veneraning tug'ilishi" asarlarida shunday estetik va badiiy yuksaklikka erishadiki, uning ismi Renessans davrining buyuk insonlarining birinchi qatoriga qo'yadi. "Koinot insoni" atamasi xotirada avvalambor, Leonardo da Vinchining (1452-1519) gavdalantiradi: uning eng mashhur, eng yorqin va ko'p tomonlama iste'dodli bo'lgan zamondoshlaridan biron biri ham u bilan teng kela olmaydi. Iste'dodli rassom va tinib-tinchimas eksperimentator olim Leonardo da Vinchi tarixda davrning ramzi bo'lib qoldi.

Renessans davrining yana bitta mashhur shaxsi Mikelanjelo Buonarotti (1475-1564) ongida Aflotun, Dante, Savonarola qudratli tarzda uyg'unlashgan. Mikelanjelo an'anaviy obrazlarni yangicha talqin qilgan, uning asarlaridagi Bibi Maryam o'z fojiviy taqdirini sezadi, u go'dakni emizib turgan vaqtida o'g'lini nima kutayotganligi haqidagi chuqur o'ylarga cho'mgan. Mikelanjeloning titanizmi uning mashhur "David"ida ifodalangan. Lozariyning fikricha, Mikelanjelo yaratgan David obrazi Florensiya hukmdorlarini bu hududni jasurlik bilan himoyalash va adolat bilan boshqarishga da'vat etadi, deb hisoblagan. Bizgacha Mikelanjeloning 200 dan ziyod she'rlari yetib kelgan. Inson shaxsiga tayanib muallif aynan inson shaxsida betakror go'zallikning yaxlit ifodasini topadi, bu go'zallik san'at asarlari kabi abadiy va o'zgarmasdir.

1493-yilda Papa Aleksandr IV maxsus hujjat bilan Ispaniya va Portugaliya o'rtasida dengiz ortidagi barcha yerlarni bo'lib berdi. Bunda Ispaniyaga kashf etilgan biroq hali noma'lum bo'lgan Amerika tegdi. Kortes Atsteklar davlatini bo'ysundirdi va yangi Ispaniyaning poytaxti bo'lgan Mexiko shahriga asos soldi. 1525-yildan boshlab kemalar karvonlari Seviliya portiga kumush va oltin yuklarini olib keladi, biroq bu butun imperiya ham o'zining tarixiy kuchsizligini ko'rsatdi.

1517-yilning 31-oktabrida Germaniyalik ruhoniylar Marten Lyuter Vittenbergdagi cherkovining eshigiga indulgensiya bilan

savdo qilishga qarshi 95 ta tezis yozilgan qog'ozni qoqib qo'ydi, bu Rimga qarshi harakat sifatida tushunildi. Reformatsiya boshlandi: 1521-yilning yanvarida imperiyaning oliy mansabdor shaxslari oldida Lyuter Karl imperiyasini portlatuvchi ayblar bilan Vormsdagi Reystagda chiqish qildi. Noma'lum ruhoniy Rimning yerdagi buyukligi va imperiyaga qarshi chiqdi, unga ruhoniy e'tiqodining mustahkamligi va axloqiy ishonchini qarshi qo'ydi. Reformatsiyani katolik dunyo bilan to'qnashuvi gumanizm bilan to'qnashuvni ham anglatar edi. Uyg'onishning II asri besamar o'tmadi: yangi odam yangi davrni ochib tarixning sahnasiga qadam qo'ydi. Demak, Renessans insonni sezilarli darajada ozod qildi.

Uyg'onish davri ham, Reformatsiya ham Yevropa sivilizatsiyasining an'anaviy avtoritar asoslarini yo'q qilishga kirishib, prinsipial jihatdan o'xshash ishni qildi. Xususan, ular asosan zamonaviy shaxs o'zini o'zi yetarli, avtoritarga qarshi, oqilona va tanqidiy shaxsning paydo bo'lishiga tayyorladilar.


### **Yangi davrda G'arb sivilizatsiyasi (XVI-XVIII asrlar)**

XVI asrning oxiri yangi vaqtni o'rta asrlardan va hattoki erta yangi zamondan ajratib turuvchi chiziq bo'lib, oldingi davr bilan chambarchas bog'liq edi. Yangi vaqtni o'rta asrlar va boshqa, oldingi davrlardan tubdan nimasi bilan ajratib turadi? Asosiy farq G'arbiy Yevropada burjua munosabatlarining o'rnatilishi deb hisoblanadi, bu odatda XVII asr o'rtalarida ingliz inqilobi bilan bog'liq. U feodalizmga qattiq zarba berib, boshqa mamlakatlarda ham feodal munosabatlarini buzish jarayonini boshlab berdi.

Zamonaviy davrda an'anaviydan tubdan farqli asoslarga qurilgan sanoat sivilizatsiyasining shakllanishi boshlandi. An'anaviy sivilizatsiya asoslarini yo'q qilishning murakkab va uzoq davom etadigan jarayoni birgalikda modernizatsiya deb ataladi.

Modernizatsiya siyosiy tuzilmalarni demokratlashtirish amalga oshiriladigan, fuqarolik jamiyati va qonun ustuvorligini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadigan ijtimoiy sohaga ham ta'sir qildi. Ongning dunyoviylashuvi (sekulyarizatsiyasi) jarayoni ham rivojlanmoqda, bu birinchi

navbatda tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarning tez o'sishi tufayli mumkin bo'ladi. Bu jarayonlarning umumiyliigi insonning o'zini, uning qadriyatlar tizimini o'zgartiradi. Agar an'anaviy sivilizatsiya odami tabiat va jamiyatning o'zgarmasligiga ishongan bo'lsa, zamonaviy zamon odami tabiat va jamiyatni boshqarish va o'zgartirishi mumkin (va ba'zan zarur) deb biladi. Odamlarning davlat hokimiyatiga yuqoridan berilgan narsa sifatida qaralmaydigan munosabati ham o'zgacha bo'lib, ularga tanqidiy munosabatda bo'la boshlaydi.



**Jeyms Uattning bug' dvigateli**

Zamonaviy odam g'ayrioddiy mobil, u atrofdagi hayotdagi o'zgarishlarga tezda moslashadi. O'rta asrlar odamidani farqli o'laroq, u o'z mulki yoki korporatsiyasi, tug'ilgan shahri yoki qishlog'i chegaralari bilan cheklanmaydi va o'zini kattaroq jamoa – sinf, millat, davlatning zarrasi deb biladi. Hozirgi zamonda ommaviy ong ham o'zgarimoqda. Savodxonlikning tarqalishi va

ommaviy axborot vositalarining paydo bo'lishi tufayli o'rta asrlarning o'rtacha odamini intellektual elitadan ajratib turuvchi ko'rfaz toraymoqda.

Albatta, modernizatsiya bilan bog'liq jarayonlar tezligi va chuqurligi bilan har xil edi. Shunday qilib, XVII va ayniqsa, XVIII asrda shaharlar juda tez o'sdi, ammo iqtisodiyotda yetakchi o'rinlarni hali ham aholining asosiy qismi ishlaydigan qishloq xo'jaligi egallab turgan. Shu bilan birga, agrar tarmoqda sanoat tarmog'idan farqli o'laroq, texnik qoloqlik va mayda ishlab chiqarish uzoq vaqt saqlanib qoldi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida mashinalardan foydalanish boshlandi, lekin umuman olganda, iqtisodiyot hali faqat sanoatlashtirish bosqichiga yaqinlashmoqda. Bu jarayonlarning barchasi asta-sekin tezlashib, an'anaviylik asoslarini buzadi. G'arbiy Yevropaning ilg'or mamlakatlarida uning qulashi XIX asrning birinchi o'n yilliklaridayoq ayon bo'ldi.

Angliya, Shimoliy Amerika va Fransiyadagi inqiloblar arafasida yetakchi faylasuflar va publitsistlar xalqning mustabid hukumatni zo'rlik bilan ag'darib tashlash va aholining aksariyat qismiga mos keladigan adolatli tartib o'rnatish huquqini oqladilar. Har bir keyingi inqilobda bu g'oyalar tarixiy tajribani hisobga olgan holda tuzatildi. AQSh Mustaqillik Deklaratsiyasi (1776) fransuzlar va boshqa ma'rifatparvarlarning g'oyalaridan ilhomlangan inson huquqlari bo'yicha dunyodagi birinchi deklaratsiya bo'ldi. Xuddi shu g'oyalar Fransiyaning Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasida (1789) o'z aksini topgan.

Yangi davr inqiloblarining birinchi bosqichida qirol hokimiyati jamiyat oldida o'zining qonuniyligi va obro'sini yo'qotdi va buning natijasida o'ziga xos hokimiyat bo'shlig'i paydo bo'ldi. Bunday sharoitda nazorat Gollandiyada General Estates, Angliyada Parlament, Frantsiyada Milliy Assambleya, Shimoliy Amerikada Kontinental Kongress kabi vakillik organlariga o'tdi.

## **Kapitalizmning qaror topish yo'llari**

Modernizatsiya va, umuman, kapitalizmning shakllanishi jarayonining turli sur'atlari Yevropa va dunyoda kuchlarning

o'ziga xos qayta taqsimlanishiga olib keldi. G'arb va Sharq o'rtasidagi bo'linish chizig'i yanada aniq bo'ldi, chunki G'arbdagi modernizatsiyaning jadal sur'atlari uning bir vaqtlar qudratli Sharq sivilizatsiyalaridan tobora ajralishini ta'minladi.

Sharq va G'arb o'rtasidagi o'ziga xos chorrahada joylashgan Rossiya XVIII asrdan rivojlanishning g'arbiy versiyasiga intildi. Shu bilan birga, Qo'shma Shtatlar, aksincha, rivojlanish sur'atlarini oshirdi va XIX asrning oxiriga kelib barcha Yevropa davlatlarini ortda qoldirdi.

XIX asrda Garbda uzoq vaqtdan beri markaz va periferiyaga bo'linish tobora mustahkamlanib bordi. Yangi davr doimo innovatsiyalarni, siyosiy va iqtisodiy tuzilmalarning moslashuvchanligini talab qildi, shuning uchun turg'unlikning har qanday ko'rinishi u yoki bu mamlakatni "markaz" dan "chekka"ga (va albatta, aksincha) uloqtirishi mumkin edi. Mamlakat hududining kattaligi ham, aholisining ko'pligi ham, armiyaning kuchi ham, o'tmishdagi muvaffaqiyatlar ham "markazda" barqaror o'rinni kafolatlay olmaydi.

Germaniya va Italiyada, birinchi navbatda, siyosiy tarqoqlik mavjud edi, buning natijasida bu mamlakatlarda birmuncha rivojlangan yerlar hali ham feodal munosabatlari hukmron bo'lgan mamlakatlar bilan qo'shnichilik aloqalarida bo'lgan.

XVIII-XIX asrlar oxirida Germaniya, Italiya va Ispaniyada kapitalistik tipdagi yirik manufakturalar va fermer xo'jaliklari paydo bo'la boshladi, bu mamlakatlar uchun ularni "markaz"dan ajratib turadigan masofani bosib o'tish juda qiyin edi.

## **Yevropa XX asrning boshida**

Urushlar insoniyat, insonparvarlik g'oyalari uchun og'ir sinov davri bo'ldi. XX asrning boshiga kelib G'arbdagi XIX asr davomida pishib yetilgan inqirozli hodisalar global inqirozga aylana bordi. Bu jarayon XX asr davomida sodir bo'ldi. Inqirozning moddiy asoslari umuman olganda industrial ishlab chiqarishdagi bozor munosabatlarining tez sur'atlarda rivojlanib borishi, ikkinchi tomondan bu g'arb jamiyatining boshqa davlatlarga qaraganda birdaniga ajralib chiqishi edi. Darhaqiqat, bozorlar

xizmat va mahsulotlar bilan to'lib borayotgan edi. Biroq aholi stanok, mexanizmlar, konveyerlar, texnologik jarayonlarga tobora bog'lanib, bularning barchasi mehnatga jamoaviy tus bergan. Bularning barchasi insonni o'z qiyofasini yo'qolib borishiga olib kela boshladi, individuallik yo'qolib, ommaviy ong fenomenini vujudga keltirib shaxsiy manfaatlarni siqib chiqara boshladi.

G'arb sivilizatsiyasi esa insonparvarlik asosida rivojlanayotgan edi. Asta-sekin industrial taraqqiyotning gumanistik qadriyatlari korporativ, texnokratik va nihoyat, totalitar ongga o'z o'rnini bo'shatib bera boshladi.

Birinchi jahon urushi esa Yevropaga ham juda katta yo'qotishlar olib keldi. Bu davrda demografik yo'qotishlar sodir bo'ldi, liderlik AQShga o'tdi, ilmiy-texnik yutuqlar esa aksilinsoniy maqsadlar uchun qo'llandi.

Yevropada boshlangan 1914-1918-yildagi Birinchi Jahon urushi, tez orada bu kontinentdan chetga chiqib, deyarli butun jahonni qamrab oldi.

Yangi zamonaviy qurollardan foydalanib bu urush avval ko'rilmagan qirg'in va buzg'unchiliklarni keltirib chiqardi. Urush, shuningdek, jiddiy siyosiy o'zgarishlarga ham ta'sir ko'rsatdi. Urushning borishi va uning yakunida eski Yevropaning harbiy-siyosiy tuzilishi quladi. Germaniya, Avstriya-Vengriya, Rossiya va Usmoniyar imperiyasi inqirozi sodir bo'ldi.

AQShning urushga kirishi bilan Yevropa jahondagi gegemonligini yo'qotdi, AQSh esa buyuk davlatga aylandi. Uzoq Sharqda Yaponiya o'z pozitsiyasini mustahkamlab oldi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, Ikkila jahon urushlari orasida fan va texnika ham o'ziga xos tarzda rivojlanib bordi. 1918-1939-yillarda dunyoning ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasini o'zgartirgan eng muhim omillardan biri ilmiy-texnik taraqqiyot bo'ldi. Fanni ishlab chiqaruvchi kuchga aylantirishning uzoq davom etgan jarayoni yakunlanib, XX asr boshlarida ilmiy-texnik inqilobga olib keldi.

Ikkinchi jahon urushi va "o'q" mamlakatlarining kapitulyatsiyasi butunlay dunyodagi vaziyatni o'zgartirib yubordi. Germaniya, Italiya, Yaponiya ("o'q" davlatlari) buyuk davlatlar qatoridan chiqdi. Eski Yevropa asta-sekin jahon siyosatidagi

yetakchilik rolini yo'qota boshladi. Shundan so'ng bu vakuumni 2 ta (SSSR va AQSh) yetakchi aksilgitlerchi davlatlar koalitsiyasi to'ldirdi. O'sish holatida bo'lgan ushbu 2 buyuk davlat jahon miqyosidagi siyosiy qarorlar harakterini aniqlab bera boshladi. Yadro quroliga ega bo'lgan AQSH 1945-yilda, SSSR 1949-yilda jahon siyosatiga ta'sir ko'rsatishning yangi yo'liga ega bo'ldi. 1945-yildan so'ng jahondagi siyosiy jarayonlar rivojida "sovuq urush" deb nom olgan ikkita blokning qarama-qarshiligi alohida o'rin tutdi.

### **Yevropa postindustriya davrida**

Zamonaviy tarixning ajratib turuvchi yirik qismlaridan biri sifatida XX asrning so'nggi choragidagi industrial sivilizatsiyadan postindustrial (industriyalashishdan keyingi) sivilizatsiyaga o'tishni ko'rsatish mumkin.

Postindustrial jamiyatga o'tishning boshlanishi XX asrning 70-yillaridagi 3 ta: mikroelektronika, biotexnologiya va informatika sohasidagi tub sifat o'zgarishi bilan bog'liq hisoblanadi. Aynan shu davrda uzoq davom etgan insoniyat tarixidagi temir asri yakunlandi. Keramika, plastmassa, "sintetik sivilizatsiya" tushunchasini tug'dirgan sintetik qoramoy kabi materiallar ustuvor materialga aylandi. Yangi texnologiyalar o'zlashtirilmogda. Transport va aloqada ham tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Yashil inqilob boshlandi-texnosferalar global darajadagi ekologik muammolarni keltirib chiqardi, shu bilan bir vaqtning o'zida uni hal qilishning yangi imkoniyatlarini ochmoqda.

Ishlab chiqarish shakllarida ham tub o'zgarishlar kuzatilmoqda. Industrial gigantlar borgan sari o'rta va mayda korxonalarni siqib chiqarmoqda. Mayda va o'rta biznes ko'p hollarda yalpi milliy mahsulotning yarmidan ko'prog'ini ishlab chiqarishga ham o'tmoqda. Bu bilan qo'shimcha ish o'rinlari ta'minlanmogda. Mashinali tuzumdagi ishlab chiqarish o'tmishda qolmogda. Shu bilan bir qatorda postindustrial jamiyat XX va XXI asrdagi sivilizatsiyaviy rivojlanishning asosiy tendensiyalarida aks

etayotgan murakkab integratsiyalashuv va deintegratsiyalashuv jarayonlari fonida kechmoqda.

Koinot miqyosidagi juda ko'p muammolar sivilizatsiyaning dastlabki bosqichlaridayoq vujudga kelgan. Biroq u vaqtlarda bu muammolar cheklangan va lokal xususiyatga ega bo'lgan. Insoniyat atrof-muhitni va resurslardan o'z ehtiyojlari yo'lida foydalanib, unga domiy ravishda zarar keltirib turdi. Insonning o'tmish davrlardagi tabiatga bunday yondoshuvi natijalari esa bugungi kunda ham o'zini namoyon qilmoqda. Masalan Gretsiyani olaylik, uni qadim zamonlardan beri tinmay ekspluatatsiya qilib kelinishi natijasida qadimda 65 % o'rmon bilan qoplangan bo'lsa, bugungi kunda u 15% ga tushib ketgan. Faqatgina dehqonchilikka emas, tabiatga chorvachilik ham yaxshigina ta'sir ko'rsatgan. Ya'ni tabiatdagi o'simlik va hayvonot dunyosi sezilarli darajada kamayib ketishiga, ko'p sonli zararkunanda hayvon va hasharotlarining ko'payishiga, cho'l va yarimcho'llarning paydo bo'lishiga va hokazolarga olib keldi. Qolaversa, yillar sayin rivojlanib borgan sanoatlashish jarayonining ham ta'siri katta bo'ldi.

Global (yoki umuminsoniy) muammolar atamasi XX asrning 60-yillaridan keng qo'llanila boshlandi. Turli mamlakatning ko'plab olimlari dunyo hamjamiyatida sodir bo'layotgan salbiy hodisalarning o'sib borishidan xavotirga tusha boshladilar. Qisqa muddat ichida yangi ilmiy yo'nalish – globalashuv (globalistika) ham shakllandi. Olimlar “qanday muammolarni global deb hisoblash mumkin?” degan savol bilan to'qnashdilar. Chunki ba'zi bir muammolar jahon iqtisodiyoti va siyosati bilan bog'liq bo'lsa, boshqa birlari ilmiy-texnik inqilob va insonning xo'jalik yuritish faoliyati oqibati bo'lgan, yana biri esa zamonaviy odamlar yashayotgan tabiiy sharoit bilan bog'liq bo'lsa, ularning ba'zilari lokal, boshqalari esa – global hisoblanadi.

Biroq ko'pgina olimlar global muammolarga faqat butun insoniyatga taalluqli bo'lgan muammolargina emas, balki alohida insonlarning o'ziga tegishli muammolar ham kirishini ko'rsatib o'tadilar. Ular bu muammolar dunyodagi har bir odamga, ularning kelajak avlodlari, sog'ligi, unga yaqin insonlar taqdiriga tegishli ekanini ta'kidlab o'tadilar.

Sanoat va transportning shiddatli rivojlanib borishi Yer yuzida bu jarayon yetib bormagan hududni qoldirmadi deyish ham mumkin. Misol uchun atmosferaning buzilishi manbalaridan ancha uzoqda joylashgan eng katta orol hisoblangan Grenlandiyada olib borilgan tadqiqotga ko'ra, Grenlandiya muzlarida o'rnashib qoluvchi qo'rg'oshin miqdori bir necha 10 yilliklar davomida 300 foizga ortgan.

Qolaversa, bu kimyoviy elementning atrof-muhitda ortib borishi esa insonning organizmi uchun zarar (suyak, soch va jigarida ortiqcha o'rnashishiga olib keladi) keltiradi. Chunki bu element inson va butun biosferani zaharlaydigan eng zaharli manbalardan biri hisoblanadi.

Avtomobil parklari atmosferani ushbu element bilan "boyitib" bormoqda, chunki bu element benzina qo'shimcha sifatida qo'shiladi.

Umuman, kimyolashtirish insonlar hayotini global xavfga olib keladi. Oziq-ovqat mahsulotlari va boshqalar xavoda ifloslangan boshqa narsalar bilan organizmga kiradi.

Siyosiy sohada ham yangi holat yuzaga keldi, bu holat an'anaviy g'oyaviy-siyosiy mo'ljal va ko'rsatmalarga muvofiq kelmaydigan zamonaviy davrning real muammolaridir. SSSRning parchalanishi va bu bilan Berlin devorining buzilishi, dunyoni ikkita qarama-qarshi lagerga bo'linishiga yakun yasadi, vaqt bo'yicha sifat jihatdan olib qaraganda nafaqat geostrategik tuzilish, balki yevrotsentrizm (aniqroq qilib aytganda yevroamerika tsentrizm) tuzilishida ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu jarayonlarning barchasi glaballashuvda o'z aksini topmoqda. Siyosatdagi glaballashuv shuni ko'rsatadiki, ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, siyosiy va boshqa munosabatlar va aloqalar butun dunyo xususiyatiga ega bo'lib bormoqda. Shu bilan birga davlatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni o'sib borishini ham nazarda tutadi.

Siyosatshunos olimlardan yana biri bo'lgan Amerikalik S.Xantington "sovuq urush" tugaganidan so'ng o'zgargan dunyoda "sivilizatsiyalar to'qnashuvi" modelini ilgari surdi.

S.Xantington fikricha, ilgari uch xil dunyodan - kapitalizm, sotsializm va "uchinchi dunyo"dan tashkil topgan xalqaro sistema

endi 8 ta asosiy: g'arbona, konfutsian, yapon, islom, induizm, provoslav – slavyan, Lotin Amerikasi va Afrika sivilizatsiyalarini o'z ichiga olgan yangi tizimga o'tmoqda. Raqobat qiluvchi harbiy bloklar uning fikricha ushbu sivilizatsiyalardan qaysi biriga tegishli ekanligi bilan farqlanadi. Oxir-oqibat kishilar uchun siyosiy mafkura yoki iqtisodiy manfaatlar emas, balki e'tiqod va oila, qon-qarindoshlik va ishonch, ya'ni kishilar o'zlarini qanday anglashlari nima uchun kurashlari va halok bo'lishlarini bilish muhimroqdir. Ammo Xantington madaniy-tarixiy maktabning asoschilari (Shpengler, Toynbi, Danilevskiy, Sorokinlardan farq qilib, sivilizatsion o'zlikni anglashning yangi mezonlarini ilgari surdi, xususan, bu qurol-yarog', ayniqsa, ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishi, inson huquqlari va immigratsiya bilan bog'liq jahonshumul muammolarni uzil-kesil hal etilishi edi. Sivilizatsiyalar o'rtasidagi chegara aynan shu muammolarning hal etilishiga qarab aniqlanadi. Bunda G'arb bir tomonda, qolgan sivilizatsiyalar yani qolgan dunyo esa, boshqa tomonda joylashadi.

S.Xantington G'arb sivilizatsiyasining yaxlit bir butunlik sifatida sistemalararo ixtiloflar davriga nisbatan dahshatliroq fojea oldida turganligi haqidagi tezis bilan chiqdi. Xantington konsepsiyasiga binoan kelajakda geosiyosatdagi markaziy muammo G'arb va qolgan sivilizatsiyalar o'rtasidagi ixtilof bo'lib qoladi. "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi jahon siyosatining belgilovchi omiliga aylanadi. Sivilizatsiyalar orasidagi o'tmish chizig'i G'arb va qolgan dunyo o'rtasidagi munosabatlar orqali o'tadi". Shundan kelib chiqib, u G'arbdagi hukmron doiralarga g'arbiy sivilizatsiya chegaralarida, ayniqsa, AQSh va Yevropa o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, boshqa mamlakatlar bilan munosabatlarda G'arbning manfaatlarini himoya qilish maqsadida ularning imkoniyatlarini qaytarish zarurligi haqidagi g'oyalar bilan murojaat qiladi. "Sivilizatsiya to'qnashuvi" modeli sivilizatsion bag'rikenglikka rahna soladi. U jahon jamoatchiligiga kelajakda g'arb va boshqa mamlakatlar o'rtasidagi ixtilof geosiyosatning markaziy o'q chizig'i bo'lib qolishligini isbotlashga qaratilgan.

Umuman olganda, insonning cheksiz ravishda xo'jalik faoliyati yer yuzida jahon hamjamiyatining turli davlatlaridagi

iqtisodiy manfaatlarni bir-biriga qorishuvini keltirib chiqarmoqda. Aynan shu jarayonni iqtisodchilar insoniyatning xo'jalik hayotini internatsionalizatsiyasi deb ataydilar. Masalan, XX asrda jahon miqyosida tovar va xizmatlar almashinuvi jahon sanoat va qishloq xo'jaligiga nisbatan ikki barobarga ortgan. 1985-yilning o'ziga kelib jahon savdosining yillik hajmi 2500 trillion dollarga yetganligini ko'rsatadi. Bu jarayonlar esa iqtisodiy muammolarning ko'pchiligi global xususiyat kasb etayotganligini bildiradi.

### **Muhokama uchun savol va topshiriqlar**

1. O'rta asrlar jamiyatining asosiy belgilarini (sohalari va jamoat institutlari bo'yicha: iqtisodiyot, ijtimoiy tuzilma va munosabatlar, hokimiyat tizimi, huquq, din, madaniyat) tavsiflang.

2. O'rta asrlarda imperiya g'oyasining roli qanday edi?

3. Karolinglar tiklanishi nima? Bunga nima sabab bo'ldi, uning ahamiyati nimada?

4. O'rta asrlarda cherkov qanday rol o'ynagan? O'rta asrlar jamiyati hayotida cherkov ishtirokiga misollar keltiring.

5. O'rta asrlarning madaniy hodisalaridan biri haqida gapirib bering: san'atdagi yo'nalish, falsafa, axloqiy tushuncha va boshqalar. (masalan: gotika, sxolastika, ritsarlik etikasi, shahar madaniyati, trubadur she'riyati va boshqalar).

6. "Salb yurishlari" mavzusida ushbu yurishlarning maqsadi, sabab va oqibatlari ko'rsatilgan jadval tuzing.

7. "Annallar maktabi", "XVI-XVII asrlarda Yevropadagi diniy urushlar", "Anglikan" cherkovi, "O'ttiz yillik urush", "Renessans" mavzularida ma'lumot tayyorlang.

### **Talabalarning mustaqil ishlashi uchun tavsiyalar**

1. Ilk yangi davrda (XV asr oxiri-XVII asr boshlari) Yevropa jamiyatining ijtimoiy tuzilishidagi asosiy o'zgarishlarni qisqacha aytib bering. Bu davrda jamiyatning yuqori darajadagi marginallashuviga nima sabab bo'ldi?

2. Manufaktura nima? U ustaxona, hunarmandchilik ustaxonasidan nimasi bilan farq qiladi? (Javob qiyosiy jadval shaklida taqdim etilishi mumkin).

3. Modernizatsiya va sanoat jamiyati asoslarining paydo bo'lishi haqida gapiradigan ilk zamonaviy davrda Yevropaning iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlarni ko'rsating.

4. Puritanlar kimlar, ularning asosiy g'oyalari qanday? Puritanizm qachon va qaerda paydo bo'lgan? Puritanizmning tarixdagi o'rnini qanday?

## MAVZULAR YUZASIDAN TESTLAR

1. "Sivilizatsiya" tushunchasi qachondan boshlab tarixchilar tomonidan keng ishlatila boshlandi?

1. \*XVIII asr
2. XVII asr
3. XVI asr
4. XX asr

2. Quyidagi olimlardan qaysi biri o'z asarida sivilizatsiyaning 21 ta tipini ko'rsatib o'tgan?

1. \*Toynbi
2. M. Veber
3. Corokin
4. Yakovets

3. Quyidagi sivilizatsiyalardan qaysi biri dengiz bo'yi sivilizatsiyasi hisoblanadi?

1. \*Qadimgi Finikiya
2. Qadimgi Misr
3. Qadimgi Hindiston
4. Xitoy

4. Qaysi olim o'z asarida sivilizatsiyaning asosiy komponenti sifatida madaniyatga alohida e'tibor qaratgan?

1. \*O. Shpengler
2. M. Veber
3. K. Yaspers
4. F. Brodel

5. "Chaqiriq - javob" nazariyasi kim tomonidan qo'llanilgan?

1. \*Toynbi
2. K. Yaspers
3. O. Shpengler
4. F. Brodel

6. "Despotiya" so'zining ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

1. \*Cheklanmagan monarxiya
2. Cheklangan monarxiya
3. Respublika
4. Parlament

7. Qadimgi Xitoyda imperatorlar kimlarga tenglashtirilgan?

1. \*Osmon o'g'illari

2. yerni egalari

3. Quyosh farzandi

4. Ruhoniylar

8. Hindistonda mavjud bo'lgan dinlarni ko'rsating?

1. \*braxmanizm

2. konfutsiylik

3. Yaxudiylik

4. Islom

9. Okean sivilizatsiyasi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

1. \*Amerika

2. Xitoy

3. O'rta Osiyo

4. Hindiston

10. "Yevropaning so'nishi" asarini muallifi kim?

1. \*Shpengler

2. Toynbi

3. Sorokin

4. Danilevskiy

11. Jahon tarixida dastlabki harfli yozuv qayerda paydo bo'lgan?

1. \*Shumerda

2. Misrda

3. Akkadda

4. Xitoyda

10. Dastlabki qonunlar to'plami qaysi davlatda vujudga kelgan?

1. \*Bobilda

2. Finikiyada

3. Isroilda

4. Falastinda

11. Qaysi xalqlar tarixi o'z dinida aks etgan?

1. \*Yahudiylar

2. Arablar

3. Hindlar

4. Xitoyliklar

12. Janubiy-sharqiy Osiyodagi dastlabki sivilizatsiyani belgilang?

1. \*Kxmerlar
2. Dongshon
3. Merou
4. Shoi

13. "Xudo davlati" asarining muallifi kim?

1. \*Avgustin
2. Akvinskiy
3. Strabon
4. Toynbi

14. Kichik Osiyoda tashkil topgan dastlabki davlat qaysi javobda to'g'ri berilgan?

1. \*Xett
2. Lidiya
3. Troya
4. Urartu

15. Qadimgi Mesopotamiyada urushlar davrida hokimiyat kimni qo'lida bo'lgan?

1. \*Lugal
2. Ensi
3. Ruhoniylar
4. Abbatlar

16. Quyidagi hududlardan qaysi biri voha sivilizatsiyasi deb ataladi?

1. \*Eron
2. Hindiston
3. Bobil
4. Misr

17. Vizantiya sivilizatsiyasi rivojiga hissa qo'shgan omil qaysi?

1. \*Xristian dini
2. Sug'orish inshoatlari
3. Shaharlar
4. Arxitektura

18. Kavkazortida vujudga kelgan dastlabki davlatning nomi?

1. \*Urartu
2. Ossuriya

3. Bobil
4. Eron

19. Yunoniston sivilizatsiyasining o'ziga xosligi nimada?

1. \*Polislarning mavjudligi
2. Akropolning mavjudligi
3. Agoraning mavjudligi
4. Patriarxal oila

20. Miloddan avvalgi V-IV asrlarda Yunon falsafasida vujudga kelgan oqim qanday nomlanadi?

1. \*Sofistika
2. Fales
3. Naturalizm
4. Iyerarxiya

21. Afina akademiyasiga asos solgan shaxsni ko'rsating?

1. \*Platon
2. Suqrot
3. Aristotel
4. Protagor

22. Qaysi davrdan boshlab G'arb va Sharq o'rtasidagi aloqalar mustahkamlandi?

1. \*Mil. avv. IV-III ming yillikda
2. Ellin davrida
3. Neolit davrida
4. Bronza davrida

23. Boshqaruvning Respublika shakli klassik darajada mavjud bo'lgan davlatning nomini ko'rsating?

1. \*Rim
2. Finikiya
3. Urartu
4. Bobil

24. Kimning hukmronligi davrida Rimda imperiya tizimi vujudga keldi?

1. \*Sezar
2. Kassiy
3. Pompey
4. Konstantin

25. Qadimgi Rimda xristianlik dini qaysi yildan davlat diniga aylandi?

1. \*313-yildan
2. 333-yildan
3. Mil. avv. II asr
4. 212-yildan

26. Rim sivilizatsiyasi inqiroziga sabab bo'lgan voqeani ko'rsating?

1. \*Germanlar bosqini
2. Xristianlik dini
3. Qullar qo'zg'oloni
4. Feodal jamiyat

27. Qadimgi jamiyatdayoq "sivilizatsiya" tushunchasiga qaysi termin qarama-qarshi ishlatilgan?

1. \*Varvarlik
2. Polis
3. Teokratiya
4. Oligarxiya

28. Ilk o'rta asrlarda Yevropa siyosiy hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan omilni ko'rsating?

1. \*Xalqlarning buyuk ko'chishi
2. Iqlimni sovushi
3. Rimning qulashi
4. Xristian dini

29. Rim imperiyasining uyg'onishi deb o'rta asrlarda qaysi imperiyani ko'rsatishadi?

1. \*Buyuk Karl imperiyasi
2. Ostgotlar qirolligi
3. Slavyanlar davlati
4. Qirol Artur davlati

30. "Teokratiya" tushunchasi qaysi olim qarashlarida mavjud?

1. \*Avgustin
2. Platon
3. Suqrot
4. Andragor

31. Yevropada "zulmat davri" qaysi asrdan emirildi?

1. \*XV asrdan

2. XIV asrdan
3. XVIII asrdan
4. XIX asrdan

32. Buyuk geografik kashfiyotlar sivilizatsiya tarixida nimani boshlab berdi?

1. \*Okean sivilizatsiyasi
2. Markazlashgan davlatlar paydo bo'lishini
3. Cherkovni qudratini o'sishi
4. Siyosiy tarqoqlik

33. Kim sivilizatsion taraqqiyotning bosqichma-bosqich rivojlanishi konsepsiyasini ilgari surdi?

1. \*K.Yaspers
2. P.Sorokin
3. F. Brodel
4. O.Shpengler

34. Qaysi podsho davrida deyarli butun Hindiston yagona davlatga birlashtirgan?

1. \*Ashoka
2. Chandragupta
3. Bimbisara
4. Manu

35. "Fol bitiklari" Qadimgi Xitoy tarixining qaysi podsholik davrini o'rganishda muhim manba hisoblanadi?

1. \*In
2. Chjou
3. Sharqiy Chjou
4. Sin

36. Buddizmning dunyoda eng keng tarqalgan qismi qanday nomlanadi?

1. \*Maxayana
2. Lamoizm
3. Xinayana
4. Oily buddizm

37. Kashtariti qaysi davlatning asoschisi hisoblanadi?

1. \*Midiya
2. Lidiya
3. Baqtriya

4. Parfiya

38. Konfutsiyning asosiy asarini to'g'ri ko'rsating?

1. \*Luny-yu

2. Shany Yan

3. Dao-de-szin

4. Shi-szi

39. Qadimgi Miesopotamiyadagi Ubeyd madaniyati nechanchi mingyillikka oid?

1. \*Mill.avv. V ming. o'rtasi - IV ming. boshi

2. Mill.avv. IV ming.

3. Mill.avv. III ming.

4. Mill.avv. II ming.

40. Rim imperiyasida qaysi qadimiy sharq xudosisiga ho'kiz qurbonlik keltirilgan?

1. \*Mitruga

2. Axura-Mazdaga

3. Amonga

4. Mardukka

41. Ossuriya imperiyasining poytaxtini to'g'ri ko'rsating?

1. \*Nineviya

2. Bobil

3. Akkad

4. Kish

42. Chatal-Xuyuk madaniyati?

1. \*Mill.avv. VII ming yillikni 2-yarmi - VI ming yillikni 1-yarmi

2. Mill.avv. VIII asr

3. Mill.avv. IX asr

4. Mill.avv. VI asr

43. Nineviya kutubxonasi asoschisi?

1. \*Ashshurbanipal

2. Sargon

3. Assaraddon

4. Shamshiadat

44. Lidiyaliklar davlatining poytaxti?

1. \*Sard

2. Bobil

3. Ekbatan

4. Pasargada

45. Sharqiy O'rta yer dengizidagi misrliklarning asosiy raqibi?

1. \*Xett

2. Akkad

3. Shumer

4. Uruk

46. Qadimgi Xitoyning "buyuk imperator" unvoniga sazovor bo'lgan hukmdorini ko'rsating?

1. \*Sin shi Xuandi

2. Kun-szi

3. Lao-szi

4. Sama-szyan'

47. Qadimgi Misr sivilizatsiyasi qachon vujudga kelgan?

1. \*Mil.avv. IV ming yillik

2. Mill.avv. III ming o'rtasi

3. Mill.avv. II asr bosh

4. Mill.avv. III asr

48. "Bir daryoga ikkinchi marta sho'ng'ib bo'lmaydi", "Hamma narsa oqadi, "Hech narsa bir joyda turmaydi" degan fikrlar qaysi qadimgi Yunon faylasufiga tegishli?

1. \*Geraklit

2. Demokrit

3. Diogen

4. Suqrot

49. Qadimgi Yunon faylasufi Diogen: "Nariroq tursangchi, quyoshni to'sib qo'yding!" deb kimga aytgan edi?

1. \*Makedoniyalik Aleksandrga

2. Filipp II ga

3. Geraklitga

4. Geradotga

50. "Yunon-fors urushlari to'g'risidagi tarix" asarining muallifi kim?

1. \*Gerodot

2. Arhimed

3. Arastu

4. Diogen

50. "Menga tayanch nuqtasini topib bering, yerni ostin-ustun qilib tashlayman" degan mashhur iborani aytgan qadimgi Yunon faylasufini aniqlang.

1. \*Arximed
2. Aristotel
3. Suqrot
4. Pliniy

51. Qadimgi Yunon faylasuflaridan qaysi biri "Afinaning eng aqlli kishisi" deb e'lon qilingan?

1. \*Suqrot
2. Arximed
3. Arrian
4. Aristotel

52. Qadimgi Rimni larzaga solgan qo'zg'olon boshlig'i Spartak asli qaerlik bo'lgan?

1. \*Frakiyalik
2. Fessaliyalik
3. Sitsiliyalik
4. Kapuyalik

53. German qabilalarining Rim imperiyasiga hujumlari necha yil davom etgan?

1. \*150 yildan ko'proq
2. 50 yildan ko'proq
3. 300 yildan ko'proq
4. 100 yilga yaqin

54. Qaysi imperator davridan boshlab rimliklar bosqinchilik urushlarini olib bormadilar?

1. \*Kaligula
2. Trayan
3. Neron
4. Oktavian Avgust

55. Qadimgi Rimda 12 ta mis plastinaga chekib yozilgan qonunlar majmuasi qaysi qonunlarga asoslanib ishlab chiqilgan edi?

1. \*Xammurapi qonunlariga
2. Solon qonunlari
3. Drakont qonunlari

4. "Avesto" asosida

56. Qaysi qadimgi Yunon olimi tarixiy voqealarni tanqidiy tahlil usuli orqali tadqiq etgan?

1. \*Fukidid
2. Ktesiy
3. Gerodot
4. Polien

57. "Lakedemonliklarning davlat tuzumi" va "Kirning tarbiyasi" kabi asarlar muallifi bo'lgan qadimgi Yunon tarixchisini aniqlang?

1. \*Ksenofont
2. Ktesiy
3. Strabon
4. Arrian

58. Ksenofontning quyidagi qaysi asarida Fors shohi Kir qo'shinida xizmat qilayotgan Yunon yollanma qo'shinlarining Shimoliy Bobildan Qora dengiz bo'ylariga ko'chishi tasvirlangan?

1. \* "Anabasis"
2. "Esdaliklar"
3. "Harbiy tarix"
4. "Daromadlar haqida"

59. Mil.avv. I asrda ijod qilgan Diodorning "Tarixiy kutubxona" asari jami necha kitobdan iborat bo'lgan?

1. \*40
2. 14
3. 20
4. 7

60. Mil.avv. VIII asrda shakllangan Yunon alifbosi so'nggi variantda nechta harfdan iborat bo'lgan?

1. \*24
2. 28
3. 32
4. 38

61. N.Y. Danilevskiy nechta sivilizatsiyani sanab o'tgan?

1. \*11
2. 9
3. 7

4.8

62. "Millatlarning umumiy tabiati haqidagi yangi fanning asoslari" asari muallifini ko'rsating?

1. \*Jan Batisto Viko
2. P.A.Sorokin
3. A.Toynbi
4. O.Shpengler

63. Nikolay Yakovlevich Danilevskiyning kitobi berilgan javobni ko'rsating?

1. \* "Rossiya va Yevropa"
2. "Lazzatlanish bog'i"
3. "Yevropa quyoshining botishi"
4. "O'rta Osiyo esdaliklari"

64. L.N.Gumilyov passionar konsepsiyasini tushunishning kaliti-.....

1. \*Etnos
2. Etnik
3. Leksik
4. Gramatik

65. Karl Yaspersning asari berilgan qatorni ko'rsating?

1. \* "Davarning ruhiy vaziyati"
2. "Antik davr rivojlanishi"
3. "Dunyo sivilizatsiyasi"
4. "Lazzatlanish bog'i"

66. K.Yaspers "Jahon tarixining o'qi"ni qaysi yillar oralig'i bilan belgilaydi?

1. \*Mil. avv. 800-200
2. Mil. avv. 900-200
3. Mil. avv. 950-210
4. Mil. avv. 900-150

67. Dunyoda postmodernizmning falsafiy asoslari bo'yicha eng mashhur mutaxassislardan biri deb tan olingan shaxsni ko'rsating?

1. \*Jan-Fransua Liotar
2. Jon Boden
3. Jon Bergli
4. Antuan Genri

68. Sharq halqlarining madaniyati sanalmish Hindistonning o'ziga xos raqs dramasini toping?

1. \*Gigaku
2. Koku
3. Dzi
4. Sharma

69. Yapon san'atshunosi nomi berilgan qatorni ko'rsating?

1. \*Noma Seyroku
2. Asikaga Takaudin
3. Toyotomu Masau
4. Rizo Tanakura

70. Qachon Lyuy xitoy musiqa tizimi Yaponiyaga xitoy falsafasi va adabiyoti bilan birgalikda kirib kelgan?

1. \*VI asr
2. VII asr
3. IX asr
4. VIII asr

71. Nechinchi asrlarda mo'g'ullarning Kidan qabilasi Shimoliy Xitoyni zabt etadi?

1. \*X-XI asr
2. XI-XIII asr
3. XV-XVI asr
4. XII-XIV asr

72. Miloddan avvalgi VI asrda yashagan xitoy faylasufi Konfutsiy qaysi sulola haqida shunday deb aytib o'tgan: "Ularni marosimlari haqida qanday gapirish mumkin? Na hujjatlar qolgan, na uni ko'rib bilgan odamlar qolgan?"

1. \*Shan
2. Xan
3. Sin
4. Chjou

73. Qaysi davr hozirda Xitoyda Qadimgi Xitoyning "Oltin asr"i sifatida e'zozlanadi?

1. \*Shan
2. Min
3. Sin

4. Xan

74. Hozirgi paytda Xanchjou va Pekinni birlashtiruvchi buyuk kanalning qismi tarixda nima deb atalgan?

1. \*Xan Gou
2. Mindzi
3. Sinshin
4. Xanyan

75. Qachon Sankt-Peterburgda "Xitoy va uning hayoti" deb nomlangan muallifi noma'lum bo'lgan nemis nashrining rus tiliga tarjimasi chop etildi?

1. \*1904-y.
2. 1910-y.
3. 1921-y.
4. 1919-y.

76. Konfutsiychilik insonni o'zini o'zi barkamollikka erishishini nima orqali amalga oshirilishi lozimligini ko'rsatadi?

1. \*Insonparvarlik
2. Axloqiylik
3. An'anaviylik
4. Obrazlilik

77. Konfutsiychilikning kaliti nima?

1. \*Jen
2. Dao
3. Min
4. Yansizi

78. Qadimda Xitoyda kimlarga doimo shubha bilan qaraganlar?

1. \*Buddaviy rohiblarga
2. Amaldorlarga
3. Imperatorlarga
4. Dehqonlarga

79. Xitoyning birinchi dono hukmdorini ko'rsating?

1. \*Fu Si
2. U Di
3. Sin Shixuandi
4. Takayama

80. Xitoyda kimni doimo hayotni uzaytirish, sog'liqni mustahkamlash vositasi hisoblagan?

1. \*Ayol
2. Er
3. Ota
4. O'g'il

81. Xitoy hududida xomo sapiyens bundan necha ming yil oldin paydo bo'lgan?

1. \*200 ming
2. 270 ming
3. 220 ming
4. 300 ming

82. Bugungi kunda Hindistonda qancha asosiy til va sheva mavjud?

1. \*14 ta asosiy til va 250 ga yaqin sheva
2. 17 ta asosiy til va 270 ga yaqin sheva
3. 27 ta asosiy til va 570 ga yaqin sheva
4. 18 ta asosiy til va 276 ga yaqin sheva

83. Hindistonning islomlashish davri qachondan boshlanadi?

1. \*1 ming yil
2. 1,5 ming yil
3. 2 ming yil
4. 3 ming yil

84. Miloddan avvalgi IX-V asrlarda yaratilgan diniy-falsafiy matnlar nima deb atalgan?

1. \*Upanishadalar
2. Sutralar
3. Girautra
4. Nasriy asarlar

85. Maxobxarotaning muallifini toping?

1. \*Vyasa
2. Javaxarlal Neru
3. Bxarat
4. Krishna

86. Hindlarning mashhur dostoni Ramayana nechta qismdan iborat?

1. \*7

2. 9

3. 11

4. 15

87. Ramayana doston muallifini toping?

1. \*Van

2. Vyasa

3. Matxuri

4. Naransih

88. XIX asrning mashhur ingliz arxeologi Ostin Genri Leyyard qaysi sivilizatsiyani o'rgangan?

1. \*Mesopotamiya

2. Maya

3. Xitoy

4. Hindiston

89. Mesopotamiyada saqlashga olingan yoki sotib olingan tovarlarning hisob-kitobini yurgizishga bo'lgan ehtiyoj nimani paydo bo'lishiga olib keldi?

1. \*yozuv

2. Pul

3. qog'oz

4. Tarozi

90. Mesopotamiyaning eng yirik shahri qaysi javobda ko'rsatilgan?

1. \*Uruk

2. Lagash

3. Ur

4. Umma

91. Shumerning eng katta ta'lim markazi bo'lgan shaharni toping?

1. \*Nippur

2. Kish

3. Uruk

4. Umma

92. Akkadda kim birinchi bo'lib muntazam armiya tuzadi?

1. \*Sargon

2. Salamansar

3. Sardur

4. Kiaksar

93. Akkadda nima sababdan imperiya zavolga yuz tutdi?

1. \*Gutey qabilalarining hujumi tufayli
  2. O'zaro ichki nizolar tufayli
  3. Zilzilalar tufayli
  4. Hukmdorning boshqa davlatga qochib ketishi tufayli
94. Makedoniyalik Aleksandr nechta shahar barpo etgan?
1. \*34
  2. 40
  3. 55
  4. 47
95. Komediya janri qachon paydo bo'lgan?
1. \*Mil. avv. IV asr
  2. Mil. avv. VI asr
  3. Mil. avv. IX asr
  4. Mil. avv. IX asr
96. Menandrning komediyasi berilgan qatorni ko'rsating?
1. \*"Tretey sudi"
  2. "Arilar"
  3. "Og'a-inilar"
  4. "Isida va Osiris"
97. Qaysi olim "pi" soni bilan shug'ullanib, uni 3,1416 ga teng deb aniqlagan?
1. \*Arximed
  2. Strabon
  3. Aflotun
  4. Arastu
98. Qaysi olim kapilyar qon tomirlarni kashf etdi?
1. \*Erasistrad
  2. Gippokrat
  3. Abu Bakr Roziy
  4. Aristotel
99. Fivalik Mironning asari berilgan qatorni ko'rsating?
1. \*"Sarxush kampir"
  2. "Ippuris so'zlari"
  3. "Tretey sudi"
  4. "Isida va Osiris"
100. Ilk o'rta asr davrida quyoshli va suvli soatlarni qurish san'ati faqatgina qaysi hududlarda mavjud bo'lgan?

1. \*Vizantiya va Arab

2. Venetsiya va Arab

3. Rim va Sitsiliya

4. Misr va Eron

101. Ikki daryo oralig'idagi dastlabki sivilizatsiyani ko'rating?

1. \*Shumer

2. Ossur

3. Babil

4. Falastin

102. Daryo sivilizatsiyasi to'g'ri ko'rsatilgan javobni ko'rsating?

1. \*Misr

2. Finikiya

3. Eron

4. Amerika

103. Hindiston sivilizatsiyasini o'ziga xosligi nimada?

1. \*Qishloq jamoalari

2. Shaharlar

3. Din

4. Yozuv

104. Davlat to'g'risidagi qarashlar qaysi diniy ta'limotda aks etgan?

1. \*Konfutsiylik

2. Yaxudiylik

3. Shomonlik

4. Islom

105. Yunonistonda aholi necha tabaqaga bo'lingan?

1. \*3 ta

2. 4 ta

3. 2 ta

4. 5 ta

106. Kastalarga bo'linish qaysi qadimgi davlatda bo'lgan?

1. \*Hindiston

2. Xitoy

3. Yaponiya

4. O'rta Osiyo

107. Hindistonning dastlabki sivilizatsiya o'choqlarini ko'rsating?

1. \*Mohinjo-Daro, Harappa
  2. Maurya
  3. Chjou
  4. Gupta
108. Xitoyda tashkil topgan dastlabki sulola vakillarini ko'rsating?
1. \*Shan
  2. Sin
  3. Tan
  4. Chjou
109. Eron hududida tashkil topgan dastlabki davlat nomini to'g'ri belgilang?
1. \*Elam
  2. Suza
  3. Midiya
  4. Ahamoniylar
110. Qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan sivilizatsiya qanday nomlanadi?
1. \*Minoy
  2. Shumer
  3. Afina
  4. Sparta
111. Yunoniston sivilizatsiyasining ikki yirik markazini ko'rsating?
1. \*Afina va Sparta
  2. Megara va Sparta
  3. Beotiya va Afrika
  4. Fiva va Messeniya
112. Yunonistonning so'nggi davri qanday nomlanadi?
1. \*Ellin
  2. Sparta
  3. Fiva
  4. Afina
113. Arab xalifaligi qachon vujudga kelgan?
1. \*VII asr boshlari
  2. VI asr boshlari
  3. VIII asr

#### 4. IX asr

114. Vizantiya imperiyasi tugashiga qaysi voqea sabab bo'lgan?

1. \*Usmoniy turklarning qo'shini
2. Xristianlikni kuchsizlanishi
3. Iqtisodiy inqiroz
4. Salbchilar yurishlari

115. Qaysi sivilizatsiya Sharqda katta hududlarni qamrab olgan?

1. \*Islom
2. Misr
3. Hindiston
4. Yapon

116. Yaponlar mafkurasida qaysi din alohida o'rin tutgan?

1. \*Sintoizm
2. Budda
3. Islom
4. Konfutsiylik

117. Quyidagi sivilizatsiyalardan qaysi biri eng yosh hisoblanadi?

1. \*Islom
2. Misr
3. Shumer
4. Hind

118. Misrliklar kutubxonalarni nima deb atashgan?

1. \*"Hayot uyi"
2. "Ilohlr uyi"
3. "Kelajak saroyi"
4. "Umid bog'i"

119. Xett davlati asoschisi bo'lgan afsonaviy podsho kim?

1. \*Anita
2. Mursuli I
3. Xiram I
4. Xammurapi

120. "Sirakuzalik ayollar" va "Jodugarlar" deb nomlangan poemalar muallifi kim?

1. \* Feokrit
2. Esxil
3. Sofokl

#### 4. Gerodot

121. Sivilizatsiyalarning ko'p sonli muammolari ichidan K.Yaspers nechta asosiysini ajratadi?

1. \*4

2. 6

3. 5

4. 3

122. Modernizmga asosiy tayanch tushunchalarini qaysi sivilizatsiya berdi?

1. \*Qadimgi Yunoniston

2. Qadimgi Rim

3. Misr

4. Xitoy

123. Qadimgi Yunoniston qaysi tushunchalarni dunyoga berdi?

1. \*Gumanizm, demokratiya

2. respublika, tiraniya

3. respublika oligarxiya,

4. Modernizm, demokratiya

124. Qaysi davr hozirda Xitoyda qadimgi Xitoyning "Oltin asr"i sifatida e'zozlanadi?

1. \*Shan davri

2. Chjou davri

3. Xan davri

4. In davri

125. Axey sivilizatsiyasining gullab-yashnashi qachonga to'g'ri keladi?

1. \*Mil.avv. XV-XIII asrlarga

2. Mil.avv. XVI-XV asr

3. Mil.avv. VIII-VI asrlar

4. Mil.avv. V-IV asrlar

126. Qaysi omil Yunoniston tarixida polis inqirozini boshlab berdi?

1. \*Peloponnes urushi

2. Xalq qo'zg'olonlari

3. Yunon-fors urushlari

4. Rimning bosqini

127. Ellinizm davri necha bosqichga bo'linadi?

1. \*3

2. 4

3. 6

4. 2

128. Qaysi olim davlatning to'rtta turi – timokratiya, oligarxiya, demokratiya va tiraniya haqidagi mulohazalarini tuzadi?

1. \*Aflotun

2. Suqrot

3. Geraklit

4. Demokrit

129. Yunon sivilizatsiyasining dastlabki maskani qayerda vujudga keldi?

1. \*Krit orolida

2. Egey dengizi orollarida

3. Kipr orolida

4. Karfagenda

130. Kolonizatsiyadan tashkil topgan shahar davlat?

1. \*Metropoliya

2. Megapolis

3. Provinsiya

4. Tiraniya

131. Xristian dinidagi Reformatsiyalar natijasida....

1. \*Yangi isloh qilingan Cherkovlar paydo bo'ldi

2. Yangi dinlar paydo bo'ldi

3. Diniy-fuqarolik urushlari kelib chiqdi

4. Yangi davlatlar paydo bo'ldi

132. Qadimgi Yunon sivilizatsiyasi markazini belgilang?

1. \*Afina

2. Pirey

3. Sparta

4. Fiva

133. Afinada demokratiyani yaratish bo'yicha birinchi qadam bo'lgan islohotlarni kim o'tkazgan?

1. \*Solon

2. Perikl

3. Efialt

4. Filipp

134. Polis inqirozini belgilang.

1. \*Oligarxiya va demokratiya tarafdorlari o'trasidagi kurash
2. To'liq xususiy mulkka o'tish zarurati
3. Iqtisodiy o'sish
4. Demkoratik o'sish

135. Platon mukammal polis rejasini qaysi asarida ishlab chiqqan?

1. \* "Davlat" asarida
2. "Suqrot apologiyasi" da
3. "Protagor" asarida
4. "Aristokratiya" asarida

136. Tarixchilar "Ellinizm" atamasi bilan qaysi davrlarni belgilashadi?

1. \*Mil. avv. 323-yildan mil. av 30-yilgacha
2. Mil. avv. 323-yildan milodiy 30-yilgacha
3. Mil. avv. 30-yildan milodiy 323-yilgacha
4. Milodiy 30-yildan milodiy 323-yilgacha

137. Ellinizm davridagi davlat o'zida qaysi elementlarni mujassamlashtirgan edi?

1. \*Respublika va monarxik qurilishni
2. Monarxik qurilish va sharqcha istibdod
3. Sharqcha istibdod va polislar tizimi
4. Sharqcha istibdod

138. Rim imperiyasida boshqaruvning qanday yangi shakli vujudga keldi?

1. \*Diktator (imperator)ning yakka hukmronligi
2. Demokratiya
3. Nim nobiliteti
4. Xalq tribunlari

139. German va german bo'lmagan qabilalarning ommaviy ko'chib o'tishi - bu...

1. \*Xalqlarning buyuk ko'chishi
2. Varvar podsholiklarining tuzilishi
3. Varvarlarning bosqini
4. Yangi viloyatlarning shakllanishi

140. Yevropa siyosiy birligining vatani...

1. \*Franklar qirolligi

2. Lotar imperiyasi
  3. Shimoliy sharqiy Gallliya
  4. Vizantiya
141. G'arbiy Yevropaning ilk tarixiy davriga xos bo'lgan jihatlarni belgilang.
1. \*Iqtisodiy o'sish
  2. Iqtisodiyotni barbod bo'lishi
  3. Sivilizatsion darajaning pasayishi
  4. Feodalizm
142. Cherkov uchun eng muhim masalalardan biri...
1. \*Uning G'arbiy Yevropa sivilizatsiyasi hayotidagi roli
  2. Jahon hukmronligiga aloqadorligi
  3. Cherkovning siyosiy kuchga aylanishi
  4. Indulgensiya
143. Yuqori siyosiy hokimiyat ruhoniylarga tegishli bo'lgan boshqaruv shakli...
1. \*Teokratiya
  2. Papa davlati
  3. Demokratiya
  4. Tiraniya
144. XIV asrda Katolik Cherkovi ichidagi bo'linish qanday nom olgan?
1. \*Reformatsiya
  2. Velikaya sxizma
  3. Indulgensiya
  4. Tiraniya
145. Aslzoda feodallar yerni qanday shart asosida olganlar?
1. \*Harbiy xizmat o'tab
  2. Ma'lum soliq majburiyatlarni bajarib
  3. Mamlakatning siyosiy hayotida qatnashib
  4. Musobaqalarda qatnashib
146. O'rta asrlarda asosiy ishlab chiqaruvchi...
1. \*dehqonlar
  2. Ritsarlar
  3. Yirik aslzoda feodallar
  4. Ko'chmanchilar
147. Feodal tarqoqlikni vujudga kelish sabablarini belgilang.

1. \*Mahalliy aslzodalik nasabining mustahkamlanishi
2. Yirik yer mulk
3. Cherkov ta'siri
4. Ateizm

148. A. Toynbi "Tarixni anglash" asarida nechta sivilizatsiyani sanab o'tadi?

1. \*32 ta
2. 11 ta
3. 4 ta
4. 18 ta

149. Minoy sivilizatsiyasi qachon gullab-yashnagan?

1. \*Mil.avv. XVI-XV asrning birinchi yarmida
2. Mil.avv. VIII-VI asrlar
3. Mil.avv. V-IV asrlar
4. Mil.avv. XI asrdan m.a. IV asrning so'nggi choragigacha

150. Yevropada "sivilizatsiya" tushunchasi qachon shakllandi?

1. \*XVIII asr
2. XIX asr
3. XX asr
4. XXI asr

## GLOSSARIY

**Anglikanlar** – Angliyada XVI asrdagi Reformatsiya davrida vujudga kelgan, tamoyillariga ko‘ra katolik cherkoviga yaqin bo‘lgan protestant cherkovi tarafdorlaridan biri.

**“Annallar maktabi”** (“Yangi tarix maktabi”) o‘z atrofiga Mark Blok, Lyusyen Fevrlar tomonidan asos solingan “Annallar” (1929-1939) hamda “Ijtimoiy va iqtisodiy tarix Annallari” (1939-1941), “Annallar. Tarix, ijtimoiy fanlar” (1994-yildan), jurnallari atrofiga yiqqan Fransiyadagi ilmiy yo‘nalish. Uning vakillari tarix fanidagi inqilobiy o‘zgarishlarni ushbu yo‘nalishning shakllanishi bilan bog‘laydilar. Mohiyatan klassik “tarixiy bayonchilik” o‘rniga “tarixiy muammolar” kelgan, shuningdek, jamiyatda mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarni ta‘riflab beruvchi “umumiy, yalpi” (total) tarix yaratishga urinilgan.

**Antik sivilizatsiya** – qadimgi yunon va qadimgi rim madaniy-tarixiy tipi. U mil. avv. III-II ming yilliklarda Egey dengizi orollari, Bolqon yarimorolining janubiy qismi va Kichik Osiyo yarimorolining g‘arbiy qirg‘oqlarida vujudga kelib, mil. avv. V-IV asrlarda gullab-yashnagan.

**Daotsizm** (xit. Dao szya yoki dao szao – dao haqidagi ta‘limot yoki (buyumlarning) “yo‘li”) 1) Xitoyda mil. avv. VI-V asrda) vujudga kelgan qadimgi diniy-falsafiy ikki (konfutsiylik bilan bir qatordagi) maktab (yo‘nalish)laridan biri. Tabiat qonuni asosida hayot kechirishni da‘vat qilgan qadimgi Xitoy faylasufi Lao-Szi ushbu ta‘limot asoschisi hisoblanadi; 2) Xitoydagi dinlardan biri. Diniy Daotsizm asoschisi mil. avv. I asrda yashagan Chjan-Dao-lin hisoblanadi. D. Xitoyning ma‘naviy madaniyatining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Daotsizm Xitoy va Yaponiyaning falsafa, san‘at, harbiy ish va turmush tarzida o‘zining yorqin ifodasini aks ettiradi.

**Demokratiya** (yunon. demos-xalq va kratos-hokimiyat) – 1) xalq hokimiyatchiligi; 2) hokimiyat xalq qo‘lida bo‘lgan siyosiy tuzum; 3) fuqarolar erkinligi va tengligi qonunlar orqali mustahkamlangan, xalq hokimiyatchiligining vosita va shakllari amalda o‘rnatilgan va yuzaga chiqarilgan siyosiy tuzum.

**Ekspansionistik** (lot. expansio – kengaytirish, yoyish) davlatlarning iqtisodiy, siyosiy, harbiy usullar yoki diplomatik bosimlar bilan boshqa davlatlarga ta’sir doirasini kengaytirishi. Ko’pincha bu atama bir davlatni ikkinchi davlatni bosib olish uchun olib borilgan urushlar, xalqlarning siyosiy mustaqilligidan mahrum bo’lishi bilan bog’liq jarayonlarga nisbatan ham qo’llanadi.

**Ellinizm** (Ellin sivilizatsiyasi) – yunon klassik sivilizatsiyasi yoki tarixiy davrdan keyingi bosqich. Uning davriy chegarasi mil. avv. 323-yilda Aleksandr Makedonskiyning vafot etishidan to mil. avv. 30 yilda Misrning Rim tarkibiga kirishigacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi. Ellinizm madaniyati bir sivilizatsiya dirasidagi yunon-makedoniya va Sharq (Misr va Osiyodagi) an’analarining sintezini o’zida namoyon etadi.

**Evristik** (qidiraman, kashf etaman, ochaman) – 1) yangi nimanidir ochish (evristik) jarayonida foydalaniladigan maxsus usullar; 2) ijodiy yoki nazariy ong mahsulini (evristik faoliyatni) o’rganuvchi fan.

**Ekzistensializm** (lot. Existentia - mavjudlik) XX asr boshida vujudga kelgan zamonaviy G’arb falsafasidagi irratsionalistik yo’nalish. Bu yo’nalishning yirik vakillariga N.Berdyayev, M.Xaydegger, K.Yaspers, A.Kamyu va boshqalar kiradi.

**Fenomen** (yunon. phainomenon – sodir bo’luvchi) – 1) G’ayrioddiy, kamdan-kam bo’ladigan hodisa yoki fakt. 2) His-tuyg’u tajribasi bilan payqaladigan hodisani anglatuvchi falsafiy tushuncha.

**Gilgamesh** – epik doston qahramoni. Mil. avv. III ming yillikdagi shumerlar shahri Urukning yarim afsonaviy hukmdori. Gilgamesh afsona (doston)i dastlabki jahon badiiy adabiyoti namunasi hisoblanadi. Unda Gilgameshning Enkidu bilan do’stligi hikoya qilinadi. Bu doston (afsona) xett, xurrit, falastinlik va boshqa xalqlarda ham keng tarqalgan.

**Geografik determinizm** – jamiyatning taraqqiyoti – jamiyat rivojining obyektiv qonuniyatlarining vujudga kelishining natijasi emas, balki tabiat kuchlarining ta’siri natijasi, deb hisoblaydigan konsepsiya hisoblanadi.

**Gumanizm** (lot. humanus - insoniy, insonparvarlik) odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, ularning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarda yuksak ma'naviy fazilatlarini rivojlantirishga g'amxo'rlik qilish.

2) XIII-XVI asrlardagi Uyg'onish davrining sxolastika va cherkovning ma'naviy hukmronligiga qarshi turgan dunyoviy hurfikrlilik.

**Industrial sivilizatsiya** - sanoatni rivojlantirish va ilmiy-texnik taraqqiyotga asoslangan sivilizatsiya.

**Kalvinizm** - g'oyaviy jihatdan lyuterantlikka yaqin turuvchi protestantlikning yo'nalishlaridan biri.

**Karma, Kamma** (skt. "sabab-oqibat, qasos") - Hind dinlari va falsafasidagi markaziy tushunchalardan biri, universal sabab-oqibat qonuni bo'lib, unga ko'ra insonning solih yoki gunohkor harakatlari uning taqdiri, azob-uqubatlari yoki zavqini belgilaydi. Karma qonuni inson harakatlarining ijobiy va salbiy oqibatlarini amalga oshiradi va shu bilan insonni o'z hayoti, unga olib keladigan barcha azob-uqubatlari va zavq uchun javobgar qiladi.

**Kasta** - Hindiston va Sharqning boshqa ba'zi mamlakatlarida ma'lum bir kasbiy kasb turi bilan birlashtirilgan yopiq ijtimoiy guruhlar, umumiy kelib chiqishi haqidagi g'oyalar, faqat o'z urf-odatlarini va qonunlariga ega bo'lgan kasta a'zolari o'rtasida turmush qurish.

**Kiklarda sivilizatsiyasi** - mil. avv. III-II ming yilliklarida Krit Orolida shakllangan bronza davri sivilizatsiyasi. Kiklarda sivilizatsiya afsonaviy podsho Minos nomidan kelib chiqqan. Uning qoldiqlari Knoss, Fest va boshqa qadimgi shaharlardagi katta saroy komplekslari, nekropol (ko'mish joylari), chiroyli freskalar, haykallar va sopol buyumlarda o'z aksini topgan.

**Kolizey** (lot. colosseus- ulkan, buyuk, juda katta) - Rimdagi va butun antik dunyodagi eng katta amfiteatr. Bu nom uning yonidagi Neron kolossi nomidan olingan.

**Konfutsiylik** - Xitoyning axloqiy-siyosiy ta'limoti. Bu ta'limotga mil. avv. VI asrda Konfutsiy asos solgan. Aristokratiyaning merosiy manfaatlarini aks ettiruvchi konfutsiylik hukmdorning hokimiyatini muqaddas, osmon

tomonidan hadya qilingan, odamlarni oliy va quyi qatlamga ajralishini esa adolatning umumiy qonuniyati deb qaragan. Jamiyat tuzilishi asosiga esa axloqan komillik sari intilish hamda axloq meyorlari (li)ga amal qilishni qo'yadi.

**Lokal** (ayrim) (geografik, madaniy, diniy va boshqa belgilari bilan ajralib turuvchi) sivilizatsiyalar nazariyasi - u ma'lum hududda o'ziga xos siyosiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishga ega bo'lgan jamiyatni o'rganadi. Lokal sivilizatsiyalar o'zida bir-biriga bog'liq bo'lgan komponentlar (tizim)ni aks ettiradi. Jumladan, unga ta'sir etuvchi qulay geografik sharoit, iqtisod, siyosiy qurilish, ijtimoiy tizim, qonunchilik, din, falsafa, adabiyot va san'at, insonlar turmush tarzi huquq-burchlari va boshqalar. Bu yondoshuv tarafdorlari (N.Y.Danilevskiy, A.Toynbi) har bir sivilizatsiyani avtonom, mustaqil, tirik organizm kabi o'z qonuniyatlariga ko'ra rivojlanuvchi tarzida ko'radilar.

**Linear konsepsiya.** Ushbu konsepsiyaga ko'ra, taraqqiyot asosida jamiyatning mukammalligining izchil o'sishi bilan insoniyat eskidan yangiga, soddadan murakkabga, quyidan yuqoriga rivojlanib boradi. Bu konsepsiya antik davr va o'rta asrlarda ma'lum bo'lmagan, u niderland (XVI asrning oxiri), ingliz (XVII asr) va fransuz (XVIII asr) inqiloblari davriga to'g'ri keladi.

**Lyuteranlik** - ruhoniylarning vositachilik rolini inkor etuvchi, qat'iy mehnat etikasi va asketik turmush tarzini afzal ko'ruvchi XVI asrdagi Reformatsiya davrida Germaniyada vujudga kelgan protestantlikning asosiy yo'nalishlaridan biri.

**Mentalitet** (lot. mantalis, mens, mentis - aqliy, aql, idrok, fikrlar shakli, ruhiy kechinmalar yig'indisi,) ayrim kishi yoki ijtimoiy guruhga xos aqliy qobiliyat darajasi. Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o'ziga xos tarixiy an'analari, urf-odatlar, diniy e'tiqodini ham qamrab oladi. Har bir millatning mentaliteti uning tarixi, yashab turgan shart-sharoiti, ijtimoiy faolligi va boshqa bir qancha omillar bilan bog'langan bo'ladi.

**Metafizika** (yunon. meta ta fizika - fizikadan so'ng) - borliqning sezgilardan yuqori turuvchi prinsiplari va umumiy asoslari to'g'risidagi fan. Fizikada tadqiqotchi sezgilar vositasida anglab olish mumkin bo'lmagan obyektlarni tadqiq etsa, metafizika tadqiqot mavzusiga kirgan sifat, mazmun, hodisa va

boshqa obyektlar to'g'risida fikr yuritganda ularni bevosita ko'rib bo'lmaydi. Ular boshqa narsa va hodisalarning o'zaro aloqadorliklarida namoyon bo'ladi.

**Minoy sivilizatsiyasi** – mil. avv. III-II ming yilliklarda Minoy va mintaqaviy yunon madaniyati sintezi natijasida Janubiy Yunoniston (Miken shahri)da yuzaga kelgan madaniyat. Mil. avv. XVII asrdan boshlab Miken axeylar shaharlaridan birining poytaxtiga aylangan. Miken sivilizatsiyasining eng gullab-yashnagan davri mil. avv. XIV-XIII asrlarda kuzatiladi.

**Modernizm** (italyancha modernosmo - zamonaviy oqim, fran. modernisme, moderne so'zidan - eng yangi, zamonaviy) XIX asrning 50-60 yillarida Yevropa, AQSh adabiyoti va san'atida rivoj topgan oqim va yo'nalishlarning umumiy nomi. Modernizmga xos bo'lgan xususiyatlar: badiiy ijodning mumtoz an'analaridan voz kechish, ijodkor, o'z shaxsiy kechinma, taasurol va tasavvurlarini ustun qo'yish, badiiy shakllarni yangilash jarayoniga alohida e'tibor berish. Modernizm vakillari realizmga qarshi kurashdi, klassizmga xos bo'lgan ijodiy tamoyillarni inkor etishga intildi. Salbiy ma'noda esa modernizm - ijodda ijodiy uslublar mohiyati, badiiy asarlar mazmunining tez-tez o'zgarib turuvchi badiiy ehtiyoj va didlarga bo'ysunishi. Shu ma'noda (modaga bo'ysunadigan) modernizm haqiqiy novatorlik, yangilanish jarayoniga qarama-qarshi hisoblanadi.

**Nigilizm** (lot. nihil - hech narsa) - umumqabul qilingan qadriyat, ideal, axloqiy me'yor, madaniyat va boshq. inkor qilish. Jamiyat hayotining inqirozli davrlarida, ayniqsa, keng tarqaladi.

**Neopozitivistlar** (neo - yangi va lot. positivus- ijobiy) - XX asr falsafasidagi asosiy yo'nalishlardan biri vakillari. Pozitivizmning hozirgi zamon shakli. Bu yo'nalish vakillari falsafaning dunyoqarash masalalarini nazariy bilish vositasi sifatidagi imkoniyatlarini rad etib, fanni falsafaga qarshi qo'yadi. Bilimni (yoki ilmiy, falsafiy va og'zaki tilni) mantiqiy yoki lingvistik ishlab chiqishni maqsad qilib olgan.

**Oligarxiya** (yunon. oligarchia - ozchilik hokimiyati) - 1) davlat boshqaruv shakli; unda siyosiy va iqtisodiy hukmronlik aristokratlar yoki boylarning kichik guruhi tomonidan amalga oshiriladi; 2) hokimiyat ma'lum bir shaxslar guruhi qo'lida

bo'lgan siyosiy rejim. "Oligarxiya" atamasi dastlab yunon faylasuf, tarixchilari Arastu (Aristotel, Polibiy) asarlarida aristokratiya tugatilishi oqibatida vujudga keluvchi davlat tuzumi shaklini ifodalash uchun qo'llangan.

**Oxlokratiya** (qad. yunon. ochlos - avom, oddiy xalq va kratos - hokimiyat) - 1) qadimgi yunon davlatchilik ta'limotida - oddiy xalq, avom hokimiyati.

**Panteon** (yunon. pan - hamma, barcha va theos-xudo) - 1) bir xil sig'inish (kult)ga taalluqli xudolarning umumiy nomlanishi; 2) (lot.) barcha xudolarga bag'ishlangan joy; 3) Qadimgi Rimda "barcha xudolar ibodatxonasi"; 3) Atoqli, mashhur odamlar maqbarasi. Mas. Parij panteoni.

Varna - (sanskrit. "sifat, rang, toifa") - qadimgi Hind jamiyatining to'rtta asosiy ijtimoiy qatlamining belgilanishi: braxmanlar (ruhoniylar, olimlar, zohidlar); kshatriyalar (jangchilar, hukmdorlar); vayshilar (fermerlar, hunarmandlar, savdogarlar); shudralar (xizmatkorlar).

**Passionar** - (frans. passionner - qiziqmoq, nafs, o'chlikni alanga (avj) oldirish) 1) mashhurlik va shon-shuhratga intilish; 2) etnogenez nazariyasida odamlarning fyel-atvoridagi xos xususiyati. Inson va etnoslarning biologik ijtimoiy mohiyati haqidagi ta'limot asoschisi N.L.Gumilevga ko'ra etnogenezning nasldan-naslga o'tuvchi asosiy energetik belgisi passionarlik - biokimyoviy quvvat ortishi natijasida odamlardagi ong biologik qobiliyatlarning nihoyat darajada kuchayadi. Bunday jarayonlarning namoyon bo'lishi tarixiy taraqqiyotga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

**Provindensializm** (lot. providentia - oldindan ko'ra bilish, bashorat qilish) - insoniyat va butun borliqni xudoning irodasi tufayli deb ta'riflanadigan diniy tushuncha. Provindensializm barcha dunyo dinlariga - yahudiylik, xristianlik, islomga xos.

**Platonizm (neoplatonizm)** - mil. avv. 427-347-yillarda yashagan mashhur qadimgi yunon faylasufi Aflotun (Platon)ning dialoglarini sharhlashga qaratilgan ellinizm davri falsafiy yo'nalish. Unda ruhning abadiy (boqiy)ligi bilan bog'liq muammo muhim o'rin tutgan.

**Puritanlar** (ing. puritans, lot. Puritas – tozalik, soflik) – XVI asrda vujudga kelgan Angliya protestant sektasi vakillari hamda anglikanlikni katoliklik elementlaridan tozalash tarafdorlari. Ular cherkov urf-odatlarini soddalashtirish, diniy adabiyotlardan va'zxonlik maqsadida foydalanishni bekor qilish, cherkovni davlatdan ajratish, ruhoniylarni saylanishi, e'tiqod erkinligi, aristokratik imtiyozlarni bartaraf qilishni yoqlab chiqqan.

**Proteksionizm** (fransuzcha protectionisme lotincha protectio - panada saqlash, himoya qilish) – davlatning iqtisodiy siyosati bo'lib, mamlakatga kiritiladigan chet el tovarlariga yuqori boj solig'i o'rnatish, ayrim tovarlarni kiritishni cheklash yoki to'liq taqiqlash yo'li bilan milliy ishlab chiqarishni chet el raqobatidan himoya qilishga qaratilgan.

**Protestanlik** – (katoliklik va pravoslavlik bilan bir qatorda) xiristianlik dinining yirik yo'nalishlaridan biri. Bu yo'nalish dastlab 1529-yilda Germaniyada katoliklik cherkovining haddan oshishiga qarshi norozilik (akt)ni imzolanishi bilan vujudga kelgan. Uning asosiy aqidalari XVI asrning yirik teologlari M.Lyuter, J.Kalvin, U.Svigli qarashlarida o'z aksini topgan. Protentantlikning asosiy ta'limotiga ko'ra, Xudo bilan inson o'rtasidagi bevosita muloqot cherkovning aralashuvisiz hamda insonlarning o'z shaxsiy e'tiqodlari asosida shakllanadi.

**Postmodernizm** (fr. postmodernisme - modernizmdan keyingi) – XX asrning ikkinchi yarmida jahon ijtimoiy-madaniy hayotining bir-biriga o'xshash hodisalarini aks ettiruvchi tushuncha. Ko'pincha “modernizm o'rniga kelgan” ma'nosida ham ishlatiladi. Postmodernizmning tavsiflari ko'p, ammo mohiyati – yangi Yevropa ratsionalligi, ma'rifatparvarlik davridan kelgan uslublar madaniyatiga keskin salbiy munosabatdan iborat.

**Plyuralizm** (lot. pluralis - ko'plik) – jamiyat siyosiy tizimining xususiyati. Bunda ijtimoiy guruhlar o'z manfaatlarini o'z vakillari (siyosiy partiya, kasaba uyushmasi, diniy va boshqa tashkilotlar) orqali ifodalash uchun tashkiliy tartib-qoida tusini olgan imkoniyatlarga ega bo'ladilar. Masalan, 1) demokratiyalash jarayonida plyuralizm ijtimoiy guruhlarning turli-tuman manfaatlarini aks ettiruvchi har xil qarashlar, firqalar mavjudligini

anglatadi; 2) borliqni bir necha (yoki ko'plab) mustaqil ibtidosi yoki bilimning bir qancha asosi mavjud deb hisoblovchi falsafiy qarash; 3) Manfaatlar, g'oyalar, qarashlarning ko'pligini bildiradi.

**Reformatsiya** – XVI asrda G'arbiy va Markaziy Yevropaning ko'pgina mamlakatlarini qamrab olgan, katolik cherkovi va katolik e'tiqodiga qarshi diniy kurash shakli va feodallarga qarshi xarakterga ega bo'lgan ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy harakat.

**Renessans** – (frans. uyg'onish) o'rta asrlar sivilizatsiyasidan yangi davr sivilizatsiyasiga o'tish davrida G'arbiy va Markaziy Yevropa mamlakatlarining sivilizatsiyaviy rivojlanish davri. Italiyada XIV-XVI, boshqa mamlakatlarda esa XVI-XVII asrlarga to'g'ri keladi. Uyg'onish davri madaniyatining o'ziga xos jihatlari: dunyoviy, cherkov ta'sirini kuchaytirilishiga qarshi, gumanistik (insonparvarlik) dunyoqarash, antik davr madaniyatini uyg'ontirish uchun uning merosiga murojaat etish.

**Stoitsizm** (yunon. stoa – peshayvon, yunon falsafiy maktabi vakillari yig'ilish o'tkazadigan joy) mil.avv. 335-263-yillarda mil. avv. 300-yillarda Zenon tomonidan asos solingan ellinizm davridagi qadimgi yunon falsafa maktabi. Uning nomi Afinada joylashgan katta binoga tutashtirib solingan kolonnali peshayvon (stoa) nomidan olingan. Stoitsizmning har qanday sharoitlarda ham aql-idrok va ma'naviyat bilan yashashga da'vat etuvchi ma'naviy-axloqiy falsafasi so'nggi antik davr jamiyatiga katta ta'sir ko'rsatgan. Stoik falsafiy maktabi vakillari birinchi bo'lib falsafani fizika, etika, mantiqqa bo'lgan. Ular fizikada Geraklitning abadiy alangalanuvchi hamda so'nuvchi olov haqidagi ta'limotini qayta tikladi. Etikada burch tushunchasini ilgari surdilar. Ularning fikricha, inson butun bir borliqning tarkibiy qismi, uning hayoti taqdir yoxud zaruriy qonuniyat bilan belgilanadi va h.k.

**Sinergetika** (yunon. sinergeia – birgalik, birlashgan holda, hamkorlik, ko'maklashish, ishtirokchilik ma'nolarini beradi) – jamiyat hayotining barcha sohalarida insonlarning o'zaro munosabatlarining obyektiv jarayoni. 2) Bilishda fanlararo (umumiylilik) yondashuv uslubi. Sinergetika ochiq, ya'ni tashqi muhit bilan modda, energiya, axborot alamashinuvi tizimlarini o'rganadi.

**Sivilizatsiya** (lot. *civilis* – shaharlik, davlatniki, fuqarolik) – 1) yovvoyilik va varvarlikdan so‘ng keluvchi tarixiy jarayonning ma‘lum bir bosqichi (L.Morgan); 2) madaniyat so‘zining sinonimi; 3) jamiyat tarixiy rivojlanishi jarayonida erishgan moddiy va ma‘naviy yutuqlari yig‘indisi, u yoki bu jamiyat erishgan moddiy va madaniy rivojlanish darajasi, bosqichi, ma‘lum bir davr va xalqlar madaniyatining rivojlanish xususiyatlari (antik sivilizatsiya, zamonaviy sivilizatsiya va h.k.); 4) aql va adolatga asoslangan ideal jamiyat (fransuz ma‘rifatparvarlari) 5) o‘z qonuniyatlari asosida rivojlanib boruvchi yirik ijtimoiy-madaniy tizim va hokazo.

**Stoiklar** – Stoitsizm falsafiy maktabi vakillari.

**Sintoizm** – (yapon. “sinto”, so‘zma-so‘z “xudolar yo‘li”) Yaponiyada tabiatni va vafot etgan ajdodlarni ilohiylashtiruvchi va ibtidoiy kult (sig‘inish)lardan vujudga kelgan qadimiy din. Sintoizmga ko‘ra, inson vafot etgach, ma‘lum bir sharoitlarda kami bo‘lishi mumkin. Har bir odam kelib chiqishi sanoqsiz kamilardan birining ruhiga borib taqaladi.

**Skeptitsizm** (yunon. *skeptikos* - sinchliklab qaramoq, taftish qilish) – haqiqatning ishonchli kriteriyasining mavjudligini shubha bilan tavsiflovchi falsafiy yondashuv.

**Sofistika** (yunon. *sophos* - bilim, donolik, sopistike - hiylagarlik bilan munozara olib borish) – 1) Qadimgi Yunonistondagi falsafiy oqimlardan biri; 2) bahs va tortishuvni ustamonlik, aqli o‘tkirlik va quvlik bilan olib borish qobiliyati; 3) mantiq qonunlarini ataylab buzib, yolg‘on dalillarga asoslangan holda muhokama yuritish. Sofistika tashqi tomondan to‘g‘ri bo‘lib tuyuladigan, aslida esa mantiqiy xato mulohazalarga tayanadi.

**Syuzeren** (fr. *suzerain*) o‘rta asrlar Yevropasida yerning ma‘lum bir qismiga egalik huquqini qo‘lga kiritgan maydaroq feodallar yerlarini vassal ko‘rinishida boshqargan yirik yer egasi – feodal hukmdor tipi.

**Syogunlar** (xit. *Szyan*, ya‘ni *syo* – qo‘lda ushlab turmoq, boshqarmoq, *szyun*, ya‘ni “gun” – qo‘shin, armiya) – Yaponiya tarixida mamlakatni 1192-yildan to 1868-yil – Meydzi islohotiga qadar (Kiotodagi imperatorlik saroyidan farqli) boshqargan kishilar shunday nomlangan.

**Timokratiya** (yunon. timokratia. Tim – qiymat, baho, sharaf va kratos – kuch, hokimiyat) – 1) fuqarolari mulkiy holati va daromadiga bog‘liq holda siyosiy huquqlari bo‘yicha yoki taqsimlanuvchi yoki davlat hokimiyati ko‘p mulkka ega boylar qo‘lida bo‘lgan davlat tuzumi; 2) oligarxiyaning o‘ziga xos shakli. Masalan, mil. avv. VI asrdagi Afina Solon islohoti natijasida yoki Qadimgi Rimdagi Serviy Tulliy islohotidan so‘ng qaror topgan davlat tuzumi. Timokratiya atamasi Platonning “Davlat”, Arastu (Aristotel)ning “Axloq” (“Etika”) va boshqa asarlarda uchraydi.

**Tiraniya** (yunon. tyrania) – 1) shafqatsiz, zo‘ravonlik, zulm, o‘zboshimchalik va despotik boshqaruv; 2) Qadimgi Yunonistonda kuch bilan o‘rnatilgan va yagona hukmronlik o‘rnatilgan davlat hokimiyati shakli; 2) O‘rta asrlar davrida Italiyadagi bir qator shahar-davlatlari siyosiy tuzilmasi shakli;

**Xarizmatik** (yunon. charisma – muruvvat, ilohiy qobiliyat) – biror shaxsning boshqalarga nisbatan alohida xususiyatlarga egaligi (donoligi, qahramonligi, avliyoligi) va shu xususiyatlar yordamida xalqni boshqarishga haqli ekanligini ifodalaydigan tushuncha.

**Yevropatsentrizm** – Yevropa ma‘naviy jihatlariga ko‘ra, o‘ziga xos jahon madaniyati va sivilizatsiya sifatida ko‘ruvchi madaniy-falsafiy dunyoqarash. Qadimgi Yunoniston mavudligi davridayoq varvar va ellinlarni hamda yovvoyilik va sivilizatsiyaviylikni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish orqali Sharq va G‘arb o‘rtasida chegaralanish shakllangan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Uraikov D.J. Jahon sivilizatsiyalari tarixi. Uslubiy qoʻllanma. Toshkent, 2018. 126 bet.
2. Аскарлов А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент, 1977 г..
3. Аскарлов А.А. Била ли пиктографическая письменность в культуре Сапалли (находки, гипотези, предположения) / Согдийский сборник. ЛАП Ламберт Академис Публишинг, 2013 г. С.43-58.
4. Бартольд В. В. Ислам и культура мусулманства. – М.: Юрайт, 2018. 221 с.
5. Бачинин В. А. Культурология: энциклопедический словарь. СПб., 2005. С. 276-279.
6. Боқиев А., Шайдуллаев А., Йўлдошева З. Окс цивилизацияси. – Тошкент: Yangi nashr, 2015.176 б.;
7. Браг Р. Европа, Римский путь. М.,1995.
8. Бродель Ф. История материальной цивилизации. XV-XVIII вв. В 3-х тт. М., 1991-1993.
9. Бродель Ф. Материальная цивилизация, экономика и капитализм, XV-XVIII вв. Т. 1–3. (Перевод Л.Е. Куббел). –М., 2023. 2258 с.
10. Васильев Л. С. История Востока. М., 1994. Т.1–2.
11. Гвидо Мансуэлли. “Цивилизации Древней Европы”. Екатеринбург. 2001.
12. Гизо Ф. История цивилизации в Европе Перевод с франц. – М., 2007. 360 с
13. Григер М.В., Дусаева Э.М. История европейской цивилизации. – Казан, 2017.
14. Гране М. Китайская цивилизация. М., 2016.
15. Губман Б.Л. Цивилизация перед судом истории. Сборник. Санкт-Петербург, Прогресс, “Культура”, “Ювента”. 1996.
16. Делюмо Ж. Цивилизация Возрождений. М., 2008. 720 с.
17. Данилевский Н. Й. Россия и Европа (6-е издание). – Санкт-Петербург, М., 1995. 577 с.

18. Doniyorov A. X. – Sivilizatsiya tarixi o'quv-uslubiy majmua. T. 2013

19. Древние цивилизации. Под ред. Г. М. Бонгард-Левина. М. 2000.

20. Елисеев В., Елисеев Д. Японская цивилизация. Екатеринбург, 2006.

21. Жак ле Гофф. Цивилизация средневекового Запада. – Екатеринбург: У-Фактория, 2005. 400 с.

22. Кей Дж. История Индии. М., 2011.

23. История мировой культуры: учеб. пособие / под ред. Т. Ф. Кузнетсовой. М., 2003. С. 33-60.

24. История мировой культуры (мировой цивилизаций). 2-е доп. изд. : учеб. пособие. – Ростов на Дону., 2003. 275 с.

25. Коптев А. В. Античная цивилизаций. М., 2004.

26. Ле Гофф Ж. Цивилизация средневекового Запада. – М., 1992.

27. Малявин В. В. Китайская цивилизация. М., 2001.

28. Мисюров Н.Н. История западноевропейской литературы. Классицизм. Просвещение. Романтизм: учебное пособие - Издательство "ФЛИНТА" - 2017 - 48с.

29. Никитич Л. А. Культурология. М., 2008. С. 21-24, 121-145.

30. Островский А.В. История цивилизаций. Санкт-Петербург. 2000.

31. Семенникова Л. И. Цивилизации в истории человечества. Брянск, 1998. С. 17-24.

32. Сравнительное изучение цивилизаций: Хрестоматия. М., 2001.

33. Тойнби А. Постигание истории. М., 1991.

34. Тойнби А. "Древнейший Восток в свете новых раскопок" М., 1956.

35. Февр Л. Цивилизация: эволюция слова и группы идей // Февр Л. Бой за историю. М., 1991.

36. Фортунатов В. В. История мировых цивилизаций. СПб., 2011. С. 8-33.

37. Хрестоматия по культурологии: учеб. пособие / сост. А. И. Кравченко. – М.: Проспект, 2008. 384 с.

38. Фернан Бродель. Грамматика цивилизаций. – Москва: Весь мир, 2008.

39. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций (Перевод Т.А.Велимеев). М., 2022. 320 с.

40. Хрестоматия по культурологии: учеб. пособие / сост. А. И. Кравченко. М., 2008. С. 181-200.

41. Шоню П. Цивилизация классической Европы / Пер. с франц. и послесл. В. Бабинцева. Екатеринбург: У-Фактория; М.: АСТ, 2008.

42. Шоню П. Цивилизация Просвещения. М., 2008.

43. Шпенглер О. Закат Европы М., 1998.

44. Ясперс К. Смысл и назначение истории. М., 1991.

45. Яковец Ю.В. История цивилизаций. М., 1997.

46. Ясперс К. “Смысл и назначение истории”. М., 1991

#### **Xorijiy adabiyotlar:**

1. Бродель Ф. История материальной цивилизации. XV-XVIII вв. В 3-х тт. М., 1991-1993.

2. Avery P. The Cambridge History of Iran. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 871 p.

3. Allison S. (Ed.). History of Europe: Series A: Ancient. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 871 p.

4. Allison S. (Ed.). History of Europe: Series B: Middle ages. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1243 p.

5. Allison S. (Ed.). History of Europe: Series C: New Era. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1243 p.

6. Bayly S. The Cambridge History of India. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 1093 p.

7. Bose S. The New Cambridge History of Asia. – Cambridge: Cambridge University Press, 2 part. 2020. – 2062 p.

8. Brundage A. Going to the Sources: A Guide to Historical Research and Writing. – Oxford: John Wiley & Sons, 2017.

9. Burton A. (Ed.). History of the world from ancient to modern times: Europe. – Cambridge: Harvard University Press, 2019. – 1487 p.

10. Burton A. (Ed.). History of the world from ancient to modern times: Asia. – Cambridge: Harvard University Press, 2019. – 1241 p.

11. Burton A. (Ed.). History of the world from ancient to modern times: Africa. – Cambridge: Harvard University Press, 2019. – 903 p.

12. Burton A. (Ed.). History of the world from ancient to modern times: North and South America. – Cambridge: Harvard University Press, 2019. – 1084 p.

13. Bunch B., Hellemans A. The history of science and technology. – Boston – New York, 2004.

14. Collins R. The Arab Conquest of Spain, 710–797. – Oxford: Blackwell Publishing, 2018.

15. Fernand Braudel. A history of civilizations. Allen Lane the Penguin Press. 2007.

16. Grant E. A Source Book in Medieval Science. – Cambridge: Harvard University Press, 2016. – 587 p. (Reprint).

17. Haskins C. H. The Renaissance of the Twelfth Century. – Cambridge: Harvard University Press, 2018. (Reprint).

18. Haskins C. H. Studies in the History of Mediaeval Science. – New York: Frederick Ungar Publishing, 2019. (Reprint).

19. Huntington S.P. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. – New York: Simon and Schuster, 2017. – 358 p.

20. I. Shaw The Oxford History of Ancient Egypt. Oxford. 2003.

21. I.E.S. Edwards The Cambridge ancient history Part I. Cambridge. 2008.

22. I.E.S. Edwards The Cambridge ancient history Part II. Cambridge. 2008.

23. Roberts J.M., Westad O.A. The History of the World. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1260 p.

24. Roger B. Beck, Linda Black, Larry S. Krieger, Philip C. Naylor, Dahia Ibo Shabaka " World history: patterns of interaction". McDougle Little, USA, 2009

25. Sarton G. Introduction to the History of Science. – Vol. 1. From Homer to Omar Khayyam. – Oxford: John Wiley & Sons, 2019. (Reprint).

26. Sarton G. Introduction to the History of Science. – Vol. 2. From Rabbi ben Ezra to Roger Bacon, Parts I-II. – Baltimore: Carnegie Institution of Washington, 2020. (Reprint).

27. Starr F. Lost Enlightenment: Central Asia's Golden Age from the Arab Conquest to Tamerlane. – Princeton: Princeton University Press, 2015.

28. Simon Baker. Ancient Rome. The rise and fall of an empire. BBC Books; Reprint edition. 2007. P.

29. SUSAN WISE BAUER. The History of the ANCIENT WORLD. WW Norton, 2007.

30. The History of the Ancient World: From the Earliest Accounts to the Fall of Rome, Susan Wise Bauer, 2007

31. Victor Parker. A History of Greece, 1300 to 30 bc. WILEY Blackwell. 2014.

32. World history: patterns of interaction. McDougal Littell, USA, 2009.

## MUNDARIJA

1-MAVZU. "SIVILIZATSIYA" TUSHUNCHASI. UNING TA'RIFI VA O'ZIGA XOS SIFATLARI.....	4
2-MAVZU. QADIMGI MESOPOTOMIYA SIVILIZATSIYASI.....	23
3-MAVZU. QADIMGI MISR SIVILIZATSIYASI.....	36
4-MAVZU. QADIMGI KICHIK OSIYO VA SHARQIY O'RTA YER DENGIZ BO'YI SIVILIZATSIYALARI .....	55
5-MAVZU. QADIMGI KAVKAZORTI O'LKALARNING SIVILIZATSIYALARI.....	82
6-MAVZU. QADIMGI VA ILK O'RTA ASRDA ERON SIVILIZATSIYASI.....	91
7-MAVZU. QADIMGI XITOIY SIVILIZATSIYASI.....	107
8-MAVZU. HINDISTON SIVILIZATSIYASI.....	125
9-MAVZU. YAPON SIVILIZATSIYASI.....	138
10-MAVZU. QADIMGI YUNONISTON SIVILIZATSIYASI.....	154
11-MAVZU: QADIMGI RIM SIVILIZATSIYASI. ....	174
12-MAVZU. MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYASI .....	192
13-MAVZU. ISLOM SIVILIZATSIYASI .....	211
14-MAVZU. VIZANTIYA VA ROSSIYA SIVILIZATSIYASI .....	223
15-MAVZU. G'ARB SIVILIZATSIYASI.....	250
MAVZULAR YUZASIDAN TESTLAR.....	274
GLOSSARIY.....	298
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	308

D.J. Urakov, B.B. Xaynazarov, S.N. Madyarova

# JAHON SIVILIZATSIYALARI TARIXI

*Darslik*

*Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun*

**Toshkent - "NIF MSH" - 2024**

Muharrir: Bakirov N.

Bosishga 19.01.2024. da ruxsat etildi.  
Bichimi 60x90. "Cambria" garniturasi.  
Shartli bosma tabog'i 20. Nashr bosma tabog'i 19,75.  
Adadi 500 nusxa.

"METHODIST NASHRIYOTI" MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahri, Shota Rustaveli 2-vagon tor ko'chasi, 1-uy.

  +99893 552-11-21

*Nashriyot roziligisiz chop etish ta'qiqlanadi.*

ISBN 978-9910-785-26-9



9 789910 785269